

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVYERSITETI**

A.N. Kazakov A.A. Xudayberganov I.R.G'oziev

**GEODEZIYA
O'QUV QO'LLANMA**

Toshkent – 201_

Tuzuvchilar: A.N. Kazakov A.A.Xudayberganov I.R.G‘oziyev
«Geodeziya» O‘quv qo‘llanma., Toshkent, ToshDTU, 2019. 242 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada geodezik ishlarning quyidagi asosiy turlari: nivelirlash usullari, III va IV klass balandlik geodezik turlarni va 4 klass planli geodezik turlarni barpo qilish, ularga qo‘yiladigan talablar va o‘lchash uslubiyati, qo‘llaniladigan geodezik asboblar, tenglashtirish usullari, hamda yirik masshtabli plan olish usullar ishlarining nazariyasi va amaliyoti bayon etilgan.

O‘quv qo‘llanma “Geodeziya, kartografiya va kadastr” ta’lim yo‘nalishi mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, undan shu sohada ishlaydigan injener-texnik xodimlar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Nazarov B.R. – TAQI., “Geodeziya kadastr” kafedrasi dosenti,
Azimov B.G. – TDTU.,g. f. n., “Marksheyderlik ishi va geodeziya” dosenti.

KIRISH

Geodeziya fanini o‘rganish oddiydan murakkablikka prinsipiga amal qiladi. Umumiy geodezik ta’lim texnik, aniq va yuqori aniqlikdagi geodezik ishlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. «Geodeziya, kartografiya va kadastr» yo‘nalishi bo‘yicha o‘qiydigan talabalar birinchi ko‘rsda geodeziyaning birinchi qismi bo‘yicha dastlabki bilimlarini olish imkoniga ega bo‘ldilar. Bunda ular bu fanning quyidagi bo‘limlarini o‘rganishdi:

- geodeziya fanining maqsadi va vazifasi;
- topografik kartalarni o‘rganish;
- orientirlash burchaklari to‘g‘risida tushuncha;
- topografik kartada joyni tasvirlash;
- texnik geodezik asboblar va ular bilan ishslash;
- texnik nivelirlash va ular natijasini hisoblash;

Ushbu ko‘rs Geodeziya ko‘rsining davomi bo‘lib, 5311500 — «Geodeziya, kartografiya va kadastr» yo‘nalishi bo‘yicha o‘qiydigan ikkinchi kurs talabalari uchun mo‘ljallangan. Bu kurs bo‘yicha ular quyidagilarni o‘rganadilar:

- barometrik nivelirlash bo‘yicha umumiy tushuncha;
- III va IV klass nivelirlash ishlari, qo‘llaniladigan asboblar;
- III va IV klass nivelirlash yo‘li va to‘rlarini tenglashtirish masalasi;
- planli davlat tayanch to‘ri to‘g‘risida tushuncha;
- poligonometriya, loyihalash va joyda punktlarni o‘rnatish;
- poligonometrik burchak va tomon o‘lchash ishlari. Qo‘llaniladigan asboblar;
- poligonometriya punktlarini davlat tayanch punktlariga bog‘lash;
- poligonometriya yo‘llari va to‘rlarini tenglashtirish masalalari;
- yirik masshtabli topografik plan olishning kombinatsiyalashgan va stereotopografik usullari.

1-bob. Barometrik niveliplash.

1.1. Barometrik niveliplashning mohiyati va uni bajarish uchun qo'llaniladigan asboblar

Geodeziyaning birinchi qismini o'rganishda niveliplashning bir nechta to'ri bilan tanishgan edik:

- Geometrik niveliplash, ya'ni gorizontal nurga asoslangan niveliplash yordamida bajariladigan niveliplash.
- Trigonometrik niveliplash, u qiya nur yordamida bajariladi. Trigonometrik niveliplashni bajarishda vertikal doirali teodolit qo'llaniladi.

Bunday niveliplashlardan boshqa barometrik va gidrostatik niveliplash ham mavjud. Biz barometrik niveliplashga to'xtalib o'tamiz.

Barometrik niveliplash atmosfera bosimi xususiyatlari bilan bog'liq. Ma'lumki, er yuzasinig har-xil nuqtasida atmosfera bosimi har xil qiymatga ega bo'ladi. Chunki dengiz sathidan balandlikka ko'tarilishi bilan atmosfera bosimi kamaya boshlaydi.Qisqasi, biror nuqtaning dengiz sathidan balandligi bilan ushbu nuqta atmosfera bosimi orasida 'ro'ortsonal bog'liqlik mavjud.Ikki nuqtadagi atmosfera bosimini o'lchab, ularning nisbiy balandligini topish mumkin.Nisbiy balandlikni bunday aniqlash usuli barometrik niveliplash deyiladi. Barometrik niveliplashda nisbiy balandlikni aniqlash uchun atmosfera bosimini o'lchaydigan asboblar qo'llaniladi. Havo bosimini o'lchaydigan asboblarning bir nechta turlarini ko'rib o'tamiz.

Atmosfera bosimini o'lchash uchun quyidagi asboblardan foydalanish mumkin.

- 1) prujinali (metalli);
- 2) Suyuqli (simobli);
- 3) Gazli;
- 4) Termobarometr (Gipsotermometrlar);
- 5) Barograflar va boshqa asboblar.

Xozirgi vaqtda barometrik nivelerlash uchun asosan prujinali va qisman suyuqli (simobli) barometrlardan foydalaniladi. Gazli va Gipsotermometrli barometrlardan foydalanilmaydi. ‘rujinali barometrlarni aneroidlar deyiladi.

Simobli barometrlar.



*1. I-rasm. Simobli barometr:
a) idishli, b) sifonli.*

Simobli barometrlar idishli va sifonli bo‘ladi. Idishli barometrning tuzilishi 1-rasmida kursatilgan.


Bir uchi ‘ayvandlangan, kesimi 1 sm^2 , uzunligi 1m bo‘lgan shisha trubkani simob bilan to‘ldirib, ochiq uchini simobli idishga tushirsak, shisha trubkadagi simob ma’lum sathni egallagandan keyin simob idishga to‘kilmaydi (1a rasm). Shisha trubkaning yuqori qismida havosiz bo‘shliq paydo bo‘ladi. Idishdagি simobni havo bosadi va shisha idishdagи simobning idishga to‘qilishini to‘xtatadi. Simobli ustun paydo bo‘ladi. Atmosfera bosimining ko‘ayishi bilan simob ustuni ko‘tariladi, bosim kamayishi bilan simob ustuni tushadi.

Agar trubkaga shkala qilib chiqsak, unda ushbu shkala yordamida atmosfera bosimi qiymatini aniqlash mumkin. Binobarin, atmosfera bosimining kesimi 1 sm^2 bo‘lgan trubkadagi simob ustunining bosimi bilan aniqlanadi va millimetр simob ustuni (mm.sim.ust.) bilan ifodalanadi.

Sifonli barometr ham idishli barometr kabi ishlaydi (1b rasm). Simobli barometr meteostansiyalarda kuzatish uchun ishlatiladi, niveler ishlarida qo‘llanilmaydi.

Barometr - aneroid

Dala sharoitida ish uchun eng qulay *aneroid* deb ataladigan metall barometrlardir (2-rasm).



1.2-rasm. Metall barometr:
1. Metall quticha (havosiz). 2. Prujina. 3. Sterjen.
4. Richag. 5. Valik. 6. Strelka.

Aneroidning asosiy qismi havosi chiqarilgan metall qutichadir. Bu qutichaning qopqog'i g'ofrirlangan yuzadan iborat. Aneroid mexanizmi quyidagi tartibda harakatlanadi: atmosfera bosimining o'sishi bilan g'ofrirlangan qo'qoq qutichaning ichini egadi va 'rujina 2 ni o'ziga tortadi, 'rujinani 3 sterjen itaradi, richag 4 ni harakatga keltiradi. Richag 5 valikni aylantiradi va strelka 6 ni harakatga keltiradi.

Havo bosimining kamayishi bilan teskari hodisa ro'y beradi. Aneroidning kursatishi o'sha joyning atmosfera bosimiga mos kelishi kerak. Lekin bir necha sabablarga ko'ra aneroid sanog'i atmosfera bosimiga mos kelmaydi. Shuning uchun aneroid kursatkichi simob barometri kursatkichiga keltiriladi, ya'ni aneroid kursatkichiga tuzatma kiritiladi. Barometr aneroid bo'yicha bosimning absolyut qiymati P quyidagi formulada hisoblanadi:

$$P = A + \alpha + b t + \gamma \quad (1)$$

bu erda:

A — aneroid shkalasidan olingan sanoq,

α — shkala holatining tuzatmasi,

b — temperaturaning koeffitsiyenti,

t — aneroid temperaturasi,

γ — shkalaning bitta bo‘lagi uchun tuzatma.

Tuzatma a , b , γ qiymatlari aneroidni tayyorlashda aniqlanadi va uning pasportiga yoziladi. Vaqt o‘tishi bilan bu qiymatlar o‘zgaradi. Shuning uchun ular laboratoriya da doimiy aniqlanib to‘riladi. Barometr aneroid simob barometr kabi nuqtaning dengiz sathidan balandligi va kengligi uchun tuzatma kiritilishni talab qilmaydi. Lekin aneroid simobli barometr aniqligini bermaydi.

Mikrobaronivelir MBNP

Mikrobaronivelir atmosfera bosimini ikkita metali quticha yordamida o‘lchaydi. Sanoq maxsus okulyar mikrometr yordamida olinadi.

Mikrobaronivelir MBNP okulyar mikrometri «4» shtrix bo‘yicha keltirilgan sanoq S quyidagicha hisoblanadi

$$S = A + \frac{4.00-a}{K_B}. \quad (2)$$

bu yerda:

A - shtrix nomeri, o‘zgaruvchan shkaladan olingan sanoq.

a - shtrix nomeri, okulyar-mikrometri S (o‘zgarmas shkala) K baraban vinti bo‘yicha olingan sanoq.

K_B - okulyar-mikrometr va asbob shkala bo‘lagining o‘tish koeffitsiyenti.

Mikrobaronivelir *MBNP* da bosimning absolyut qiymati P quyidagicha aniqlanadi

$$P = P_o + \alpha_{75} S + \frac{\beta}{2} (S^2 - 150 S) - [K_t t + b \alpha_{75} (C - C_k)(t - t_o)] \quad (3)$$

bu yerda

P_o - doimiy qiymat

α_{75} - o‘rtacha diapazon (diapazon 150 bo‘lak) to‘g‘ri keladigan shkalaning bo‘lim qiymati

β - bo‘lim qiymatining gradienti


S - asbobdan sanoq

K_t - o‘rtacha sanoq C_k dagi temperatura koeffitsiyenti

t_o - α_{75} va β larni aniqlashdagi temperatura

t - C sanoq olingandagi asbob temperaturasi

$b = 0.0002$, aneroid bloki materialining termoelastiklik koeffitsiyenti.



1.3-rasm.


Harakatlanadigan shkala bo'yicha sanoq — 113,000

Harakatlanmaydigan shkala bo'yicha sanoq — 0,700

Mikrometr barabani bo'yicha sanoq — 0,012

Differensial barometr

Differensial barometr g'oyasi quyidagicha: Ballon Q egilgan trubka bilan kran t yordamida tashqi havo bilan ulangan (1.3-rasm). Agar asbobni A nuqtaga o'rnatib t kranni ochsak, manometrdagi suyuqlik sathi balandlikka ko'tariladi. Chunki manometr ikki tomonidagi havo bosimi bir xil bo'ladi. Agar kran t ni yopib, asbobni V nuqtaga o'tkazsak, havo bosimining o'zgarishi bilan manometrdagi suyuqlik sathi o'zgaradi. Manometrdagi suyuqlik farqi bo'yicha bu nuqtalar orasidagi nisbiy balandlikni topish mumkin.



1.4-rasm.

Gipsotermometr


Suvning qaynash temperaturasini o‘lchash yo‘li bilan atmosfera bosimini aniqlash uchun qo‘llaniladigan asbob *Gipsotermometr* deyiladi. Suvning qaynash temperaturasi atmosfera bosimiga bog‘liq. Atmosfera bosimining 1 mm. simob ustuniga o‘zgarishiga suvning qaynash temperaturasi $0^{\circ},0375$ C ga o‘zgarishi mos keladi. Suvning qaynash temperaturasining atmosfera bosimiga bog‘liqligi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$t = 100^{\circ} + 0,0375 (P - 760),$$

$$\text{Bu yerdan } P = 760 + \frac{t - 100}{0,0375} \quad (3) \text{ teng bo‘ladi.}$$

1.2. Qisqartirilgan barometrik formulalar

Barometrik formulalar to‘liq va qisqartirilgan bo‘ladi. Qisqartirilgan formulalarda bir qator faktorlar hisobga olinmaydi. Misol uchun, havoning namlik darajasi, kuzatish joyidagi kenglikka bog‘liq bo‘lgan tortish kuchining o‘zgarishi va nuqtaning dengiz sathidan balandli gining o‘zgarishi. To‘liq formulada bu faktorlar hisobga olinadi. M_1 va M_2 nuqtalarda atmosfera bosimi o‘lchangani (1.5-rasm). Belgilaymiz:



1.5-rasm

P_1 va P_2 — atmosfera bosimning o‘lchangani qiymatlari;

T_1 va T_2 — havoning temperaturasi;

H_1 va H_2 — M_1 va M_2 nuqtalarning dengiz sathidan balandligi.

Qisqartirilgan barometrik formulani chiqarish uchun ko‘ndalang kesimi 1 sm^2 havo ustunidan dH balandlikdagi oddiy qatlamni ajratamiz.

Bu qatlamning hajmi: $W = dH$.

Oddiy qatlamdagi havo og'irligi:

$$F = \Delta g dH.$$

Bu erda: Δ - havo zichligi, g - og'irlik kuchining tezlanishi.

Elementar qatlamdagi havo og'irligi - bu o'sha qatlamdagi havoning bosimdir.

Shuning uchun yozamiz:

$$dP = -\Delta g dH, \quad (4)$$

$$\text{Bizga ma'lum} \quad \Delta = \frac{P}{P_0} \Delta_0 \quad \frac{1}{1 + ET} \quad (5)$$

Bu yerda: Δ_0 - temperatura 0° , bosim P_0 xavo zichligi

P - T temperaturadagi xavo bosimi

$$\varepsilon - \text{xavoning kengayish koeffitsenti } \left(\frac{1}{273}\right)$$

Formulalar (3) va (4) asosida topamiz

$$dP = -\frac{P}{P_0} \Delta_0 \frac{1}{1 + ET} g dH$$

bundan

$$dH = -\frac{P_0}{\Delta_0 g} (1 + \varepsilon T) \frac{dP}{P} \quad (6)$$

Biz elementar xavo katlamidagi xavo bosimi bilan dengiz satxidan balandlik orasidagi boglilikni to'dik, endi yer satxidagi M1 va M2 nuqtalar orassidagi boglilikni topamiz. Buning uchun (3)

formulani integraymiz, bunda xavo temperaturasini doimi bir-xil deb hisoblaymiz.

$$\int_{H_1}^{H_2} dH = -\frac{P_0}{\Delta_0 g} (1 + \varepsilon T) \int_{P_1}^{P_2} \frac{dP}{P}.$$

Bu integralni yechib, topamiz

$$H_2 - H_1 = -\frac{P_0}{\Delta_0 g} (1 + \varepsilon T) (\ln P_2 - \ln P_1)$$

yoki

$$h = \frac{Po}{\Delta og} (1 + \varepsilon T) \ln \frac{P_1}{P_2}$$

O‘nli logarifmiga o‘tamiz

$$h = \frac{Po}{\Delta og \mu} (1 + \varepsilon T) \lg \frac{P_1}{P_2}$$

Belgilaymiz

$$\frac{Po}{\Delta og \mu} = H$$

unda

$$h = H(1 + \varepsilon T) \lg \frac{P_1}{P_2} \quad (7)$$

Bu formulani Pevsov formulasi deyiladi. $H = 18470$

Pevsov formulasi asosida boshqa qisqartirilgan formulani keltirib chiqarish mumkin.

Buning uchun $\lg \frac{P_1}{P_2}$ katorga yoyamiz

$$\lg \frac{1+x}{1-x} = 2\mu (x + \frac{x^3}{3} + \frac{x^5}{5} + \dots)$$

belgilaymiz:

$$x = \frac{P_1 - P_2}{P_1 + P_2}$$

unda

$$\lg \frac{P_1}{P_2} = 2\mu (\frac{P_1 - P_2}{P_1 + P_2} + \dots) \quad (8)$$

(4) va (5) formulalar asosida

$$h = N(I + \varepsilon T) 2\mu (\frac{P_1 - P_2}{P_1 + P_2})$$

Belgilaymiz $2\mu H = K$ ($\mu = 0,4343$) – natural logarifmdan o‘nli logarifmiga o‘tish moduli.

Unda

$$h = K(1 + \varepsilon T) \frac{P_1 - P_2}{P_1 + P_2} \quad (9)$$

Bu formulani Bobine formulasi deyiladi. $K = 16000$ teng.

To‘liq barometrik formula

U quyidagicha yoziladi:

$$h = N_o (1 + \varepsilon T) (1 + 0.377 \frac{C}{B}) (1 + 0.00265 \cos 2\varphi) (1 + \frac{2Hcp}{R}) \ell g \frac{P_1}{P_2}$$

bunda: $T = \frac{T_1 + T_2}{2}$ havo temperaturasining o‘rtacha qiymati;

$P = \frac{P_1 + P_2}{2}$ - asbob kursatkichining o‘rtacha qiymati.

C – suv bug‘i bosimining o‘rtacha qiymati;

φ – kuzatilayotgan nuqtaning o‘rtacha kengligi;

H_{o^r} - nuqtaning dengiz sathidan o‘rtacha balandligi;

R – Yerning o‘rtacha radiusi (6371 km);

$N_o = 18400$.

To‘liq barometrik formula geofizik tadqiqotlarda qo‘llaniladi.

Nisbiy balandlik 300 m dan katta bo‘lmaganda to‘liq va qisqa formular deyarli bir – xil natijani beradi.

1.3. Barometrik jadvallar

Qisqartirilgan barometrik formula asosida maxsus barometrik jadvallar tuzilgan.

pog‘onalar balandligi (stupeney visot) barometrik jadvallar

Bu jadvallar Babinning qisqartirilgan formulasi asosida tuzilgan.

Babin formulasini ushbu ko‘rinishda yozamiz:

$$h = \frac{K}{2P} (1 + \varepsilon T)(P_1 - P_2) \quad (10)$$

Quyidagicha belgilaymiz:

$$K \frac{1}{P} (1 + \varepsilon T) = \Delta N \quad (11)$$

$$\text{bu erda } P = \frac{P_1 + P_2}{2},$$

$$\text{unda } h = \Delta H(P_1 - P_2), \quad (12)$$

ΔH – barometrik pog‘onalar balandligi deyiladi. Agar $R_1 - R_2 = 1$ mm sim. ust. bo‘lsa, $h = \Delta H$ bo‘ladi. Binobarin, barometrik pog‘onalar balandligi atmosfera bosimi mm. sim. ust. ga farq qilgan ikki nuqta balandligi farqidir.

Barometrik pog‘ona balandligi o‘rtacha qiymati taxminan 11 metrga teng. (2) formuladan barometrik pog‘ona balandligi atmosfera bosimi P va temperaturaning T funksiyasi ekanligi ko‘rinadi.

Barometrik pog‘onalar balandligi jadvali

1.1-jadval

$T_{\text{y}}/P_{\text{y}}$	700	710
- 10	11.04	10.88
0	11.46	11.30
+9	11.84	11.67
+10	11.88	11.71

Atmosfera bosimining o‘rtacha qiymati bo‘yicha intepolyatsiya

(-)

1.2-jadval

ΔR	1	2	3
16	0.02	0.03	0.05
17	0.02	0.03	0.05
18	0.02	0.04	0.05

Havo temperaturasining o‘rtacha qiymati bo‘yicha intepolyatsiya

(+)

1.3-jadval

ΔT	0,1	0,2
3	0,00	0,01
4	0,00	0,01
5	0,00	0,01

M i s o l.

1 va 2 nuqtalarda atmosfera bosimi va havo temperaturasi o‘lchangan:

$$P_2 = 701,1 \text{ mm.sim. ust. } P_1 = 703,3 \text{ mm.sim. ust.}$$

$$T_2 = +8,6^\circ \text{C}, \quad T_1 = +9,8^\circ \text{C}.$$

Bu nuqtalar orasidagi nisbiy balandlikni toping.

P va T larning o‘rtacha qiyamatini topamiz:

$$P_{\text{o'r}} = \frac{P_1 + P_2}{2} = 702,2 \text{ mm. sim. ust.}$$

$$T_{\text{o'r}} = \frac{t_1 + t_2}{2} = +9,2^\circ \text{C}.$$

Atmosfera bosimi $R = 700 \text{ mm sim.ust.}$ va temperatura $T = +9^\circ \text{C}$ uchun $\Delta H = 11,84 \text{ m.}$

2 jadvaldan barometr kursatkichi $\Delta P = 2,2 \text{ mm.sim. ust.}$ uchun tuzatma $\delta_R = -0,03 \text{ m}$ ni topamiz.

3 jadvaldan 0,2 temperatura uchun $\delta_T = +0,01 \text{ m}$ tuzatmani topamiz.

Demak, barometrik pog‘ona balandligi:

$$\Delta N = 11,84 \text{ m} - 0,03 \text{ m} + 0,01 \text{ m} = 11,82 \text{ m.}$$

Barometr kursatkichlari farqini topamiz:

$$P_1 - P_2 = 701,1 - 703,3 = +2,2 \text{ mm sim.ust.}$$

Unda, (3) formulaga ko‘ra bu nuqtalar orasidagi nisbiy balandlik:

$$h = \Delta H (P_1 - P_2) = 11,82 (+2,2) = +26,00 \text{ m.}$$

Taxminiy altitude (balandlik) jadvali

Bu jadval Pevsov formulasini asosida tuzilgan. Pevsov formulasini ushbu ko‘rinishda yozamiz:

$$h = N(1 + \varepsilon T_0) \ell g \frac{760}{P} \quad (13)$$

Taxminiy balandlik jadvalini tuzish uchun dengiz sathida normal bosim 760 mm simob ustuni va $H = 0$ ekanligini e’tiborga olamiz. Havo temperaturasi $T = +15^\circ \text{S}$ deb qabul qilamiz. Chunki bu jadvalda berilganlar $T = 15^\circ \text{S}$ temperaturaga mos tushadi. Taxminiy altitud bo‘yicha olingan ($H_2 - H_1$) nisbiy balandlikka, temperatura uchun tuzatma kiritiladi.

Taxminiy altitude (balandlik) jadvali

1.4 jadval

R	0,0	0,1	0,2
680	941,3	940.0	938.7
681	928,8	927.5	926.3
682			

Temperatura uchun nisbiy balandlikka tuzatma topamiz

$$\delta h = 0,00348(H_2 - H_1)(T - T_o)$$

1.5 jadval

T _y p / H ₁	10	20	30
- 10	0.9	1.7	
- 9	-	-	
-	-	-	
0	0.5	1.0	
+13	0.1	0.1	
+ 14	0.0	0.1	
+15	0.0	0.0	

Misol. 1 va 2 nuqtalarda atmosfera bosimi $P_1 = 681.2$ mm. sm. ust. $P_2 = 680.0$ mm.sm.ust. va temperatura $T_1 = +13.6$ S, $T_2 = +13.2$ S o‘lchangan.

Nisbiy balandlik topilsin.

Taxminiy altituda jadvalidan o‘rtacha temperatura bo‘yicha H'_1 va H'_2 qiymatlarni topiladi.

$$H'_1 = 941.3\text{m}$$

$$H'_2 = 926.3\text{m}$$

Farqi $H'_{ 2 } - H'_{ 1 } = +15.0\text{m}.$

Bu qiymat bo‘yicha o‘rtacha temperaturaga tuzatma topiladi.

$$\delta T_{o'r} = -0.1. \text{ teng.}$$

Tuzatmani hisobga olib nisbiy balandlikni topiladi.

$$h = +15.0m - 0.1m = +14.9m.$$

Eslatma: Temperatura $+15^{\circ}S$ past bo'lsa tuzatma manfiy, Yuqori bo'lsa tuzatma musbat ishorada bo'ladi. Temperatura $+15^{\circ}S$ tuzatma no'lga teng

1.4. Barometrik nivelerlash usullari

Nuqta balandligini barometrik nivelerlash bilan aniqlash unchalik katta aniqlik talab qilmaydigan hollarda bajariladi. Aniq geodezik ishlarda masalan, tog'li rayonlarda triangulyatsiya va poligonometriya punktlarini rekognostsirovka qilishda va boshqa ishlarda barometrik nivelerlash yordamchi asbob sifatida qo'llaniladi.

Barometrik niveler bilan sharoit qiyin bo'lgan joylarda ish olib borish mumkin. Shuning uchun barometr xilma - xil eks'editsiyalarning (geografik, geofizik, geologik, tuproq-botaniq va boshq.) ajralmas qismi hisoblanadi.

Barometrik nivelerlashning juda ku' usullari bor. Ularni asosan ikkiga ajratish mumkin, marshrut bo'yicha va maydon bo'yicha nivelerlashlarga.

Marshrut bo'yicha nivelerlash

Bu usul bilan nivelerlashni bajarishda ikkita kom'lekt asbob talab qilinadi. Har bir kom'lektda uchta asbob aneroidlar, termometr va soat bo'ladi. A, B, D, \dots, K marshrutlar bo'yicha barometrik nivelerlash talab qilinsin.


Oxirgi A va K punktlarning absolyut balandligi Ma'lum. Ikki kuzatuvchi ishni A punktdan boshlaydi, har 15-20 minutda uch martadan sanoq oladi va aneroid hamda termometr kursatishini solishtiradi. Bitta guruhning aneroidlarining o'rtacha kursatkichi boshqa guruhnidan 0,2 mm dan katta bo'lmasligi kerak. Shundan keyin birinchi kuzatuvchi A punktda qoladi va har 20-30 minutda aneroid, termometr va soat bo'yicha sanoq oladi. Ikkinci kuzatuvchi marshrut bo'yicha yurib, joyning harakterli nuqtalarida (B, D, E, F) to'xtaydi, aneroid, termometr va soat bo'yicha sanoq oladi. Kuzatish natijalari barometrik nivelerlash jurnaliga yoziladi.

Marshrutning ma'lum qismi o'tgandan keyin kuzatuvchi, masalan, F punktda to'xtaydi. Birinchi kuzatuvchi A dan F ga o'tadi. F punktda ikki kuzatuchi asboblar

kursatishini solishtiradi. Shundan keyin birinchi kuzatuvchi marshrutni (E, F, I, J) bo‘yicha davom ettiradi, ikkinchi kuzatuvchi F punktda qoladi. Shunday usul bilan hamma marshrut oxirgi K punktgacha o‘tiladi.

Maydonni niveliplash

Uncha katta bo‘lmagan maydonni niveliplashda joyning o‘rtasidan asos qilib bitta O nuqta tanlanadi. Shundan keyin marshrutmarni o‘tkazish boshlanadi. Har bir marshrut O nuqtada uchrashadi. Niveliplash alohida marshrut bo‘yicha bajariladi. №1 marshrutni niveliplashdan keyin, qo‘shni bo‘lmagan № 2 marshrut niveliplashadi. Boshqa marshrutmalar ham xuddi shunday niveliplashadi. Ishni bunday tashqil qilish qator imkoniyatlar beradi:



1.6-rasm

- har bir marshrutning uchrashuvi nisbiy balandliklarda tekshirishni beradi;
- marshrutning radial qismi (OA, OB, OD) har xil vaqtda, har xil atmosfera sharoitida ikki martadan niveliplashadi.

Bu nisbiy balandlikni topishda aniqlikni oshirishga imkon beradi. Agar niveliplashadigan joy katta bo‘lmasa, bitta kuzatuvchi doimo O nuqtada turadi, ikkinchisi esa hamma marshrutmarni aylanib chiqadi.

1.5. Barometrik niveliplashda xatolar manbai.

Barometrik niveliplashda asosiy xatolar manbai quyidagilar:

1.Asboblar xatolari,

- 2.Shaxsiy xatolar,
- 3.Barometrik formulalar xatoligi,
- 4.Atmosferaning bir – xilda bo‘lmasligi,

Bu xatolar manbai uz navbatida quyidagi xatolardan kelib chiqadi,

Asbob xatolari:

- a)Asbob konstruktsiyasi elementlarini tayyorlash texnologiyasidan kelib chiqadigan;
- v)Asbob doimiy kursatgichlarini aniqlashda kelib chiqadigan;

Shaxsiy xatolar:

- a)Barometrdan sanoq olishda;
- v)Temperaturani o‘lchashda;

Barometrik formulalar xatoligi;

Barometrik formulalarni keltirib chiqarilgan har – xil taxminlar va ayrim faktorlarni hisobga olinmaganligi;

Atmosfera har doim bir – xil bo‘lmasligi uning o‘zgaruvchanligi.

1.6. Barometrik niveliirlash aniqligi.

Barometrik niveliirlash aniqligi hisoblash uchun barometrik niveliirlashda yuz beradigan xatolar manbai asosiy rol o‘ynaydi.

Xatolar manbaini quyidagicha belgilab olamiz:

Δ_f - barometrik formulalar xatoligi;

Δ_a - asbob va shaxsiy xatolar;

Δ_{at} - atmosferaning bir – xildaligimasligi xatoligi.

Nisbiy balandlik h aniqlash xamma xatolar manbai ta’sir etadi , shuning uchun quyidagi formulani yyechish mumkin

$$\Delta_h = \Delta_f + \Delta_a + \Delta_{at} \quad (14)$$

O‘rta kvadratik xatolikka o‘tamiz

$$m_h^2 = m_f^2 + m_a^2 + m_{at}^2 \quad (15)$$

Bobinning qisqartirilgan barometrik formulasini quyidagicha yozib olamiz

$$h = \frac{K}{2} (1 + \varepsilon t_{ur}) \frac{\Delta P}{P_{yp}} \quad (16)$$

Bu (3) formulani logorifmlaymiz, Differensiyalaymiz va
 $(1 + \varepsilon t_{o'r}) = 1$ teng deb, o'rta kvadratik xatolika o'tamiz.

$$m_h^2 = \left(\frac{h}{K} m_k \right)^2 + (h\varepsilon m_{t_{o'r}})^2 + \left(\frac{h}{\Delta P} m_{\Delta P} \right)^2 + \left(\frac{h}{P_{o'r}} m_{r_{o'r}} \right)^2 \quad (17)$$

Formula (17) nisbiy balandlikning o'rta kvadratik xatosi asbob, shaxsiy va barometrik formulalar xatolar asosida.

Barometrik nivelirlash aniqli quyidagi formulada hisoblanadi.

$$m_h^2 = \left(\frac{h}{K} m_k \right)^2 + (h\varepsilon m_{t_{ur}})^2 + \left(\frac{h}{\Delta P} m_{\Delta p} \right)^2 + \left(\frac{h}{P_{o'r}} m_{r_{o'r}} \right)^2 + \left(\frac{h}{\Delta P} Smg \right)^2 \quad (18)$$

bu yerda:

S - nuqtalar orasidagi masofa

mg - gorizontal barik gradientining o'rta kvadratik xatosi.

Misol: Agar $S = 5\text{km}$ $h = 115\text{m}$

$$\Delta P = 10 \text{ mm.sm. us.} \quad P_{o'r} = 740 \text{ mm.sm. us.} \quad t = +15^\circ\text{S}$$

$$m_{t_{o'r}} = \pm 0.5^\circ \quad m_k = 0.6 \text{ mm. sm. us.} \quad m_{\Delta P} = \pm 0.03 \text{ mm.sm.ust.}$$

$$m_{r_{o'r}} = \pm 0.5 \text{ mm.sm.ust.} \quad m_g = 0.004 \text{ mm.sm.ust.} \quad \text{deb olsak, unda}$$

$$\frac{h}{k} m_k = 0.04 \text{ m.} \quad h\varepsilon m_{t_{o'r}} = 0.21 \text{ m.} \quad \frac{h}{\Delta P} m_{\Delta P} = 0.34 \text{ m.}$$

$$\frac{h}{P_{o'r}} m_{\Delta p} = 0.08 \text{ m.} \quad \frac{h}{\Delta P} Smg = 0.23 \text{ m.} \quad m_h = 0.5 \text{ m.}$$

Shunday xulosa qilish mumkin, uncha katta bo'lмаган nisbiy balandlik va masofada barometrik nivelirlash aniqligi $m_h = 0.5 \text{ m.}$ o'rta kvadratik xatolik teng desak bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Barometrik nivelirlashning mohiyati qanday?
2. Barometrik nivelirlashda qo'llaniladigan asboblar?
3. Barometrik nivelirlashning aniqligi?

4. Barometrik nivelerlashning usullari ayting.

5. Barometrik nivelerlashda xatolar manbai.

2-bob. III va IV klass nivelerlash.

2.1 Davlat niveler to‘rlari haqida qisqacha ma’lumot.

Davlat niveler to‘ri topografik plan olish va xalq xo‘jaligi, davlat mudofaasi talablarini ta’minalash uchun bajariladigan geodezik o‘lchashlarning balandlik asosi hisoblanadi.

Davlat niveler to‘ri I, II, III va IV klass niveler to‘rlariga bo‘linadi. I va II klass niveler to‘rlari ilmiy masalalarni yechishda qo‘llaniladi: dengiz va okeanlarning sathini aniqlashda, materiklarning asriy ko‘tarilishi va cho‘kishini, yer qimirlashda uning vertikal siljishini aniqlash bilan shug‘ullanadi.

III va IV klass niveler to‘rlari topografik plan olish va har xil injener qidiruv-tadqiqot ishlari uchun balandlik asosi hisoblanadi. Davlat niveler to‘ri punktlari balandligi Boltiq dengizi sathiga nisbatan katta aniqlikda o‘lchanadi.

I va II klass niveler to‘ri iloji boricha temir yo‘l, shosse va katta daryo qirg‘oqlari bo‘ylab 3000-4000 km perimetrali yopiq poligon ko‘rinishida asosan temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari yoki darelar kirgoklari bo‘ylab o‘tkaziladi.

III va IV klass niveler to‘rlari yuqori klass (I va II klass) poligonlari ichida o‘tkaziladi. III klass nivelerlash poligoni ‘erimetri 150 km. dan, IV klass nivelerlash yo‘li uzunligi esa 50 km. dan oshmasligi kerak.

Hamma klass niveler yo‘llari joyda doimiy belgi bilan har 5 km. da reperlar bilan joyda maxkamlanib boriladi. Seysmoaktiv rayonlarda niveler reperlari orasidagi masofa 2-3 km. dan oshmasligi kerak.


Quyidagi niveler belgilari turlari joyda (erga ko‘miladi) mahkamlanadi: fundamental reperi, dala (gruntoviy) reperi, qoya (skalniy) reperi, devor(stenniy) reperi.

Nivelir belgilari va ularni mahkamlash


1-rasmida tuproq katlamining mavsumiy muzlashining janubiy zonasiga uchun III va IV klass niveliirlash dala (grunt) reperi keltirilgan.

Mavsumiy muzlaydigan janubiy zonada III va IV klass niveliirlash yo‘lidagi reper **pastki** plitasi tuproqning muzlash chuqurligidan **pastda**, lekin 1,3 m. dan kam bo‘lmagan chuqurlikdan o‘tishi kerak.

Reper markasining yuqori qismi va qorovul plita yer yuzidan 50 sm.ga chiqib to‘rishi kerak va shu bilan birga uni taniydigan (opaznovatelniy) belgi bo‘lib xizmat qiladi.




2.1-rasm



Qoya reperi

2.2-rasm



Devor reperi

2.3 - rasm

Tuproqning mavsumiy muzlaydigan qoya jinslarga qoya reperlari mahkamlanadi. Yerga 0,5 m.gacha ko‘milib turgan va erdan ancha chiqib turgan qoyaga sement qorishmasida, marka mahkamlanadi. Reper (marka)dan 1,0 m. masofaga 50x50 sm. metall plita payvand qilingan trubali tanish belgisi o‘rnataladi. Tanish belgi atrofiga 0,5 m. balandlikda toshdan o‘yib himoya qurilmasi barpo qilinadi.

Devor reperlari bino devorlariga yoki qoyaning vertikal sirtiga o‘rnataladi. Qorovul plita reperning yoniga yoki ustiga bino devoriga mahkamlanadi.

2.2. III va IV klass niveliplashda qo‘llaniladigan asboblar.

Nivelirlar klassifikasiyasi.

Nivelirlar aniqligi bo‘yicha uch guruxga bo‘linadi:

a) Yuqori aniq nivelirlar. (1km uzunlikdagi yo‘lni to‘g‘ri va teskari yo‘nalishda niveliplashda nisbiy balandlikni 0.5 mm o‘rta kvadratik xatolikda o‘lchaydi.)

b) Aniq nivelirlar. (1km uzunlikdagi yo‘lni to‘g‘ri va teskari yo‘nalishda niveliplashda nisbiy balandlikni 3 mm o‘rta kvadratik xatolikda o‘lchaydi.)

v) Texnikaviy nivelirlar. (1km uzunlikdagi yo‘lni to‘g‘ri va teskari yo‘nalishda niveliplashda nisbiy balandlikni 10 mm o‘rta kvadratik xatolikda o‘lchaydi.)

Yuqori aniq nivelirlar, I, II klass niveliplashda ishlatiladi.

Aniq nivelirlar, III va IV klass niveliplashda ishlatiladi.

Texnikaviy nivelirlar, texnik niveliplashda va har-xil injener-geodezik qidiruv ishlarida ishlatiladi.

Bu gruxlash bo‘yicha (GOST 10528-76) quyidagi nivelirlar ishlab chiqarilgan.

Yuqori aniq nivelirlar. N- 0,5

Aniq nivelirlar. N-3, N-3K, N-3KL

Texnikaviy nivelirlar, N-10, N-10K

Nivelir shifri yonidagi son 0.5, 3, 10 - 1km ikkilangan yo‘lni niveliplash aniqligini, harflar esa K - Kompensatorli, L - limqli ekanligini kursatadi.

Konstruksiyasiga ko‘ra nivelerlar vizir o‘qi, adilak yordamida gorizontal holga keltiriladigan (elivasion vint yordamida) va o‘zi o‘rnatiladigan (Kompensatorli) nivelerlarga bo‘linadi.

2.3. Aniq nivelerlarning qisqacha texnik harakteristikasi

O‘rta aniqlikdagi N-3 va N-3K nivelerlari quyidagi texnik harakteristikaga javob berishi kerak:

- 1) Nivelirdan reykagacha masofa 100 metr bo‘lganda, stansiyada nisbiy balandlikni 2 milimetrdan oshmagan o‘rta kvadratik xatolikda o‘lchashi kerak;
- 2) Nivelirning karash trubasining kattalashtirish darajasi 30^\times karradan kichik bo‘lmasligi kerak;
- 3) Vizirlashning eng kichik masofasi 2 millimetrdan katta bo‘lmasligi kerak;
- 4) Ipli dalnomerning koeffisenti $100\% \pm 1\%$ bo‘lishi kerak;
- 5) Adilakning bo‘lim qiymati 2 millimetrga:
 - urnatuvchi (doiraviy) adilakniki $10' \pm 2'$
 - ishchi (silindrik) adilakniki $15'' \pm 1.5''$
- 6) Nivelirning og‘irligi 3 kilogrammdan oshmasligi kerak;

Bundan tashqari III va IV klass nivelerlashda HC3, HC4, HB-1, va boshqa chet elda ishlab chiqarilgan nivelerlar ishlatalishi mumkin.

Shulardan ayrimlarining harakteristikasi.

2.1-jadval


niveler marka-lari	Kompen- satsiya cheki	dalno- mer koeffi- tsenti	karash truba kattalash- tirish darajasi	adilak bo‘lagi qiymati. 2mm		asbob ogir- ligi
				Silindrik	doiraviy	
H3	-	100	30^\times	$15''$	5^1	2.0
HC3	$\pm 10^1$	100	30^\times	-	5^1	2.5
HC4	$\pm 15^1$	100	30^\times	-	10^1	2.5
HB-1	-	100	31^\times	$17''-23''$	7^1-15^1	1.8

HC 3 va HC 4 nivelirlar qarash chizig‘ini o‘zi o‘rnatadigan nivelirlar to‘riga kiradi.

Aniq nivelirlar.

Nivelir N-3

III va IVklass nivelirlashda ko‘incha aniq N-3 va N-3K nivelirlar qo‘llaniladi. H-3 nivelirning umumiyligi ko‘rinishi 1-rasmida keltirilgan.




2.4-rasm. H3 nivelirning tuzilishi

- | | |
|--|-------------------------------|
| 1. ko‘targich vint | 8. dumaloq adilak |
| 2. taglik | 9. elevatsion vint |
| 3. okulyar | 10. nishon |
| 4. Iqlar to‘qli ‘lastinka | 11. kremalera |
| 5. silindrik adilak | 12. silindrik adilak g‘ilofi |
| 6. silindrik adilak tuzatgich vintlari | 13. yo‘naltirish vinti |
| 7. obektiv vinti | 14. dumaloq adilakni uzatgich |
| | 15. maxkamlagich vinti |

Nivelir o‘rnatgich vinti yordamida nivelir gorizontal holga chamalab keltirilgan shtativga o‘rnataladi. Truba ikki sozlovchi (ko‘targich) vintlarga ‘arallel qo‘yilib, avval ularni qarama-qarshi tomonga va keyin uchinchi vintni burash orqali doiraviy adilak pufakchasi doira o‘rtasiga keltiriladi. Bunda nivelir aylanish o‘qi taxminan tik holatda bo‘ladi. Truba reykaga qaratilib vint (6) da mahkamlanadi,

kremalg’era (5) vintini burash reykaning va okulyar g‘ilofini burash orqali Iplar to‘rining aniq tasvirlari hosil qilinadi. Nivelir ko‘rish trubasi (1) ning **chap** tomoniga asbob ko‘rish o‘qini gorizontal holga aniq keltirishda qo‘llaniladigan silindrik adilak joylashgan. Reyka tasvirini va pufakcha elevatsion vint (9) yordamida o‘rtaga keltirilayotgan **paytda** adilak tutashgan uchlarini kuzatuvchi ko‘rish maydonini ko‘radi va gorizontal Ip qarshisidagi reykadan sanoq oladi. H3 nivelirida sanoq olish 2-rasmda keltirilgan.




2.5-rasm. Trubaning ko‘rish maydoni va reykadan sanoq 1257

Nivelirlash reykalari, ularning tuzilishi.

Texnik nivelirlashda ikki tomonli yaxlit, uzunligi 3000 mm, qalinligi 2 - 3 sm, kengligi 8 - 10 sm bo‘lgan PH - 3 reykalari (2.6-rasm, a) va uzunligi 3000-4000 mm buklanadigan PH -10 reykalari qo‘llaniladi (2.6-rasm, b). Reyka egilmaydigan va chidamli bo‘lishi uchun qo‘shtavir kesimli qilinib, sifatli yog‘ochdan yasaladi va ikki uchida metall qo‘lanadi.

Reykalar bir tomonida santimetrlri bo‘laklar shkalasimon oq va qora, ikkinchi tomondagilari esa oq va qizil rang bilan bo‘yaladi. Shuning uchun reykaning qora rangli tomoni - qora tomon, qizil rangli tomoni - qizil tomon deb farqlanadi. Sanoq olish qulay bo‘lishi uchun har detsimetrlri bo‘lakning dastlabki beshta santimetrlri bo‘laklari «E» harfi ko‘rinishida birlashtiriladi.

Reykalarini qora tomonida sanoq, noldan (2.6-rasm, a), qizil tomonida esa ixtiyoriy sanoqdan, masalan, 4697 mm (2.6-rasm, b) dan boshlanadi. Natijada reykaning qora va qizil tomonlaridan olingan sanoqlar farqi doimiy son bo‘lib, nivelirlashni bekatda tekshirish uchun xizmat qiladi.



2.6-rasm. Nivelirlash reykalar: a, b, — ikki tomonli butun reyka;
v - ikki tomonli buklanadigan reyka

Sanoqlar reykaning quyi qismidan ortib boradi, raqamlar har detsimetrdan ag‘darilgan ko‘rinishda yoziladi, truba ko‘rish maydonida esa ularning tasviri to‘g‘ri bo‘ladi. Reykalarini tik holatga keltirish uchun ularga doiraviy adilak o‘rnataladi. Adilak bo‘lmagan taqdirda reykaga qaralganda u oldinga va orqaga asta-sekin og‘diriladi, eng kichik sanoq, reykaning vertikal holatiga tegishli bo‘ladi. Nivelirlash vaqtida reykalar yog‘och qoziqlarga, metall boshmoqlarga o‘rnataladi. Ishning bajarilishidan avval ‘o‘lat ruletka yordamida oldin reykaning metrli kesmalari, keyin detsimetrlı kesmalari tekshiriladi.

Detsimetrli bo‘laklar hatoligi 1 mm, reykaning hamma uzunligi xatoligi 2 mm dan oshmasligi kerak.

III va IV klass nivelirlash uchun santimetrli bo‘laklarga bo‘lingan ikki tomonli, uchmetrli reykalar ishlataladi. Reykaning qora tomoni noli reyka tagligi bilan to‘g‘ri keladi. Qizil tomonining tagligi sanog‘i 4685 , yoki 4785 mm.dan boshlanadi. (bu qiymatlar reyka pasportida kursatiladi.) Reykalar juftligi bir-biridan 100 mm.ga farq qiladi (masalan, bitta reykada sanoq 4686 bo‘lsa, ikkinchisida 4786 bo‘ladi).


Tog‘lik hududlarda shtrixli reykalar qo‘llaniladi.

Devor (stennoy) markalariga bog‘lash hollarida 1,2 m. uzunlikdagi osma reykalar ham qo‘llaniladi.

IV-klass nivelirlashlar uch metrlik shashkali reykalar yordamida bajariladi.

Nivelirlashda reykalar metall taglik (bashmak)ka qo‘yiladi.

Qarash chizig‘ini o‘zi o‘rnatadigan nivelirlarning ishlash prinsipi



Adilakli nivelirlarning asosiy kamchiligi - uni o‘rnatishda har doim pufakni nol punktga keltirishga to‘g‘ri keladi, bundan tashqari uning vaziyati o‘zgarmasligini doimo kuzatib to‘rish kerak. Bunday kamchilikdan vizir chizig‘ini istalgan holatga avtomatik o‘rnatadigan Kompensatorli nivelirlar holidir.

2.7-rasm. 1 - to‘rli harakatlanuvchi disk (Kompensator).

2 - po‘lat iplar. 3.Obektiv.

Bir necha xil Kompensatorlar mavjud. Ulardan eng oddysi harakatlanuvchi to‘rli Kompensator hisoblanadi. Unda obg‘ektiv fokus masofasiga teng bo‘lgan masofaga uchta ‘o‘lat simga to‘rli disk ilib qo‘yiladi. Truba egilganda to‘r o‘zgarmas holatni egallaydi.

2.4. Aniq nivelirlarni va nivelirlash reykalarini tekshirish va kuzatish.


Nivelirlarni tekshirish

Nivelir quyidagi geometrik shartlarga amal qilishi kerak:

1. Doiraviy adilak o‘qi nivelir aylanish o‘qiga ‘arallel bo‘lishi kerak.
2. Gorizontal to‘r Ipi nivelir aylanish o‘qiga ‘eR’endikulyar bo‘lishi kerak.
3. Silindrik adilak o‘qi, truba vizir o‘qiga ‘arallel bo‘lishi kerak (nivelir asosiy sharti).

1. Doiraviy adilak o‘qi nivelir aylanish o‘qiga ‘arallel bo‘lishi kerak. (1-rasm).

Ko‘targich vintlar orqali doiraviy adilak pufakchasi adilak qutisidagi doira markaziga keltiriladi va nivelir yuqori qismi 180^0 buraladi. pufakcha o‘rtada qolgan bo‘lsa, shart bajarilgan bo‘ladi, aks holda pufakcha og‘gan qismining yarmi markazga adilak tuzatkich vintlari bilan, qolgan yarmi ko‘targich vintlar bilan keltiriladi. Tekshirish nazorat uchun takrorlanadi.




2.8-rasm. Doiraviy adilakni tekshirish

- a) adilak pufakchasini 0 punktga keltirish
- b) asbobning yuqori qismini 180^0 ga burash

2. Iplar to‘rining gorizontal ipi nivelir aylanish o‘qiga perpendikulyar bo‘lishi kerak.

Iqlar to‘rining o‘rtadagi Ipi niveliidan 25-30 m naridagi yaqqol ko‘rinadigan nuqtaga yo‘naltiriladi va truba sekin-asta surilganda to‘r Ipi tanlangan nuqtadan tashqariga chiqmasa, shart bajarilgan bo‘ladi. Aks holda to‘rni truba koR’usi bilan mahkamlaydigan vinti bo‘shatilib, Iqlar to‘ri xalqasi buraladi.




2.9-rasm. Nivelirning tuzilish sxemasi va
uning asosiy geometrik o‘qlari

JJ-asbobning aylanish o‘qi;


VV-asbobning kyrish trubasining o‘qi;

UU-Silindrik adilak o‘qi;


U_kU_k-doiraviy adilak o‘qi.



a) asbobning asosiy
o‘qini burilishgacha
bo‘lgan holati




b) asbobning asosiy o‘qi
atrofida burilishdan
keyingi holati



v) to‘r g‘ilofining
burilishdan keyingi
holati

2.10-rasm. IPlar to‘rini tekshirish

3. Trubaning vizir o‘qi Silindrik adilak o‘qiga ‘arallel bo‘lishi kerak (VV//UU). asosiy sharti.



2.11-rasm. O‘qlar gorizontal holatda

1. Nivelir asosiy shartini tekshirishning birinchi usuli.

Nivelirning asosiy shartini tekshirish ikki marta niveliplash orqali bajariladi.


50-70 m. uzunlikdagi AB chiziqda ikkita qoziq qoqiladi (1-rasm).

Nivelir A nuqtadan 3-5 m masofaga AB chiziq stvori bo‘yicha S_1 stantsiyaga o‘rnataladi. A va B nuqtalarga reykalar o‘rnataladi. Reykadan a_1 va b_1 sanoqlar olinadi.

Keyinchalik nivelir B nuqtadan 3-5 m masofada va niveliiranadigan chiziqda joylashgan S_2 stantsiyaga o‘rnataladi. Reykalardan a_2 va b_2 sanoqlar olinadi. Olingan natijalar yordamida A va B nuqtalar orasidagi nisbiy balandlikni ikkimarta hisoblash mumkin:

Bu tenglikni yechib, reyka bo‘yicha sanoqdagi xatolikni topamiz:

$$x = (a_1 + a_2) - (b_1 + b_2) \quad \tau = \frac{x}{\ell} \rho'' \quad (19)$$



2.12-rasm

Agar x ning absolyut qiymati ± 4 mm dan oshmasa, nivelirning asosiy sharti bajarilgan hisoblanadi.

Teskari holatda adilak holati to‘g‘rilanishi kerak. Buning uchun elevattion vint yordamida reykada $b'_2 = b_2 \pm x/2$ sanoq o‘matiladi. Bunda adilak ‘ufagi joyidan ketib qoladi. Silindrik adilak to‘g‘rilash vintlari bilan pufak nol punktga keltiriladi. Tekshirish qayta bajariladi.

Bunday jarayon bitta usulni tashqil qiladi. Bunday usul asbob balandligini o‘zgartirgan holda to‘rt marta bajariladi.


2. Nivelir asosiy shartini tekshirishning ikkinchi usuli.



$$x = \frac{1}{2} (i_1 + i_2) - \frac{1}{2} (b_1 + b_2)$$

2.13-rasm

3. Nivelir bosh shartini tekshirishning uchinchi usuli



2.14-rasm

$$\left. \begin{array}{l} h_0 = a_1 - b_1 \\ h_x = a_2 - b_2 \\ x = h_x - h_0 \end{array} \right\} \quad (20)$$

H3, H3K nivelirlarini kuzatish.

Nivelirlarni kuzatish to‘liq va to‘liqmas bo‘ladi.

To‘liq kuzatish maxsus laboratoriyada o‘tkaziladi. Yangi zavoddan ishlab chiqarilgan nivelirlar yoki ka’ital tuzatishdan so‘ng to‘liq kuzatish bajariladi. Bu kuzatish maksadi, asbobdan o‘lchash ishlari bajarilganda qanday o‘zgarishlar yuz bergenini aniqlash.

To‘liqmas kuzatish dala o‘lchash ishlari boshlanishidan avval bajariladi. Bu kuzatuvga quyidagilar kiradi:

1. Karash trubasini kuzatish. (kurish maydonining burchagi, tasvirning sifati va kattalashtirish darajasi.)
2. Karash trubasining fokuslash linzasining harakatlanishi;
3. Karash trubasining ipli dalnomerining koeffitsenti;
4. Adilaklarning bo‘lim qiymatini aniqlash;
5. Kompensatorning ishslash diapozonini aniqlash.

1. Karash trubasini kuzatish, kurish maydonining burchagi, tasvirning sifatini va kattalashtirish darajasi.

a) Karash trubasini kattalashtirish darajasini hisoblash formulasи.

$$V = \frac{lS}{wt} \quad (21)$$

bu yerda: l - karash trubasida ko‘rinayotgan reyka bo‘lagining qiymati.

S - nivelirdan reykagacha bo‘lgan masofa.

t - reyka bo‘lim qiymati.

w - eng yaxshi ko‘rishning masofasi 25sm. teng.

Karash trubasini kattalashtirish darajasi quyidagi formulalarda aniqlanadi.

$$V = \frac{f_{o\bar{o}}}{f_{ok}} ; \quad \text{yoki} \quad V = \frac{D}{d} ; \quad \text{yoki} \quad V = \frac{N}{n}$$

bu yerda: $f_{o\delta}$ va f_{ok} - obg'ektiv va okulyarning fokus masofasi.

D - karash trubasida kurishning kirish diametri.

d - karash trubasida kurishning chikish diametri.

N - kuz bilan kurganda reykadagi bo'laklar soni.

n - karash trubasida kuringan reykadagi bo'laklar soni.

b) Karash trubasining kurish maydoni quyidagi formulada aniqlanadi.

$$\varepsilon = \frac{N\rho}{100S_0} \quad \text{yoki} \quad \varepsilon \approx \frac{38^0 2}{\rho}$$

bu yerda: N - trubaning kurish maydonida, kuringan reyka santimetr bo'laklarining soni;

S_0 - nivelirdan reykagacha bo'lgan masofa, metrda;

$\rho'' = 206265''$

2. Karash trubasining Ipli dal'nomerining koeffitsenti aniqlash;

Karash trubasining Ipli dalnomerining koeffitsenti quyidagi formulada aniqlanadi.

$$K = \frac{S - c}{l} \quad (22)$$


S - nivelirdan reykagacha bo'lgan masofa.

c - o'zgarmas qiymat (nivelir pasportidan olinadi)

l - yuqori va **pastki** dal'nomer Iplaridan olingan sanoqlar farqi.

4. Reyka bo'yicha adilak bo'lim qiymatini aniqlash

Nivelir va reyka 40-50 m masofaga o'rnatiladi. Masofa S lenta yoki ruletka bilan o'lchanadi. Ko'tarish vintlaridan bittasi qarash trubasining tagida joylashishi kerak.



2.15-rasm

Qarash trubasi reykaga qaratilib va adilak ‘ufagi nol punktdan utomonga yoki butomonga elevatsion vint yordamida siljtiladi va reyka bo‘yicha v_1 pufakning ikki chetidan a_1 va a_2 sanoq olinadi.

Keyinchalik pufak nol punktdan boshqa tomonga (ko‘tarish yoki elevatsion vint yordamida) siljtiladi. Reyka bo‘yicha b_2 sanog‘i, pufakning chetlari bo‘yicha a_3 va a_4 sanoqlari olinadi. Bu hammasi bitta usulni tashqil qiladi. Bo‘lak qiymati to‘rtta usulda aniqlanadi. Usullar orasida nivelir bilan reyka orasidagi masofa o‘zgartiriladi.

Kuzatish natijasini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. pufakning o‘rtacha holati hisoblanadi:

Ampula bo‘laklarida pufakning siljish uzunligi hisoblanadi:

$$(a_1 - a_2) - (a_4 - a_3)$$

Adilak bo‘lagi qiymati aniqlanadi

$$\tau'' = \frac{h\rho''}{nS} \quad (23)$$

bu yerda: n - pufak kanchaga o‘zgartirilganda, Ampula bo‘lim qiymatining soni.

h - reykadan olingan sanoqlar Farqi (pufakning ikki holatida)

S - nivelirdan reykagacha bo‘lgan masofa.

$$r = 206265''.$$

Misol. Nivelir H 3

2.2-jadval

№	pufak chetidan sanoq		$\frac{a_1 + a_2}{2}$	Reykag a- cha bo'lgan masofa S, m	Reykadan oligan sanoq, mm	τ	v	v^2
	a_1	a_2						
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	-8.0	+1.5	-3.2	21,2	1355	24.3	-0.5	0.25
	-2.0	+7.5	+2.8		1340			
	6.0	6.0	6.0		15			
2	0.0	+9.5	+4.8	24.0	1359	23.6	+0.2	0.04
	-4.0	+5.5	+0.8		1370			
	4.0	4.0	4.0		11			
3	-1.0	+8.5	+3.8	29.4	1388	24.6	-0.8	0.64
	-5.0	+4.5	-0.2		1402			
	4.0	4.0	4.0		14			
4	-7.0	+2.5	-2.25	31.4	1419	22.7	+1.1	1.21
	-1.5	+8.0	+3.25		1400			
	5.5	5.5	5.5		19			

$$\tau_{yp} = 23.8'' \quad 0 \quad 2.14$$

Aniqlik baholanadi.

Bitta o'lchashning o'rta kvadratik xatosi hisoblanadi:

$$m = \sqrt{\frac{[V^2]}{n-1}} \quad (24)$$

bu erda: V - adilak bo'lagi qiymatining o'rtacha qiymatidan farqi;

n - usullar soni.

O'rta arifmetik qiymatning

$$M = \frac{m}{\sqrt{n}} \quad (25)$$

$$m = \sqrt{\frac{[V^2]}{n-1}} = \sqrt{\frac{2.14}{3}} = \pm 0.84''$$

$$m_m = \frac{m}{\sqrt{2(n-1)}} = \frac{0.84}{\sqrt{6}} = \pm 0.34'$$

$$M = \frac{m}{\sqrt{n}} = \frac{0.84}{\sqrt{4}} = \pm 0.42''$$

$$m_M = \frac{m_m}{\sqrt{n}} = \frac{0.34}{\sqrt{4}} = \pm 0.17'$$

$$\tau = 23.8'' \pm 0.4'' (\pm 0.2'')$$

Misol. Nivelir H3 № 1740

2.3-jadval

№	Reyka bo'yicha sanoq				x(mm)	V	V ²
	a ₁	b ₁	a ₂	b ₂			
1	1549	1751	1530	1330	-1.0	-1.38	1.90
2	1517	1717	1569	1373	-2.0	0.38	0.14
3	1601	1808	1578	1377	-3.0	+0.62	0.38
4	1581	1784	1574	1378	-3.5	+1.12	1.25
				O'rta	-2.38	-0.02	3.67

Aniqlikni baholash.

Bitta o'lchashning o'rtakvadratik xatosi:

$$m = \sqrt{\frac{[V^2]}{n-1}} = \sqrt{\frac{3.67}{3}} = \pm 1.1 \text{ mm}$$


O'rta arifmetik qiymatning

$$M = \frac{m}{\sqrt{n}} = \frac{1.1}{\sqrt{4}} = \pm 0.6 \text{ mm}$$

Nivelir reykalarini tekshirish.

1. Reykaning egriligini aniqlash

Reyka yon boshiga gorizontal yotqiziladi va ikki uchidan Ip tortiladi.



2.16-rasm

Egilish o‘lchami chizg‘ich yordamida o‘lchanadi. Agar o‘lcham 10mm dan oshmasa, reyka ishga yaroqli hisoblanadi.

2.Reykadagi doiraviy adilakning o‘rnatilganligini tekshirish

Tekshirish shovun yordamida bajariladi. Buning uchun reyka shovun yordamida vertikal (tik) o‘rnatiladi va adilakning to‘g‘rilash vintlari yordamida pufak **Ampulan**ing markaziga keltiriladi. Bu tekshirish ninivelirning vertikal Iplari yordamida ham bajarish mumkin. Buning uchun reyka 50 m masofaga uning tekis tomoni, keyinchalik yon boshi bilan qo‘yiladi. Har doim adilakning to‘g‘rilash vinti bilan pufak **Ampulan**ing markaziga keltiriladi. Tekshirish bir necha marta qaytariladi.

Reykalarни tadqiq qilish.

Reyka detsimetrlar bo‘laklari xatosini aniqlash.

Tadqiqot kontrol metr lineykasi yordamida bajariladi. Detsimetrlar intervalning har bir bo‘lagini o‘lchash ikki martadan bajariladi. Qora tomon.

9-jadval

Detsimetrlar	Etalon lineykasi bo‘yicha sanoq, mm		Farq (2-1) (0,01 mm)	Sanoqlar o‘rtachasi, mm	Detsimetr bo‘lagining xatosi, mm	Detsimetr bo‘lagining tasodifiy xatosi, mm
	1-chi holat	2-chi holat				
0	0.00	18	+18	0.09		
1	99.76	100.00	+18	99.91	-0.18	-0.19
2	199.76	96	+20	199.86	-0.05	-0.06
3	300.00	10	+10	300.05	+0.19	+0.18
4	400.34	50	+16	400.42	+0.37	+0.36
5	499.98	500.08	+10	500.03	-0.39	-0.40
6	599.90	600.02	+12	599.96	-0.07	-0.08
7	699.94	700.14	+20	700.04	+0.08	+0.07
8	800.10	24	+14	800.17	+0.13	+0.12
9	899.94	900.08	+14	900.01	-0.16	-0.17
10	999.88	1000.00	+12	999.94	-0.07	-0.08
10	0.00	16	+16	0.08		
11	100.20	30	+10	100.25	+0.17	+0.16
12	200.34	46	+12	200.40	+0.15	+0.14
13	300.12	24	+12	300.18	-0.22	-0.23
14	399.90	400.00	+10	399.95	-0.23	-0.24
15	500.02	20	+18	500.11	+0.16	+0.15

16	599.88	600.00	+12	599.94	-0.17	-0.18
17	700.00	12	+12	700.06	+0.12	+0.11
18	800.12	26	+14	800.19	+0.13	+0.12
19	900.08	22	+14	900.15	-0.04	-0.05
20	1000.26	36	+10	1000.31	+0.16	+0.15
20	0.00	18	+18	0.09		
21	100.20	30	+10	100.25	+0.16	+0.15
22	199.96	200.10	+14	200.03	-0.22	-0.23
23	300.12	26	+14	300.19	+0.16	+0.15
24	400.04	16	+12	400.10	-0.09	-0.10
25	499.84	500.00	+16	499.92	-0.18	-0.19
26	599.76	96	+20	599.86	-0.06	-0.07
27	699.64	82	+18	699.75	-0.11	-0.12
28	800.02	20	+18	800.11	+0.36	+0.35
29	900.04	20	+16	900.12	-0.01	-0.02
30	1000.16	26	+10	1000.21	+0.09	+0.08
					+0.18	-0.12

Birinchi detsimetru bo‘lagi $99.91 - 0.09 = 99.82$ bo‘ladi,
uning xatosi -0.18mm . bo‘ladi.

Detsimetru bo‘lagining sistematik xatosi

$$\sigma = \frac{+0.18}{30} = +0.006\text{мм.} = +0.01\text{мм}$$

Reykani gorizontal holatda o‘rnatib, uning ustiga tekshirish lineykasini joylashtiriladi. Bunda lineyka noli reyka noli bilan ustma-ust tushishi kerak. Reykaning birinchi metrida sanoq detsimetru shtrixlari qarshisidan olinadi va ozgina siljilib sanoq olish qaytariladi.

Reykaning ikkinchi va uchinchi metrlarida o‘lchash shu tartibda bajariladi. Har bir metrdagi (2-1) farq qiymati $0,1\text{mm}$ dan katta bo‘lmashligi kerak.

Detsimetru bo‘laklari xatoliklari yig‘indisi topiladi. Yig‘indi o‘lchashda sistematik xatoning borligini kursatadi. Har bir farqqa sistematik xato ta’siri qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\sigma = \frac{\sigma}{n} \quad (26)$$

bu erda : d - detsimetru bo‘laklari (sistematik xato) xatoliklari yig‘indisi;
 n - o‘lchashlar soni.

Farqlardan sistematik xatoliklar qiymatini hisoblab, reykaning detsimetru bo‘laklari tasodifiy xatoligini topiladi. Reykalaring tasodifiy xatoliklari eng katta

qiymati ± 0.5 mm dan oshmasligi kerak. Reykaning qizil tomonini tadqiq qilish ham xuddi shunday tartibda bajariladi.

2. Reykalarning o‘rtacha bir metr uzunligini aniqlash

Aniqlash tekshirish metri, etalon lineyka yordamida bajariladi. Reykaning metrli oraliqlari ikki marta: oldin to‘g‘ri, keyin teskari yo‘nalishda o‘lchanadi. Har bir oraliqni ikkinchi o‘lchashdan oldin etalon lineyka ozgina siljitaladi.

Etalon: nzorat lineyka № 1262

Etalon lineyka tenglamasi $L = 1000 - 0,04 + 0,02 (t - 18,5^\circ)$ mm

Qora tomoni

2.4-jadval

Reyka bo‘lagi	Lineyka sanog‘i, mm			O‘rtacha (o‘- ch), mm	Lineyka uzunliga tuzatma,	Reyka bo‘lagining uzunligi,
	Chap (ch)	O‘ng (o‘)	O‘-CH			
1	2	3	4	5	6	7
		To‘g‘ri yo‘nalish, $t = + 21.5^\circ$				
1-10	0,10	900,67	900,57			
	0,26	900,82	900,56	900,56	+0,04	900,60
10-20	0,26	1000,72	1000,46			
	0,50	1001,00	1000,50	1000,48	+0,04	1000,52
20-29	0,18	900,20	900,02			
	0,38	900,10	900,00	900,01	+0,04	900,05
		Teskari yo‘nalish $t = + 21.5^\circ$				
29-20	0,16	900,16	900,00			
	0,60	900,64	900,04	900,02	+0,04	900,06
20-10	0,14	1000,56	1000,42			
	0,54	1000,96	1000,42	1000,42	+0,04	900,06
10-1	0,10	900,72	900,62			
	0,30	900,86	900,56	900,59	+0,04	900,63
	3,24	11207,41	11204,17	5602,08	+0,24	5602,32

Bir metr uzunlikdagi reyka $\ell_{\text{ueph.}} = \frac{5602,32}{5,6} = 1000,41 \text{ mm}$

Etalon lineykasining lu'asi birinchi va o'ninchidetsimetrlar ustiga o'rnatilib sanoq olinadi. Farq hisoblanadi. Lineyka ozgina siljilib, sanoq qayta olinadi. Farq hisoblanadi. Farqlar orasidagi qiymat 0,06 mm dan oshmasligi kerak. Ikkinci va uchinchi bo'lak ham xuddi shunday tartibda o'lchanadi. Teskari yo'nalishda havo harorati o'lchanadi va o'lchash teskari tartibda bajariladi. Lineyka tenglamalaridan foydalanib bir reyka metr uzunligiga tuzatma hisoblanadi:

$$a = -0,04 + 0,02 (21,5^\circ - 17,5^\circ) = +0,04 \text{ mm.}$$

Tuzatma kiritiladi va reyka bo'lagi uzunligining to'g'rilangan qiymati topiladi.

To'g'ri va teskari yo'nalish bo'yicha reyka uzunligi 2,8m, umumiy uzunligi 5,6 m ekanligini e'tiborga olsak, tadqiq qilinayotgan reyka bir metr uzunligining o'rtachasini topamiz:

SHu tartibdagagi ketma-ketlikda reykaning qizil tomoni ham tadqiq qilinadi va bir metrning o'rtacha uzunligi aniqlanadi.

Kom'lektga kiruvchi ikkinchi reyka bo'yicha ham shu o'lchash ishlari amalga oshiriladi.

Misol . Birinchi reyka:

- Qora tomoni 1000.09 mm.
- Qizil tomoni 1000.12 mm.

Ikkinci reyka:

- Qora tomoni 1000.03 mm.
- Qizil tomoni 1000.01 mm.

Juft reyka bir metrining o'rtacha uzunligi:

$$\underline{1000.09+1000.12+1000.03+1000.01}$$

Reykalarini tadqiq qilish dala ishlarigacha va dala ishlaridan keyin bajariladi. Juft reykalar metrining o'rtacha uzunligi uchun tuzatma sektsiyadagi o'lchangan nisbiy balandlikka kiritiladi va niveler jurnaliga yozib qo'yiladi.

Reykalarning metr va detsimetr oraliqlari tasodifiy xatoligi III klass niveliplash uchun $\pm 0,5$ mm dan, IV klass niveliplash uchun ± 1 mm dan oshmasligi kerak.

Mis o'1. 16 a'relda berilgan kom'lekt reykaning o'rtacha tuzatma koeffitsiyenti $a_1 \pm 0.06$ mm ga teng bo'ldi. 26 avgust dala ishlarining oxirida koffitsientning yangi qiymati $a_2 \pm 0.21$ mm olingan.

Sektsiyada nisbiy balandliklar yig'indisiga tuzatma qiymatini topish kerak.

$h_{\&ish} = + 46,374_7$ m, 19 va 20 maygacha o'lchangan.

Tuzatmalar aniqlash oralig'ida (16 a'rel -26 avgust) 133 kun o'tdi. 16 a'rel birinchi aniqlangan kundan 20 may sektsiyada o'lhash kunigacha 35 kun o'tdi.

2.5-jadval

Reyka bo'lagi	Lineyka sanog'i, mm			O'rtacha (o'-ch), mm	Lineyka uzunligiga tuzatma,	Reyka bo'lagining uzunligi,
	chap (ch)	o'ng (o')	o'-ch			
1	2	3	4	5	6	7
		To'g'ri yo'naliish, $t = + 21/5,8^\circ$				
1-10	0.44	900.62	900.18			
	0.48	900.68	900.20	900.19	-0.06	900.13
10-20	0.64	1000.24	1000.20	1000.22	-0.07	1000.15
	0.24	1000.48	1000.24	1000.22	-0.07	1000.15
20-29	0.16	900.18	900.02			
	0.38	900.38	900.00	900.01	-0.06	899.95
		Teskari yo'naliish $t = + 13,2^\circ$				
29-20	0.10	900.12	900.02			
	0.34	900.38	900.04	900.03	-0.06	899.97
20-10	0.56	1000.76	1000.20			
	0.48	1000.66	1000.18	1000.19	-0.07	1000.12
10-1	0.14	900.36	900.22			
	0.26	900.48	900.22	900.22	-0.06	900.16
	4.22	11205.94	11201.72	5600.86	-0.38	5600.48

Etalon lineykasining lu'asi birinchi va o'ninchidetsimetrlar ustiga o'rnatilib sanoq olinadi. Farq hisoblanadi. Lineyka ozgina siljilib, sanoq qayta olinadi. Farq hisoblanadi. Farqlar orasidagi qiymat 0,06 mm dan oshmasligi kerak. Ikkinci va uchinchi bo'lak ham xuddi shunday tartibda o'lchanadi. Teskari yo'naliishda havo harorati o'lchanadi va o'lhash teskari tartibda bajariladi. Lineyka tenglamalaridan foydalanib bir reyka metr uzunligiga tuzatma hisoblanadi:

$$a = -0,01 + 0,019 (13^\circ - 16^\circ) = -0,07 \text{ mm.}$$

9m. ga tuzatma topiladi:

1 m. da 0,07 mm

9 m.da — x mm

$$x = 0,9 x(-0,07) : \quad 1 \text{ m} = -0,06 \text{ mm.}$$

Tuzatma kiritiladi va reyka bo‘lagi uzunligining to‘g‘rilangan qiymati topiladi.

To‘g‘ri va teskari yo‘nalish bo‘yicha reyka uzunligi 2,8m, umumiy uzunligi 5,6 m ekanligini e’tiborga olsak, tadqiq qilinayotgan reyka bir metr uzunligining o‘rtachasini topamiz:

Shu tartibdagagi ketma-ketlikda reykaning qizil tomoni ham tadqiq qilinadi va bir metrning o‘rtacha uzunligi aniqlanadi.

Komplektga kiruvchi ikkinchi reyka bo‘yicha ham shu o‘lchash ishlari amalga oshiriladi.

Misol . Birinchi reyka:

- Qora tomoni 1000.09 mm.
- Qizil tomoni 1000.12 mm.

Ikkinci reyka:

- Qora tomoni 1000.03 mm.
- Qizil tomoni 1000.01 mm.

Juft reyka bir metrinining o‘rtacha uzunligi:

$$\frac{1000.09+1000.12+1000.03+1000.01}{4} = 1000.06 \text{ mm.}$$

Reykalarni tadqiq qilish dala ishlarigacha va dala ishlaridan keyin bajariladi. Juft reykalar metrinining o‘rtacha uzunligi uchun tuzatma sektsiyadagi o‘lchangan nisbiy balandlikka kiritiladi va niveler jurnaliga yozib qo‘yiladi.

Reykalarning metr va detsimetr oraliqlari tasodifiy xatoligi III klass niveliplash uchun ± 0.5 mm dan, IV klass niveliplash uchun ± 1 mm dan oshmasligi kerak.

Mis o'l. 16 a'relda berilgan kom'lekt reykaning o'rtacha tuzatma koeffitsiyenti $a_1 \pm 0.06$ mm ga teng bo'ldi. 26 avgust dala ishlarining oxirida koffitsientning yangi qiymati $a_2 \pm 0.21$ mm olingan.

Sektsiyada nisbiy balandliklar yig'indisiga tuzatma qiymatini topish kerak.

$h_{ish} = + 46,374$ m, 19 va 20 maygacha o'lchangan.

Tuzatmalar aniqlash oralig'ida (16 a'rel -26 avgust) 133 kun o'tdi. 16 a'rel birinchi aniqlangan kundan 20 may sektsiyada o'lhash kunigacha 35 kun o'tdi.

3. Reykaning boshlanish (no'1) qiymatini aniqlash.

Nazorat savollari:

1. Nivelirlar klassifikatsiyasi qanday.
2. N3, N3K nivelirlari.
3. Nivelirlash reykalari.
4. Nivelirlarni tekshirish va kuzatish.

2.5. Lazerli nivelirlar

Lazerli nivelirlar zamonaviy asboblar to'riga kiradi. O'lhash ishlarini yuqori aniqlikda olib borish va uni ishlatishda soddaligi lazerli nivelirning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Asbobning "qo'l bilan to'g'rilovchi", "gorizontal" va "to'liq avtomatlashtirilgan" turlari mavjud. Ushbu turlarining ko'rinishi 13.6-rasmda berilgan.



2.17-rasm. Lazerli nivelirlar: (chapdan o'nga) LEICA Lino L2 - qo'l bilan

to‘g‘rilovchi, geo-Fennel FL 100 HA - gorizontal va geo-Fennel FL 200A-H -
to‘liq avtomatlashtirilgan turlari

Qo‘l bilan to‘g‘rilovchi lazerli nivelerlarda nazorat Kompensatorda joylashgan “puffakcha” sathi yordamida olib boriladi, belgilashlar gorizontal va vertikal tekisliklar bo‘yicha bajariladi.

Gorizontal to‘riga kiruvchi yarimavtomat (o‘z-o‘zidan to‘g‘rilovchi) nivelerlar yer uchastkalarining planirovka qilishda qo‘llaniladi va nazorat yuqoridagi kabi Kompensatordagи “puffakcha” ning sathi bo‘yicha amalga oshiriladi.

To‘liq avtomatlashtirilgan nivelerlar “zangori rang lazerli” modellari gorizontal va vertikal tekisliklarni bar’o etishda qo‘llaniladi. Og‘ir elevatsion shtativlar va egiladigan mahkamlovchilarni qo‘llanishi o‘lchash ishlari doirasini kengaytirishga imkon yaratadi.

Bayon etilgan lazerli nivelerlarning o‘lchash masofalari va o‘lchash aniqligining kursatkichlari mos ravishda quyidagicha: LEICA Lino L2 da 20m va 0,2mm, geo-Fennel FL 100 HA da 600m va 1mm/10m va 200m va 1,5mm/10m.

2.6.Elektron nivelerlar va ularning turlari

Avtomat niveler HA 2000 da "Wild" (Shveytsariya) reykadagi sanoq maxsus kodirovka (bar-kod) orqali 4 sek davomida olinadi. 1 km dagi xato 1,3mm ni tashqil etadi. Nivelirlash unum dorligi 2 barobar oshadi. Kichik avtobusga o‘rnatilgan inersional to‘osistema "SAGEM" ni Fransiya firmalaridan biri ishlab chiqargan. Bu sistema bilan joydagi nuqtalarning 3 ta koordinatalari 10 km gacha 10 sm, 20 km gacha 20 sm va 30 km gacha 30 sm aniqlikda tasvirlov bajariladi. Bu sistemada blok’latforma, 3 ta akselerometr, 2 ta giroskop, boshqaruv bloki, indikator, kompyuter, ‘rinter va elektron taxeometrlar o‘rnatilgan.

Elektron niveler (chet el davlatlarida “raqamli” termini yuritiladi) yuqori texnologik jihozlar turkumiga kiradi va o‘lchashlarini qisqartirishga, hamda avtomatlashtirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, nivelerning afzalligi shundaki, o‘lchashlarda sanoq olish shtrix kodga ega bo‘lgan reykalardan avtomatik ravishda qayd etilishi va uning aniqligi kuzatuvchiga, hamda atrof muhitga bog‘lik emasligidadir. Natija reykaga vizirlash va tugmachani bosib olinadi. O‘lchashlarni

xotirada saqlash, nisbiy balandlik va balandliklarni hisoblashlar nivelirda joylashtirilgan ‘rotsessorda bajariladi, ular raqamlar ko‘rinishida hosil qilinadi. Olingan ma’lumotlari fayl ko‘rinishida saqlanishi, uni istagan vaqtida ekranda hosil qilinishi yoki qayta ishlash uchun kompyuterga uzatilishi asbobni yuqori samarali ekanligidan dalolat beradi.



2.18–rasm. Elektron nivelir NA 2000 da "Wild" (Shveytsariya)

Nivelirning konstruktiv o‘zining xususiyatlari: zorbalarga mustahkamligi, kor’usi chang va namlikni o‘tkazmasligi bilan ajralib turadi. Ko‘rish trubasi to‘g‘ri tasvir hosil qiladi va uning kattalashtirish darajasi turli modellarida 20^x dan 50^x gacha o‘zgarishi mumkin. Bunda asbobning ko‘rish trubasining kattalashtirish darajasi ortishi bilan o‘lchash aniqligi ham ortib boradi. Turli davlatlarda ishlab chiqarilgan turli model elektron nivelirlarning ko‘rinishi ularning ayrim texnik kursatkichlari haqidagi ma’lumotlar 2.6-jadvalda kursatib o‘tilgan.

2.6- jadval

Elektron nivelirlarning turlari va ayrim texnik kursatkichlari


Nivelir turlari	Ko‘rinishi	Ishlab chiqilgan davlat	O‘lchash aniqligi	O‘lchash masofasi	Ko‘rish trubasining kattalashtiri sh darajasi
<u>SOKKIA</u> <u>SDL50</u>		Yaponiya	0,8 mm	1,6–100 m	28x Og‘irligi 2,4 kg

<u>To'con DL-101S</u>		Yaponiya	0,4 mm	2 – 100 m	32x Og'irligi 2,8 kg
<u>Trimble DiNi 07</u>		AQSh	0,7 mm	1,5 – 100 m	26x Og'irligi 3,5 kg
<u>Leica DNA03</u>		Shvetsariya	0,3 mm	1,8 – 110 m	24x Og'irligi 2,85 kg


2.7. Elektron nivelirlar bilan ishlash

Elektron nivelir bilan o'lhash ishlarni bajarishni, turli xil nivelirlardagi o'lhash ishlari bir-biriga yaqinligini hisobga olgan holda, elektron nivelir *SHRINTER 100M* misolida bayon etamiz.

Elektron nivelir SHRINTER100M ko'rinishi va qismlarining nomi (13.8-rasm), ishlash 'rinsipi (13.9-rasm), nivelir anjomlarining nomlari va ularning konteynerda joylashishi (13.10-rasm) keltirilgan.




2.19-rasm. SHRINTER 100M elektron nivelirining ko'rinishi va tugmalarini funksional vazifalari: *a*) aniq mo'ljalga oluvchi vint; *b*) batareyka o'rnatiladigan joy; *c*) doiraviy adilak; *d*) vizir; *e*) fokisurovka vinti; *f*) qo'l tutqichi; *g*) okulyar; *h*) ekran; *i*) tregger; *j*) o'rnatuvchi vint



2.20-rasm. Elektron nivelerining tuzilishi: 1- geodezik reyka; 2 - obyektiv; 3 - fokuslovchi linza; 4 - yarim tiniq ko‘zgu; 5 - analizator; 6-dis’ley; 7 - Iplar to‘ri; 8 - okulyar; 9 - kuzatuvchi

Elektron niveler anjomlari quyidagilar: batareyka (4 ta), doiraviy adilak, qo‘llanma CD-ROM, remen, nurdan himoya qiluvchi moslama (o’siya), ‘erexodnikdan iborat. Ularning konteynerda joylashishi 13.10-rasmda kursatilgan.

Nivelir majmuasi: shtativ, alyumin reyka, yomg‘irdan va quyosh nurlaridan saqlovchi moslama, energiya bloki (4 ta AA batareyka, 4 ta akkumulyator va to‘yintiruvchi moslama), uzatuvchi/ma’lumotlarni qayd etuvchi tashqi moslama, kompyuter kabeli, ta’minotli dastur (Leyca Survey Jffice) va foydalanuvchilar, hamda ishlatish bo‘yicha qisqacha qo‘llanmalar bilan ta’milangan.




2.21-rasm. Elektron niveler anjomlarini konteynerda joylashishi:
 a) ShRINTER; b) batareyka (4 ta); c) doiraviy adilak; d) qo‘llanma CD-ROM; e) remen; f) nurdan himoya qiluvchi moslama (o’siya);
 g) perexodnik; h) shayin

Asbobni o‘lchash ishlariga tayyorlash. Asbobni o‘lchash ishlariga tayyorlash asbobga batareyka o‘rnatilgandan so‘ng (2.22-rasm) quyidagi tartibda amalga

oshiriladi:


- kuzatuvchi shtativ oyoqlarini o‘ziga moslab olgan holda, shtativning maydon yuzasini taxminan gorizontal etib oyoqlari yerga qotiriladi;



2.22-rasm. Nivelirga batareya
o‘rnatish ketma-ketligining
ko‘rinishi




2.23-rasm. Doiraviy adilakni no‘l
punktga keltirish chizmasi




2.24-rasm. Okulyarning Iplar to‘rini tiniqlashtirish

- shtativga asbobning tagligi qattiq biriktirilib, uchta ko‘targich vintlar yordamida doiraviy adilakning “**puffakchasi**” no‘l punktga keltiriladi. Bunda doiraviy adilakni o‘qi A va B ko‘targich vintlariga ‘er’endikulyar qilib olinadi (2.23-rasm) va vintlar markazga qarama-qarshi tomonga burab, “**puffakcha**” no‘l punktga keltiriladi. So‘ngra C vint buralib, “**puffakchani**” markazga siljitaladi;
- okulyarni ko‘rish trubasini yorug‘ fonga (oq qog‘oz qo‘ysa ham bo‘ladi) qaratib (2.24-rasm), okulyar Iplar to‘ri aniq tasvir hosil qilgunga qadar buraladi;
- obyektiv vizir yordamida reykaga qaratiladi va fokuslovchi vint orqali reykaning aniq tasviri ‘aydo qilinadi (2.24-rasm);
- asbobni rasmda kursatilgan tugmachasi bosilib yoqilish orqali o‘lchash ishlariga taxt qilinadi (2.25-rasm).



2.25-rasm. Obektivda reykani aniq tasvirining chizmasi



2.26-rasm. Asbobning yoqib-o‘chirish tugmachasi


Quyida asbobning ekrani, undagi ko‘rinadigan yozuvlarining manosi va asbobning o‘lhashdaga foydalanaladigan tugmachalari haqida to‘xtab o‘tamiz.

Ekranni dastlabki ish jarayonidagi ko‘rinishi (2.7.7-rasm, chapda), asbobning tugmachalarini joylashuvi (2.7.8-rasm, o‘ngda) kursatilgan. O‘lhash jarayonidagi vazifalari (ularning ikki bosqichda olib borilishini eslatib o‘tamiz) va ularning tartibini 13.4-jadval ma’lumotlaridan tanishish mumkin.

Belgilarni sozlash va sonli qiymatlarni kiritish. Reduced level (RL) 0 ~ 9, oralig‘idagi o‘nta sonli raqamli kiritmani o‘z ichiga oladi. Unda ajratuvchi Ft in 1/8 inchi, "+" va "-" ishorali belgilar mavjud. Nuqtaning tartib raqami (ptID) harfli (a ~ z gacha) – raqamli (0 ~ 9) oralig‘ida bo‘ladi.

Nivelirning o‘lhashlarda foydalilanadigan tugmachalari ularning ko‘rinishi (simvoli) va vazifalari

Rasmdagi ketma-ketlik	Tugmacha (yozuvi)	Ko‘rinishi	Birlamchi bosqichdagi vazifasi	Ikkinci bosqichdagi vazifasi
a)	On/Off	⊕	Yoqish, o‘chirish	
b)	MEAS	●	O‘lchash ishlarini boshlash	Tugmachani 2sek bosib to‘rish orqali o‘lchashlarni davom ettirish
c)	Height / Distance	▲	Balandlik yoki masofani tanlash	MENUda kursor yuqorida
d)	dH	▼	Nisbiy balandlikni hisoblash va dastlabki balandlikni hisoblash RL	MENUda kursor pastda
e)	MENU	◀ MENU	Aktivlash va nastroyka qilish	MENUda nishonni tasdiqlash
f)	Backlight	✖	Dis’leyni yoritish LCD	MENUda dasto‘rni yoki nastroykani tugallash (tugmachasi ESC)




2.27-rasm. Nivelirning ekrani (chapda) va uning tugmachalarini joylashish chizmasi (o‘ngda): a - rejim; b - ikonkalar; c - o‘lchov birligi; d - masofaning simvoli; f - balandlik simvoli

O‘lchash usuli va jarayoni. Elektron nivelirda o‘lchashlar ikki usulda olib borilishi ko‘zda tutilgan: yakka tartibli va ketma – ket uzuliksiz o‘lchashlar. Yakka

tartibda o‘lchashlarda: o‘lchash tugmachasi asta bosilib ishga tushirilsa, uzuluksiz o‘lchashda o‘lchash tugmachasi 1-2 sekund bosilib ushlab to‘riladi va ekranda xabar hosil bo‘ladi. Bu usulda o‘lchashlar uzlusiz bajariladi, lekin ma’lumotlar qayd etilmaydi va faqat oxirgi ma’lumot kursatiladi xolos.

O‘lchash jarayonida o‘lchash ishlarining maqsadi, uning vazifasi va olinadigan natijaga ko‘ra, balandlik va masofa o‘lchanadi va nuqtalarning tartib raqami kursatiladi; balandlik, masofa, reduced leve (dastlabki balandlik) va nisbiy balandliklar o‘lchanadi va tartib raqamlari kursatiladi.

Ushbu jarayonni ekrandagi holati 2.7.10-rasmda aks ettirilgan.



2.28-rasm. O‘lchash jarayoni (yuqoridan pastga) va uning ekrandagi tasviri


O‘lchash ishlarining bayoni keltirishdan avval, o‘lchash jarayonida asbobdagি qo‘llanilgan ‘iktogrammalar, menyu, sonli va harfli miqdorlarni kiritish va ulardan foydalanishdagi interfayslar, ularni ishlatish bo‘yicha kursatmalar bilan tanishtirib o‘tamiz (2.8-jadval).

Interfayslar bo‘yicha ma’lumotlar va ularni vazifalari

2.8 - jadval

MEAS	O‘lchash rejimi	MENU	MENYU rejimi
ADJ	Sozlash rejimi	COMM	Kommunikatsiya rejimi
TRK	Uzlusiz (kuzatuv) rejimi		

Asbobning mavjud holatini kursatuvchi belgilar:



- Yuritish uskunasini yoritilishi;
- O‘lchashda reykani to‘g‘ri va teskari holati;



– Displeyni yoritilish darajasi.

Batareyka miqdori va tashqi manbaga ulanishi:



Ma'lumotlarni ichki xotirada saqlash:



O'lchash ishlarini bajarish tartibi va uning natijalari



A. Balandlik va masofa o'lchash

- 1) Asbob yoqiladi (⌚). Ekranda Leica logo IP hosil bo'lib, kutish rejimi kuzatiladi;

2) Obyektiv reykaga qaratilib fokuslanadi. ●

O'lchashni aktivlash tugmachasi asta bosilib amalga oshiriladi.

- 3) Ekranda o'lchangan balandlik va masofa qiymatlarining tasviri  hosil bo'ladi.


4) Balandlikni qayd etish kursov bosilib hosil qilinadi.

- 5) Takroran kursov tugmachasi bosilib, masofa qiymati ekranda qayd etiladi.



- 6) Balandlik va masofa qiymatlarini tasviri bosilib qayta hosil qilinadi.

O'lchash ishlarini bajarishdagi yuqoridagi tartib bo'yicha ekrandagi tasvirlari 2.29-rasmda o'z ifodasini topgan.



2.29-rasm. O'lchash ishlarini yuqorida bayon etilgan tartibdagi ekranda ko'rinishi


B. Tartib raqamlari kursatilgan balandlik, masofa, reduced leve (dastlabki balandlik) va nisbiy balandliklarni o'lchash

Asbob yoqilib, ekranda Leica logo IP hosil qilinib, kutish rejimidan so'ng:

- 1) Dastlabki balandlik va orttirmalarning funksiyasini ishga solinadi. Buning


uchun  tugmaychasi bosiladi;

- 2) Ekranda "Meas. Reference" xabari tasvirlanadi;
- 3) Dastlabki reykadan (sanoq olish nuqtasidan) o'lchashni bajarish  uchun tugmachasi bosilib ishga tushiriladi;
- 4) Dastlabki balandlik va masofalarni o'lchangan tasviri 'aydo bo'ladi, so'ngra "Meas. Target!" xabari 'aydo bo'ladi;
- 5) Nuqtadagi vizir markasida o'lchashni boshlash uchun  tugmacha bosiladi;
- 6) Dastlabki balandlik (RL), dastlabki nuqtaga nisbatan orttirma (dH), balandlik va nuqtagacha bo'lgan masofalar haqida ma'lumotlar paydo bo'ladi;



O'lchashlar bajarilmagan holatida belgi bilan xabar kursatiladi.

Dastlabki nuqtalarda o'lchashlarni boshlashdan avval nuqta izlarini o'lchashlarini bajarilishi lozim. Ushbu ketma-ketlikda bajarilgan o'lchashlaridagi holatlarni ekrandagi tasviri quyida 2.20-rasmda keltirilgan.



Dastlabki

Kuzatuv

Balandlik

Nuqtani o'lchash jarayoni va masofa yo'qolishi



Kuzatuv jarayoni Oxirgi natija

2.30-rasm. O'lchash ishlaridagi natijalarning ekrandagi tasviri


2.8.Elektron nivelirlarni tekshirish va sozlash

1. O'lchash ishlarini boshlamasdan avval asbob tekshiriladi va sozlanadi. Tekshirish va sozlash ishlariga: shtativni ishga tayyorligi, doyiraviy adilak

puffakchasi “nol” punktda qayd qilinishi, Iqlar to‘rlarini holati, o’tik va elektron Kollimasion xatoliklarni (vizirlash nuri bilan haqiqiy gorizontal chiziq orasidagi farq) aniqlashlar kiradi. Quyida ushbu tekshirishlarni bajarilishi, xatoliklarni aniqlash va bartaraf etish chora tadbirlariga to‘xtab o‘tamiz.

1-shart. Asbobning shtativi turg ‘un va mustahkam bo‘lishi kerak.

Bu shart asbobning (2.8.1-rasmida kursatilgan) *a* va *b* vintlarini mahkam va mustahkam etib burash orqali amalga oshiriladi.




2.31-rasm. Asbob shtativini mahkamlash

2-shart. Doiraviy adilakning puffakchasi “no l” punktda joylashishi shart.

Tekshirish: *a)* asbob gorizontallanadi; *b)* 180° ga buraladi; *c)* agar doiraviy adilakni sathi markazda qayd etilmasa sozlanadi;

Sozlash: Olti qirrali kalit yordamida puffakcha yarim xatolik miqdoriga suriladi va *a* va *v* punktlari bajarilib qayta tekshiriladi.



2.32- rasm. Nivelirni sozlash va tekshirishdagi 2- shartni bajarish bo‘yicha ko‘rinishlar


Kollimasion xatolikni tekshirish va sozlash.

Elektron Kollimasion xatolik reykadan sanoq olish davrida avtomatik

ravishda tuzatma kiritilib bartaraf etilsa, optik Kollimasion xatolik to‘rlar ipini to‘g‘rilash orqali chetlatiladi. Quyida ushbu xatoliklarni tekshirish va sozlash tartibini keltiramiz:

- asbob taxminan 30m oralig‘idagi A va B reykalarini o‘rtasiga o‘rnataladi;
- tekshirish va sozlash dasto‘ri "Check and Adjust" ni faollashtirish uchun MENU-ADJUSTMENT bosiladi;

Asbob A nuqtadagi reykaga qaratilib, MEAS bosiladi va ekranda quyidagi rasm hosil bo‘ladi:



2.33-rasm

- keyingi vizirlash B nuqtaga qarab o‘zgartiriladi va yana MEAS bosiladi;
- asbob o‘rtadan A nuqtaga qadar (3m qolguncha) yangi stansiyaga olib o‘tiladi va A nuqtadagi reykaga fokuslab MEAC tugmachasi bosiladi;

B nuqtaga qarab vizirlanadi, takror MEAC tugmachasi bosiladi. Ushbu jarayondan so‘ng ekranda yangi Kollimasion xatolik nomoyon bo‘ladi. Vvod ENTR tugmachasi bosilib, tuzatma kiritiladi.

Sozlash dasto‘ridan chiqish ERC tugmacha bosish orqali amalga oshiriladi. Takroran bosilganda ekranda eng so‘ngi ma’lumotlar qayd etilsa, ketma-ket bosilgan tugmacha MENU ga olib o‘tadi. Uch marta bosilgan ERC da ekran o‘lchash rejimiga o‘tadi.

2.9. III va IVklass nivelirlash ishlarini tashqil qilish va bajarish.

Nivelirlash ishlarini tashqil qilish quyidagi eta'lardan iborat:

- Loyixa tuzish;
- Rekognostsirovka;
- Nivelirlash belgilari va reperlarini joyga o‘rnatish;
- Asboblarni tekshirish, kuzatish va sozlash;

- 5) Dala o'lhash ishlarini bajarish;
- 6) Dala o'lhash natijalarini kayta ishslash va tenglashtirish;
- 7) Materiallarni sistemaga solish va rasmiylashtirish;
- 8) Nivelirlash punktlarining (reperlarning) katalogini tuzish.

Loyihani tuzish

Loyixani tuzishda oldin bajarilgan ishlarning materiallari olinadi va taxlil qilinadi. Loyihada ishning tarkibi, xajmi, ish joyi, bajarilish tartibi va smeta narxi kursatiladi. Loyixa tekst(matn) qismi, nivelir yo'llari tushirilgan karta va smetadan iborat. Loyixaning tekst (matn) qismida quyidagilar kursatiladi:

1. Loyixalanayotgan nivelir yo'lining maqsadi.
2. Ish bajariladigan joyning qisqacha fizik-geografiktavsifi.
3. Berilganlar reperlar to'g'risida ma'lumot.
4. Oldin o'rnatilgan va loyixalanayotgan nivelir belgilar (znak) to'g'risida ma'lumot.
5. Loyixalanayotgan nivelir belgilari turlarining soni.
6. Asboblar va nivelirlash usullari.
7. Nivelirlash natijalarini hisoblash tartibi.

Nivelir yo'llarini loyixalashtirish 1:10000-1:100000 masshtabli kartalarda bajariladi. III va IV klass nivelir yo'llarini loyixalashda kartaga ilgari bajarilgan, 3 kilometrgacha radiusda bo'lgan xamma klass nivelirlash, triangulyatsiya va poligonometriya punktlari tushiriladi.

Loyixalash I, II, III va IV klass nivelirlash instruktsiyasi talablari asosida amalga oshiriladi.

III klass nivelirlash loyixasi, II klass nivelirlash poligonlari ichida o'tkaziladi. Kartada nivelirlash yo'nalishlari kursatiladi.

Rekognostsirovka

Rekognostsirovka (joyni o'rganish) qilish **paytida** tuzilgan loyixa joyda kurib chikiladi, nivelir yo'lining va **bog'lanish** nuqtalarining eng qulay varianti, reper turlari va ularni o'rnatish joylari belgilanadi. Keying iishlarni tashqlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yig'iladi.

Rekognostsirovkachi dalada kartaga yoki aerosuratga reperlarni o'rnatish joyini, bor bo'lgan reperlarning joyini kerakli aniqlikda belgilaydi, tahrif (o'isanie) tuzadi va reperlarni o'rnatish uchun joyni belgilaydi.

Joyda reperlarni keyinchalik topish oson bo'lishi uchun reperlarni o'rnatish joyi harakterli kontur va orientirga yaqin joylarda tanlanadi. Reperlarning uzoq saqlanishini va ishonchliligin ta'minlash uchun imkoniboricha reperlar o'rnatish uchun tu'rog'i yaxshi bo'lgan do'ng joy tanlanadi. Reperlarni o'rnatish uchun eng qulayi-qoyali jinslardir. o'rnatish joyida yer osti suvlarining satxi yeryuzasiga 3-4 m yaqin bo'imasligi kerak.

Rekognostsirovkachi niveler yo'lini va reper o'rnatish joyini belgilashda imkoniboricha qiya ko'tariladigan joylardan, botqoqliklardan, ekinzorlardan, ko'llardan va boshqa noqulay joylarni chetlab o'tishi kerak. Tushuntirish xatida nivelerlash muddati va nivelerlashda uchraydigan qiyinchiliklar tafsiloti yoziladi.

Rekognostsirovka paytida loyixaga ayrim o'zgartirishlar kiritishi mumkin va loyixa tasdiklanadi.

- Rekognostsirovka natijasi bo'yicha quyidagi xujjatlar taqdim qilinadi:
- Nivelirlash yo'llarining aniqlik kiritilgan sxemasi.
 - Bor bo'lgan yo'l bilan loyixalanayotgan yo'l bog'lanishining aniqlik kiritilgan sxemasi.
 - Tushuntirish xati.
 - Reperlarni o'rnatish uchun joyning tavsifi.
 - Yo'qotilgan va topilmagan niveler belgilarning qaydnomasi (akti).
 - Tadqiq qilingan va tahmirlangan niveler belgilarning ro'yxati.

Nivelirlash belgilari va reperlarini joyga o'rnatish.

Niveler punktlari (reperlari) shunday joylarda urnatiladi, ular uzok muddat saklanishi kerak, ulardan foydalanish va topish oson bo'lishi kerak. Nivelirlash bajarilanaet joyning fiziko-geografik sharoitiga kura reperlar turlari urnatiladi. Xama niveler belgilariga akt tuziladi va tegishli organlarga Topshiriladi.

2.10. IV klass niveliplashda dala ishlari.

IV klass niveliplash bir tomonga bajariladi.

Nivelirdan reykagacha bo‘lgan masofa qadam yoki boshqa usulda o‘lchanadi.

O‘rtacha vizir nurining uzunligi 100 metrdan, agar niveliarning karash trubasining kattalashtirish darajasi 30^x bo‘lsa 150 metrdan oshmasligi kerak.

Stantsiyada yelkalar Farqi 5 metrdan, sektsiyalar bo‘yicha to‘lami 10 metrdan oshmasligi kerak.

Vizir o‘qi yer satxidan yoki to‘sinqdan 0,2 metr balandlikdan o‘tishi kerak.

Niveliplash sektsiyalar bo‘yicha olib boriladi, har – bir sektsiyalar nomeri noldan boshlanadi.

Stantsiyada kuzatish quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- Nivelirning qarash trubasi orqa reykaning qora tomoniga qaratilib, dalnomerning yuqori va o‘rta Iplaridan sanoq olinadi.
- Qarash trubasi oldingi reykaning qora tomoniga qaratilib, dalnomerning yuqori va o‘rta Iplaridan sanoq olinadi.
- Qarash trubasi oldingi reykaning qizil tomoniga qaratilib, dalnomerning o‘rta ipidan sanoq olinadi.
- Qarash trubasi orqa reykaning qizil tomoniga qaratilib, dalnomerning o‘rta Ipidan sanoq olinadi.

Kuzatish paytida niveliplash quyosh nuridan zont yordamida ximoya qilinadi. Reykalar bashmakka adilak bo‘yicha qo‘yiladi. Niveliplash sektsiyalar bo‘yicha bajariladi, har – bir sektsiyada stantsiyalar nomeri boshidan ya’ni birdan boshlanadi. Stantsiyadan stantsiyaga o‘tganda reykachilar almashib oldingisi orqada, orqadagisi oldinga o‘tadi. Niveliplashdagi tanaffusda ish doimiy belgida to‘xtatiladi. Doimiy reper bo‘lmasa niveliplashni tugatish yerga 0.3 m chuqurlikka ko‘milgan uchta qoziqda to‘xtatish mumkin.

Tanaffusdan keyin niveliplash oxirgi ikkita stantsiyadan boshlanadi, . Tanaffusdan keyingi niveliplash natijasini taqqoslashdan qaysi qoziq

tanaffusgacha bo‘lgan holatini saqlab qolganligi aniqlanadi. O‘sha qoziqdan nivelerlash ishlari davom ettiriladi. Tanaffusgacha va tanaffusdan keyingi natijalar farqi 5 mm dan oshmasa, qoziq tanaffusgacha bo‘lgan holatini saqlagan hisoblanadi. Agar katta farq chiqsa, sektsiya bo‘yicha nivelerlash qaytadan doimiy belgidan boshlab bajariladi.

Reykalarning qora va qizil tomonlari bo‘yicha aniqlangan stantsiyadagi nisbiy balandliklar farqi 5 mm gacha yo‘l qo‘yiladi. Agar kuzatishda farq katta bo‘lsa, niveler balandligini 3-5 sm ga o‘zgartirib stantsiyada kuzatish qayta bajariladi. Boshlang‘ich punktlar orasidagi yo‘l bo‘yicha nivelerlash tugagandan keyin **bog‘lanmaslik** xatosi hisoblanadi:

$$f_{h_{IEK}} = \pm 20 \text{ mm} \sqrt{L_{KM}} ; \quad (27)$$

bu yerda L - yo‘l uzunligi, km da.

IV-klassnivelerlash jurnali

2.9-jadval

Nostants.	Orqavaoldingi reykagachadal nomermasofa	Reykalarbo‘yicha sanoq		Nisbiy balandlik, mm	O‘rtacha nisbiy balandlik, mm
Nº, reyka		Orqa	Oldingi		
1 2-1 (R’№26)	370 (7)	0226 (1)	0541(3)		
	368 (8)	0596(2)	0909(4)	-313 (11)	312,5(14)
		5283(6)	5695 (5)	-412 (12)	
	+2/+2	4687 (9)	4786(10)	+99 (13)	
2 1-2	321	444	652		
	320	765	972	-207	-207
		5552	5659	-107	
	+ 1/+3	4787	4687	-100	
3 2-1					
	1379 (15)	12196 (16)	13235 (17)	-1039(18)	-519.5 (19)
	275.8 m	-13235		-519.5(21)	

Jurnalga yozish aniq va toza bajarilishi kerak. Jurnaldagi sanoqlarni to‘g‘rilash va o‘chirib yozish tahqiqlanadi. Stantsiyadagi noto‘g‘ri kuzatishlar natijalari ustidan tartibli bir chiziq bilan chizib qo‘yiladi va kuzatish qayta bajariladi. Qayta kuzatilgan stantsiya nomeri «qayta» degan so‘z bilan yozib qo‘yiladi.

Hisoblashdagi noto‘g‘ri yozuvlar ustidan chizilib te’asiga to‘g‘risi yozib qo‘yiladi. Har bir sektsiya bo‘yicha stantsiya nomeri birinchidan boshlanadi.

2.11. III klass nivelirlashda dala ishlari.

III klass nivelirlash to‘g‘ri va teskari yo‘nalishda bajariladi. Nivelirdan reykagacha bo‘lgan masofa trosc yoki boshqa usulda o‘lchanadi.

O‘rtacha vizir nurining uzunligi 75 metrdan, agar nivelirning karash trubasining kattalashtirish darajasi 35^x bo‘lsa? 100 metrdan oshmasligi kerak.

Stantsiyada yelkalar Farqi 2 metrdan, sektsiyalar bo‘yicha to‘lami 5 metrdan oshmasligi kerak.

Vizir o‘qi yer satxidan yoki to‘sinqdan 0,3 metr balandlikdan, oraliqdan o‘tishi kerak.

III klass nivelirlash nivelirlash yo‘lining sektsiyalari bo‘yicha bajariladi va har - bir sektsiya stantsiya nomerlari birinchi raqamdan boshlanadi. Kuzatish **paytida** nivelir quyosh nuridan zont yordamida himoya qilinadi. Reykalar bashmakka quyiladi va doiraviy adilak bo‘yicha vertikalligi tekshiriladi. Bir stantsiyadan navbatdagi stantsiyaga o‘tganda reykalar o‘rni almashib, oldingisi orqada, orqadagisi oldinga o‘tadi. Nivelirlashdagi tanaffusda ish doimiy belgida to‘xtatiladi. Nivelirlash ishini zaruriy tugatishda 0,3 m chuqurlikka ko‘milgan uchta qoziqda ham to‘xtatish mumkin. Ushbu uchta qoziq bo‘yicha ikki stantsiyada odatdagi III klass nivelirlash dasto‘ri bo‘yicha nivelirlash bajariladi va tanaffus davrida ushbu qoziqlar ko‘mib qo‘yiladi.

Tanaffusdan so'ng ushbu qoziqlar ochiladi va qoziqlardan qayta niveliplash bajariladi. Tanaffusgacha va tanaffusdan keyingi niveliplash natijalar tekshiriladi, nisbiy balandliklar farqi o'zaro 3 mm dan oshmasa qoziq tanaffusgacha bo'lган holatini saqlagan hisoblanadi. Agar farq 3 mm dan katta chiqsa sektsiya bo'yicha niveliplash sektsiya boshidagi doimiy belgidan qaytadan bajariladi.

Nivelirlash ishlari reykadagi sanoq tasviri aniq ko'ringan va sokin bo'lган vaqtida bajarilishi kerak. Ochiq yoz kunlarida refraksiya ta'sirini kamaytirish maqsadida niveliplash kun chiqish vaqtidan 1-1.5 soat keyin boshlanib. kun botishiga 1-1.5 soat qolganda to'xtatilishi kerak.

Stantsiyada niveliplash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Nivelir doiraviy adilak yordamida ish holatiga keltiriladi va quyidagi ketma-ketlikda kuzatish bajariladi:

1. Qarash trubasi orqa reykaning qora tomoniga qaratilib, Silindrik adilak puffakchasi o'rtaga keltiriladi va dal'nomerning yuqori, o'rta xamda pastki iplaridan sanoq olinadi;
2. Qarash trubasi oldingi reykaning qora tomoniga qaratilib, Silindrik adilak puffakchasi o'rtaga keltiriladi va dalnomerning yuqori, o'rta xamda pastki iplaridan sanoq olinadi;
3. Qarash trubasi oldingi reykaning qizil tomoniga qaratilib, Silindrik adilak puffakchasi o'rtaga keltiriladi va dalnomerning o'rta Ipidan sanoq olinadi.
4. Qarash trubasi orqa reykaning qizil tomoniga qaratilib, Silindrik adilak puffakchasi o'rtaga keltiriladi va dalnomerning o'rta Ipidan sanoq olinadi.

Olingan sanoqlar "III klass niveliplash jurnali"ga tartib bilan yozib boriladi.

Jurnalga yozish aniq va toza bajarilishi kerak. Jurnaldagi sanoqlarni to'g'irlash va o'chirib yozish taqiqlanadi. Stantsiyadagi noto'g'ri kuzatishlar natijasi ustiga ko'ndalang tartibli bir chiziq bilan chizib qo'yiladi va kuzatish qayta bajariladi. Qayta kuzatilgai stantsiya nomeri «qayta» degan so'z bilan yozib qo'yiladi.

Hisoblashdagi noto‘g‘ri yozuvlar ustidan chiziq chizib qo‘yiladi va uni te’asiga to‘g‘risi yozib qo‘yiladi. Har - bir sektsiya bo‘yicha stantsiya nomeri birinchidan boshlanadi.

III klass nivelirlash jurnalini to‘ldirish namunasi 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldagи qavs ichida kursatilgan 1 dan 8 gacha bo‘lgan raqamlar kuzatish ketma-ketligini kursatadi. (1) va (4) sanoqlar 300 mm. dan kichik bo‘lmasligi lozim. Qavs ichida kursatilgan 9 dan 19 gacha bo‘lgan raqamlar esa hisoblash ketma-ketligini kursatadi.

Sektsiyalar bo‘yicha tekshirish nivelirlash jurnalini so‘ngi sahifasini tagiga yoziladi.

Nivelirlash jurnalini sektsiyalar bo‘yicha tekshirib bo‘lgach, nivelirlash yo‘lini uzunligi bo‘yicha bog‘lanmaslik xatosini aniqlaymiz. Buning uchun boshlang‘ich tayanch reperlarning otmetkalaridan foydalanamiz. Yo‘l bo‘yicha bog‘lanmaslik xatosi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$f_h = \sum_1^n h - (H_O - H_B). \quad (28)$$

Bog‘lanmaslik xatosining chekli qiymati quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$f_{h_{IEK}} = \pm 10 MM \sqrt{L_{KM}};$$

Bu yerda L - yo‘l uzunligi, km da.

III klass nivelirlash jurnali

№ 6 - grunt.reperidan	31-grunt. reperigacha bo‘lgan yo‘l
sana : 9 iyul 2019 y.	Ob-xavo: ochiq, yengil shabada
Ish boshlash vaqt: 6: 20 min	Tasvir : turg‘in
Ish tugash vaqt: 18 :00 min	
Kuzatuvchi:	Hisoblovchi:.....

2.10-jadval

Shtativ va reykala r №	Dalnomer iplaridan olingan sanoqlar			O'rta ipdan olingan sanoqlar				O'rtacha nisbiy balandlik (mm)
	Ketingi reyka bo'yicha	Oldingi reyka bo'yicha	Tekshiruv nisbiy balandligi	reyka tomoni	Ketingi reyka bo'yicha	Oldingi reyka bo'yicha	Nisbiy balandlik	
1	1281 (2)	1425 (5)	-144 (11)	qora	1382 (1)	1527 (4)	-145 (14)	-144,5 (19)
-----	1482 (3)	1627 (6)	-145 (12)	qizil	6066 (8)	6310 (7)	-244 (15)	
1 – 2 (6-gr.rep)	201 (9)	202 (10)	-1/-1 (13)		4684 (16)	4783 (17)	+99 (18)	
2	0888	1649	-761	qora	1066	1823	- 757	-757,0
-----	1243	2000	-757	qizil	5850	6507	-657	
- 2 – 1	355	351	+6/+5		4784	4684	-100	
3	1926	1275	+651	qora	2168	1518	+650	+649,5
-----	2410	1761	+649	qizil	6851	6302	+549	
1 – 2	484	486	-2/+3		4683	4784	+101	
4	389	2359	-1970	qora	0651	2618	-1967	-1967
-----	0910	2877	-1967	qizil	5435	7302	-1867	
- 2 – 1	521	518	+3/+6		4784	4684	-100	
Saxifaviy tekshirish	1561 (20)	1557 (21)	-4444 (22) -2222 (27)		29 469 (23) -33 907 (24) 4 438 (28)	33907 (24)	-4438 (25) -2219 (29)	-2219 (26)
Sektsiya bo'yicha hisoblash	13408 Σ (20);	13410 Σ (21) ;	+2736 Σ (27)		Σ 206756 Σ (23) 201289 Σ (24) +5467 (30)	201289 Σ (24)	+5487 Σ (25) +2733.5 (31)	+2733.5 Σ (26)

Topshirish uchun kerak xujjatlar (materiallar)

Dala ishlari tugagandan keyin bajaruvchi quyidagi xujjatlarni (materiallarni) taqdim etishi kerak:

- Rasmiylashtirilgan va tekshirilgan dala jurnallari.
- Dala ishlari to‘g‘risida tushuntirish xati.
- Nivelir va reykalarini tadqiq qilish natijalari.
- punktlar absolyut va nisbiy balandliklari vedomosti.
- Nivelirlash sxemasi.
- Reperlar tushirilgan 1:25000 yoki 1:10000 masshtabli topografik karta.

Materiallarga topshiriladigan xamma xujjatlar va raqlari nomerlanib tikib topshiriladi. Xamma materiallarda bajarilgan vaqt, kuni, sanasi, yili va bajaruvchining imzosi bo‘lishi kerak.

2.12. IV va III klass nivelerlash dala o‘lchanishlari natijalari bo‘yicha hisoblashlari.

IV klass

Jurnalda har bir stantsiyada olingan sanoqlari bo‘yicha quyidagicha hisoblashlar bajariladi:

(7) = (2) - (1) – ketingi reykagacha bo‘lgan masofaning yarmini dalnomer birligidagi ifodasi;

(8) = (4) - (3) – oldingi reykagacha bo‘lgan masofaning yarmini dalnomer birligidagi ifodasi;

(9) = (6) - (2) ketingi reykaning qora va qizil tomonlari bo‘yicha aniqlangan tovonlar farqi;

(10) = (5) - (4) oldingi reykaning qora va qizil tomonlari bo‘yicha aniqlangan tovonlar farqi;;

(11) = (2) - (4) reykalarning qora tomonlari bo‘yicha aniqlangan nisbiy balandlik;

(12) = (6) - (5) reykalarning qizil tomonlari bo‘yicha aniqlangan nisbiy balandlik;

(13) = $\frac{(11) + [(12) \pm d_H]}{2}$ - stantsiyadagi o‘rtacha nisbiy balandlik, (d_H juft reykalarni tekshirish orqali aniqlangan qizil tomon tovonlarini farqi);

(14) = (10) - (9) juft reykalarning qizil tomon tovonlarini farqi, (14) va d_H o‘zaro 5 mm.gacha farqlanishi mumkin;

(15) = (7) - (8) ni farqi 2.5m.dan oshmasligi kerak ($K=100$ bo‘lganda 25 gacha bo‘lishi mumkin).

III klass

III klass nivelerlash jurnalini to‘ldirish namunasi 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldagagi qavs ichida kursatilgan 1dan 8 gacha bo‘lgan raqamlar kuzatish ketma-

ketligini kursatadi. (1) va (4) sanoqlar 300 mm. dan kichik bo‘lmasligi lozim. Qavs ichida kursatilgan 9 dan 19 gacha bo‘lgan raqamlar esa hisoblash ketma-ketligini kursatadi.

Jurnalda stantsiyalar bo‘yicha hisoblash:

(9) = (3) - (2) – ketingi reykagacha bo‘lgan masofani dalnomer birligidagi ifodasi;

Dalnomer Ipidan orqa reykagacha oraliq (dalnomer koefitsenti $K= 100$ bo‘lganda, Ya’ni reyka sanog‘ining 1 mm. ga joydagi masofaning bir detsimetr qiymati to‘g‘ri keladi);

(10) = (6) - (5) – oldingi reykagacha bo‘lgan masofani dalnomer birligidagi ifodasi;

(11) = (2) - (5) – dalnomer Iplaridan olingan sanoqlar bo‘yicha aniqlangan nisbiy balandliklar;

(12) = (3) - (6) – dalnomer Iplaridan olingan sanoqlar bo‘yicha aniqlangan nisbiy balandliklar;

(13) = (9) - (10) = (12) – (11) – kasr suratidagi son “elka”lar farqi (ketingi reykagacha va oldingi reykagacha bo‘lgan vizir nurini farqi), ushbu farq stantsiyada 2 metrgacha ($K=100$ bo‘lganda 20 dalnomer birligi), kasr maxrajida sektsiya bo‘yicha “elka”lar farqi 5 metrgacha ($K=100$ bo‘lganda 50 dalnomer birligigacha);

(14) = (1) - (4) – reykalarning qora tomonlari bo‘yicha aniqlangan nisbiy balandlik;

(15) = (8) - (7) – reykalarning qizil tomonlari bo‘yicha aniqlangan nisbiy balandlik;

Reykalarning qora va qizil tomonlari bo‘yicha aniqlangan stantsiyadagi nisbiy balandliklar farqi 5 mm gacha yo‘l quyladi. Agar kuzatishda katta farq qilsa. nivelir balandligini 3-5 sm ga o‘zgartirib stantsiyada kuzatish kayta bajariladi.

(16) = (8) - (1) – ketingi reykaning tovonlar farqi;

(17) = (7) - (4) – oldingi reykaning tovonlar farqi;

(18) = (14) - (15) – ketingi va oldingi reykalarning tovonlar farqi;

(18) = (17) - (16) – hisoblangan kontrolg’ qiymat;

Hisoblangan (18) qiymat bilan reykalarni tadqiq qilish vaqtida aniqlangan qizil tomon tovonlar farqi d_N ning qiymati o‘zaro ± 3 mm gacha farqlanishi mumkin.

(19) = $\frac{(14) + [(15) \pm d_H]}{2}$ - stantsiyadagi o‘rtacha nisbiy balandlik, (d_H juft reykalarni tekshirish orqali aniqlangan tovonlarini farqi); $\pm 0,1$ mm. gacha aniqlikda hisoblanadi.

Joriy stantsiyadan navbatdagi stantsiyaga o‘tishdan avval jurnaldagi barcha hisoblashlarni tugatish va hisoblab topilgan qiymatlarni chekidan ortib ketmaganligiga ishonch hosil qilish kerak. III klassnivelerlashda quyidagi nazorat shartlari bajarilishi kerak:

1. Bir yo‘nalish bo‘yicha (ketingi yoki oldingi) dalnomer Iplaridan olingan sanoqlarning o‘rta qiymati ushbu yo‘nalish bo‘yicha o‘rta Idan olingan sanoq bilan o‘zaro ± 3 mm gacha farqlanishi mumkin.

Ya’ni:

$$\frac{(2) + (3)}{2} - 1 = \pm 3_{MM} \text{ va } \frac{(5) + (6)}{2} - 4 = \pm 3_{MM}$$

2. Reykalarning qora tomonlari bo‘yicha aniqlangan nisbiy balandlik (14) ni va qizil tomonlari bo‘yicha aniqlangan nisbiy balandlik (15) ni d_H juft reykalarning tovonlarini farqi inobatga olgan holdagi o‘zaro farqi ± 3 mm. gacha borishi mumkin. Ya’ni:

$$(14) - [(15) + d_H] = \pm 3 \text{ mm.}$$

Har bir sahifa bo‘yicha quyidagilar hisoblanadi:

$$(20) = \sum(9)$$

$$(21) = \sum(10)$$

$$(22) = \sum[(11) + (12)],$$

$$(23) = \sum[(1) + (8)],$$

$$(24) = \sum[(4) + (7)],$$

$$(25) = \sum[(14) + (15)],$$

$$(26) = \sum(19),$$

$$(27) = \frac{(22)}{2},$$

$$(28) = \sum(23) - (24),$$

Agar sahifadagi stantsiyalar soni juft bo'lsa (29) = $\frac{(25)}{2}$, bo'ladi, yoki aksincha sahifadagi stantsiyalar soni toq bo'lsa (29) = $\frac{(25) \pm d_H}{2}$ bo'ladi.

Hisob jarayonida quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

$$(25) = (28);$$

$$(26) = (29);$$

Tekshiruv nisbiy balandliklar yig'indisi (27) ning qiymati

$[(26) \pm 3\sqrt{n}]$ dan oshmasligi kerak (n-sahifadagi stantsiyalar soni).

SHuningdek oldingi reyka bo'yicha dalnomer Iplaridan olingani sanoq farqlarini yig'indisi ketingi reyka bo'yicha dalnomer Iplaridan olingan sanoqlar yig'indisidan ayrilganda qiymatan stantsiyalardagi yelkalar farqini yig'indisiga teng bo'lishi kerak, ya'ni (21) - (20) = $\sum(13)$.

Sektsiyalar bo'yicha nisbiy balandliklar yig'indisini hisoblash va nivelerlash reykasi uchun metr uzunligi bo'yicha tuzatma kiritish

Sektsiyalar bo'yicha tekshirish sahifaviy tekshirish kabi bajariladi, faqat yig'indilar tekshiriluvchi sektsiyaga kirgan stantsiyalar (sahifalar) bo'yicha yig'indilar topiladi (3-jadval): $\sum(20)$, $\sum(21)$, $\sum(27)$, $\sum(23)$, $\sum(24)$, $\sum(25)$ va $\sum(26)$.

Shuningdek quyidagilar hisoblanadi:

$$(30) = \sum(23) - \sum(24); \quad (31) = \frac{\sum(25)}{2}$$

Quyidagi tengliklar bajarilishi kerak: (30) = $\sum(25)$ va (31) = $\sum(26)$;

$\sum(26)$ – kattaligi sektsiya bo'yicha o'lchanigan nisbiy balandliklar yig'indisi bo'lib, u qiymatan $\sum(27)$ ga teng yoki yaqin bo'lishi kerak. Ularning tengligi dala o'lhash ishlaridagi va hisob ishlaridagi qo'ol hato yo'qligini kursatadi.

Sektsiyalar bo'yicha tekshirish nivelerlash jurnalini so'ngi sahifasini tagiga yozilib, ohirida sektsiya uzunligi (33) va sektsiya bo'yicha shtativlar (stantsiyalar) soni (34) yozib qo'yiladi.

Nivelir dalhnomer koeffitsiyenti $K=100$ bo‘lganda sektsiya bo‘yicha niveler yo‘lining uzunligi $L_{i,KM} = \frac{\sum(20) + \sum(21)}{10000}$

Yo‘l bo‘yicha shtativlar (stantsiyalar) soni (n) va hisoblangan yo‘l uzunligi (L) ni kilometr birligida jurnalni ostiga yozib qo‘yiladi

Shuningdek jurnalni ostiga quyidagilar yoziladi:

h' - o‘lchangan nisbiy balandliklarni millimetr qiymati (34) = $\sum(26)$;
 δh - nivelerlash reykasini o‘rtacha metr uzunligi uchun tuzatma (35), uni qiymati $\delta h_{mm} = h'_{m\Delta} \Delta$ ifodasi orqali aniqlanadi. (Δ -ishltayotgan va nominal reyka orasidagi farq);
 h - tuzatilgan nisbiy balandlik (36) $h = h' + \delta h$.

Nazorat savollari:

1. IIIklass nivelerlash ishlarini tashqil qilish.
2. IV klass nivelerlash ishlarini bajarish tartibi.

Topshirish uchun kerak xujjatlar.

2.13. III va IV klass nivelerlashning ayrim usullari.

Nivelerlash yo‘lini daryo yoki jar orqali o‘tkazish.

III va IV klass nivelerlash ayrim xollarda keng dare yoki jarliklar orqali bajarish kerak bo‘ladi.

Agar to‘sining kengligi 200 metrgacha bo‘lsa nivelerlash quyidagicha bajariladi.


Nivelerlashda shunday joy tanlab olinadi unda vizirlash nuri orqa reykagacha va oldingi reykagacha bir – xil sharoitda o‘tishi kerak. Bunda refraksiya va nivelerning asosiy shartining xatosi (burchak i) minimal ta’sir etadi. Nivelerlash kabo‘l qilingan dastur bo‘yicha , faqat ikki marta bajariladi.

Agar to‘sinq o‘rtasida orol bo‘lsa unga reyka yoki niveler o‘rnatish mumkin bo‘lsa ulardan foydalanish kerak.

Agar vizir nuri bir – xil sharoitda o‘tkazish mumkin bo‘lmasa unda nivelerlash quyidagicha bajariladi.

Daryo yoki jarning, kengligi 100 m dan kam bo'lsa, bir qirg'okdan ikkinchisiga bog'lovchi balandlik nuqtalari nivelerlashdagi kabi uzatiladi. Daryo yoki jarning kengligi 100-200 m bo'lganda esa maxsus nivelerlash usullari qo'llanilali. Bu usullarning eng ko''ishlatiladiganlaridan bir iishni ikki 'riyomga bo'lib ikki tsiklda nivelerlashdir.

III klass nivelerlashda daryoning ikkala qirg'og'idagi A va B nuqtalarga taxminan bir xil balandlikda mustahkam qilib qoziqlar qoqiladi va qirg'oqdan taxminan 10-20 m ichkariroqdan niveler o'rnatiladigan nuqtalar C va D tanlanadi (rasm 1). B D orasidagi l_1 masofa A S orasidagi l_2 masofaga teng bo'lishi lozim ($l_1 = l_2$). A va B nuqtalarni nivelerlash uchun niveler birinchi stantsiya (C) ga o'rnatiladi. Avval, oldingi B nuqtadagi reykadan, keyin orqadagi A nuqtadagi reykadan uch I_p metodida sanoqlar olinadi. Birinchi stantsiyada ish tamom bo'lgandan keyin niveler fokusi o'zgartirilmasdan ikkinchi qirg'oqqa o'tilib, niveler rasm 1. ikkinchi stantsiya (D nuqta)ga o'rnatiladi. Dastlab A nuqtadagi, keyin B nuqtadagi reykalardan shu tartibda sanoqlar olinadi. Bo'larning xammasi nivelerlashishining yarim 'riyomni tashqil qiladi.



2.34-rasm

Ob-xavo nivelerlash natijasiga kamroq ta'sir etishi uchun ishning ikkinchi yarmi kunning boshqa vaqtida bajariladi. Bunda ilgari aytib o'tilgan ishlar takrorlanadi. Nivelerlash aniqligi ikala qirg'oqdan to'rib hisoblangan nisbiy

balandliklarni solishtirib topiladi. Ularning nivelirlash aniqligi har 100 m masofa uchun 10 mm bo‘lishi, oralag‘i farq 5 mm dan oshmasligi kerak.

Kengligi 200-500 m bo‘lgan daryolarni nivelirlashda kattalashtirish darajasi 40 dan va Silindrik adilagining bo‘lak qiymati 10" dan ortik bo‘lgan nivelir ishlatiladi. Nisbiy balandlik bir necha ‘riyomda aniqlanadi.

Nivelirlash ikkita brigada bilan bir vaqtning uzida ikkita kirgoqda bajariladi. Nivelirlash uchun reykalarga maxsus moslama tayerlanadi. Moslama q o‘zg‘aluvchan va oq qora kattalashtirilgan belgilardan iborat. Oq – kora shtrixlarning kengligi quyidagicha topiladi 0,06Smm (S - to‘siq kengligi metrda)

Stantsiyada kuzatuvchi emas, uning buyrugiga binoan reyka oldidagi yordamchisi sanoq oladi. Nivelirlash ikki martta dastur bo‘yicha bajariladi.

Nivelirlash yo‘lini balandlik tayanch punktlariga bog‘lash

Balandlik tayanch punktlarining otmetkalarini yagona balandlik sistemasi (Baltika yoki maxalliy sistema) da aniqlash xamda nivelirlash natijalariga baxo berish maqsadida ketingi (A nuqtadagi) reykaning qora va qizil tomonlaridan. So‘ngra qarash trubasining fokusi o‘zgarmasnivelirlash yo‘li otmetkasi Ma’lum bo‘lgan reper va markalarga **bog‘lanadi**. Nivelirlash yo‘lini grunt reperiga bog‘lash uchun reyka reper ustiga tik o‘rnatiladi. Nivelirlash yo‘lini devoriy reperga bog‘lashda reyka reperning devordan chiqib turgan uchiga tik o‘rnatiladi. Bunda nivelirlash yo‘li reperdan boshlansa, B nuqtaning reper A ga nisbatan balandligi reperdagi reykadan olingan sanoq (a) bilan V nuqgadagi reykadan olingan sanoq (b) ning ayirmasiga teng bo‘ladi. Nivelirlash yo‘li reperga **bog‘lansa**, reper A ning B nuqtaga nisbatan balandligi B nuqtadagi reykadan olingan sanoq (b) bilan reper (A) dagi sanoq (a) ning ayirmasiga teng bo‘ladi.

III va IV klass nivelirlashning ayrim usullari va ishlatiladigan asboblar.

Devoriy reperga reyka o‘rnatib bo‘lmasa, nivelirlash yo‘lini bog‘lashning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

1. IPlar to‘rini loyixalash usuli. Bunda niveler reper bilan bog‘lovchi nuqta (V) o‘rtasiga o‘rnataladi. Qarash trubasining vizir o‘qi gorizontal holatga keltirilgandan so‘ng truba reperning yuqorigi uchiga vizirlanadi, devorga uchala gorizontal Ipning ‘roektsiyasi tushiriladi va qalam bilan chiziladi. Keyin reper bo‘rtmasidan devordagi chiziqlargacha bo‘lgan masofa 12 va 13 lar ‘o‘lat ruletka bilan o‘lchanadi, ularning o‘rtacha arifmetik mikdori, Ya’ni (1+2 + 4) reperdag'i reykadan olingan sanoqni bildiradi.

2 Uchburchak shaklidagi lineyka yordamida sanoq olish usuli

Bunda devoriy reper yaqinida boshmok yoki qoziqqa reyka o‘rnataladi. Uchburchak shaklidagi lineykaning kichik kateti reper ustiga qo‘yiladi, yon katet esa tik reykaga tegib turadi. Qarash trubasi orqali reykadan o‘rta ip bo‘yicha *b* sanoq kichik katet bo‘yicha *a* sanoq olinadi.

Sanoqlar ayirmasi reperdag'i reykadan olingan sanoqni bildiradi.

Nivelirlash yo‘lini devoriy markaga bog‘lash uchun markaning markazidagi teshikka metall shtift kirgiziladi, shtiftga reykacha osiladi. Reykachaning nol raqami shtift o‘qiga (marka teshigining markaziga) to‘g‘ri kelishi lozim. Reykachaning nol raqami yuqoriga qaratilganligidan, reykachadan olingan sanoq manfiy qiymatga ega bo‘ladi. Qarash trubasi reykachaga vizirlanib, sanoq (*a*) olinadi. Agar nivelirlash yo‘li markadan boshlanayotgan bo‘lsa-bog‘lovchi (B) nuqtaning markaga nisbatan balandligi $a - b = h$ ga, nivelirlash yo‘li markaga bog‘lansa marka (A) ning nuqta (B) ga nisbatan balandligi $a - b = h$ ga teng bo‘ladi. Markaga reyka o‘rnatish mumkin bo‘lmasa, nivelirlash yo‘li reperdag'i kabi bog‘lanadi. Nivelirlash yo‘lini bog‘lashda reper yoki markaning, reyka xamda vizir nurining holatini tasvirlovchi sxematik chizma nivelirlash jurnalining „izox“ ustuniga chizib qo‘yiladi.

Reykalardan olingan sanoqlar chizmada kursatiladi va nivelirlash jurnaliga yoziladi. Nivelirlash ishi uzoqroq vaqtga to‘xtatiladigan bo‘lsa, nivelirlash yo‘lini doimiy reperga bog‘lab ulgurish kerak. Nivelirlash yo‘lini doimiy reperga bog‘lashning iloji bo‘lmasa, joydagi mustaxkam uchta nuqtaga bog‘lash zarur. Bunday nuqtalar sifatida inshootning bo‘rtmasi, qoya, harsang tosh,

telegraf ustuniga qoqilgan dumaloq qal'oqli mix va shu kabilardan foydalanish mumkin. Bunday narsalar bo'Imagan joyda uchta boshmokdan foydalaniladi. Buning uchun 0,3 m chuqurlikda uchta o'ra kovlanadi, ularga boshmoklar o'rnatiladi va nivelerlangach, tuproq bilan ko'mib tashlanadi. Nivelirlashni yana davom ettirish kerak bo'lganda boshmoklar ochiladi. Ish to'xtatilganga qadar boshmoklarga qanday reykalar o'rnatilgan bo'lsa, bu gall xam shunday reykalar o'rnatilib, nivelerlash davom ettiriladi. Avvalgi va keyingi nivelerlash natijasida aniqlangan nisbiy balandliklar farqi 3 mm dan katta bo'lmasa, nivelerlash natijasi qilib ularning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi. Farq bundan katta bo'lganda boshmoklardan qaysi birining balandligi o'zgarganligi aniqlanadi va nivelerlash ishi balandligi o'zgarmagan boshmokdan boshlanadi.

2.14. Nivelirlashdagi xato manbalari va xatolik ta'sirini kamaytirish yo'llari.

Nivelirlashda asosiy xatolar manbaii quyidagilar:

1.Asboblar xatosi.

a) Nivelirning asosiy shartini bajarilmasligi.

Nivelirning asosiy sharti bajarilmasligida xosil bo'ladigan nisbiy balandlikning o'rta kvadratik xatosi

$$m_i = \pm (S_{opq} - S_{old}) \frac{i}{\rho} MM$$

bu yerda: i - vizir nuri bilan Silindrik adilak o'qi orasidagi burchak S_{orq}
 S_{old} - nivelerdan orqa va oldingi reykagacha bo'lgan masofa millimetrda.

$$i = \frac{b_2 - b_1}{S} \rho''$$

b) Adilak pufakchasing o'rtaga keltirilmasdagи xato (sanoq olishda)

$$m_{tutash} = (1.5 \tau'' S 10^{-4}) MM$$

bu yerda: τ - adilakning bo'lim qiymati

S - nivelerdan reykagacha bo'lgan masofa.

b) Sanoq olish xatosi (reykalan)

$$m_{san.} = \pm \left(0.03t + 0.20 \frac{S}{v} \right) MM$$

bu yerda: b - karash trubasining kattalashtirish darajasi
 t - reykaning bo'lim qiymati (shtrix kalinligi), millimetrda.
 S - nivelirdan reykagacha bo'lgan masofa metrda.

g) Nivelirlash reykalarini kam'arirlashdagi xatosi.

2. Nivelir va bashmak (reykalarning) vertikal siljishi.
3. Kuzatuv paytida reykaning holati vertikal bo'lmasligi.

$$\Delta b = \frac{b\varepsilon^2}{2\rho^2}$$

bu yerda: b - reykan ε burchakka ogishida reykadan olingan sanoq.

4. Asboblarga temperaturaning ta'siri.
5. Kuzatuvga refraksiya holatining o'zgarishidagi xatolar.

Bu xatolar manbaiining ayrimlari sistemtik, ayrimlari tasodifiy harakterga ega.

Bu xatolarni oldindan bilish va ularni etiborga olish to'liq mumkin emas.

Ularning ta'sirini kamaytirish uchun yo'riqnomada to'rdagi talablarga rioya qilish kerak.


Nazorat savollari:

1. Nivelirlashdagi xato manbalari.
2. Nivelirlashdagi xato manbaini ta'sirini kamaytirish yo'llari.

3 Bob. Tenglashtirish hisoblari

3.1. Yakka nivelir yo'lini tenglashtirish.

Berilgan n ta stantsiyali nivelir yo'li. A va B punktlarning absolyut balandliklari H_A va H_B Ma'lum. E nuqtaning absolyut balandligi H_E ni topish kerak. H_E nuqtaning absolyut balandligini ikki marta aniqlash mumkin: (chizma-1)



3.1 -rasm

- ⊗ Otmetkasi ma'lum reperlar
- Otmetkasi noma'lum reperlar

punkt A dan

$$H_E^1 = H_A + \sum_1^k h \quad (29)$$

punkt B dan

$$H_E^{11} = H_B - \sum_{k+1}^n h \quad (30)$$

E nuqtaning otmetkasi ikki yo'li bo'yicha H_E^1 va H_E^{11} nazariy bir-xil bo'lishi kerak, lekin bir – xil qiymatda bo'lmaydi, chunki o'lchash natijalarida sistematik va tasodifiy xatolar mavjud.

E nuqtaning extimoliy vazniy otmetkasi quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$H_E = \frac{H_E^1 P_E^1 + H_E^{11} P_E^{11}}{P_E^1 + P_E^{11}} \quad (31)$$

bu yerda:

$$P_E^1 = \frac{1}{\kappa} \quad P_E^{11} = \frac{1}{n - \kappa}$$

P_E^1 - H_E^1 otmetkaning vazni

P_E^{11} - H_E^{11} otmetkaning vazni

κ - A va Ye punktlar orasidagi stantsiyalar soni

' - Ye va V punktlar orasidagi stantsiyalar soni

Formula (3)ni soddalashtirish uchun (1) va (2) formulalar Farqin to'omiz

$$H_E^1 - H_E^{11} = H_A + \sum_1^k h - H_B + \sum_{k+1}^n h = \sum_1^n h - (H_B - H_A) \quad (32)$$

Formula (4) ning ung tomoni, bu niveler yo‘lining bog‘lanmasi, shuning uchun formula (4) kiuyidagi kurinish yezamiz.

$$H_E^1 - H_E^{11} = f_h \quad (33)$$

bu yerdan

$$H_E^{11} = H_E^1 - f_h \quad (34)$$

(31) formulaga (34) formmulaning qiymatini qo‘ysak

$$H_E = \frac{H_E^1 P_E^1 + (H_E^1 - f_h) P_E^{11}}{P_E^1 + P_E^{11}} \quad (35)$$

Soddalashtirilgandan so‘ng

$$H_E = \frac{H_E^1 P_E^1 + H_E^1 P_E^{11} - f_h P_E^{11}}{P_E^1 + P_E^{11}} = \frac{H_E^1 (P_E^1 + P_E^{11}) - f_h P_E^{11}}{P_E^1 + P_E^{11}} = H_E^1 - \frac{f_h P_E^{11}}{P_E^1 + P_E^{11}} \quad (36)$$

Formula (36) vazin qiymatini qo‘ysak

$$H_E = H_E^1 - f_h \frac{\frac{1}{n-\kappa}}{\frac{1}{\kappa} + \frac{1}{n-\kappa}} = H_E^1 - f_h \frac{\kappa(n-\kappa)}{n(n-\kappa)}$$

yoki so‘ngi ko‘rinishda

$$H_E = H_E^1 - f_h \frac{\kappa}{n} \quad (37)$$

formula (37) binoan yakka niveler yo‘lida yo‘l bog‘lanmasini teskari ishorasida xamma stantsiyalarga barobar tarqatish kerak ekan. To‘g‘rilangan nisbiy balandlik orqali punktlar otmetkalari hisoblanadi.

3.2. Yakka niveler yo‘lida tenglashtirish natijalariga baxo berish.

E punktning otmetkasining vazni quyidagiga teng.

$$P_E = P_E^1 + P_E^{11} \quad (1)$$

$$\text{yoki} \quad P_E = \frac{1}{\kappa} + \frac{1}{n-\kappa} = \frac{n}{\kappa(n-\kappa)} \quad (38)$$

Bu formuladan kurinib to‘ribdi yo‘ldagi nuqtaning otmetkasi bir – xil ishonchli qiymatga ega emas.

Vazin P_E (k) soni o‘zgarishiga boglik.

Yo‘ldagi nuqtaning ishonchli otmetkasi, vazin eng kichik bo‘lganda bo‘ladi.

Shuning uchun vazin $P_E = k(p - k)$ qiymatning kaysi qiymatida maksimum bo‘lishini aniqlaymiz.

Buning uchun funksiya $y = k(p - k)$ “ k ” qiymat qandayligida funksiya maksimal qiymatga ega bo‘lishini aniqlaymiz

$$y = k(p - k) = kp - k^2 \quad (39)$$

Differensiyalaymiz

$$\frac{dy}{dk} = n - 2k$$

Ozod xatni nolga tenglashtirib, topamiz

$$n - 2k = 0 \quad \kappa = \frac{n}{2} \quad (40)$$

Yo‘lning eng bo‘sh nuqtasi, yo‘lning o‘rtasida bo‘ladi.

Formulalar (38) va (40) asosida o‘rtadagi nuqtaning vazni, tenglashtirgandan so‘ng quyidagiga teng bo‘ladi.

$$P_E = \frac{n}{\frac{n}{2}(n - \frac{n}{2})} = \frac{2}{n - \frac{n}{2}} \quad \text{yoki} \quad P_E = \frac{4}{n} \quad (41)$$

Oraliqdagi punktning o‘rta kvadratik xatosi quyidagi formulada hisoblanadi.

$$M_{Hi} = \frac{m_{km}}{\sqrt{P_{Hi}}} \quad (42)$$

bu yerda:

m_{km} - bir kilometr uzunlikdagi yo‘lning nisbiy balandligining o‘rta kvadratik xatosi;

P_{Hi} - o‘rta kvadratik xatosi hisoblanayotgan punkt otmetkasining vazni.

Formulalar (41) va (42) asosida eng bo‘sh punktning o‘rta kvadratik xatosi:

$$M_E = \frac{m_{km}}{2} \sqrt{n} \quad (43)$$

$$M_E = \frac{m_{km}}{2} \sqrt{L}$$

Misol:

Eng bo'sh punktning tenglashtirgandan so'ng otmetkasining o'rta kvadratik xatosi qanday bo'ladi, agar yo'lning uzunligi $L = 49$ km, nisbiy balandlikning o'rta kvadratik xatosi $m_{km} = \pm 3$ mm teng bo'lsa.

Yechish:


$$M_{engbo'sh} = \pm \frac{3}{2} \sqrt{49} = \pm 10.5 \text{ mm}$$

Yakka niveleri yo'lida nisbiy balandlikni o'lhash jarayonidagi xatoliklar ta'sirida yo'l bo'yicha nisbiy balandliklarning yig'indisi boshlang'ich tayanch nuqtalarining balandliklar farqiga teng bo'lmaydi. Ushbu xolda yuzaga keladigan bog'lanmaslik xatosi har - bir sektsianing teskari vazinlariga proporsional tarzda teskari ishora bilan tarqatiladi, Ya'ni o'lchangan nisbiy balandliklarga tuzatmalar kiritiladi. Tenglashtirish bilan aniqlangan nisbiy balandliklar orqali oraliq reper balandliklarining ishonchliroq qiymatlari aniqlanadi.

Yakka niveleri yo'lida dala o'lhash natijalari aniqligiga baxo berish to'g'ri va teskari yo'nalish nisbiy balandliklari farqi bo'yicha amalga oshiriladi.

Yakka niveleri yo'lini tenglashtirishni konkret misolda ko'rib chiqamiz. Misolni yyechish-hisoblash jarayonida zaruriy formulalarni va tushuntirishni keltirib o'tamiz.

Misol: II - klass markalari oralig'ida o'tkazilgan III - klass yakka niveleri yo'lini tenglashtirish kerak. Nivelir yo'li bo'yicha Boshlang'ich ma'lumotlar va nisbiy balandliklar sxematik chizmada keltirilgan (2-chizma). Ushbu masalani yyechish tartibi maxsus tennglashtirish jadvaliga yozib boriladi.



3.2-rasm. Yakka niveler yo‘li sxemasi

Dala ish sifatiga baxo berish nivelerlash yo‘lining to‘g‘ri va teskari yo‘nalishidagi o‘lchangan nisbiy balandliklar farqi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Jadvalni 1-5 grafiklariga sxemadan kerakli boshlang‘ich ma’lumotlar ko‘chirib yozildi.

6-grafa to‘g‘ri va teskari yo‘nalish nisbiy balandliklarining arifmetik o‘rta qiymati yozildi. O‘rtacha nisbiy balandlik ishorasi to‘g‘ri yo‘nalish nisbiy balandligining ishorasiga mos tarzda olinadi. 7-grafaga (1) formula bilan hisoblangan to‘g‘ri va teskari yo‘nalish nisbiy balandliklarini farqi yozildi.

$$\Delta h = h_{to\cdot g\cdot ri} + h_{tes}. \quad (44)$$

Ushbu (*d*) farqlarni to‘g‘ri hisoblanganligini quyidagi ifoda bilan tekshirish mumkin:

$$\sum h_{to\cdot g\cdot ri} + \sum h_{tes.} = \Delta h$$

(44) formula bilan hisoblab topilgan farqlarni (45) formula yordamida aniqlangan uning chekli qiymatiga taqqoslanadi va dala o‘lhash natijalarini III-klass nivelerlash talabiga mos kelishi haqida xulosa chiqariladi.

$$\Delta h_{chek} = \pm 10 \text{mm} \sqrt{L_i} \quad (45)$$

bu yerda L_i - sektsiya uzunligi, km

Aniqlangan farqlarning chekli qiymati jadvalni 8-ustuniga yozildi. Bizning misolimizda 7 ta sektsiyaning barchasida dala natijalari talabga javob beradi.

b) Nisbiy balandliklarni tenglashtirish va oraliq reper otmetkalarini hisoblash

Dastlab sektsiyalar bo'yicha o'rtacha nisbiy balandliklar aniqlanadi va jadvalning 6-grafasiga yoziladi. Hisoblangan o'rtacha nisbiy balandliklarni quyidagi ifoda bilan kontrol qilinadi.

Nivelir yo'lidagi bog'lanmaslik xatosi

$$fh = \sum h_{o'r} - (H_{ox} - H_B) \quad (46)$$

formulasi bilan aniqlanadi. Bunda H_B -boshlang'ich tayanch marka otmetkasi va H_{ox} -oxirigi tayanch marka otmetkasi. Aniqlangan ushbu xato o'zining chekli qiymati bilan taqqoslanadi. Bog'lanmaslik xatosining chekli qiymati (4) formula yordamida hisoblanadi.

$$fh_{chek} = \pm 10 \sqrt{L_{km}} \quad (47)$$

Har bir sektsiya uchun o'lchanigan nisbiy balandliklarga tuzatmalar (48) formula yordamida aniqlanadi va jadvalning 11-grafasiga yoziladi.:

$$\nu_{h_i} = -\frac{fh}{L} \cdot L_i \quad (48)$$

Jadvalning 12 -grafasiga tuzatilgan nisbiy balandliklar yoziladi. Tuzatilgan nisbiy balandliklarni quyidagi formula bilan kontrol qilinadi:

$$\sum (h_{o'r} + \nu) = H_{ox} - H_B. \quad (49)$$

Shundan so'ng nivelir yo'lidagi oraliq reperlarning balandliklari hisoblanadi:

$$H_{i+1} = H_i + h_{o'r_i} + \nu_{h_i} \quad (50)$$

Bunda H_i - joriydan oldingi nuqtadan (marka yoki reper) balandligi;

H_{i+1} - navbatdagi (joriy) nuqta balandligi.

Hisoblab topilgan balandlik qiymatlari mos tarzda 13-grafaga yoziladi.

v) Dala o'lhash natijalari aniqligiga baho berish

Baho berish to'g'ri va teskari yo'nalish o'lchovlarining farqi (d_i) bo'yicha bajariladi. 1km yo'l uzunligiga mos o'rtacha nisbiy balandlikning o'rta kvadratik

xatosini ikki karra, ya’ni asosiy (51) va kontrol (52) formulalar yordamida hisoblanadi:

$$m_{\kappa_M} = \mu = \frac{1}{2} \sqrt{\left[\frac{\Delta h^2}{L} \right]} \quad (51)$$

$$m_{\kappa_M} = \mu \frac{1}{2} \sqrt{\left[\frac{\Delta h^2}{L} \right]} \quad (52)$$

(51) formulada: n - farqlar soni;

$$\frac{1}{L_i} = p_{h_i} - L_i \text{uzunlikdagi sektsiyada nisbiy balandlik vazni.}$$

(52) formulada esa teskari vazn ishtirok etadi:

$$\frac{1}{p_{h_i}} = L_i.$$

Hisoblangan (Δh_i^2) va $\left(\frac{\Delta h_i^2}{L_i} \right)$ kattaliklari jadvalning 53 va 54 grafalariga yoziladi. SHuni e’tiborga olish kerakki (Δh_i) -mm, L_i esa km birligida ifodalanadi.

Bajarilgan aniqlik bahosini ishonchli bo‘lishi uchun hisoblab topilgan xatoni o‘zini o‘rta kvadratik xatosi hisoblanadi:

$$m_{m_{\kappa_M}} = \frac{m_{\kappa_M}}{\sqrt{2n}} \quad (53)$$

g) Tenglashtirilgan qiymatlar aniqligini baholash

Tenglashtirilgan qiymatlar aniqligini baholash uchun nivelirlash yo‘lidagi oraliq reperlarning o‘rta kvadratik xatosini hisoblash zarur:

$$M_{H_i} = \frac{m_{\kappa_M}}{P_{H_i}} \quad (54)$$

Bu yerda P_{H_i} -o‘rta kvadratik xatosi hisoblanayotgan reper balandligining vazni.

P_{H_i} - quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$P_{H_i} = \frac{1}{[L]_1^i} + \frac{1}{[L]_{i+1}^n} = \frac{[L]_1^n}{[L]_1^i \cdot [L]_{i+1}^n} \quad (55)$$

Buerda $[L]_1^n$ - yo‘l umumiy uzunligi;

$[L]_1^i$ - boshlang‘ich markadan i nomerli repergacha bo‘lgan yo‘l uzunligi;

$[L]_{i+1}^n$ - oxirigi markadan i nomerli repergacha bo‘lgan yo‘l uzunligi.

Masalan, 2 reper uchun vazn quyidagicha aniqlanadi.


$$P_{H_2} = \frac{1}{10,5} + \frac{1}{24,6} = \frac{35,3}{10,5 \cdot 24,6} = 0,14$$

Hisoblangan vaznlarni jadvalning 14-grafasiga, o‘rta kvadratik xatolarni esa 15-grafaga yoziladi 16-grafaga (56) formula bilan aniqlangan reper xatoligini o‘zini o‘rta kvadratik xatosi hisoblab yoziladi:

$$m_{M_{H_i}} = \frac{m_{m.KM}}{\sqrt{P_{H_i}}} \quad (56)$$

3.3. Bir bog‘lovchi punktli niveler to‘rini tenglashtirish.

Absolyut balandligi ma’lum A, B, C va D nuqtalardan niveler yo‘llari $L_1 L_2$, L_3 va L_4 o‘tkazilgan.



3.3-rasm

To‘rning berilgan nuqtasini tenglashtirish uchun E tugun nuqta absolyut balandligining extimoliy qiymatini aniqlash kerak. Berilganlar bo‘yicha E nuqtaning 4 ta aloxida absolyut balandliklar qiymatini topishimiz mumkin:

$$H_E^I = H_A + \sum h_1$$

$$H_E^{II} = H_D + \sum h_2$$

$$H_E^{III} = H_B + \sum h_3$$

$$H_E^{IV} = H_C + \sum h_4$$

Nivelir yo‘llarining vazni quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$P_1 = \frac{4}{L_1}; \quad P_2 = \frac{4}{L_2}; \quad P_3 = \frac{4}{L_3}; \quad P_4 = \frac{4}{L_4}.$$

E tugun nuqtaning extimoliy qiymati:

$$H_E = \frac{H_E^I + H_E^{II} + H_E^{III} + H_E^{IV}}{P_1 + P_2 + P_3 + P_4} \quad (57)$$

Bundan keyin farq tuzamiz va aloxida yo‘llarning bog‘lanmaslik xatoliklarining bog‘lanmaslik xatoligini topamiz:

$$H_E^I - H_e = f_n^I,$$

$$H_E^{II} - H_e = f_n^{II},$$

$$H_E^{III} - H_e = f_n^{III},$$

$$H_E^{IV} - H_e = f_n^{IV}$$

Bu bog‘lanmaslik xatoliklari teskari ishora bilan teng yo‘lning xamma stantsiyalariga tarqatib chiqiladi va boshqa punktlarning absolyut balandliklari topiladi. Hisoblashlarni soddalashtirish maqsadida (1) formulaga aniqlanayotgan absolyut balandlikning taxminiy qiymati H_0 kiritiladi, keyngi hisoblashlar qoldiqlar bilan bajariladi:

Qoldiq:

$$H_E^I - H_0 = \varepsilon_1; \quad H_E^{II} - H_0 = \varepsilon_2; \quad H_E^{III} - H_0 = \varepsilon_3; \quad H_E^{IV} - H_0 = \varepsilon_4.$$

Unda formula (1)ko‘rinishni oladi:

$$H_E = H_0 + \frac{[\varepsilon \cdot P]}{[P]} \quad (58)$$

3.4. Tenglashtirish natijalariga baxo berish.

(Dala o'lhash ish sifatiga baxo berish)

Dala ish sifatiga baxo berish nivelerlash yo'lining to'g'ri va teskari yo'naliqidagi o'lchanan nisbiy balandliklar farqi bo'yicha amalga oshiriladi.

Jadvalni 1-5 grafiklariga sxemadan kerakli boshlang'ich ma'lumotlar ko'chirib yoziladi.

6-grafa to'g'ri va teskari yo'naliqidagi nisbiy balandliklarining arifmetik o'rta qiymati yoziladi. O'rtacha nisbiy balandlik ishorasi to'g'ri yo'naliqidagi nisbiy balandligining ishorasiga mos tarzda olinadi. 7-grafaga (59) formula bilan hisoblangan to'g'ri va teskari yo'naliqidagi nisbiy balandliklarini farqi yoziladi.

$$\Delta h = h_{to\cdot g\cdot ri} + h_{tes.} \quad (59)$$

Ushbu (Δh) farqlarni to'g'ri hisoblanganligini quyidagi ifoda bilan tekshirish mumkin:

$$\Sigma h_{to\cdot g\cdot ri} + \Sigma h_{tes.} = \Delta h$$

(59) formula bilan hisoblab topilgan farqlarni (60) formula yordamida aniqlangan uning chekli qiymatiga taqqoslanadi va dala o'lhash natijalarini III-klass nivelerlash talabiga mos kelishi haqida xulosa chiqariladi.

$$\Delta h_{i_{zde}} = \pm 10 \text{ ñ} \sqrt{L_i} \quad (60)$$

bu yerda L_i - sektsiya uzunligi, km

Aniqlangan farqlarning chekli qiymati jadvalni 8 -ustuniga yoziladi. Bizning misolimizda 7 ta sektsiyaning barchasida dala natijalari talabga javob beradi.

Nisbiy balandliklarni tenglashtirish va oraliq reper otmetkalarini hisoblash

Dastlab sektsiyalar bo'yicha o'rtacha nisbiy balandliklar aniqlanadi va jadvalning 6-grafasiga yoziladi. Hisoblangan o'rtacha nisbiy balandliklarni quyidagi ifoda bilan kontrol qilinadi.

Nivelir yo‘lidagi bog‘lanmaslik xatosi

$$fh = \Sigma h_{o\cdot r} - (H_{ox} - H_B) \quad (61)$$

formulasi bilan aniqlanadi. Bunda H_B -boshlangu ich tayanch marka otmetkasi va H_{ox} -oxirigi tayanch marka otmetkasi. Aniqlangan ushbu xato o‘zining chekli qiymati bilan taqqoslanadi. **Bog‘lanmaslik** xatosining chekli qiymati (62) formula yordamida hisoblanadi.

$$fh_{chek} = \pm 10 \sqrt{L_{km}} \quad (62)$$

Har bir sektsiya uchun o‘lchangan nisbiy balandliklarga tuzatmalar (63) formula yordamida aniqlanadi va jadvalning 11-grafasiga yoziladi.:

$$\nu_{h_i} = -\frac{fh}{L} \cdot L_i \quad (63)$$

Jadvalning 12 -grafasiga tuzatilgan nisbiy balandliklar yoziladi. Tuzatilgan nisbiy balandliklarni quyidagi formula bilan kontrol qilinadi:

$$\Sigma(h_{o\cdot r} + \nu) = H_{ox} - H_B \quad (64)$$

Shundan so‘ng nivelir yo‘lidagi oraliq reperlarning balandliklari hisoblanadi:

$$H_{i+1} = H_i + h_{\ddot{y}p_i} + \nu_{h_i} \quad (65)$$

Bunda H_i - joriydan oldingi nuqtadan (marka yoki reper) balandligi;

H_{i+1} - navbatdagi (joriy) nuqta balandligi.

Hisoblab topilgan balandlik qiymatlari mos tarzda 13-grafaga yoziladi.

Dala o‘lchash natijalari aniqligiga baho berish

Baho berish to‘g‘ri va teskari yo‘nalish o‘lchovlarining farqi (d_i) bo‘yicha bajariladi. 1km yo‘l uzunligiga mos o‘rtacha nisbiy balandlikning o‘rta kvadratik xatosini ikki karra, Ya’ni asosiy (66) va kontrol (67) formulalar yordamida hisoblanadi:

$$m_{\hat{e}_i} = \mu = \frac{1}{2} \sqrt{\frac{\left[\frac{\Delta h^2}{L} \right]}{n}} \quad (66)$$

$$m_{\hat{e}_i} = \mu \frac{1}{2} \sqrt{\frac{\left[\Delta h^2 \right]}{[L]}} \quad (67)$$

(66) formulada:

n - farqlar soni;

$$\frac{1}{L_i} = p_{h_i} - L_i \text{uzunlikdagi sektsiyada nisbiy balandlik vazni.}$$

(67) formulada esa teskari vazn ishtirok etadi:

$$\frac{1}{p_{h_i}} = L_i.$$

Hisoblangan (Δh_i^2) va $\left(\frac{\Delta h_i^2}{L_i} \right)$ kattaliklari jadvalning 9 va 10 grafalariga yoziladi. SHuni e'tiborga olish kerakki (Δh_i) -mm, L_i esa km birligida ifodalanadi.

Bajarilgan aniqlik bahosini ishonchli bo'lishi uchun hisoblab topilgan xatoni o'zini o'rta kvadratik xatosi hisoblanadi:

$$m_{m_{KM}} = \frac{m_{KM}}{\sqrt{2n}} \quad (68)$$

Tenglashtirilgan qiymatlar aniqligini baholash

Tenglashtirilgan qiymatlar aniqligini baholash uchun nivelirlash yo'lidagi oraliq reperlarning o'rta kvadratik xatosini hisoblash zarur:

$$M_{H_i} = \frac{m_{KM}}{P_{H_i}} \quad (69)$$

Bu yerda P_{H_i} -o'rta kvadratik xatosi hisoblanayotgan reper balandligining vazni.

P_{H_i} - quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$P_{H_i} = \frac{1}{[L]_1^i} + \frac{1}{[L]_{i+1}^n} = \frac{[L]_1^n}{[L]_1^i \cdot [L]_{i+1}^n} \quad (70)$$

Buerda $[L]_1^n$ - yo‘l umumiy uzunligi;

$[L]_1^i$ - boshlang‘ich markadan i nomerli repergacha bo‘lgan yo‘l uzunligi;

$[L]_{i+1}^n$ - oxirigi markadan i nomerli repergacha bo‘lgan yo‘l uzunligi.

Masalan, 2 reper uchun vazn quyidagicha aniqlanadi.

$$P_{H_2} = \frac{1}{10,5} + \frac{1}{24,6} = \frac{35,3}{10,5 \cdot 24,6} = 0,14$$


Hisoblangan vaznlarni jadvalning 14-grafasiga, o‘rta kvadratik xatolarni esa 15-grafaga yoziladi 16-grafaga (71) formula bilan aniqlangan reper xatoligini o‘zini o‘rta kvadratik xatosi hisoblab yoziladi:

$$m_{M_{H_i}} = \frac{m_{m.KM}}{\sqrt{P_{H_i}}} \quad (71)$$

3.5. Nivelir to‘rini ekvivalent almashtirish usulida tenglashtirish.

Ekvivalent almashtirish usuli bir nechta tugun nuqtali nivelir to‘rini tenglashtirishda qo‘llaniladi. Ushbu usul tenglashtirish hisoblarini bajarmasdan to‘rib to‘rdagi reper balandliklarini vaznini aniqlash imkonini bergani uchun, to‘rlardagi tugun punktlarning aniqlik hisobini bajarishda qo‘llanilishi mumkin. Bu esa geodezik to‘rlarni loyihasini baxolash imkonini yuzaga keltiradi.

Ekvivalent almashtiruv usulida nivelir to‘ri 1 tugun nuqtali ko‘ri-nishga keltirilib tenglashtirish ishlari bajariladi. Buning uchun to‘rda mavjud bo‘lgan ikki (yoki bir nechta) nivelir yo‘li ($L_1 L_2$) mavxum bir yo‘l ($L_{1,2}$) bilan almashtiriladi. Bunda mavhum ekvivalent yo‘l vazn ji-xatidan mavjud yo‘llar vaznlari yig‘indisiga teng bo‘ladi va ekvivalent yo‘l bo‘yicha aniqlangan reper balandligining qiymati mavjud yo‘llar bo‘yicha aniqlangan qiymatiga teng aniqlikda topiladi.



⊗ - Berilgan otmetkasi ma'lum reperlar.

○ - tugun otmetkasi noma'lum reperlar.

3.4-rasm

Ikki tugun punktli beshta yo'ldan iborat niveler to'ri berilgan, (chizma – 1), uni ekvivalent almashtirish usulida tenglashtirish kerak.

h_1, h_2, h_3, h_4, h_5 - o'lchangan nisbiy balandliklar.

L_1, L_2, L_3, L_4, L_5 - yo'l uzunliklari.

Birinchi va ikkinchi yo'llarni bitta ekvivalent yo'l bilan almashtiramiz. Buning uchun birinchi va ikkinchilar bo'yicha tugun punkt E taxminiy otmetkasini va yo'llar vaznini hisoblaymiz.

$$H_1 = H_A + \sum h_1 \quad H_2 = H_B + \sum h_2 \quad (72)$$

$$P_1 = \frac{1}{L_1} \quad P_2 = \frac{1}{L_2} \quad (73)$$

E tugun punktning ikki yo'l bo'yicha taxminiy otmetkasini hisoblaymiz.

$$H_{1,2} = \frac{H_1 P_1 + H_2 P_2}{P_1 + P_2} \quad (74)$$

Taxminiy otmetka $H_{1,2}$ vaznini hisoblaymiz

$$P_{1.2} = P_1 + P_2 \quad (75)$$

Vazin $R_{1,2}$ bir vaqtda, ekvivalent $L_{1.2}$ yo‘lning vazni bo‘ladi. Ekvivalent yo‘lning uzunligini topamiz.

$$L_{1.2} = \frac{1}{P_{1.2}} \quad (76)$$

Birinchi va ikkinchi yo‘llarni ekvivalent yo‘l bilan almashtirib niveler to‘rini soddalashtirildi ya’ni bir F tugun punktli turtinchi, beshinchi va ekvivalent yo‘llardan iborat turga aylandi.

Bu tur bo‘yicha tugun F punktning taxminiy otmetkasini hisoblaymiz.

$$\text{Turtinchi yo‘l bo‘yicha } (L_4) \quad H_4 = H_C + \sum h_4$$

$$\text{Beshinchi yo‘l bo‘yicha } (L_5) \quad H_5 = H_D + \sum h_5$$

$$\text{Ekvivalent yo‘l bo‘yicha } (L_{1.2+3}) \quad H_{1.2+3} = H_{1,2} + \sum h_3$$

Yo‘llar vaznini topamiz.

$$P_4 = \frac{1}{L_4} \quad P_5 = \frac{1}{L_5} \quad P_{1.2+3} = \frac{1}{L_{1.2} + L_3}$$

Tugun F punktning xaqiqiy otmetkasini hisoblaymiz.

$$H_F = \frac{H_4 P_4 + H_5 P_5 + H_{1.2+3} P_{1.2+3}}{P_4 + P_5 + P_{1.2+3}} \quad (77)$$

Yo‘llar bog‘lanmasini aniqlaymiz.

$$H_4 - H_F = f h_4 \quad H_5 - H_F = f h_5 \quad H_{1.2+3} - H_F = f h_{1.2+3}$$

Turtinchi va beshinchi yo‘llar yakka yo‘l singari tenglashtiriladi.

Ekvivalent yo‘l quyidagcha tenglashtiriladi:

Bir kilometr ekvivalent yo‘l uchun tuzatma topiladi.

$$W = -\frac{H_{1.2+3} - H_F}{L_{1.2} + L_3} \quad (78)$$

Uchunchi yo‘l uchun tuzatma topamiz $W_3 = L_3 W$ va yakka yo‘l kabi tenglashtiriladi.

Tugun E punktning xakikiy otmetkasini hisoblaymiz.

$$H_E = H_{1.2} + L_{1.2} W \quad (79)$$

Undan so‘ng birinchi va ikkinchi yo‘llar tenglashtiriladi. Buning uchun yo‘llar bog‘lanmasi hisoblanadi:

$$H_1 - H_E = f h_1 \quad H_2 - H_E = f h_2$$

Bog‘lanmalar teskari ishorasi bilan stantsiyalarga barobar tarqatiladi, yo‘ldagi qolgan punktlarning otmetkasi hisoblab topiladi.

Tuzatmalar orqali dala o‘lchash natijalariga baxo berish.

Vazin birligining o‘rta kvadratik xatosi (4km. uzunlikdagi nisbiy xatolik)

$$\mu = \pm \sqrt{\frac{PV^2}{n-k}} \quad (80)$$

bu yerda: n – yo‘llar soni.

k – tugun punktlar soni.

Bir kilometr uzunlikdag nisbiy balandlikning o‘rta kvadratik xatosi.

$$m_{rv} = \frac{\mu}{\sqrt{C}} \quad \text{bu yerda: } C = \frac{L_{\min} + L_{\max}}{2} \quad (81)$$

Tenglashtirilgan tugun punktning otmetkasi aniqligini baxolash.

Buning uchun avval reperlar otmetkasining vazni ekvivalent almashtirish usulda hisoblab topiladi.

$$P_{Hi} = P_1 + P_2 + \dots + P_n$$

Tenglashtirilgan tugun reperlar otmetkalarining o‘rta kvadratik xatosi:

$$M_{Hi} = \frac{\mu}{\sqrt{P_{Hi}}} \quad (82)$$

Misol. Nivelir to‘rini ekvivalent almashtirish usulida tenglashtirish.


III -klass niveler to‘ri shemasini ko‘rib chiqamiz (chizma – 2). To‘rda uchta tugun nuqta va uchta absolyut balandliklari Ma’lum bo‘lgan tayanch markasi mavjud bo‘lib ular o‘zaro 7 ta nivelerlash yo‘llari bilan tutashgandir.

Tayanch marka otmetkalari, niveler yo‘llarini tartib raqami, yo‘nalishi va yo‘l bo‘yicha o‘lchangan nisbiy balandlik qiymatlari shemada kursatilgan.

Tenglashtirish boshqa tenglashtirish usullaridagi kabi 4 pog‘onada amalga oshiriladi:

- nivelerlash sifatiga baho berish;

- nisbiy balandliklarni tenglashtirish Ya’ni tugun reper otmetkalarini ishonchli qiymatini hisoblash va nisbiy balandliklarni tenglashtirish;
- dala o‘lhash natijalariga baho berish;
- tenglashtirilgan qiymatlar aniqligini baholash.



3.5-rasm Nivelir to‘ri sxemasi

a) Nivelirlash sifatiga baho berish

Tenglashtirishdan avval dala o‘lhash natijalarini joriy klass nivelirlash talablariga mos kelishi tekshiriladi. Buning to‘rda mustaqil poligonlar tanlanadi va har bir poligon bo‘yicha balandliklarni **bog‘lanmaslik** hatosi ushbu poligon ‘erimetridan kelib chiquvchi bog‘lanmaslik xato cheki bilan taqqoslanadi va xulosa chiqariladi.

Mustaqil poligonlar sonini 2 xil ko‘rinishdagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$r = n - k \quad \text{yoki} \quad r = N + T - 1$$

bu yerda: n - barcha o‘lhashlar soni (Nivelir yo‘llari soni)

k - zaruriy o‘lhashlar soni (noMa’lumlar soni)

N - to‘rda mavjud bo‘lgan tutash poligonlar soni

T - tayanch markalar soni.

Bizning misolda $n = 7$ va $k = 3$, demak poligonlar soni $r = 7 - 3 = 4$.

Yoki tutash poligonlar soni $N = 2$, tayanch markalar soni $T = 3$,

demak $r = 2 + 3 - 1 = 4$.

Joriy to‘r uchun 4 ta poligon tanlaymiz. poligonlar rim raqamlari bilan belgilanib, har bir nisbiy balandliklarni soat strelkasi yo‘nalishidagi yig‘indisini hisoblaymiz.

Hisoblash natijalarini jadvalga yozamiz. Har bir poligon bo‘yicha bolgplanmaslik xatosini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

Ochik poligon uchun:

$$fh_i = \sum h - (H_{oxup} - H_{ouu})$$

Yopiq poligon uchun: (83)

$$fh_i = \sum h$$

bu yerda: h - har bir poligonda ishtirok etuvchi niveler yo‘llaridagi to‘g‘ri va teskari yo‘nalish nisbiy balandliklarining o‘rtachalarini yig‘indisi.

H_{bosh} va H_{oxir} - otmetkasi ma’lum boshlang‘ich va oxirgi berilgan reperlar otmetkasi.

Bizning shaklda har bir yo‘l bo‘yicha hisoblangan o‘rtacha nisbiy balandlikni qiymati kursatilgan.

Nivelir to‘ri aniqligi jixatdan III- klassga tegishli bo‘lgani uchun

$$cheklifh_i = \pm 10\sqrt{L_{km}}$$

formulasi orqali bog‘lanmaslik xatosi chekli qiymatini aniqlaymiz.

Joriy to‘rda ikkita tugun poligon mavjud, bizga zaruriy poligonlar soni 4 ta. Shu sababdan tayanch markalari oralig‘ida ikkita notutash poligonlar tanlashimizga to‘g‘ri keladi.

poligonlarni aylanib chiqish yo‘nalishi sxemada strelka bilan kursatiladi va hisoblash natijalari jadvalga yoziladi.

poligonlar bo‘yicha nisbiy balandlik bog‘lanmasi xatosini hisoblash

3.1-jadval

poligon №	poligonni aylanish tartibi	poligonga kiruvchi yo‘llar nomeri	poligon bog‘lanmaslik xatosi fh , mm	poligon uzunligi L km	poligon bog‘lanmaslik xato cheki f _h ,mm	poligon bo‘yicha tuzatmalar V yig‘indisi
1	2	3	4	5	6	7
I	52- M dan 52 - M gacha	2,4,3	+10	16.1	± 40	-10,0
II	52- M dan 52+M gacha	4,5,6	0	9.4	± 30	0,0
III	43- M dan 52- M gacha	1,2	+8	5.7	± 24	-8,0
IV	52- M dan 143- M gacha	5,7	+8	3.6	± 19	-8,0

Ushbu misoldan poligonlarda barcha bog‘lanmaslik hatolari qiymatan o‘z chekli qiymatidan oshmaydi, shuning uchun tenglashtirishga o‘tishimiz mumkin.

b) Nisbiy balandliklarni tenglashtirish va tugun reperlarining otmetkalarini hisoblash

Yuqorida aytganimizdek ekvivalent almashtirish usulida masala ko‘‘ tugun nuqtali niveler to‘rini bir tugun nuqtali to‘r ko‘rinishiga keltirib tenglashtirishdir.

Bizning misolimizdagi to‘rda (3.5.2-rasm) uchta tugun nuqta mavjud bo‘lib, biz ushbu nuqtalardan birini asos qilib olishimiz kerak. Masalan R’13 ni tugun nuqta sifatida qoldirsak ushbu nuqtada uchta yo‘l tutashadi. bitta 4-oddiy yo‘l xamda ikkita murakkab yo‘l (1,2+3) va (5,7+6) tutashadi; har bir murakkab yo‘l o‘z o‘rnida ekvivalent (1,2) yoki (5,7) yo‘llardan va haqiqiy 3 yoki 6 yo‘ldan tashqil topadi. (3.5.2-rasm).

Agar tugun nuqta sifatida Rp₁₄ ni olsak, unga ham uchta yo‘l ikkita 5 va 7- oddiy yo‘l hamda [(1,2 + 3), 4 + 6] murakkab yo‘l tutashadi.

Tenglashtirishni 3-variantida tugun nuqta tarzida R'12 ni olishimiz mumkin. Bu xolda xam unda uch yo'1 tutashadi: ikkita 1 va 2- oddiy yo'1 xamda bitta murakkab yo'1 $[(5,7 + 6), 4 + 3]$

Masalani yyechish uchun ushbu kursatilgan variantlardan birinchisini olamiz. Hisob natijalarini 2- jadvalga yozib boramiz, so'ngra mayjud 1 va 2 yo'lini ekvivalent 1, 2 yo'1 bilan almashtiramiz. Ekvivalent 1, 2 yo'lning vazni mavjud 1 va 2 yo'1 vaznlarini yig'indisiga teng bo'ladi, ya'ni

$$P_{1,2} = P_1 + P_2 \quad (84)$$

3.2- jadval.

Yo'1 №	Berilgan marka va reperlar №	O'lchang an nisbiy balandlik	Yo'1 uzunligi L(km)	Hisoblangan reper otmetkalari	Qoldiq ε, mm	vazn R= $\frac{4}{L}$	pε,	So'ngi otmetkalar H, m	Tuzatma V mm	PV ²
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
				Rp12				160,748 ₂		
1	43	-0,681	1,4	160,750	8	2,86	22,8		-1,8	9,4
2	52	+3,010	4,3	160,742	0	0,93	0		+6,2	35,7
1,2			1,05	160,748 ₀		3,79	22,8		+0,2	
3		-4,621	6,3			0,64			+1,4	1,2
5	52	+0,644	1,4	Rp14 158,376	8	2,86	22,8	158,373 ₁	-2,9	24,1
7	143	+3,153	2,2	158,368	0	1,82	0		+5,1	47,4
5,7			0,86	158,372 ₉		4,68	22,8		+0,2	
6		-2,245	2,5			1,60			+0,5	0,4
1,2+3			7,35	156,127 ₀	0	0,54	0		+1,6	
5,7+6			3,36	156,127 ₉	0,9	1,19	1,1		+0,7	
4	52	-1,061	5,5	156,131	4,0	0,73	2,9		-2,4	4,2
				156,128 ₆		2,46	4,0			122,4

Dastlab jadvalni 1.2.3.4 grafalariga 3.5.2 - chizmadagi sxemadan R_{p12} ni balandligini hisoblash uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich ma’lumotlar olib yoziladi.

$$\text{Mavjud yo‘l vaznlarini hisoblash uchun } P_i = \frac{C}{L_i} \quad (84) \quad \text{formulasidan}$$

foydalaniladi. Bunda S hisoblashda vaznlar qiymati katta bo‘lmagan kattalikda ifodalanishi uchun tanlanadigan doimiy son bo‘lib, u quyidagi formula orqali hisoblanadi

$$C = \frac{L_{\min} + L_{\max}}{2} \quad (85)$$

Bunda L_{\min} va L_{\max} – to‘rdagi yo‘llarning minimal va maksimal uzunliklarining qiymati. Bizning misolda

$$C = \frac{6.3 + 1.4}{2} = 3.8 \approx 4$$

$$\text{demak } P_2 = \frac{C}{L_2} = \frac{4}{4.3} = 0.93 \quad P_1 = \frac{C}{L_1} = \frac{4}{1.4} = 2.86$$

topilgan qiymatlarni jadvalni tegishli grafasiga yozamiz.

12-reperning tarkibiy otmetkasini 1 va 2 yo‘llar bo‘yicha aniqlash mumkin. Ya’ni $N_{12} = H_{m43} + h_1 = 161.431 + (-0.681) = 160.750\text{m}$

$$H_{12} = H_{m52} + h_2 = 157,732 + 3,010 = 160,742\text{m}$$

tugun nuqta 12 - reper otmetkasining xaqiqiy qiymatini aniqlash maqsadida ishtirokchi yo‘l vaznlarini e’tiborga olamiz va quyidagi formula orqali hisoblaymiz.

$$H^1 = H_0 + \frac{[\varepsilon P]}{[P]} \quad (86)$$

bunda H_0 - aniqlanayotgan reperning tarkibiy otmetkasi qiymati bo‘lib, u 1 va 2 yo‘llar bo‘yicha aniqlangan otmetkalarining eng kichigiga tengdir, bizning misolimizda $H_0 = 160.742$ ga tengdir.

ε - har bir ishtrokchi yo‘l bo‘yicha aniqlangan otmetkalar va taqribiylar orasidagi farq bo‘lib, u quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$\varepsilon_i = H_0 - H_i \quad (87)$$

$$\text{Bizning misolimizda } \varepsilon_1 = 160.742 - 160.750 = 0.008\text{m} = 8\text{mm}$$

$$\varepsilon_2 = 160.742 - 160.742 = 0$$

[P] - o‘lchangan yo‘llar bo‘yicha reperning hisoblangan vaznlar yig‘indisidi;

$$[P] = 2.86 + 0.93 = 3.79$$

[εP] - tugun nuqtaga keluvchi yo‘l bo‘yicha qoldiklarni yo‘l vazniga ko‘paytmalarining yig‘indisi. $[\varepsilon P] = [22.8 + 0] = 22.8$

4 - formulani o‘ng qismidagi taqrifiy otmetka H_0 metr kattalikda, so‘nggi qismi $\frac{[\varepsilon P]}{[P]}$ millimetru kattaligida bo‘ladi.

12 - reperning otmetkasini hisoblaymiz.

$$H_{12}^1 = H_0 + \frac{[\varepsilon P]}{[P]} = 160.742 + \frac{22.8}{3.79} = 160.748_0$$

Shundan so‘ng ekvivalent yo‘l uzunligini hisoblaymiz.

Ekvivalent yo‘l uzunligi (6) formula bilan aniqlanadi.

$$L_{1,2} = \frac{C}{P_{1,2}} \quad (88)$$

bunda S (3) formula orqali aniqlangan doimiy qiymat,

$$P_{1,2} = P_1 + P_2 \quad P_{1,2} - ekvivalent yo‘l vazni;$$

$P_1 P_2$, ekvivalent yo‘lni tashqil etgan 1-chi va 2-chi yo‘llar vaznlari.

Jadvalning 4-grafasiga 1.2 ekvivalent yo‘l uzunligi $L_{1,2}$ (88) - formula bilan hisoblab yozamiz. $S = 4$ teng.

$$L_{1,2} = \frac{4}{3.79} = 1.05$$

Jadvalning quyisi qatoriga yolg‘iz 3-yo‘l bo‘yicha nisbiy balandligi, yo‘l uzunligi va yo‘l vazni ko‘chirib yoziladi.

Shundan so‘ng 14 - reperga o‘tamiz. Yo‘l uzunligi 0.86 km bo‘lgan, 4.68 vaznli 5.7 ekvivalent yo‘li orqali aniqlaymiz.

5.7 ekvivalent yo‘liga tegishli barcha qiymatlar 5.7 qatorni mos grafalariga yozib chiqiladi. Undan keyingi qatorga 6 yo‘lga tegishli nisbiy balandlik, yo‘l uzunligi va yo‘l vazninining qiymatlari yozib chiqiladi.

Hisoblab topilgan 12 va 14 reper otmetkalarini qiymati yakuniy bo‘lmadan taqrifiy hisoblari bo‘yicha, sabab ularni har birini hisoblashda to‘rdagi yettita yo‘lda faqat ikkita yo‘l ishtirok etganidir.

Shundan so‘ng 13 - reper otmetkasini aniqlashga o‘tamiz. Ushbu balandlik (1.2+3); (5.7+6) va 4 yo‘llari orqali o‘rtacha vaznlik, balandlik tarzida hisoblanadi. 13 - reper otmetkasini murakkab (1.2+3) ekvivalent yo‘li orqali aniqlash uchun 12 - reperning boshlang‘ich taqribiy otmetkasiga ushbu reperlarni bog‘lab turuvchi 3- yo‘l nisbiy balandligi bo‘yicha hisoblaymiz.

$$H'_{13} = H_{12} + h_3 = 160.748_0 + (-4.621) = 156.127_0 \text{ m.}$$

Murakkab yo‘l (1,2+3) uzunligini uni tashqil etuvchi yo‘llar uzunliklarining yig‘indisi tarzida aniqlash mumkin.

$$L_{1.2+3} = L_{1.2} + L_3 = 1.05 + 6.3 = 7.35 \text{ km}$$

Ushbu yo‘l vazni esa quyidagiga teng bo‘ladi:

$$P_{1.2+3} = \frac{C}{L_{1.2+3}} = \frac{4}{7,35} = 0,54$$

Shu yo‘sinda 13 - reper otmetkasini murakkab (5.7+6) ekvivalent yo‘li orqali aniqlash mumkin.

$$H'_{13} = H'_{14} + h_6 = 158.372_9 + (-2,245) = 156.127_9$$

$$L_{5.7+6} = L_{5.7} + L_6 = 0.86 + 2.5 = 3.36 \text{ km}$$

$$P_{5.7+6} = \frac{C}{L_{5.7+6}} = \frac{4}{3.36} = 1.19$$

13 - reperning otmetkasini (4) - formula yordamida hisoblasak

$$H'_{13} = H_0 + \frac{[EP]}{[P]} = 156.127_0 + \frac{4.0}{2.46} = 156.128_6$$

Ushbu otmetka yakuniy va ishonchli hisoblanadi, bunga sabab uni hisoblashda to‘rdagi barcha yo‘llar ya’ni yettita yo‘l ishtirok etdi.

So‘ngra to‘rdagi 12 va 14 reperlarning ishonchli vazniy otmetka qiymatlarini topishga o‘tamiz. Buning uchun to‘rdagi barcha ishtirokchi yettita yo‘lga tuzatmalar quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V_i = H_i - H'_i \quad (89)$$

Dastlab 13-reperga keluvchi yo‘llar uchun tuzatmalar hisoblanadi:

$$V_{1.2+3} = 156.128_6 \text{ m} - 156.127_0 \text{ m} = +1.6 \text{ mm}$$

$$V_{5.7+6} = 156.128_6 \text{ m} - 156.127_9 \text{ m} = +0.7 \text{ mm}$$

$$V_4 = 156.128_6 \text{ m} - 156.131_0 \text{ m} = -2,4 \text{ mm}$$

Murakkab yo'llar bo'yicha topilgan tuzatmalar, uni tashqil etuvchi yo'1 uzunliklariga proporsional tarzida tarqatiladi. Masalan (1.2+3) yo'li 1.2 va 3 yo'llardan tashqil to'gani uchun

$$V_{1,2} = \frac{V_{1,2+3} \times L_{12}}{L_{1,2+3}} = \frac{1,6 \times 1,05}{7,35} = +0,2$$

$$V_3 = \frac{V_{1,2+3} \times L_3}{L_{1,2+3}} = \frac{1,6 \times 6,30}{7,35} = +1,4$$

Topilgan tuzatma qiymatlarini quyidagi tenglik orqali nazorat qilish mumkin:

$$V_{1,2+3} = V_{1,2} + V_3 = (+0,2) + (+1,4) = +1,6 \text{ mm}$$

Hisoblab topilgan tuzatma qiymatlari jadvalning tegishli joyiga yoziladi.

12 - reper otmetkasining yakuniy ishonchli qiymati uning taqrifiy balandlik qiymatiga 1.2 ekvivalent yo'1 tuzatmasini kiritish orqali aniqlanadi.

$$H_{12} = H_{12}^1 + V_{1,2} = 160,748_0 + 0,2 \text{ mm} = 160,748_2 \text{ m}$$

Ushbu qiymatlar jadvalga yoziladi 1 va 2 yo'llar uchun tuzatmalarni 12- reper otmetkasining ishonchli qiymatidan ushbu yo'llar bo'yicha aniqlangan uracha vazniy ehtimoliy otmetkalarni ayirish orqali hisoblash mumkin. Masalan:

$$V_1 = 160,748_2 \text{ m} - 160,750 \text{ m} = -1,8 \text{ mm.}$$

$$V_2 = 160,748_2 \text{ m} - 160,748 \text{ m} = +6,2 \text{ mm.}$$

Shunday usulda $V_{5,7}$ va V_6 tuzatmalarini 14-reper otmetkasining ishonchli qiymatini va 5 - yo'l, 7- yo'l uchun tuzatmalar hisoblab chiqiladi.

Tenglashtirilgan to'rda yakuniy nazorat bo'lib oldinda belgilangan poligonlar bo'yicha hisoblangan tuzatmalarni tekshirish hisoblanadi. Har bir poligon bo'yicha quyidagi tenglik bajarilishi kerak:

$$[V]_i = -f h_i \quad (90)$$

Hisoblangan $[V]$ qiymatlarini 1- jadvalning tegishli grafasiga yoziladi.

v) Dala o'lchash natijalariga baho berish

O'rtacha nisbiy balandlikning vazin birligidagi o'rta kvadratik xatosi μ tuzatmalar bo'yicha quyidagicha aniqlanadi.

$$\mu = \pm \sqrt{\frac{PV^2}{n-k}} \quad (91)$$

bu yerda: P - yo‘l bo‘yicha o‘rtacha nisbiy balandlik vazni,

V - yo‘l bo‘yicha tuzatma,

n - to‘rdagi barcha niveler yo‘llari soni,

k - tugun nuqtalar soni.

Bir kilometr uzunlikdagi yo‘l nisbiy balandligining o‘rta kvadratik xatosi quyidagicha aniqlanadi.

$$m_{km} = \frac{\mu}{\sqrt{C}} \quad (92)$$

bunda C – tenglashtirishda yo‘l uzunligi orqali vazn hisoblash uchun tanlangan doimiy son. Bizning misolda $C = 4$.

g) Tenglashtirilgan otmetka qiymatlari aniqligiga baho berish

Barcha tugun reper otmetkalarining tenglashtirilgan qiymatlarining o‘rta kvadratik xatosini aniqlash uchun dastlab (93) formula orqali otmetka vaznlari hisoblanadi.

$$P_{Hi} = P_1 + P_2 + \dots + P_n \quad (93)$$

13- reper otmetkasi vaznnini hisoblangan qiymati bevosita 3- jadvalni grafasidan olinadi. $P_{H13} = 2.45$.

12- reper va 14 reper vaznlarini ekvivalent almashuv usuli orqali aniqlaymiz:

$$P_{H12} = P_1 + P_2 + P_{[(5,7+6),4]+3}$$

$$P_{H14} = P_7 + P_5 + P_{[(1,2+3),4]+6}$$

Tugun punktlarning vazinlari Aniqlangan vaznlar aloxida jadvalga yoziladi

3.3- jadval.

Yo'llar №	L _{km}	P = $\frac{4}{L}$	Yo'llar №	L _{km}	P = $\frac{4}{L}$
5	1.4	2.86	1	1.4	2.86
7	2.2	1.82	2	4.3	0.93
5.7	0.86	4.68	1.2	1.05	3.79
6	2.5		3	6.3	
5.7+6	3.36	1.18	1.2+3	7.35	0.54
4	5.5	0.73	4	5.5	0.73
(5.7+6),4	2.10	1.91	(1.2+3)4	3.14	1.27
3	6.3		6	2.5	
(5.7+6),4+3	8.40	0.48	(1.2+3),4+6	5.64	0.72
1	1.4	2.86	5	1.4	2.86
2	4.3	0.93	7	2.2	1.82
		P _{r12} = 4.27			P _{r14} = 5.40

Aniqliqka baxo berishni yakunlash uchun xatoni o'zini o'rta kvadratik xatosi hisoblanadi:

$$m_{\mu} = \frac{\mu}{\sqrt{2(n-k)}} \quad (94)$$

$$m_{MHi} = \frac{m_{\mu}}{\sqrt{P_{Hi}}} \quad (95)$$

Bizning misolda:

Vazin birligidagi o'rtacha nisbiy balandlikning tuzatmalar bo'yicha baxolashning o'rta kvadratik xatosi:

$$\mu_4 = \sqrt{\frac{122.4}{7-3}} = \pm 5.5 \text{ mm} \quad m_{\mu} = \frac{5.5}{\sqrt{8}} = \pm 1.94$$

Yo'1 uzunligi bir kilometr bo'lganda, o'rtacha nisbiy balandlikning o'rta kvadratik xatosi:

$$m_{km} = \frac{5.5}{\sqrt{4}} = \pm 2.8$$

To'rdagi tugun reperlarning o'rta kvadratik xatosi:

$$M_{H_{p12}} = \pm \frac{5.5}{\sqrt{4.27}} = \pm 2.8\text{mm} \quad m_{H_{p12}} = \frac{1.94}{\sqrt{4.27}} = \pm 0.94\text{mm}$$

$$M_{H_{p13}} = \frac{5.5}{\sqrt{2.45}} = \pm 3.5\text{mm} \quad m_{H_{p13}} = \frac{1.94}{\sqrt{2.45}} = \pm 1.24\text{mm}$$

$$M_{H_{p14}} = \frac{5.5}{\sqrt{5.40}} = \pm 2.4\text{mm} \quad m_{H_{p14}} = \frac{1.94}{\sqrt{5.40}} = \pm 0.83\text{mm}$$

Javob: To‘rdagi tugun reperlarning tenglashtirilgan otmetkasi va ularning aniqligi.


$$H_{rp\ 12} = 160.748_2 \text{ m } \pm 2.8 \text{ mm } (\pm 0.94 \text{ mm})$$

$$H_{rp\ 13} = 156.128_6 \text{ m } \pm 3.5 \text{ mm } (\pm 1.24 \text{ mm})$$

$$H_{rp\ 14} = 158.373_1 \text{ m } \pm 2.4 \text{ mm } (\pm 0.83 \text{ mm})$$

3.6. Nivelir to‘rini ketma – ket yaqinlashish usulida tenglashtirish

Nivelir to‘rining sxemasi.



3.6- rasm

Ikki tugun punktli nivelir to‘ri berilgan.

E va F tugun punktlarning otmetkasi topilsin.

Belgilaymiz: E va F tugun punktlarning otmetkasini (absolyut balandligini) x va y deb belgilaymiz;

H_A , H_B , H_C va H_D - tayanch punktlarning (berilgan punktlarning) otmetkalari;

h_1 , h_2 , h_3 - o‘lchangan nisbiy balandliklar;

L_1 , L_2 , L_3 - o‘lchangan yo‘llar uzunligi.

Tugun punktlar E va F otmetkalarini quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$x = \frac{P_1(H_A + h_1) + P_2(H_B + h_2) + P_3(y - h_3)}{P_1 + P_2 + P_3} \quad (96)$$

$$y = \frac{P_3(x + h_3) + P_4(H_C + h_4) + P_5(H_D + h_5)}{P_3 + P_4 + P_5} \quad (97)$$

Birinchi yaqinlashuv bo‘yicha E tugun punktning otmetkasi N_E^1 formula (1) orqali hisoblaymiz, agar $H_F = 0$ deb olsak va P_3 vazini hisobga olmasak, quyidagi formuladan hisoblab topish mumkin.

$$H_E^1 = \frac{P_1(H_A + h_1) + P_2(H_B + h_2)}{P_1 + P_2} \quad (98)$$

Birinchi yaqinlashuv bo‘yicha F tugun punktning otmetkasi H_F^1 formula (2) orqali hisoblaymiz, H_E^1 qiymati bo‘yicha quyidagi formuladan hisoblab topish mumkin.

$$H_F^1 = \frac{P_3(H_E^1 + h_3) + P_4(H_C + h_4) + P_5(H_D + h_5)}{P_3 + P_4 + P_5} \quad (99)$$

Ikkinci yaqinlashuv bo‘yicha tugun punktlar E va F otmetkalarini quyidagi formuladan hisoblaymiz.

$$H_E^{11} = \frac{P_1(H_A + h_1) + P_2(H_B + h_2) + P_3(H_F^1 + h_3)}{P_1 + P_2 + P_3} \quad (100)$$

$$H_F^{11} = \frac{P_3(H_E^{11} + h_3) + P_4(H_C + h_4) + P_5(H_D + h_5)}{P_3 + P_4 + P_5} \quad (101)$$

Ikkinci yaqinlashuvdan keyin uchinchi yaqinlashuvga, uchinchi yaqinlashuvdan to‘rtinchi yaqinlashuvga o‘tamiz va xokazo. Bu yaqinlashuvlar oxirgi natijalar bir-xil chikkuncha davom etiriladi, ya’ni keyingi hisoblar o‘zgarmaydi.

Hisob ishlarini osonlashtirish uchun keltirilgan vazin hisoblanadi:

$$P_i^1 = \frac{P_i}{[P]_{myzyn}} \quad (102)$$

P_i^1 - vazin birligiga keltirilgan vazin deyiladi, ya’ni $[P^1] = 1$.

Buni hisobga olib, quyidagi formulani yozish mumkin:

$$H = H_0 + \frac{[\varepsilon P]}{P} \quad (103)$$

yoki

$$H = H_0 + [\varepsilon P^1]$$


Misol:

Ketma-ket yaqinlashuv usuli bir nechta tugun nuqtali niveler to‘rini hatolikni kamaytirib borish yo‘li orqali tenglashtirishda qo‘llaniladi. Ushbu usulda tenglashtirish hisoblari, har - bir tugun nuqta balandligi to‘rdagi markalar balandligi va yo‘llar vaznlari orqali bajariladi. To‘rdagi tugun nuqta balandliklarini ketma-ket yaqinlashtirish to oxirgi ikkita yaqinlashtirishda bir-biridan farqi 3 mm dan kichik bo‘lguncha bajariladi. Bu esa geodezik to‘rlarni loyihasini baxolash imkonini yuzaga keltiradi.

Tenglashtirish boshqa tenglashtirish usullaridagi kabi 4 pog‘onada amalga oshiriladi:

- nivelerlash sifatiga baho berish;
- nisbiy balandliklarni tenglashtirish ya’ni tugun reper otmetkalarini ishonchli qiymatini hisoblash va nisbiy balandliklarni tenglashtirish;
- dala o‘lhash natijalariga baho berish;
- tenglashtirilgan qiymatlar aniqligini baholash.

1- chizmada uch tugun nuqtali III -klass niveler to‘ri keltirilgan. To‘rda uchta tugun nuqta va uchta absolyut balandliklari ma’lum bo‘lgan tayanch markasi mavjud bo‘lib ular o‘zaro 7 ta nivelerlash yo‘llari bilan tutashgandir. Birinchi- 12-reper 1,2 va 3 yo‘llar bilan, ikkinchi -13- reper 3,4 va 6- yo‘llar bilan, uchinchi- 14- reper 6,7 va 5 yo‘llar bilan bog‘langan.



3.7- rasm. Nivelir to‘ri sxemasi

Tayanch marka otmetkalari, niveler yo'llarini tartib raqami, yo'nalishi va yo'l bo'yicha o'lchanan nisbiy balandlik qiymatlari shemada kursatilgan.

Tenglashtirish jadvalini ishlab chiqish uchun jadvalning 1 dan 6 gacha ustunlari sxemadagi ma'lumotlardan olinadi. Har bir poligon bo'yicha ma'lumotlarni yozish soat strelkasi yo'nalishida olinadi.

Uchta tugun nuqtali niveler to'ri mavjud. 12, 13, va 14-tugun nuqtalarning absolyut balandligini topish talab qilinsin.

Belgilaymiz: H_{12} , H_{13} , H_{14} — tugun nuqtalar absolyut balandligi, H_1^M, H_2^M, H_3^M — tayanch punktlarning absolyut balandligi.

Tugun nuqtalarning absolyut balandligi quyidagi formula bilan topiladi:

$$H_{12} = \frac{(H_{\bar{a}}^M + h_1)P_1 + (H_{\bar{2}}^M + h_2)P_2 + (H_{13}^M - h_3)P_3}{P_1 + P_2 + P_3},$$

$$H_{13} = \frac{(H_{12}^M + h_3)P_3 + (H_{\bar{2}}^M + h_4)P_4 + (H_{14}^M + h_6)P_6}{P_3 + P_4 + P_6},$$

$$H_{14} = \frac{(H_{\bar{2}}^M + h_5)P_5 + (H_{13}^M - h_6)P_6 + (H_1^M + h_7)P_7}{P_5 + P_6 + P_7}$$

Bu erda: h_1, h_2, \dots, h_7 - yo'lida o'lchanan nisbiy balandlik.

P_1, P_2, \dots, P_7 - yo'l uzunligi bo'yicha hisoblangan vazinlar.

Bu formulalarda hamma elementlari Ma'lum emas. Shuning uchun tugun nuqtalarning absolyut balandlik qiymati birdaniga topilmaydi, u ketma-ket yaqinlashtirish usuli bilan topiladi. Birinchi yaqinlashtirishda formulaning noma'lum qismi nolga tenglashtiriladi va tugun nuqtalari absolyut balandligining taxminiy qiymati hisoblanadi. Ikkinchi yaqinlashtirishda birinchi yaqinlashtirishda topilgan tugun nuqtalar absolyut balandligining taxminiy qiymati formulaga qo'yiladi. Hisoblash tugun nuqtalar absolyut balandligi natijalari oxirgi ikkita yaqinlashtirish bir-xil bo'limguncha davom ettiriladi. Hisoblashni soddalashtirish uchun keltirilgan vazn topiladi:

$$\frac{P_n}{[P]} = P'_{n} \quad (104)$$

buni hisobga olganda formula $H = H_0 + \left[\frac{\varepsilon P^1}{P^1} \right]$ ko'rinishni oladi,

bu yerda:

H_0 – tugun reperning yo‘llar bo‘yicha hisoblan otmetkasinig eng kichigi kabo‘l qilinadi;

$[\varepsilon P^1]$ - keltirilgan vazini koldikka ku’aytmasining yig‘indisi;

$[P^1]$ - tugun punktga keladigan yo‘llarning keltirilgan vazinlarining yig‘indisi. Agar uning yig‘indisi birga teng bo‘lishini hisobga olsak, formulani quyidagicha yozish mumkin.

$$H = H_0 + [\varepsilon P^1]$$

Hisoblashlar natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Nivelir yo‘lidagi tugun reperlar balandliklarini ketma-ket yaqinlashuv usulida tenglashtirish jadvali

3.4-jadval

Tugun reperlar №	Yo‘llar №	Berilgan marka va reperlar №	Boshlang‘ich marka balandligi N,m	Nisbiy balandlik h, m	Yo‘l uzunligi L,km	Vazn		Yaqinlashtirishlar						Tuzatmav V,mm	PV ²	PV ²
						P = $\frac{5}{L}$	P' = $\frac{P}{[P]}$	I		II		III				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
12	1	43	161,43	-0,681	1,4	3,57	0,65	160,750	5,2	160,750	5,2	160,750	5,2	-1,7	-6,1	10,4
	2	52	1	+3,010	4,3	1,16	0,21	160,742	0	160,742	0	160,742	0	+6,3	+7,3	46,0
	3	13	157,73	+4,621	6,3	0,79	0,14	-		160,750 ₂	1,1	160,749 ₇	1,1	-1,4	-1,1	1,5
13	3	12	-	-4,621	6,3	5,52	1,00	160,748 ₀	5,2	160,748 ₃	6,3	160,748 ₃	6,3		+0,1	-
	4	52	157,73	-1,601	5,5	0,79	0,21	156,127 ₀	0	156,127 ₃	0	156,127 ₃	0	+1,3	+1,0	-
	6	14	2	-2,245	2,5	0,91	0,25	156,131	1,0	156,131	0,9	156,131	0,9	-2,4	-2,2	5,3
14	6	13	-	+2,245	2,5	2,00	0,25	156,129 ₂	1,0	156,128 ₇	1,4	156,128 ₆	1,3		-0,2	-
	5	52	157,73	+0,6644	1,4	3,57	0,46	158,374 ₂	1,6	158,373 ₇	1,4	158,376 ₆	1,4	-0,6	-1,2	-
	7	143	2	+3,153	2,2	2,27	0,29	158,376	3,7	158,376	3,7	158,376	3,7	-2,9	-10,4	30,2
					6.1	7,84	1,00	158,373 ₃	5,3	158,373 ₁	5,1	158,373 ₁	5,1		0,0	153,1

Oxirgi ikkita yaqinlashtirishdagi absolyut balandliklar qiymati bir-biridan $\pm 0,3\text{mm}$.dan kattaga farq qilmasa, hisoblashlar to‘xtatiladi.

Tuzatmalarini tekshirish

Tuzatmalarini hisoblashning to‘g‘riligini ikkita usul bilan tekshirish mumkin:

1. poligon bo‘yicha (oldingi misolga qarang).
2. Tugun nuqtalar bo‘yicha.

Tugun nuqtalar bo‘yicha tuzatmani tekshirish uchun quyidagi formula qulaniladi:

$$[PW] = 0.$$

Tekshirish xatoligi $\pm 0,3$ mmdan oshmasligi kerak.

Nivelirlash sifatiga baho berish

Tenglashtirishdan avval dala o‘lhash natijalarini joriy klass nivelirlash talablariga mos kelishi tekshiriladi.

Hisoblash natijalarini 1-jadvalga yozamiz. Har - bir poligon bo‘yicha bolgplanmaslik xatosini quy idagi formula orqali hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} fh &= \sum h_{yp} - (H_{ox} - H_{bosh}) \quad \text{ochik poligon uchun;} \\ \sum h &= fh \quad \text{yopiq poligon uchun.} \end{aligned}$$

bu yerda: h_{o_r} - har - bir poligonda ishtirok etuvchi niveler yo‘llaridagi to‘g‘ri va teskari yo‘nalish nisbiy balandliklarining o‘rtacha qiymatlarining yig‘indisi. Bizning shaklda har - bir yo‘l bo‘yicha hisoblangan o‘rtacha nisbiy balandlikni qiymati kursatilgan.

H_{bosh} boshlang‘ich va H_{ox} oxirgi tayanch markalarning berilgan otmetkalari.

Niveler to‘ri aniqligi jixatdan III- klassga tegishli bo‘lgani uchun

$$fh_{chek} = \pm 10\sqrt{L_{km}}$$

formulasi orqali bog‘lanmaslik xatosi chekli qiymatini aniqlaymiz.

Joriy to‘rda ikkita yopiq poligon mavjud, bizga zaruriy polygonlar soni 4 ta. Shu sababdan tayanch markalari oralig‘ida ikkita ochik polygonlar tanlashimizga to‘g‘ri keladi.

Dala o‘lhashlar aniqligini baholash

5 km uzunlikdagi yo‘l bo‘yicha nisbiy balandlikning o‘rta kvadratik xatosi:

$$\mu = \pm \sqrt{\frac{[PV^2]}{n-k}} = \pm \sqrt{\frac{153.1}{7-3}} = \pm 6.2 \text{ mm.}$$

1 km yo‘l uzunligi bo‘yicha nisbiy balandlikning o‘rta kvadratik xatosi:

$$M_{12} = \frac{\mu}{\sqrt{C}} = \frac{6.2}{\sqrt{5}} = \pm 2.8 \text{ mm}$$

Tenglashtirilgan qiymatning aniqligini baholash

Tugun nuqtalar absolyut balandligining vazni Kozlovning formulasi bilan hisoblanadi:

$$P_{Hi} = [P]_i - \frac{P_{i,a}^2}{[P]_a} - \frac{P_{i,b}^2}{[P]_b} - \dots - \frac{P_{i,k}^2}{[P]_k}$$

$$P_{H_{12}} = 5.52 - \frac{0.79^2}{3.70} = 5.35 \quad P_{H_{13}} = 3.70 - \frac{0.79^2}{5.52} - \frac{2.00^2}{7.84} = 3.07 \quad P_{H_{14}} = 7.84 - \frac{2.00^2}{3.70} = 6.76$$

Tugun reperlarning tenglashtirilgan absolyut balandligining o‘rta kvadratik xatosi:

$$M_{H12} = \frac{\mu}{\sqrt{P_{H12}}} = \frac{6.2}{\sqrt{5.35}} = \pm 2.7 \text{ mm}$$

$$M_{H13} = \frac{6.2}{\sqrt{3.07}} = \pm 3.5 \text{ mm}$$

$$M_{H14} = \frac{6.2}{\sqrt{6.76}} = \pm 2.4 \text{ mm}$$

3.7. Nivelir to‘rini popovning poligonlar usulida tenglashtirish

Ushbu usulda tenglashtirish bevosita to‘r sxemasida bajariladi. Tenglashtirish ishining mohiyati niveliplash to‘rida mustaqil poligonlar tanlanadi va har - bir poligon bo‘yicha aniqlangan bog‘lanmaslik hatosi poligonni tashqil etuvchi yo‘llar har biriga, yo‘lning teskari vazniga proporsional tarzda bog‘lanmaslik hatoligi tarqatishdan iboratdir. Tarqatishlar ‘og‘onoma-’og‘ona tarzida bajriladi. poligonlarning birontasida hatoni tarqatgach, qo‘shni poligonga o‘tiladi va poligonlar o‘rtasidagi yo‘lni birinchi poligondan olgan tuzatmasini inobatga olgan holda ikkinchi poligonning bog‘lanmaslik hatosi aniqlanadi. Topilgan bog‘lanmaslik xatosi yana tomonlar teskari vazniga proporsional tarzida tarqatilib, navbatdagi poligonga o‘tiladi. Birinchi pog‘onada har-bir ishtirokchi poligon bog‘lanmaslik hatolari tarqatib

bo‘lingach, ikkinchi tenglashtirish pog‘onasiga o‘tildai va hakozo. Bog‘lanmaslik hatolarini tarqatish ushbu xato qiymati nolga tenglashganda to‘xtatiladi.

1- chizmada keltirilgan misol bo‘yicha tenglashtirish hisoblarini amalda ko‘rib chiqamiz.

Boshqa tenglashtirish usullari kabi bu usulda ham hisob tenglashtirish ishlari to‘rtta boskichdan iborat bo‘ladi:

-nivelirlash sifatiga baho berish;

-teglashtirish hisob ishlari va tugun reperlarning absolyut balandligi (otmetkasi) qiymatini hisoblash;

- dala o‘lhash ishlariga baho berish;

- tenglashtirilgan absolyut balandlik qiymatlari aniqligiga baxo berish.

a) Nivelirlash sifatiga baho berish

Nivelirlash sifatiga baho berish Ya’ni dala o‘lhash ishlarini natijalarini nivelerlashni belgilangan klass aniqligi talablariga mos kelishini aniqlash uchun to‘rda mustaqil poligonlar topiladi. poligonlar soni bizga ma’lum formula orqali hisoblanadi. Ushbu poligonlar bo‘yicha **bog‘lanmaslik** xatolari hisoblanib, ularning chekli qiymatiga taqqoslanadi.

To‘rdagi mustaqil poligonlar soni avvalgi tenglashtirish usullariga o‘xshab hisoblanadi, ya’ni

$$r = n - k$$

yoki

$$r = N + T - 1$$

formulalari bilan aniqlanadi.

Bu yerda : n - barcha o‘lhashlar soni,

k - zaruriy o‘lhashlar soni yoki no’malumlar soni.

N - tutash poligonlar soni,


T- tayanch markalar soni, ya’ni otmetkalari ma’lum punktlar.

Misoldagi niveler to‘rida (1- chizma)


$$r = 7 - 3 = 4 \quad \text{yoki} \quad r = 3 + 2 - 1 = 4$$

Shundan so‘ng nivelerlash to‘rini sxematik chizmasi tuzilib, unda mustaqil poligonlar belgilanadi. (2-chizma) Chizmada poligonlar marka va tugun reperlarining nomeri yo‘llar nomeri, yo‘llar uzunliklari (km da)

yoki stantsiyalar soni va nisbiy balandlik qiymatlari yozib qo‘yiladi.



3.8-rasm. Tenglashtishi kerak
bo‘lgan nivelir to‘ri sxemasi



3.9-rasm. poligonlarni sxematik chizmasi

poligonlarni rim raqamlari bilan belgilab chiqiladi. Dastlab **Yopiq** poligonlar nomerlanadi, so‘ng ochik poligonlar nomerlanadi. Ochiq poligon tanlashda iloji boricha tomonlar soni kam bo‘lgan poligonlar tanlanadi, lekin nivelir to‘ridagi hama yo‘llar tenglashtirishda ishtirok etishi kerak. Bunga sabab bo‘lajak hisob ishlarini kamaytirishdir. Bizning to‘r uchun uchta **Yopiq** poligon mavjud edi, ochik poligonni 7 va 1- yo‘l ishtirokida 312- M dan 300- M gacha oraliqda olamiz.

Belgilangan poligonlarda ularning yo‘llari bo‘yicha nisbiy balandlik qiymatlarini yig‘indisini olamiz va poligon bo‘yicha **bog‘lanmaslik** hatosini hisoblaymiz.

poligonlarni aylanib chiqish yo‘nalishi ishtirokchi poligonlar uchun bir - hil yo‘nalishda, ya’ni soat strelkasiga mos yoki unga teskari yo‘nalishda bo‘lishi kerak. Topilgan ‘oigon bo‘yicha **bog‘lanmaslik** hatosini chekli qiymati quyidagir formula bilan topiladi:

$$fh_{chek} = \pm 10 \text{ mm } \sqrt{L_{km}}; \quad (105)$$

bunda: $\pm 10 \text{ mm}$ – III klass nivelerlash uchun xato koeffitsiyenti;

L_{km} - poligonda ishtirok etuvchi nivelerlash yo'llari uzunliklarining yig'indisi kilometrda, poligon 'erimetri deyiladi.

Agar niveler to'rimiz IV –klass nivelerlash aniqligida bo'lsa xato koeffitsiyenti ± 20 mm bo'ladi.

poligonlar bo'yicha aniqlangan **bog'lanmaslik** hatolarini, poligonda ishtirokchi etuvchi yo'l uzunliklarining yig'indisini, hamda **bog'lanmaslik** xato chekli qiymatlarini, har - bir poligonning ichki qismiga yozib chiqamiz.

poligondagi **bog'lanmaslik** hato qiymati uning chekli qiymatidan ortmaganligiga ishonch hosil qilgach, nisbiy balandliklarni tenglashtirishga o'tamiz.

b) Nisbiy balandliklarni tenglashtirish va tugun reper balandliklarini ishonchli qiymatini hisoblash.

Nisbiy balandliklarni tenglashtirish uchun "Popov usulida tenglashtirish sxema chizmasi" ni tuzamiz.

Ushbu chizmada har bir ishtirokchi poligoni ichida poligon nomeri yozilib, uni ostiga **bog'lanmaslik** xatosining ustuni chiziladi, poligon tashqarisida har bir yo'l bo'yicha tuzatma ustuni chiziladi. Ikki qo'shni poligonga tegishli (o'rtadagi) yo'llarda mos tarzda ikkita tuzatma ustuni bo'ladi. Bitta poligonga tegishli yo'llarda faqat bitta tashqi tuzatma ustuni bo'ladi. Har bir poligondagi **bog'lanmaslik** xatosi mos tarzda uning **bog'lanmaslik** xatosining ustunini ichiga (mm) aniqligida yozib qo'yiladi.

I-poligon uchun +24; II-poligon uchun -5; III-poligon uchun -12;

IV-poligon uchun -10.

Shundan so'ng har bir poligondagi **bog'lanmaslik** xatosini poligon tomonlariga ularning uzunligiga to'g'ri proporsional tarzda (2) formula yordamida «qizil sonlar» hisoblab tarqatiladi.

$$Pi = \frac{L_i}{[L]} \quad (106)$$

bu yerda ;

L_i - poligonda ishtirok etuvchi yo'l uzunligi;

[L]- poligonda ishtirok etuvchi yo‘llar uzunliklari yig‘indisi. (polgon perimetri.)

Tenglashtirishda hisoblashlarni qisqartirish maqsadida (106) formuladagi $\frac{L_i}{[L]}$ kattaligini barcha poligonda ishtirok etuvchi yo‘llar uchun hisoblab qizil rangda har - bir yo‘lni tuzatma ustunini ustki qismiga mos tarzda yozib qo‘yiladi.

Ushbu «qizil son» larni har - bir poligon bo‘yicha yig‘indisi bir soniga teng bo‘lishi kerak.

Masalan I - poligonda ishtirokchi yo‘llar: 1,2,3,4 ulardagi qizil sonlarning yig‘indisi $0.18 + 0.24 + 0.31 + 0.27 = 1.00$ ga teng bo‘ladi.

Xuddi shunday qolgan poligonlar uchun «qizil son» lar hisoblab topiladi,

Shundan so‘ng poligon bog‘lanmaslik xatosini ishtirokchi yo‘llarga tarqatishga o‘tamiz. Bu ish bevosita chizma sxemada (3-chizma) bajariladi.

Bog‘lanmaslik xatosini tarqatish boshqa poligonlarga nisbatan ko‘roq bog‘lanmaga ega poligondan boshlanadi. Bog‘lanma tarqatish sxemasini tuzamiz va unga katg’iy rivoja qilish kerak. Bizning misolda I poligonda bog‘lanma boshqa poligonlarga nisbatan ko‘roq. Ushbu poligonda bog‘lanmaslik xatosi $+24$ mm. Demak 24 sonini navbatma - navbat ishtirokchi yo‘llarning ”qizil soni” ga ko‘paytiramiz va hosil bo‘lgan sonni mm gacha yaxlitlab tuzatma ustunlariga yozib chiqamiz. Ushbu sonlarni ishorasi bog‘lanmaslik xatosini ishorasi bilan bir xil bo‘lishi kerak.

Misolimizdagи I-poligonda 1,2,3 va 4 tomonlar uchun quyidagilarga ega bo‘lamiz: $(+24) \times 0.18 = +4$ $(+24) \times 0.24 = +6$, $(+24) \times 0.31 = +7$, $(+24) \times 0.27 = +7$, Nazorat natijalarni yig‘indisi poligon bo‘yicha aniqlangan bog‘lanmaslik xatosi qiymatiga teng bo‘lishi kerak: $+4 + 6 + 7 + 7 = +24$.

Shundan so‘ng bog‘lanma tarqatish sxemasi bo‘yicha, II poligon hisoblariga o‘tamiz. Undagi bog‘lanmaslik xatosi qiymati boshlang‘ich bog‘lanmaslik xatosi (-5) ga II poligon bo‘yicha xato tarqatishda ushbu poligonlar orasidagi 4- yo‘l bo‘yicha olingan tuzatma (+7) ni qo‘sish orqali yakuniy ko‘rinishga ega bo‘ladi, ya’ni yangi bog‘lanmaslik xatosi qiymati

$(-5) + (+7) = +2$ ga teng bo‘ladi. Ushbu bog‘lanmaslik xatosini II poligonni tashqil etuvchi 4, 6 va 7 yo‘llarning “qizil sonlari”ga ko‘paytirib yo‘l tuzatmalarini hosil qilamiz: $(+2) \times 0.26 = 0$; $(+2) \times 0.40 = +1$; $(+2) \times 0.34 = +1$

Ularni nazorat qilsak: $(0) + (+1) + (+1) = +2$. Shundan so‘ng III va IV poligonlar uchun yangi bog‘lanmaslik xatolari hisoblab, ularning bog‘lanmasini “qizil sonlar” ga proporsional tarzda tarqatiladi.

Shu tarzda to‘rdagi barcha poligonlarida hisoblash ishlarini bajarib birinchi davrani tugatamiz va qaytadan boshlang‘ich poligon bo‘yicha hisoblashlarni boshlaymiz. Boshlang‘ich I poligonni bog‘lanmaslik xatosini yangi qiymati poligonni tashqil etuvchi tomonlarga qo‘shti poligonlardan keluvchi tuzatma qiymatlari yig‘indisidan kelib chiqadi, ya’ni 1-yo‘l bo‘yicha IV poligondan olingan tuzatma qiymati (-1), 4-yo‘l bo‘yicha II poligondan olingan tuzatma qiymati (0) va 3-yo‘l bo‘yicha III poligondan olingan tuzatma qiymati (-1). Demak I poligon yangi bog‘lanmaslik xatosi $(-1) + (0) + (-1) = -2$ bo‘ladi. Buni poligon tomonlaridagi qizil sonlarga tarqatib, hosil bo‘lgan qiymatlarni yo‘llarga mos tarzda navbat II, III, IV poligonlarga o‘tib ya’ni bog‘lanmaslik xatolari hisoblanadi va tarqatiladi. Hisob ishlari barcha poligonlardagi bog‘lanmaslik xato qiymatlari nolga teng bo‘lguncha davom etadi. Shundan so‘ng har bir tomon uchun belgilangan tuzatma ustunlari bo‘yicha arifmetik yig‘inda hisoblanadi va ustunni tagiga ikki qator chiziqdan so‘ng yozib qo‘yiladi.

Har - bir yo‘l uchun tuzatmalar yig‘indiysi quyidagi tartib bo‘yicha hisoblanadi:

1. ikki qo‘shti poligonga tegishli yo‘llarda tuzatma ustunlari bo‘yicha algebraik yig‘indi tarzida olinadi, bunda tashqi ustundagi tuzatmalar yig‘indiysi teskari ishora bilan olinadi. Bir poligonga tegishli yo‘l uchun nisbiy balandligi berilgan tuzatmalar yig‘indiysi tashqi ustun sonlarini yig‘indisini teskari ishorada olinganligiga tengdir.

Masalan bizning to‘rdagi 1- yo‘l va IV - poligonga tegishli bo‘lgani uchun uning tuzatmasi quyidagicha aniqlanadi: I - poligon bo‘yicha $(-2,075$ nisbiy balandlik uchun) $(-3) + (-3) = -6$; IV – poligon bo‘yicha $(+2,075$ nisbiy balandlik uchun) $(+3) + (+3) = +6$ bo‘ladi.

2 - yo‘l faqat I – poligonga tegishli bo‘lgani uchun uning tuzatmasi quyidagiga tengdir: $+5,601$ nisbiy balandligi uchun -2 mm.

Sxemada har - bir poligon tomonlari bo‘yicha hisoblangan tuzatmalar poligon ichiga yozib qo‘yiladi. Har - bir ‘oigon bo‘yicha tuzatmalarni hisoblash va yozishni quyidagi tenglik bilan nazorat qilish mumkin

$$[v] = -fh \quad (107)$$

Masalan I- poligon bo‘yicha $(-2)+(-6)+(-9)+(-7) = -24$ mm

Shundan so‘ng tuzutilgan nisbiy balandliklar bo‘yicha tugun reperlarning balandlik qiymatlari hisoblanadi.

Bunda nisbiy balandlik tuzatmalari quyidagi qoida bo‘yicha yoziladi: agar balandlikni hisoblashda niveler yo‘lining yo‘nalishi ishtirok etayotgan poligon yo‘nalishiga mos bo‘lsa tuzatma tenglashtirishda olgan ishorasi bilan olinadi yoki aksincha yo‘l yo‘nalishi u ishtirok etayotgan poligon yo‘nalishiga mos kelmasa tuzatma teskari ishorada yoziladi.

Masalan 3 - reper balandligini hisoblashda 1 - yo‘l 300 - markadan 3 -reperga yo‘naladi ya’ni I – poligon yo‘nalishiga mos keladi shu sababdan yo‘l uchun tuzatma minus ishorasida olinadi (-6), 7 - yo‘l 312 markadan 3- repergacha yo‘naladi va uning yo‘nalishi IV – poligonni yo‘nalishiga mos tushadi, demak ushbu yo‘l uchun tuzatma +4 bo‘ladi.

2 - yo‘l 300 - markadan 5 - reperga yo‘naladi va uning yo‘nalishi

I– poligon yo‘nalishiga mos tushmaydi, demak ushbu yo‘l tuzatmasi -2 emas, balki +2 ga teng bo‘ladi.

Topilgan yo‘l tuzatmalari bo‘yicha to‘g‘rilangan nisbiy balandliklar topiladi, tuzatilgan nisbiy balandliklar bo‘yicha tugun reperlarning otmetkalari hisoblab topiladi.

v) Dala o‘lhash ishlariga baho berish

1) Dala o‘lhash ishlariga baho berish uchun tuzatmalar aniqligiga baho berishda vaznini μ birligi tarzida qabul qilingan nisbiy balandlik o‘rta kvadratik xatosi hisoblanadi:

$$\mu = \pm \sqrt{\frac{PV^2}{n-k}} \quad (108)$$

bu yerda: P - o‘rta isbiy balandlik vazni;

V – tuzatma;

n - barcha o‘lchashlar (yo‘llar) soni;

k – tugun nuqtalar soni.

2) μ qiymatini ishonchlilagini aniqlash uchun, xatoni o‘zini o‘rta kvadratik xatosi hisoblanadi

$$m_{\mu} = \frac{\mu}{\sqrt{2(n-k)}} \quad (109)$$

3) 1 km uzunlikdagi niveler yo‘lidagi nisbiy balandliklar o‘rta kvadratik xatosi aniqlanadi:

$$m_{km} = \frac{\mu}{\sqrt{c}} \quad (110)$$

g) Tenglashtirilgan tugun punktlar otmetkalarini aniqligini baholash

Tugun punktlar tenglashtirilgan otmetkalarining o‘rta kvadratik xatosini hisoblash.

$$M_{km} = \pm \frac{\mu}{\sqrt{P_{H_i}}} \quad (111)$$

bu yerda: P - tugun reperning vazni.

μ - vazin birligidagi nisbiy balandlik o‘rta kvadratik xatosi


Oraliq reper otmetkalarini vaznini hisoblash kerak

Tugun reperlarning vazni Kozlov formulasi bo‘yicha hisoblanadi.

$$P_{n_{rep}} = [P]_i - \frac{P_{i,a}^2}{[P]_a} - \frac{P_{i,b}^2}{[P]_b} - \dots - \frac{P_{i,n}^2}{[P]_n} \quad (112)$$

3.8. Nivelir to‘rini popovning poligonlar usuli bilan tenglashtirish (normal tenglamalarni tuzish va yyechish)

To‘rta tugun punktli, yettita yo‘lli nivelir to‘rini olamiz.



3.10-rasm

Poligonning **bog'lanmaslik** xatosini va perimetрini hisoblaymiz. Korrelat normal tenglamasi tuziladi: normal tenglamalar soni to'rdagi poligonlar soniga teng.

$$7) [L]_I K_1 - L_4 K_2 - L_2 K_3 + f_I = 0.$$

$$8) [L]_{II} K_2 - L_4 K_1 - L_5 K_3 + f_{II} = 0.$$

$$9) [L]_{III} K_3 - L_2 K_1 - L_5 K_2 + f_{III} = 0.$$

Agar yo'л uzunliklarini va ozod had qiymatlarini qo'ysak, quyidagi normal tenglamalarni yozish mumkinz:

$$7) 6.5K_1 - 1.6K_2 - 1.5K_3 - 5 = 0;$$

$$8) -1.6K_1 + 6.8K_2 - 2.4K_3 = 0;$$

$$9) -1.5K_1 - 2.4K_2 + 7.7K_3 + 3 = 0.$$

Bu normal tenglamalarni echib, korrelat noMa'lum qiymatlarini topamiz.

Normal tenglamalarni Popov sxemasi bo'yicha yechish:

19-jadval

K_1	K_2	K_3	f	S	Tekshirish
+6.5	-1.6	-1.5	-5	-1.6	
-1.6	+6.8	-2.4	0	+2.8	
-1.5	-2.4	+7.7	+3	+6.8	
+1	-0.246	-0.231	-0.769	-0.246	-0.246
-1	+4.250	-1.500	0	+1.750	+1.750
-1	-1.600	+5.133	+2.000	+4.533	+4.533
	+4.004	-1.731	-0.769	+1.504	+1.504
	-1.846	+4.902	+1.231	.+4.287	+4.287
	+1	-0.432	-0.192	+0.376	+0.376
	-1	+2.655	+0.667	+2.322	+2.322
		+2.223	+0.475	+2.698	+2.698
	+1	+0.214	+1.214	+1.214	+1.214

$$K_3 + 0.214 = 0, \quad K_3 = -0.214.$$

$$K_2 - 0.432, \quad K_2 - 0.192 = 0,$$

$$K_2 + 0.432(-0.214) + 0.192 = +0.100$$

$$K_1 - 0.246K_2 - 0.231K_3 - 0.769 = 0,$$

$$K_1 = +0.246(+0.100) + 0.231(-0.214) + 0.769 = +0.745$$

Korrelatni hisoblashni tekshirish:

b) $6.5(+0.745)-1.6(+0.100)-1.5(-0.214)-5=+0.0035.$

c) $-1.6(+0.745)+6.8(+0.100)-2.4(-0.214)=+0.0016.$

d) $1.5(+0.745)-2.4(+0.100)+7.7(-0.214)+3=-0.0053$

Tuzatmalarni hisoblash:

1-poligon

$$W_2 = L_2(K_1 - K_3) = 1.5[+0.745 - (-0.214)] = +1.44 = +1 \text{ mm};$$

$$W_3 = L_3K_1 = 3.4(+0.745) = +2.53 = +3 \text{ mm};$$

$$W_4 = L_4(K_1 - K_3) = 1.6(+0.745 - 0.100) = +1.03 = +1 \text{ mm};$$

Tekshirish: $[W]_I = +5,02, f_I = -5,00.$

2 - poligon

$$W_4 = -1.03 \text{ mm};$$

$$W_5 = L_5(K_2 - K_3) = 2.4[+0.100 - (-0.214)] = +0.75 = +1 \text{ mm};$$

$$W_6 = L_6K_2 = 2.8(+0.100) = +0.28$$

Tekshirish: $[W]_{II} = 0, f_{II} = 0.$

3 - poligon

$$W_1 = L_1K_3 = 2.1(-0.214) = -0.45,$$

$$W_2 = -1.44 \text{ mm},$$

$$W_5 = -0.75,$$

$$W_7 = L_7K_3 = 1.7(-0.214) = -0.36$$

Tekshirish: $[W]_{III} = -3, f_{III} = +3.$

Keyinchalik o‘lchangan nisbiy balandlik tenglashtiriladi, tugun nuqtalarining absolyut balandligi topiladi va tenglashtirilgan miqdorlarning aniqligi baholanadi, oldingi usullarda bajarilgandek.


3.9. Nivelir to‘rini popovning tugun usulida tenglashtirish

Berilgan to‘rtta tugun punktli nivelir to‘ri (1-rasm).

Tayanch punktlari M_1 va M_2 ning absolyut balandligi ma'lum.

Hisoblash poligon sxemasi bo'yicha bajariladi. Yo'llar yoniga nisbiy balandlik va vaznlar yoziladi.

Tugun nuqtalar absolyut balandliklarining H' taxminiy otmetka qiyatlari hisoblanadi.



3.11-rasm.Nivelir to'ri sxemasi.

Tugun nuqtalar vaznlari hisoblanadi. Masalan, birinchi tugun punkt uchun (o'n birinchi reper):

$$P_{11} = P_1 + P_2 + P_3 = 0.5 + 0.7 + 0.3 = 1.5 \quad \text{va hokazo.}$$

Har bir yo'l bo'yicha nisbiy balandlikdagi **bog'lanmaslik** xatoligi hisoblanadi:

$$\begin{aligned} f_1 &= H_2^M + h_1 - H_{11}^1 = 106.500 + 6.010 - 112.510 = 0, \\ f_4 &= H_{12}^4 + h_4 - H_{13}^4 = 117.917 + 2.301 - 120.223 = -5 \text{ mm}, \end{aligned}$$

va xokazo.

Bu **bog'lanmaslik** xatoliklari o'z ishorasi bilan yo'lning oxiriga yozib qo'yiladi. Agar yo'lning boshiga yozilsa, teskari ishora bilan yoziladi. **Bog'lanmaslik** xatoligi yoniga qavs ichiga vazn bilan keltirilgan **bog'lanmaslik** xatosining ku'aytirmasi (R_f) yoziladi, masalan,

$$P_4 f_4 = 0,7(-5) = -3,5 \quad \text{va xokazo.}$$

Tugun nuqtalarning vazni topiladi. Tugun nuqta vazni shu nuqtada uchrashayotgan yo'llar vazni yig'indisiga teng.

$$\text{Masalan, } P_{12} = P_2 + P_4 + P_5 = 0,7 + 0,7 + 0,4 = 1,8 \quad \text{va xokazo.}$$

Tugun **bog'lanmaslik** xatoliklarini topamiz:

$$F_{11} = P_1 f_1 + P_2 f_2 + P_3 f_3 = 0,$$


$$F_{12} = P_2 f_2 + P_4 f_4 + P_5 f_5 = 0 + 3,5 + 1,2 = +4,7$$

va xokazo.

Tugun nuqtalar taxminiy absolyut balandliklariga tuzatmalar ikkita usulda hisoblash mumkin:

Birinchi usul. Normal tenglamalarni tuzish va yechish usuli

Agar 11, 12, 13 va 14 tugun nuqtalar taxminiy absolyut balandliklariga tuzatmalarni mos ravishda x, y, z va i orqali belgilasak, quyidagi tuzatmalar normal tenglamalarni yozishi mumkin (2-rasm):



3.12-rasm

1. $P_{11}x - P_2y - P_3z - F_{11} = 0,$
2. $P_{12}y - P_2x - P_4z - P_5u - F_{12} = 0,$
3. $P_{13}z - P_3x - P_4y - P_6u - F_{13} = 0,$
4. $P_{14}u - P_5y - P_6z - F_{14} = 0,$

Agar qiymatlarni qo‘ysak:

1. $1.5x - 0.7y - 0.3z = 0,$
2. $-0.7x + 1.8y - 0.7z - 0.4u - 4.7 = 0,$
3. $-0.3x - 0.7y + 1.4z - 0.4u + 4.3 = 0,$
4. $-0.4y - 0.4z + 1.4u + 0.4 = 0,$

Bu normal tenglamalarni echib tuzatmalar topiladi va ular tugun nuqtalar taxminiy absolyut balandliklariga kiritiladi.

Ikkinchchi usul. Ketma-ket yaqinlashtirish usuli

Aniqlashning bu usuli poligon sxemasi bo'yicha bajariladi. To'g'ri burchakli jadvalning ichiga tugunlarning ozod hadi yoziladi. Yo'lning qizil sonlari hisoblanadi.

Masalan, o'n birinchi yo'1 uchun:

$$R_1 = \frac{P_1}{P_{11}} = \frac{0,5}{1,5} = 0,33.$$


$$R_2 = \frac{P_2}{P_{11}} = \frac{0,7}{1,5} = 0,47.$$

$$R_3 = \frac{P_3}{P_{11}} = \frac{0,3}{1,5} = 0,20.$$

Tekshirish. Tugunning qizil sonlari yig'indisi birga teng bo'lishi kerak:

$$0,33 + 0,47 + 0,20 = 1,00$$

Qizil sonlar tugun jadvalining yoniga yozib qo'yiladi (3-rasm).



3.13-rasm. Tuzatmalar jadvali sxemasi

Bog'lanmaslik xatolarini taqsimlashga kirishiladi. **Bog'lanmaslik** xatolari qizil sonlarga **proporsional** taqsimlanadi. Taqsimlash **bog'lanmaslik** xatosi absolyut qiymati katta bo'lgan tugun punktdan boshlanadi. Taqsimlash sxemasi: 12-13-14-11.

Bizning misolimizda taqsimlash 12 tugun nuqtadan boshlanadi:

$$11 \text{ tugun nuqtaga: } +4.7 \cdot 0.39 = +1.8$$

$$12 \text{ tugun} \quad \text{nuqtaga: } +4.7 \cdot 0.39 = +1.9$$

$$13 \text{ tugun} \quad \text{nuqtaga: } +4.7 \cdot 0.22 = +1.0$$

$$\text{Tekshirish: } +1.8 + 1.9 + 1.0 = +4.7.$$

12 tugun nuqtaning $+4.7$ tarqatilgan **bog'lanmaslik** xatosining tagi chizib qo'yiladi va 13 tugun nuqtaga o'tiladi. Bu yerda **bog'lanmaslik** $-4.3 + 1.9 = -2.4$, tekshiriladi va tagi chizib qo'yiladi.

$$14 \text{ tugun} \quad \text{nuqtaga o'tiladi} \quad \text{va} \quad \text{bog'lanmaslik} \quad -0.4 + 1.0 - 0.7 = -0.1 \text{ tarqatiladi.}$$

11 tugun nuqtada taqsimlanadi:

$$0 + 1.8 - 0.5 = +1.3.$$

Tugun nuqtalarini bir martta aylanib chiqqandan keyin yana **bog'lanmaslik** xatosi 'aydo bo'ldi. Bu **bog'lanmaslik** ikkinchi aylanishda taqsimlanadi. Bunday taqsimlanish tartibi **bog'lanmaslik** xatoligi to'liq taqsimlanmaguncha davom ettiriladi. Taqsimlanishdan keyin tugun jadvalida yozilgan **bog'lanmaslik** sonining yig'indisi topiladi:

$$x' = +1.0; y' = +4.1; z' = -2.3; u' = 0.2.$$

Tuzatma hisoblanadi:

$$x = \frac{x'}{P_{11}} = +\frac{1.0}{1.5} = +0.7 \text{ mm}; \quad y = \frac{y'}{P_{12}} = +\frac{4.1}{1.8} = +2.3 \text{ mm}$$

$$z = \frac{z'}{P_{13}} = -\frac{2.3}{1.4} = -1.6 \text{ mm}; \quad u = \frac{u'}{P_{14}} = -\frac{0.2}{1.4} = -0.1 \text{ mm};$$

Bu tuzatmalar tugun absolyut balandligining taxminiy qiymatiga kiritiladi va tenglashtirilgan qiymati topiladi.

3.5-jadval

Tugunlar №	Taxminiy absolyut balandliklar (H_1)	Tuzatmalar	Tenglashtirilgan absolyut balandliklar
11	112.510	+0.7	112.510.7
12	117.917	+2.3	117.919.3
13	120.223	-1.6	120.221.4
14	125.138	-0.1	125.137.9


4-bob. poligonometriya

4.1. Davlat planli geodezik shaxobchalari.

Tayanch geodezik to‘rlar planli va balandlikka bo‘linadi.

Planli-balandlik tayanch geodezik to‘rlar o‘z maqsadi bo‘yicha davlat va plan olish (shemka) to‘rlariga bo‘linadi. Planli davlat tayanch to‘ri triangulyatsiya, trilateratsiya va poligonometriya usulida yaratiladi. Ular o‘z o‘lchash aniqligi bo‘yicha 1, 2, 3 va 4-klasslarga bo‘linadi.

Klasslar bir-biridan burchak o‘lchash aniqligi, punktlar orasidagi masofani o‘lchash va ishni tashqil qilish bo‘yicha farq qiladi.



(4.1-rasm).

Birinchi klass triangulyatsiya meridian va parallel bo‘ylab yeopiq poligon ko‘rinishida yaratiladi. Poligon perimetri 800-1000 km bo‘ladi (1-rasm).

Poligon zvenolardan, zvenolar esa yopishgan uchburchaklardan iborat. Zvenoning boshida va oxirida 1:1000000 nisbiy xatolik bilan bazis o‘lchanadi. Chiqish tomonining o‘lchash aniqligi 1:400000.

4.2. Poligonometriya yo‘llariga va to‘rlariga qo‘yiladigan talablar.

Poligonometriya klassifikatsiyasi

4.1-jadval

Klass	Yo‘l uzunligi, km	Tomonlar uzunligi, km	O‘lchangan burchakning o‘rta kvadratik xatosi	Tomonlar uzunligini o‘lchash nisbiy xatoligi
1	200	20-25	$\pm 0,4''$	1: 300 000
2			$\pm 1,0''$	1: 250 000
3		kichik tomon 3	+1,5"	1: 200 000
4		kichik tomon 2	$\pm 2,0''$	1: 150 000

Bazis tomonlarining oxirida Laplas astronomik punktlari aniqlanadi. Birinchi klass triangulyatsiya uchburchaklari tomonining uzunligi 20-25 km bo‘ladi. Uchburchakdagi burchaklar $\pm 0.7''$ xatolik bilan o‘lchanadi.

Yopiq joylarda triangulyatsiya o‘rniga poligonometriya barpo qilinadi. Poligonometriya yo‘li siniq chiziq ko‘rinishida barpo qilinadi. Bunda hamma qayrilish burchaklari va ular orasidagi masofalar o‘lchanadi.

1- klass triangulyatsiya zvenosi cho‘zilgan va 10 tatomondan ortiq bo‘lmasligi kerak.

4 klass, 1 va 2 razryad poligonometriyaga quyiladigan talablar.

4.2-jadval

Yo‘l harakteristikasi	K l a s s l a r v a r a z r y a d l a r		
	4-kl	1-razr.	2- razr.
1. Chekli yo‘l uzunligi (km)	10	5	3
2. Yo‘l uzunligi: (km) - berilgan punktdan tugun punktgacha. -tugun punktlar orasidagi.	7	3	2
	5	2	1.5

3.Polygon perimetrii (km)	30	15	9
4. Tomon uzunligi: (km) -eng katta tomon uzunligi.	2.00	0.80	0.30
-eng kichik tomon uzunligi.	0.25	0.12	0.08
- eng yaxshisi (optimalniysi)	0.50	0.30	0.20
5. Yo‘ldagi tomonlar soni. (eng kupi)	15	15	15
6. Burchak o‘lchashning o‘rta kvadratik xatosi.	$\pm 2''$	$\pm 5''$	$\pm 10''$
6. Yo‘lning nisbiy bog‘lanmasligi	1:25000	1:10000	1:5000
7. Burchak boglanmasi.	$5^{11}\sqrt{n}$	$10^{11}\sqrt{n}$	$20^{11}\sqrt{n}$

4.3. Shahar poligonometriyasi klassifikatsiyasi

4.3-jadval

Yo‘l harakteristikasi	Klasslar va razryadlari		
	4-kl	1-razr.	2- razr.
1. Yo‘l uzunligi (km)	10	5	3
2. Eng katta tomon uzunligi (m)	2000	800	300
3. Eng kichik tomon uzunligi (m)	250	120	80
4. Burchak o‘lchashning o‘rta kvadratik xatosi	$\pm 2''$	$\pm 5''$	$\pm 10''$
5. Yo‘lning nisbiy bog‘lanmasligi	1:25000	1:10000	1:5000


2- klass poligonometriya to‘ri 1-klass triangulyatsiya va poligonometriya polygoni ichida barpo qilinadi.

3-klass poligonometriya yo'llari 2-klass poligonometriya to'ri ichida barpo qilinishi kerak. U 2-klass poligonometriya punktlari sonini ko'paytirish uchun bajariladi. Uning zichligi 50 kvadrat kilometrga bitta punkt bo'lishi kerak.

4-klass poligonometriya yo'llari 2- klass va 3-klass poligonometriya punktlari orasida o'tkaziladi. Shaharni shemka qilishda va injener-geodezik ishlar uchun asos qilishda yuqori aniqlikdagi 1-razryadli poligonometriya, 1- va 2-razryadli poligonometriya yo'llari barpo qilinadi. Poligonometriya yo'llari geometrik formasi bo'yicha cho'zilgan va egilgan yo'llarga bo'linadi.

A va B triangulyatsiya punktlari orasida poligonometriya punkti o'tkazilgan (2-rasm). $AB=L$ -yo'lni bog'lovchi chiziq. Agar yo'l tomonlarining yo'nalishi bog'lovchi chiziqdandan oz (24°) og'sa, poligonometriya cho'zilgan hisoblanadi. Agar yo'l tomonlarining yo'nalishi bog'lovchi chiziqdandan uyoqqa-bu yoqqa bog'lovchi chiziq uzunligidan $1/8$ katta bo'lsa, yo'l egilgan hisoblanadi. $\frac{[S]}{L} \leq 1.3$ ya'ni chek $a \leq \pm 24^\circ$, chek $n < \pm 1/8 L$.

Bu shartlardan birortasi bajarilmasa, yo'l egilgan hisoblanadi.




(4.2-rasm).

4.4. Poligonometriya to'rlari.


Poligonometriya. Bu metoda koordinatalari aniqlanadigan punktlarni tutashtiruvchi chiziqning uzunligi hamda tutash chiziqlar orasidagi gorizontal burchaklar o'lchanadi.

Triangulyatsiya punktlari kabi, poligonometriya punktlari ham joyda maxsus markaz bilan belgilanib, markazga geodezik belgi (piramida yoki signal) o'rnatiladi. Poligonometriya yo'li ochiq poligon (3-rasm, **a**) yoki yopiq poligon (3-rasm, **b**) bo'lishi mumkin. Ochiq poligonometriya yo'li odatda koordinatalari ma'lum bo'lgan ikkita tayanch punkt oralig'ida o'tkaziladi.



4.3-rasm. Ochiq poligonometriya yo‘li sxemasi

Yopiq poligonometriya yo‘li esa koordinatasi ma’lum bo‘lgan punktdan boshlanib yana shu punktga bog‘lanadi. Bir necha poligonometriya yo‘llari poligonometriya shoxobchasini tashqil qiladi.



4.4-rasm. Yopiq poligonometriya yo‘li sxemasi


Triangulyatsiya metodini qo‘llab bo‘lmaydigan rayonlarda, masalan, o‘rmon zonasida yoki shahar ichida punktlar bir-biridan ko‘rinishi uchun juda baland geodezik belgi (signal) o‘rnatishga to‘g‘ri kelgan hollarda geodezik tayanch shoxobchalari qurishda poligonometriya metodi qo‘llaniladi. Bu metod poligonometriya tomonlarini o‘lchash usuliga qarab, magistral, parallaktik, Dal’nomer va boshqa poligonometriyalarga bo‘linadi.

Magistral poligonometriya koordinatalari ma'lum bo'lgan ikkita tayanch punkt oralig'ida o'tkazilgan poligonometriyadan iborat; bunda poligonometriya burilish nuqtalari (1, 2, 3)ning koordinatalarini aniqlash uchun joyda bu nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlarning uzunligi (d_1, d_2, \dots, d_n), poligonometriya burilish burchaklari ($\beta_1, \beta_2, \beta_3, \dots, \beta_n$) hamda yon bosh burchaklar o'lchanadi. Boshlang'ich tomonning ma'lum direksion burchagidan hamda burchak qiymatlaridan foydalanib poligonometriya tomonlarining direksion burchaklari formulalar yordamida hisoblab chiqariladi. Ochiq poligonda oxirgi tomonning ma'lum direksion burchagi direksion burchaklarni hisoblashda kontrol bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich punktning koordinatalari, direksion burchaklar hamda tomonlar ma'lum bo'lgach, to'g'ri geodezik masalani yechish yo'li bilan poligonometriya punktlarining koordinatalari birin-ketin aniqlanadi. Poligonometriya punktlarining koordinatalarini hisoblashda oxirgi punkt (S) ning ma'lum koordinatalari kontrol bo'lib xizmat qiladi.

Parallaktik poligonometriyada poligonometriya tomonlari bevosita o'lchanmaydi, balki boshqa yordamchi tomonlarning uzunligidan foydalanib hisoblab chiqariladi. Bu usul masofani o'lhash qiyin bo'lgan joylarda qo'llaniladi. 4-rasma da $ABCD$ poligonometriya yo'li berilgan. Uning AB, BC va CD tomonlarini aniqlash uchun ularga perpendikulyar va simmetrik qilib ab, mn va kl bazislar olinadi. Bazislar joyda bevosita o'lchanadi. Bazislardan tashqari, parallaktik burchaklar ham o'lchanadi. Poligonometriya tomonlari quyidagi formulalar yordamida hisoblab chiqariladi:

Poligon tomonlarining direksion burchaklarini hisoblab chiqarish uchun poligonometriya burilish burchaklari β_1 va β_2 o'lchanishi kerak.




4.5-rasm.

Ba’zi joylarda, chunonchi, daryo, jar va boshqalar bo‘ylab poligonometriya o‘tkazilganda poligonometriya yo‘lining yo‘nalishiga simmetrik kilib bazis olish qiyin bo‘ladi. Bunday vaktda punkt oralab bazis olinadi. Bu bazis (b_1 va b_2) lar poligonometriya yo‘li burilish burchagining bissektrissasi bo‘yicha (4-rasm, b) joylashtiriladi. b_1 bazisdan poligon yo‘lining d_1 va d_2 tomonlari uzunligini, b_2 bazisdan esa d_3 va d_4 tomonlar uzunligini hisoblashda foydalaniladi. Har-bir poligon bo‘laklarining bazislardan tashqari paralaktik burchaklar, bazis yon burchaklari (ϕ) hamda poligon tomonlari yo‘nalishlari orasidagi gorizontal burchaklar o‘lchanadi.

Bunday poligonometriyada poligon tomonlarining uzunligi quyidagi formula yordamida hisoblab chiqariladi:

$$d_1 = \frac{b_1}{\cos \psi_1}; \quad d_2 = \frac{b_1}{\cos \psi_2};$$

Polygon tomonlarining direksion burchaklari punktlarning koordinatalari formulalar yordamida topiladi.



4.6-rasm.

Qisqa bazisli parallaktik poligonometriyani sovet olimi, prof. A. S. Filonenko (1884-1963) taklif etgan. Bu poligonometriyada parallaktik poligonometriya tomonining uzunligini aniqlashda qisqa bazis olinadi.

Masalan, poligonometriya yo‘lining AB tomoni uzunligi d_1 ni bilish uchun joyda M nuqta tanlanadi (4-rasm, v). M va B nuqtalar orasidagi katta bazis (b)ga simmetrik qilib qisqa bazis (l) belgilanadi. Ko‘pincha qisqa bazis sifatida maxsus

shtativga o‘rnatilgan, uzunligi 3 m keladigan reykadan foydalaniladi. Bunda parallaktik burchaklar hamda bazis yon burchaklari o‘lchanadi; katta bazis formulasi yordamida, poligonometriya tomonining uzunligi (d) formula yordamida hisoblab chiqariladi.

Qisqa bazisli parallaktik poligonometriyada ham poligonometriya tomonlarining direksion burchaklari va burilish punktlarining koordinatalari formula asosida hisoblanadi.

Keyingi yillarda magistral poligonometriyaning tomonlarini yoki parallaktik poligonometriyaning bazislarini o‘lchashda svetodal’nomer va radiodal’nomerlar qo‘llanilmoqda, dal’nomer poligonometriyasi deb atalishiga ham sabab shu.

Dal’nomer poligonometriyasi ham koordinatalari ma’lum bo‘lgan ikki tayanch punkt oralig‘ida o‘tkaziladi. Bunda poligonometriya tomonlari dal’nomer bilan, poligonometriya tomonlari orasidagi burilish burchaklari aniq teodolit bilan o‘lchanadi. Poligonometriya tomonlarining direksion burchaklari boshlang‘ich tomonning direksion burchagidan va burchak o‘lhash natijalaridan foydalanib formula yordamida hisoblanadi, poligonometriya punktlarining koordinatalari esa boshlang‘ich punktning ma’lum koordinatalaridan va o‘lhash natijalaridan foydalanib topiladi.

4.5. Poligonometrik ishlarni tashqil qilish.

Poligonometriya ishlarni tashqil qilish quyidagi etaplardan iborat:

1. Loyiha tuzish.
2. Rekognostsirovka.
3. Belgilarni tayyorlash va ularni o‘rnatish.
4. Asboblarni tekshirish va tadqiq qilish.
5. Burchak va tomon o‘lchashlari.
6. Yo‘llarni tayanch punktlarga bog‘lash.
7. Dala o‘lchashlarini hisoblash va uning aniqligini baholash.
8. Tenglashtirish hisoblari (tomon uzunliklari, direksion burchak va koordinatalar oxirgi qiymatlarini hisoblash). Tenglashtirish natijalariga baxo berish.
9. Kataloglar tuzish.
10. Texnik hisobot tayyorlash.

Loyihani tuzish uchun ish joyining geodezik o‘rganilganligi materiallarini, fizik-geografik va iqtisodiy sharoitlarni yorituvchi materiallarni yig‘ish kerak. Loyiha eng yirik masshtabli kartalardan foydalangan holda 1:100000 masshtabli kartada tuziladi. Oldin kartaga ish joyi hududida mavjud bo‘lgan geodezik to‘r punktlari tushiriladi, keyin yangi poligonometrik yo‘l loyihalashtiriladi.

Poligonometriya yo‘llari va turlarini loyixalash, bajariladiga plan olish metodi, masshtabi va maxsus talabnomalarga asoslanib loyixalash tashqilotlari bajaradi.

Loyihalashtirishda poligonometrik yo‘llar cho‘zilgan formada loyihalashtirishga harakat qilish kerak. Poligonometrik yo‘llarni avtomobil va temir yo‘llari bo‘ylab, daryo vodiylari bo‘ylab va dala yo‘llari bo‘ylab o‘tkazish eng qulay hisoblanadi. Botqoqlik va ko‘chuvchi qum joylardan poligonometrik yo‘llar o‘tkazish tavsiya qilinmaydi. Bir vaktning uzida yen punktlarni (imoratlar chukkisi, zavod va fabrika trubalari va boshqa joydagi predmetlar) belgilab ketish kerak.

Loyihani tuzgandan keyin punktlar joyini belgilash uchun joyni rekognostirovka qilinadi. Rekognostirovkada qo‘shti punktlarning bir-biri bilan ko‘rinishini ta’minlashga katta e’tibor berish kerak.


Tanlangan tomonlar masofa o‘lchash asboblari bilan o‘lchash uchun qulay bo‘lishi kerak. Rekognostirovka qilish bilan bir vaqtida poligonometriya punktlarini o‘rnatish ham bajariladi. Punktlar tugun nuqtalarida, qayrilish burchaklarida har 1 km oraliqda o‘rnatiladi. Qolgan punktlar qoziqlar qoqib belgilanadi.

Loyixa tuzilgandan so‘ng ish xajmi, asboblarga talab, xom-ashe (materallar), ishchi kuchi, transportga talab rekognostirovka natijalariga asoslanib aniqlanadi. Bo‘lar asosida smeta tuziladi.

4.6. Poligonometriya yo‘lining bo‘ylama va ko‘ndalang xatoliklari

1. Aniqlashning grafik usuli

Koordinatlar orttirmalaridagi bog‘lanmaslik hisoblanadi (1 -rasm):



4.7 –rasm

$$f_x = \sum_1^n \Delta x - (x_{\text{oxir}} - x_{\text{bosh}}), \quad (113)$$

$$f_y = \sum_1^n \Delta y - (y_{\text{oxir}} - y_{\text{bosh}}).$$

Perimetrdagi absolyut bog‘lanmaslik topiladi:

$$f_s = \sqrt{f_x^2 + f_y^2} \quad (114)$$

Bu berilganlar bo‘yicha tanlangan masshtabda poligonometrik yo‘l qog‘ozga qo‘yib chiqiladi. Bo‘ylama va ko‘ndalang bog‘lanmaslik topiladi:

$$f_s = \sqrt{t^2 + u^2} = \sqrt{f_x^2 + f_y^2}. \quad (115)$$


Cho‘zilgan poligonometrik yo‘lda absolyut bog‘lanmaslikni ikkita qismga ajratish mumkin:

1. Bo‘ylama bog‘lanmaslik t ,
2. Ko‘ndalang bog‘lanmaslik u .

Bo‘ylama bog‘lanmaslik yo‘l bo‘yicha joylashadi, ko‘ndalang bog‘lanmaslik yo‘l yo‘nalishiga perpendikulyar joylashadi.

Cho‘zilgan yo‘lda bo‘ylama bog‘lanmaslik tomonlarni o‘lchash xatoliklarining yig‘indisi natijasida paydo bo‘ladi, ko‘ndalang bog‘lanmaslik esa burchak o‘lchash xatoliklarining birgalidagi ta’siri natijasida paydo bo‘ladi.

Cho‘zilgan yo‘lning qulayligi – burchak va tomon o‘lchash xatoliklarining alohida ta’sirini namoyon qilish imkoniyatidir.



4.8-rasm

2. Aniqlashning analitik usuli

Bu usul yo‘l o‘qining bog‘lovchi chiziq direksion burchagiga burilganda bitta sistemadan ikkinchi sistemaga o‘tishiga asoslangan. 2-rasmdan:

$$\begin{aligned} t &= f_x \cos \nu + f_y \sin \nu; & (c'_1 R = c_2 Q); \\ u &= f_y \cos \nu - f_x \sin \nu; & (c'_2 Q = c_1 R), \end{aligned} \quad (116)$$

Bu yerda:

$$\sin \nu = \frac{[\Delta y]}{L}, \quad \cos \nu = \frac{[\Delta x]}{L}.$$


3. Osilgan yo‘l

Agar yo‘lning birinchi burchagini o‘lchashda $d\beta$ tasodifiy xatolikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, boshqa burchaklar xatosiz o‘lchangan bo‘lsa, yo‘lning oxirgi nuqtasi yo‘l yo‘nalishiga perpendikulyar Δu_1 miqdorga siljiydi (3-rasm), yani

$$\Delta u_1 = (S_1 + S_2 + \dots + S_n) \frac{d\beta_1}{\rho''}.$$

Ikkinci burchakda yo‘l qo‘yilgan xatolik $d\beta_2$ ta’sirida oxirgi nuqta Δu_2 miqdorga siljiydi:

$$\Delta u_2 = (S_2 + S_3 + \dots + S_n) \frac{d\beta_2}{\rho''}.$$



4.9-rasm

Keyinchalik topamiz:

$$\Delta u_3 = (S_3 + \dots + S_n) \frac{d\beta_3}{\rho''}.$$

.....

$$\Delta u_n = S_n \frac{d\beta_n}{\rho''}.$$

Ko‘ndalang bog‘lanmaslik u oxirgi nuqtaning alohida siljishlar ads1lgebraik yig‘indisiga teng:

$$u = \Delta u_1 + \Delta u_2 + \Delta u_3 + \dots \Delta u_n = (S_1 + S_2 + \dots + S_n) \frac{d\beta_1}{\rho^n} + \\ + (S_2 + S_3 + \dots + S_n) \frac{d\beta_2}{\rho^n} + (S_3 + \dots + S_n) \frac{d\beta_3}{\rho^n} + \dots + S_n \frac{d\beta_n}{\rho^n}.$$

Agar tomon uzunliklarini bib-biriga teng deb qabul qilsak:

$$S_1 = S_2 = S_3 + S_2 = \dots = S_n = S.$$

Unda ko‘ndalang bog‘lanmaslik uchun formula quydagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$u = S_n \frac{d\beta_1}{\rho_n} + S(n-1) \frac{d\beta_2}{\rho_n} + S(n-2) \frac{d\beta_3}{\rho_n} + \dots + S \frac{d\beta_n}{\rho_n}.$$

O'rta kvadratik xatolikka o'tamiz (burchaklar bir xil aniqlikda o'lchangan):

$$m_u^2 = S^2 [n^2(n-1)^2 + (n-2)^2 + \dots + 1^2 \frac{m_\beta^2}{\rho^2}],$$

Unda o‘rtalik kvadratik xato formulasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$m_u^2 = S^2 \frac{m_\beta^2}{\rho^2} \frac{n(n+1)(2n+1)}{6} = S^2 \frac{m_\beta^2}{\rho^2} \frac{n^2(n+1,5)}{3}. \quad (117)$$

Cho'zilgan vo'lida: $nS = L$.

$$m_u^2 = \left(\frac{m_\beta}{\rho} \right)^2 \cdot L^2 \left(\frac{n+1,5}{3} \right)$$

Demak,

yoki

$$m_u = \frac{m_\beta}{\rho} \cdot L \cdot \sqrt{\frac{n+1,5}{3}}. \quad (118)$$


ko'ndalang bog'lanmaslikning nisbiy o'rtacha miqdori:

$$\frac{m_u}{L} = \frac{m_\beta}{\rho} \cdot \sqrt{\frac{n + 1.5}{3}}$$

Osilgan yo'lga ishlab chiqarishda yo'l qo'yilmaydi. Odatda poligonometrik yo'llar koordinatalari va direksion burchaklari ma'lum bo'lgan yuqori klassli triangulyatsiya va poligonometriya punktlari orasida o'tkaziladi.

4.7. Har qanday formadagi poligonometriya yo'li oxirgi nuqtasi vaziyatining o'rta kvadratik xatosi

1). Osilgan yo'l



4.10-rasm

Osilgan poligonometrik yo'l olamiz: 1, 2, 3, ..., n+1

Ma'lumki, koordinatalar orttirmasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\begin{aligned}\Delta x &= S \cos \alpha, \\ \Delta y &= S \sin \alpha.\end{aligned}$$

Bu tenglamani differensiallab, koordinata orttirmalarining haqiqiy xatosini topamiz:

$$\begin{aligned}d\Delta x &= \cos \alpha dS - S \sin \alpha \frac{d\alpha}{\rho} = \cos \alpha dS - \Delta y \frac{d\alpha}{\rho} \\ d\Delta y &= \sin \alpha dS + S \cos \alpha \frac{d\alpha}{\rho} = \sin \alpha dS + \Delta x \frac{d\alpha}{\rho}.\end{aligned}$$

Oxirgi punkt koordinatalaridagi haqiqiy xatolik:

$$\left. \begin{aligned} [d\Delta x] &= [\cos \alpha \ d S] - \frac{1}{\rho} [\Delta y d\alpha], \\ [d\Delta y] &= [\sin \alpha \ d S] + \frac{1}{\rho} [\Delta x d\alpha]. \end{aligned} \right\} \quad (119)$$

Direksion burchak xatosi da burchak o‘lchash xatosiga bog‘liq, ya’ni

$$da_i = \sum_{\textcolor{brown}{1}}^{\textcolor{blue}{i}} d\beta$$

unda

$$\begin{aligned} [d\Delta x] &= [\cos \alpha dS] - \frac{1}{\rho} \left[\Delta y_i \sum_{\textcolor{brown}{1}}^{\textcolor{blue}{i}} d\beta \right], \\ [d\Delta y] &= [\sin \alpha dS] - \frac{1}{\rho} \left[\Delta x_i \sum_{\textcolor{brown}{1}}^{\textcolor{blue}{i}} d\beta \right]. \end{aligned} \quad (120)$$

(120) tenlamaning oxirgi hadini soddalashtiramiz:

$$\begin{aligned} \left[\Delta y_i \sum_{\textcolor{brown}{1}}^{\textcolor{blue}{i}} d\beta \right] &= (\Delta y_1 + \Delta y_2 + \Delta y_3 + \dots + \Delta y_n) d\beta_1 + \\ &+ (\Delta y_2 + \Delta y_3 + \dots + \Delta y_n) d\beta_2 \end{aligned}$$

yoki

$$\begin{aligned} \left[\Delta y_i \sum_{\textcolor{brown}{1}}^{\textcolor{blue}{i}} d\beta \right] &= (y_{n+1} - y_1) d\beta_1 + \\ &+ (y_{n+1} - y_2) d\beta_2 + \dots + (y_{n+1} - y_n) d\beta_n \end{aligned}$$

yoki qisqa

$$\left. \begin{aligned} \left[\Delta y_i \sum_{\textcolor{brown}{1}}^{\textcolor{blue}{i}} d\beta \right] &= [(y_{n+1} - y_i) d\beta_i], \\ \left[\Delta x_i \sum_{\textcolor{brown}{1}}^{\textcolor{blue}{i}} d\beta \right] &= [(x_{n+1} - x_i) d\beta_i]. \end{aligned} \right\}, \quad (121)$$

((120)) va (121) formulaga asosan topamiz:

$$\begin{aligned} [d\Delta x] &= [\cos \alpha dS] - \frac{1}{\rho} (\Delta y_{n+1} - \Delta y_i) d\beta_i, \\ [d\Delta y] &= [\sin \alpha dS] - \frac{1}{\rho} (\Delta x_{n+1} - \Delta x_i) d\beta_i. \end{aligned}$$

O‘rta kvadratik xatolikka o‘tamiz, bunda burchaklar bir xil aniqlikda o‘lchangan deb hisoblaymiz, ya’ni

$$m_{\beta_i} = m_{\beta_1} = m_{\beta_2} = \dots = m_{\beta_{n+1}} = m_{\beta}$$

$$m'^2_x = \left[\cos^2 \alpha m_s^2 \right] + \left[\frac{1}{\rho^2} (\Delta y_{n+1} - \Delta y_i)^2 m_s^2 \right] \quad (122)$$

$$m'^2_y = \left[\cos^2 \alpha m_s^2 \right] + \left[\frac{1}{\rho^2} (\Delta x_{n+1} - \Delta x_i)^2 m_s^2 \right]$$

Agar o'lchashda sistematik xato bo'lsa, unda

$$m_s = \mu \sqrt{S}$$

Buni hisobga olganda (4) formula quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\begin{aligned} m'^2_x &= \mu^2 [S \cos^2 \alpha] + \left[\frac{1}{\rho^2} (\Delta y_{n+1} - \Delta y_i)^2 m_s^2 \right] \\ m'^2_y &= \mu^2 [S \cos^2 \alpha m_s^2] + \left[\frac{1}{\rho^2} (\Delta x_{n+1} - \Delta x_i)^2 m_s^2 \right] \end{aligned} \quad (123)$$

Oxirgi nuqta vaziyatining o'rta kvadratik xatosini topamiz:

$$M'^2 = m'^2_x + m'^2_y = \mu^2 [S] + \frac{m_\beta^2}{\rho^2} [D_{n+1,i}^2]. \quad (124)$$

Bu erda: $D_{n+1,i}^2$ — oxiridan har bir qayrilish nuqtasigacha bo'lgan masofa.

Bu miqdorning qiymati grafik va formula bo'yicha hisoblash mumkin:

$$D_{n+1,i}^2 = (\Delta y_{n+1} - \Delta y_i)^2 + (\Delta x_{n+1} - \Delta x_i)^2 \quad (125)$$

Agar o'lchashga sistematik xato ta'sir qilsa, unda

$$M'^2 = \mu^2 [S] + \lambda^2 L^2 \frac{m_\beta^2}{\rho^2} [D_{n+1,i}^2] \quad (126)$$

2. Tayanch punktlar orasida o'tkazilgan yo'l

Oldindan to'g'rilangan burchak bo'yicha egri yo'l oxirgi punkti vaziyatining o'rta kvadratik xatosi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$M'^2 = \mu^2 [S] + \lambda^2 L^2 + \frac{m_\beta^2}{\rho^2} [D_{m,i}^2] \quad (127)$$

Agar bosh berilganlarda xato mavjud bo'lsa:

$$M'^2 = \mu^2 [S] + \lambda^2 L^2 + \frac{m_\beta^2}{\rho^2} [D_{m,i}^2] + \frac{m_\alpha^2}{\rho^2} [D_{mH,i}^2] + m_{b-a}^2 \quad (127a)$$


bu erda: $D_{m,i}$ — og'irlik markazidan har bir qayrilish nuqtasigacha bo'lgan masofa.

Hisoblashni qulaylashtirish uchun koordinatalar markazini og‘irlik markaziga o‘tkazamiz. Og‘irlik markazi koordinatalari ushbu formula bilan hisoblanadi:

$$x_m = \frac{[x]}{n+1}; \quad y_m = \frac{[y]}{n+1}.$$

Keyin yo‘l markaziy koordinata qiymati bir metr aniqlikda hisoblanadi:

$$\varepsilon_i = x_i - x_m, \quad \eta_i = y_i - y_m$$



4.11-rasm

Bu koordinatalarning shartli qiymatlari bo‘yicha qog‘ozga yo‘lni tushiriladi. D_m .qiymat grafik yoki analitik usulda ushbu formula bilan aniqlanadi:

$$[D_{m,i}] = [\varepsilon^2] - [\eta^2]$$

(126) va (127) formuladan ko‘rinib to‘ribdiki, egilgan poligonometrik yo‘lning aniqligi faqatgina tomonlar va qayrilish burchaklarini o‘lchashdagi sistematik va tasodifiy xatoliklariga bog‘liq bo‘lmasdan, balki yo‘lning egrilik darajasiga va undagi qayrilishlar soniga ham bog‘liqdir.

5-bob. Poligonometriyada masofa o‘lchash

5.1. Bazis o‘lchash asbobi

Bazis o‘lchash asbobi triangulyatsiyaning boshlang‘ich tomonlarini (bazis tomonini) va poligonometriya tomonlarini o‘lchash uchun qo‘llaniladi. Bazis o‘lchash asboblari BP- 1, BP-2 va BP-3 markalarda ishlab chiqariladi.

BP-1 1 va 2-klass triangulyatsiya bazislarini va poligonometriya tomonlarini o‘lchash uchun mo‘ljallangan.

BP-2 3 va 4-klass triangulyatsiya va poligonometriyada qo‘llaniladi.

BP-3 injenerlik poligonometriyada tomon uzunliklarini o‘lchash uchun qo‘llaniladi.

BP-3 ning komplektiga quyidagilar kirdi:

- Uchta invar simi 24metrli.
- Qoldiqlarni o'lhash uchun bitta invar lenta.
- Ikkita blok stanok ikkita 10 kgli tosh bilan.
- Selikli 10 ta bazis shtativi.
- Ikkita optik markazlashtirgich asbobi (lotoapparat).
- Bazis reykasi.

Bundan tashqari o'lhash uchun, quyidagilar kerak:

8. tseliklarni nivelirlash uchun niveler;
9. tseliklarni shtativ bilan bir ukka qo'yish uchun teodolit;
- d) xavo temperatursini o'lhash uchun termometr.

Invar sim 36% nikeldan va 64% temirdan tashqil topgan invar qotishmasidan tayyorlanadi. Invarning chiziqli kengayishi $0.5\text{-}10^{-6}$ ($0,0000005$) ga teng.

Invar simning diametri 1,65mm, uzunligi 24 va 48 metr bo'ladi.


24 metrlisimning og'irligi 0,42 kg ga teng.

Har bir simning oxiriga millimetrda bo'laklangan 8 sm uzunlikdagi shkala mahkamlangan. Shkalada bir yo'nalishda dittsimetrli bo'laklariga yozilgan, milimetrga bo'lingan. Shkala nollari orasidagi masofa 24 m.

Tomonlarni o'lhash bo'yicha ish o'lchanadigan tomon bo'yicha stvorda shtativlarni qo'yib chiqishdan boshlanadi. Shtativlar orasidagi masofa o'lhash asbobining uzunligiga teng bo'lishi kerak. Shtativning ustiga tseliklar qo'yiladi. Selikli birinchi shtativ lotapparat yordamida o'lchanadigan tomon boshidagi belgi markazi ustiga o'rnatiladi.

Orqangi shkala

Oldingi shkala



5.1- rasm. 1- o'lhash simi; 2 va 3-simning oldingi va orqadagi shkalalari; 4 va 5-shtativdagi seliklar; 6 va 7-bloklar; 8 va 9- toshlar; 10 va 11-blokli stanoklar.

O'lhash asbobini selikning ustiga o'rnatgandan keyin, 1mm aniqlikda uch marta sanoq olinadi. Sanoqlar farqi $\pm 0,3$ mm dan oshmasligi kerak.

Agar oldingi shkala bo'yicha sanoqni «P» harfi bilan, orqadagi shkala bo'yicha sanoqni «Z» harfi bilan belgilasak, masofaning uzunligini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$l = 24000 + (P-Z) \text{ mm.}$$

Bizning misolimizda $l = 24000 + (50,0 - 55,0) - 23995 \text{ mm} \ll 23,995 \text{ m.}$

5.1-jadval

Proletlar №	Shkalalar bo'yicha sanoq		(P-Z)	Tekshirish
	P	Z		
0-1	32.3	35.1	-2.8	
	39.5	42.4	-2.9	
	48.8	51.6	-2.8	
o'rtacha	40.20	43.03	-2.83	-2.83
1-2	48.5	26.3	+22.2	
	53.9	31.8	+22.1	
	63.6	41.4	+22.2	
o'rtacha	55.33	33.17	+22.17	+22.16

Qoldiqlar sanoqlar usuli bo'yicha lenta bilan o'lchanadi. TSeliklarni niveliplash sektsiya bo'yicha to'g'ri yo'nalishda o'lhash boshlanguncha va teskari yo'nalishda o'lhash tugagandan keyin bajariladi.

Sanoq reykaning ikki tomonidan o'rta ip bo'yicha olinadi. Reykaning qora va qizil tomonlari sanog'i bo'yicha topilgan nisbiy balandliklar farqi 5 mm dan oshmasligi kerak.

Shtativlarni niveliplashda niveler yo'ldan chetraqqa o'rnatiladi. Har bir shtativgacha bo'lgan masofa 60 m dan oshib ketmasligi kerak. Bitta stantsiyadan 6 tashtativdan ko'p niveliylanmaydi. Shtativlarni niveliplash yo'li niveler to'riga bog'lanishi ham kerak. Bu tomonni ellipsoid yuzasiga keltirish uchun zarur.

Bazisni niveliirlash jurnali

№1 sektsiya 2-st.

5.2-jadval

Reyk	Sht.10	<i>h</i>	Sht.11	<i>H</i>	Sht.12	<i>h</i>	Sht.13
To‘g‘ri yo‘nalish							
qora	0940	-16	0956	+249	0707	-421	1128
qizil	0854		0869		0643		1026
	85.4		86.9		64.3		102.6
	0939.4	-16.5	0955.9	+248.6	0707.3	-421.3	1128.6
	to‘g‘ri	-16.2		+248.8		-421.2	
Teskari yo‘nalish							
qora	0714	-16	0730	+248	0482	-421	0903
qizil	0649		0663		0437		0820
	64.9		66.3		43.7		82.0
	0713.9	-15.4	0729.3	+248.6	0480.7	-421.3	0902
	H _{teskari}	-15.7		+248.3		-421.2	
	H _{o'rtta}	-16.0		+248.6		-421.2	

Bazis asbobi bilan masfa o‘lchashda xatolar manbalari quyidagilardir:

Asosiy manbalar:

1. O‘lchash asbobini komparirlash.
2. Shtativlarning osilishi.
3. O‘lchash asboblarining cho‘zilishi.
4. Shamolning ta’siri.
5. Joyning egriligi.
6. Temperaturaning ta’siri.
7. Shtativlarning nomuqobilligi.
8. O‘lchashning o‘z xatoligi.

1, 2, 3 va 4 manbalarni sistematik xatoliklar $\Delta_1, \Delta_2, \Delta_3$, va Δ_4 keltirib chiqaradi.

Shuningdek, Δ_2, Δ_3 va Δ_4 hamma vaqt manfiy ishoraga ega. Shuning uchun bo‘larni 3 $\Delta_{2,3,4}$ qiymatga ega bo‘lgan bitta xatolik deb qarash mumkin.

5, 6, 7 va 8 manbalarni tasodifiy xatoliklar $\delta_5, \delta_6, \delta_7, \delta_8$ keltirib chiqaradi.

Hamma xatoliklarning umumiy ta’sirini topamiz:

$$\sum = \Delta_1 + 3 \Delta_{2,3,4} + \delta_5 + \delta_6 + \delta_7 + \delta_8. \quad (128)$$

O‘rta kvadaristik xatolikka o‘tamiz:

$$m^2 \sum = m_1^2 + 9 m_{2,3,4}^2 + m_5^2 + m_6^2 + m_7^2 + m_8^2. \quad (129)$$

Xamma xatoliklar teng ta'sir qiladi, deb faraz qilaylik, ya'ni

$$m_1 = m_2 = \dots = m_7 = m_8 = m$$

bo'lsin, unda

$$m_{\Sigma}^2 = 14m^2,$$

bundan:

$$m_{\Sigma}^2 = m\sqrt{14} = 3,7m$$

yoki

$$m = \frac{m_{\Sigma}}{3,7}. \quad (130)$$

Ma'lumki, $M_S^2 = m_t^2 + m_u^2 (f_S^2 = t^2 + u^2)$. Teng ta'sir qilish prinsipiga asosan yozamiz:

$$m_t = m_u.$$

Unda

$$m_t = m_u = \frac{M_S}{\sqrt{2}} \quad (131)$$

$$(bo'yl. t = bo'yl. u = \frac{f_S}{\sqrt{2}}).$$

Yo'lning bo'ylama xatoligi m_t dan oshmasligi kerak deb shart qo'yamiz.

Buning uchun manbalardan har birining ta'sir quyidagidan oshmasligi kerak:

$$m = \frac{m_t}{3,7}.$$

lekin, $m_t = \frac{M_S}{\sqrt{2}}$, shuning uchun $m = \frac{M_S}{3,7\sqrt{2}} = \frac{M_S}{5,3}$,

ya'ni xatoliklarning chekli qiymati katta bo'lmashligi kerak:

$$chek \delta = chek \Delta = \frac{chek f_S}{5,3}. \quad (132)$$

Nisbiy xatolik

$$\frac{chek \delta}{L} = \frac{chek \Delta}{L} = \frac{chek f_S}{5,3L}$$

belgilaymiz

(133)

$$\frac{\text{chek. } f_S}{L} = \frac{1}{T}$$

unda

$$\text{Chek. } \delta = \text{chek. } \Delta = \frac{L}{5,3T}. \quad (134)$$

bu formula bo‘yicha yo‘lning umumiy xatoligi dan oshmasligi kerak.

T uzuznlikdagi o‘lhash asbobi qo‘yish chekli sistematik xatosi:

$$\text{chekli } \Delta l_{sis} = \frac{l}{5,3T} \text{ yoki nisbiy chekli } = \frac{\Delta l_{sis}}{l} = \frac{l}{5,3T}$$

Chekli tasodifiy:

$$\text{chekli } \delta l_{tasod} = \frac{l}{5,3T} \sqrt{n}, \quad (135)$$

bu yerda: n –o‘lhash asbobini qo‘yish soni.

Sistematik xatolar yig‘indisi o‘lhash asbobining qo‘yilish soniga to‘g‘ri propartsional. O‘lhash asbobining uzunligi $l = 24\text{m}$; $T=25\ 000$; qo‘yish soni $n=20$.

4-klass poligonometriya uchun chekli sistematik va chekli tasodifiy xatolarni hisoblaymiz.

Yechish.

$$\text{chekli } \Delta l_{sis} = \frac{24000}{5.3 \cdot 25000} = 0.2\text{mm},$$

$$\text{chekli } \Delta l_{tasod.} = \frac{24000}{5.3 \cdot 25000} \sqrt{20} = \pm 0.8 \text{ mm}$$

5.2. Alovida xatoliklar uchun yo‘l qo‘yish chekini hisoblash

Chekli sistematik va tasodifiy xatoliklar formulalaridan foydalanib har bir xatolikning yo‘l qo‘yish miqdorini hisoblash mumkin.

1. Komparirlash xatoligi

$$\text{chekli } \Delta l_{komp} \leq \frac{l}{5,3T}.$$

4-klass poligonometriyada 24 m invar sim bilan komparirlashda chekli komparirlash xatoligi $\pm 0,20$ mm dan oshmasligi kerak.

2. Chiziqning osilish xatoligi

AB - o‘lchanadigan tomon;


l -o‘lchashsimi;

ε -o‘lchash asbobining AB yo‘nalishdan ogishi. MM₁N uchburchakdan:

$$x^2 = l^2 - 4\varepsilon^2$$

Osilish xatoligi:

$$\Delta l_{osil} = l - x = l - \sqrt{l^2 - \varepsilon^2} \quad (136)$$



5.2-rasm

$$\Delta l_{osil} = l - x = l - l \left(1 - \frac{4\varepsilon^2}{l^2} \right)^{\frac{1}{2}} \quad (137)$$

Qavsdagi ifodani binominal qatorga yoyamiz:

$$\left(1 - \frac{4\varepsilon^2}{l^2} \right)^{\frac{1}{2}} = 1 - \frac{1}{2} \cdot \frac{4\varepsilon^2}{l^2} = \dots$$

Unda (2) ushbu ko‘rinishni oladi:

$$\Delta l_{osil} = l - x = l - l \left(1 - \frac{1}{2} \cdot \frac{4\varepsilon^2}{l^2} \right) = l - l + \frac{1}{2} \cdot \frac{4\varepsilon^2 l}{l^2}$$

Yoki $\text{cheki } \Delta l_{osil} \leq \frac{2\varepsilon^2}{l} .$ (138)

Bundan $\varepsilon^2 = \frac{\Delta l \cdot l}{2}$ yoki $\varepsilon = l \sqrt{\frac{1}{2} \cdot \frac{\Delta l}{l}} .$

Lekin $\frac{\Delta l}{l} = \frac{1}{5.3T} ,$ shuning uchun chekli $\varepsilon \leq l \sqrt{\frac{1}{10.6T}} .$

4-klass poligonometriya uchun chekli $\varepsilon = 4,5$ sm.

Misol. TSeliklarni osish truba kattalashtirishi 20^x bo‘lgan teodolit bilan bajarilgan. 500 m masofaga osilish chekli xatoligini toping.

Yechish. Chekli vizirlash xatoligi:

$$\frac{60''}{20} = 3'',$$

Chekli osilish xatoligi:

$$chekli \varepsilon = 50\ 000 \text{ sm } \frac{3''}{\rho''} = 1\text{cm},$$

unda osilish xatoligi quyidagicha bo‘ladi:

$$\Delta l_{osil} \leq \frac{2\varepsilon^2}{l} = \frac{2 \cdot 100}{24000} = 0.01mm$$

3. Cho‘zilish xatoligi

$$chekli \Delta l_{cho'zil} = \left(\frac{\sigma \cdot l}{P} + \frac{P^2 l^3}{12F^3} \right) dF,$$

bu yerda: $\sigma = 0,00051$ mm-og‘irlik ta’sirida sim uzunligi birligining cho‘zilishi;

$P = 0,0173$ kg-bir metr simning og‘irligi;

F - 10 kg simni cho‘zilish kuchi.

$$chekli \Delta l_{cho'zil} = \left[\frac{0,00051 \cdot 24000}{0,0173} + \frac{(0,0173)^2 \cdot 24000^3}{12 \cdot 10^3} \right] dF,$$

$$chekli \Delta l_{cho'zil} = 1,04 \text{ } dF (\text{mm/kg}).$$

4-klass poligonometriya uchun formulaga binoan:

$$chekli \Delta l_{cho'zil} = \frac{l}{5 \cdot 3T} = \frac{24000}{5 \cdot 3 \cdot 25000} = 0,2 \text{ mm } dF (\text{mm/kg}),$$

bunda $dF = 0,173$ kg.

Demak, 4-klass poligonometriya uchun simning cho‘zilish aniqligi 173 g ga teng.

4. Shamolning ta’sir xatoligi

$$\Delta l_{shamol} = \frac{Q^2 l}{24F^2} \quad (139)$$

bu yerda: Q -shamolning yo‘l qo‘yiladigan ta’sir kuchi.

Formulaga binoan: chekli $\Delta l_{shamol} = \frac{l}{5.3T} = 0,2 \text{ mm}$, unda shamol kuchining yo‘l qo‘yish miqdorini hisoblash mumkin:

$$Q = \sqrt{\frac{\Delta l \cdot 24F^2}{l}} = \sqrt{\frac{0,2 \cdot 24 \cdot 10000^2}{24000}} = 140 \text{ g.}$$

Bunday kuch shamolning tezligi sekundiga 8 metr bo‘lganda paydo bo‘ladi. Demak, 4-klass poligonometriyada sim asboblari bilan tomonlarni o‘lchashda shamolning tezligi sekundiga 8 m dan oshmasligi kerak. Demak poligonometriyada sim asboblari bilan tomonlarni o‘lchashda shamolning tezligi sekundiga 8 m dan oshmasligi kerak.

5. Joyning egrilik xatoligi

MNN’ uchburchakdan (5.3-rasm): $x^2 = l^2 - h^2$

Joyning egriligi uchun xatoligi

$$\Delta l_{egri} = l - x = l - \sqrt{l^2 - h^2} : \quad (140)$$

yoki

$$\Delta l_{egri} = l - l\sqrt{1 - \frac{h^2}{l^2}} = l - l\left(1 - \frac{h^2}{l^2}\right)^{\frac{1}{2}}. \quad (141)$$


Ildiz ostidagi ifodani binar qatoriga yoyamiz:

$$\begin{aligned} \sqrt{l^2 - h^2} &= l\sqrt{1 - \frac{h^2}{l^2}} = l\left(1 - \frac{h^2}{l^2}\right)^{\frac{1}{2}} \\ \left(1 - \frac{h^2}{l^2}\right)^{\frac{1}{2}} &= 1 - \frac{1}{2} \cdot \frac{h^2}{l^2} - \dots \end{aligned} \quad (142)$$

(140), (141) va (142) formulalarga asosan:

$$\Delta l_{egri} = l - x = l - l\left(1 - \frac{1}{2} \cdot \frac{h^2}{l^2}\right) = l - l + \frac{1}{2} \cdot \frac{h^2}{l^2} l$$

yoki chekli $\Delta l_{egri} = \frac{h^2}{2l}$.



5.3-rasm

Formulani differensiallaymiz:

$$chekli \quad dl_{egri} = \frac{2h}{2l} dh = \frac{h}{l} dh.$$

Qo‘yilgan shartga asosan:

$$chekli \quad dl_{egri} = \frac{h}{l} dh \leq \frac{l}{5,3T} \sqrt{n}.$$

Bundan:

$$dh = \frac{l^2}{h} \cdot \frac{\sqrt{n}}{5,3T}.$$

Bu formuladan ko‘rinib to‘ribdiki, nisbiy balandlik qanchalik katta bo‘lsa, tseliklarni nivelirlashni shunchalik aniq bajarish kerak.

6. Temperatura ta’sirining xatoligi

$$chekli \Delta l_{temp} = \alpha l \text{ chek } \Delta t,$$

bu yerda: $\alpha = 0,000012$ – po‘latning chiziqli kengayish koeffitsiyenti; Δt – havo temperaturasini aniqlash xatoligi.

Qo‘yilgan shartga asosan:

$$chekli \Delta l_{temp} = \pm 0,8 \text{ mm.}$$

Unda havo temperurasini aniqlash xatoligi quyidagicha aniqlanadi:

$$chekli \Delta t = \frac{\Delta l}{\alpha l} = \frac{0,8}{0,000012 \cdot 24000} = \pm 3^\circ.$$

7. Shtativlarning turg‘un emaslik xatosi

Egilgan tekislikda tomonlarni o‘lchashda tashqi muhitning ta’sirida shtativlarning siljishi paydo bo‘ladi. Tomonlarni ikki yo‘nalish bo‘yicha o‘lchashda bu xatoliklarning ta’sirini susaytirish mumkin.

8. O‘lchashning o‘z xatoligi

Bu xatolik lotapparat yordamida chiziqning oxirini to‘g‘rilash va shkalalar bo‘yicha sanoq olish xatoliklaridan iborat.

Birinchisi nuqta ustida lotapparatni markazlashtirish xatoligiga bog'liq, u 0,5 mm dan oshmasligi kerak. Sanoq olish xatoligi ham 0,5 mm dan oshmasligi kerak.

$$\Delta l_{o'ch} = 0.5\sqrt{2} = \pm 0.7 \text{ mm.}$$

Demak,

Ko'rinib to'ribdiki, bu ikkita xatolik ham yo'1 qo'yilgan chekdan oshib ketmaydi:

$$chekli \Delta l_{o'ch} = \pm 0,8 \text{ mm.}$$

Tomon o'lchashlarining natijasini hisoblash

Tomon o'lchashlarining natijasini hisoblash dala o'lchash materiallarini tekshirishdan boshlanadi.

1. O'lchash asbobining o'rtacha temperaturasi hisoblanadi.
2. Umumiy sektsiya bo'yicha va proletlar bo'yicha sanoqlarni tekshirish bajariladi (bazisni o'lchash jurnalida).
3. Reykaning qora va qizil tomonlari sanoqlari bo'yicha nisbiy balandlikni hisoblash tekshiriladi (bazis ninivelirlash jurnalida).

Jurnallarni hisoblashdan keyin yo'1 tomonlar uzunligini hisoblashga kirishiladi.

Tomonlar o'lchash uzunligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$S = n(l + \Delta l) + \sum_1^n (O - K)_{o'r} + \Delta S_r + \Delta S_h + \sum r + \Delta S_H + \Delta S_y,$$

bu erda:

$$n(l + \Delta l) + \sum_1^n (O - K)_{o'r} - n \text{ prolet tomonining o'lchangan qiymati;}$$

$(l + \Delta l)$ – komparirlash temperaturasidagi o'lchash asbobining uzunligi;

$\Delta S_1 = \alpha l(t_{o'rt} - m)$ – o'lchash asbobining temperatura uchun tomon uzunligiga tuzatma;

α - o'lchash asbobining chiziqli kengayish koeffitsiyenti;

l - o'lchash asbobining nominal uzunligi;

$t_{o\cdot r t} v a t_0$ - komparirlashda va tomonlarni o‘lchashda o‘lchash asbobining o‘rtacha temperaturasi;

$\Delta S_H = \sum_1^n \Delta l_n$ - tomon uzunligini gorizontga keltirish tuzatmasi (qoldiq tomonlarni o‘lchashni gorizontga keltirish tuzatmasini hisobga olmaganda);

$\Delta l_h = -\frac{h^2}{2l} - \frac{h^4}{8l^3}$ - tuzatmaning bu qiymatini l va h miqdorlar bo‘yicha jadvaldan olish mumkin.

$\sum r$ – qoldiqlar uzunligi yig‘indisi:

$$r = r' + \Delta r + \Delta r_t + \Delta r_h,$$

bu erda: r' – qoldiqning o‘lchangan qiymati;

$\Delta r = \frac{\Delta l}{l} \cdot r'$ - o‘lchash asbobining komparirlash uchun tuzatma;

l – qoldiq o‘lchash asbobining nominal uzunligi;

Δl - o‘lchash asbobining hamma uzunligiga komparirlash tuzatmasi (o‘lchash asbobini tenglashtirishdan olinadi);

$\Delta r_t = \alpha(t - t_0)r'$ - temperatura uchun qoldiq qatuzatma;

$\Delta r_h = -\frac{h^2}{2r'} - \frac{h^4}{8r'^3}$ – o‘lchangan qoldiq uzunligini gorizontga keltirish tuzatmasi.

h - qoldiq oxiri balandliklari farqi.

Yuqoridagi sanab o‘tilgan tuzatmalarni kiritilgandan keyin gorizontga keltirilgan S' tomonning uzunligi topiladi:

$$S' = n(l + \Delta l) + \sum_1^n (O - K)_{o\cdot r} + \Delta S_t + \Delta S_h + \sum r.$$

S' tomonning oxirgi uzunligini topish uchun quyidagi xatoliklarni kiritish zarur:

1. Tomonni dengiz sathiga keltirish uchun tuzatma:

$$\Delta S_H = \frac{H_m}{R} S',$$

bu yerda: H_m -o‘lchangan tomonning dengiz sathidan o‘rtacha balandligi (kartadan olinadi);

$R \approx 6371$ km -yer ellipsoidi sirti egriligi o‘rtacha radiusi:

Dengiz sathidan baland bo‘lgan joylarda ΔS_H tuzatma manfiy bo‘ladi.

2. Tomon uzunligini Gauss-Kryuger proeksiya tekisligiga keltirish uchun tuzatma:

$$\Delta S_y = \frac{y_m^2}{2R^2} S',$$

bu yerda: $y_m = \frac{y_1 + y_2}{2}$ - o‘q meridian tomonning o‘rtacha balandligi (kartadan olinadi).

Tuzatma ΔS_y doimo musbat. Gauss-Kryuger proeksiya tekisligida o‘lchangan tomon uzunligi qiymati ellipsoidda o‘lchangan qiymatdan katta.

5.3. Optik dal’nomerlar bilan masofa o‘lchash.


Poligonometriyada masofani aniq o‘lchaydigan bazis asboblari deb ataladigan БП-1, БП -2 va БП -3 asboblari, svetodal’nomerlar va optik dal’nomerlar ishlataladi.

Ishlatishdan oldin masofa o‘lchash asboblari tekshirilishi, ya’ni uzunligi ma’lum bo‘lgan maxsus asbobga - *komparatorga* taqqoslanishi kerak. Komparatorlar maxsus laboratoriyalarda bo‘ladi. Po‘lat lentalar qattiq yog‘ochdan yasalgan tekis to‘sini ko‘rinishidagi va ikkala uchiga shkalalar qilingan komparator yordamida tekshirilishi mumkin. Bunda po‘lat lenta komparator ustiga qo‘yilib, uzunligi aniqlanadi, bunga *komparirlash* deyiladi.

Masofani optik dal’nomerlar bilan o‘lchash teng tomonli uchburchakning qisqa tomoni bilan shu tomon qarshisidagi burchak α ning o‘zaro bog‘liqligi teoremasiga asoslangan, 6.a–shakldan ko‘rinishicha, burchak o‘zgarmas bo‘lganida masofa uzaygan sari *AOV* uchburchakning qisqa tomoni *AV*, ya’ni bazis b ham uzayadi; bazis b o‘zgarmas bo‘lganda masofa uzaygan sari α burchak kichrayadi, uni 6.b–shakldan ko‘rish mumkin. Shu shakllardagi masofa quyidagiga teng:

$$D = \frac{b}{2} \operatorname{ctg} \frac{\alpha}{2}. \quad (143)$$

(1) formuladagi bazis b yoki burchak α o‘zgarmas bo‘lib, ulardan biri bevosita o‘lchanadi. Shunga ko‘ra optik dal’nomerlar o‘zgarmas burchaklar va o‘zgarmas bazisli dal’nomerlarga bo‘linadi.



5.4-rasm

Optik dal’nomer bilan masofa o‘lhashga oid:

a – o‘zgarmas burchakli dal’nomerlarga oid;

b – o‘zgarmas bazisli dal’nomerlarga oid.

O‘zgarmas burchakli dal’nomerlar yordamida teng tomonli uchburchakning kichik tomoni b (bazis) o‘lchanadi, α burchak esa o‘zgarmas bo‘ladi. (143) formulada o‘rniga koeffitsiyent K ni qo‘ysak, formula quyidagi ko‘rinishga kiradi:

$$D = K \cdot b. \quad (144)$$

(144) formuladagi K o‘zgarmas koeffitsiyent bo‘lib, dal’nomer koeffitsiyenti deb ataladi.

O‘zgarmas bazisli dal’nomerlar yordamida parallaktik burchak deb ataladigan α burchak o‘lchanadi, o‘zgarmas bazis b ning uzunligi reykada maxsus ravishda belgilab qo‘yiladi. Masofani o‘zgarmas bazisli Dal’nomer bilan o‘lhash natijalari quyidagi formula bo‘yicha hisoblab chiqariladi:

$$D = \frac{b}{2 \operatorname{tg} \frac{\alpha}{2}}. \quad (145)$$

(145) formuladagi paralaktik burchak α juda kichik bo‘lib,

$$tg\alpha = \frac{\alpha}{2P''}$$

ga teng. Bunda (3) formula

$$D = \frac{b}{2\alpha} P'' \quad (146)$$

bo‘ladi. (146) formuladagi b va P'' — o‘zgarmas koeffitsiyentdir, uni k bilan belgilasak, formula quyidagi ko‘rinishga kiradi:

$$D = \frac{k}{\alpha} . \quad (147)$$

Optik dal’nomerlarda bazis b vazifasini reyka bajaradi. Masofani dal’nomerlar bilan o‘lchashda reykani gorizontal yoki vertikal holatda o‘rnatish mumkin. Shunga ko‘ra optik dal’nomerlar gorizontal va vertikal reykali dal’nomerlarga bo‘linadi. Bundan tashqari bazis joylanishiga karab: 1) Ichki bazisli;

2) Tashqi bazisli; (o‘lchanayotgan tomonning ikkinchi nuqtasiga bazis qo‘yiladi) dal’nomerlarga bo‘linadi.

Optik dal’nomerlarda doimiy parallaktik burchakli va reykadan sanoq olish uchun iplar setkasidan foydalanilsa ipli dal’nomer deyiladi.

Sanoq olish uchun maxsus moslama ishlatsa bunday dal’nomerlar ikki tasvirli optik dal’nomerlar deyiladi.

Optik dal’nomerlar klassifikatsiyasi.

Ikki tasvirli optik dal’nomerlar masofa o‘lhash aniqligi bo‘yicha:

- pastaniqlikdagi (masofani 1: 500 nisbiy xatolikda o‘lchaydi.)
- o‘rta aniq (masofani 1:1000 dan 1:2000 nisbiy xatolikda o‘lchaydi.)
- aniq (masofani 1: 5000 nisbiy xatolikda o‘lchaydi.)

Ikki tasvirli quyidagi optik dal’nomerlar ishlab chiqarilgan: $DN-8$, $DNR-5$, $D-2$, OTD va boshqalar.

5.4. Optik dal’nomerlarda masofa o‘lchashda xatolar manbaii.

Dal’nomer xatosi:

- 1) Doimiy qiymatlar xatosi;

2) Dal'nomer koeffitsenti va doimiy qiymatlar parallaktik burchak xatolari;

3) Masofani aniq reduktsirlamaslikdan kelib chiqadigan xatolik.

Dal'nomer reykasining xatosi:

1) O'lchanayotgan masofaga reykani (bazisni) perpendikulyar urnatmaslik xatosi;

2) O'lchanayotgan masofaga reykani simmetrik urnatmaslik xatosi;

3) Reykalar bo'lim qiymatining xatosi;

4) Temperatura xatosi.

Shaxsiy xatolar:

1) Kuztuvchining tasodifiy xatosi;

2) Kuzatuvchining sistemtik xatosi;

Tashqi muxit ta'sirining xatosi:


1) Tasvirning (reykaning) tebranishi;

2) Refraksiya (vertikal va yon refraksiyasi)

5.5. Svetodal'nomerlar bilan masofa o'lhash.

Svetodal'nomer va radiodal'nomerlar

Svetodal'nomer va radiodal'nomerlar ikki nuqta orasidagi masofani o'lhashda elektromagnit to'lqinlarining shu nuqtalar orasida tarqalish vaqtini aniqlashga asoslangan. Masalan, A va B nuqtalar oralig'ini (D masofani) o'lhash uchun A nuqtaga Dal'nomer, B nuqtaga elektromagnit to'lqinlarini qaytaruvchi asbob o'rnatiladi (7-shakl). Dal'nomerdan chiqqan elektromagnit nurlar nur qaytargichlar aks etib, dal'nomerning qabul qilish moslamasiga qaytib keladi. Nurlarning dal'nomerdan nur qaytargichga yetib borgan va undan aks etib dal'nomerning qabul qilish moslamasiga qaytgan vaqt t ni hisoblab topgach, A va B nuqtalar orasidagi masofani quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin:



5.5- rasm. Svetodal' nomer, radiodal' nomer yordamida masofani o'lhash.

$$D = \sqrt{\frac{vt}{2}} \quad (148)$$

bu yerda v – elektromag to'lqinlarining atmosferada tarqalish tezligi.

Nur qaytargich ikki xil bo'lishi mumkin:

1) Dal'nomerdan chiqqan elektromagnit to'lqinlarini qabul qilib olib, chastotasi yoki amplitudasini o'zgartirib qaytaradigan asbob; bunday asbob *aktiv qaytargich* deb ataladi va radiodal'nomerlarda qo'llaniladi;

2) Dal'nomerdan chiqqan elektromagnit to'lqinlarini o'zgartirmasdan qaytaradigan asbob; bu asbob *passiv qaytargich* deb ataladi va barcha svetodal'nomerlarda ishlatiladi.

Passiv nur qaytargichlar prizma va linzalardan (yoki prizma va linza birikmalaridan) tayyorlanadi.

Elektromagnig to'lqinlarining tarqalish tezligi v impulsli yoki fazali metoddaga o'lchanishi mumkin. Impulsli metoddaga elekgromagnit to'lqinlarining tarqalish tezligi bevosita o'lchanadi, fazali metoddaga esa Dal'nomerdan chiqqan nur qaytargichdan aks etib qaytgan elektromagnit to'lqinlarining farqi o'lchanadi va elektromagnit nurining tarqalish tezligi shu farqdan foydalanib aniqlanadi. Shunga yarasha dal'nomerlar impulsli va fazali dal'nomerlarga bo'linadi.

Elektromagnit to'lqinlarining tarqalish tezligini impulsli metoddaga bevosita o'lhash aniqligi fazali metoddaga bavosita o'lhash aniqligidan kamroqdir. SHuning uchun hozirgi vaqtida qo'llanilayotgan svetoDal'nomer va radiodal'nomerlarning ishi fazali metoddaga asoslangan, bu dal'nomerlarning bir-biridan farqi sho'qi, svetodal'nomerlarda

elekromagnit nur (to‘lqinlar sifatida yorug‘lnk nuridan, radiodal’nomerlarda esa turli diapazondagi radioto‘lqinlardan foydalaniadi. Birinchi dala geodezik fazali svetodal’nomeri *SBB* - 1, Mudofaa vazirligiga qarashli 29 - ITI (ilmiy tadqiqot instituti) xodimlari V.L. Vasilev, B.A. Velichko va B.B. Golosov tomonlaridan 1953 yili ishlab chiqildi.

1956 yil MIIGAIK xodimlari B.M. Nazarov, A.A. Genike, B.A. Larin va boshqalar ishtirokida katta *EOD* - 1 svetodal’nomeri ishlab chiqildi va hayotga tadbiq etildi. Bu svetodal’nomer 1 klass triangulyatsiya va poligonometriyasi o‘lchash ishlarida qo‘llanildi.

MIIGAIK olimlari B.D. Bolshakov va I.A. Demushkinlar topografik ishlarida qo‘llaniladigan CT svetodal’nomerlarini yaratish ustida olib borgan ishlarini ham alohida tahkidlab o‘tish zarur deb o‘ylaymiz.

1970 yillarni boshida Ural optiko - mexaniq zavodida (*UOMZ*, Yekaterinburg sh.) A.I. Zaharov, A.A. Bednyagin, F.B. Rasomako va boshqa xodimlar injenerlar ishtirokida ishlab chiqarishda keng qo‘llanilgan 2sm - 2 svetodal’nomeri yaratildi, bu svetodal’nomer yordamida 0,2 metrdan 2 kilometrgacha masofani \pm 20 mm o‘rta kvadratik xato bilan o‘lchash mumkin bo‘lgan. *UOMZda* 1980 yillarda yaratilgan 2sm - 10 svetoDal’nomeri hozirgi kunlarda ham ishlab chiqarishda ishlatilib kelmoqda. Bu svetoDal’nomer yordamida 10 km gacha bo‘lgan masofani o‘lchash imkoniyati bo‘lib, masofa o‘lchash aniqligi 5 mm + 3 mm /km ni tashqil etadi. *UOMZ* svetodal’nomerlarini o‘zini alohida yoki 2T, 3T teodolitlarga o‘rnatib ishlatish mumkin.

1972 yildan boshlab elektron sanoati yuqori unumli impulsli lazerlarni ishlab chiqarishni, o‘zlashtirish natijasida kvantli (impulsli) Dal’nomer asboblarini yaratish ustida tadqiqotlar boshlandi.

1986 yili “Polyus” (Moskva) ilmiy tekshirish institutida 10 km masofani 0,5 m aniqlikda o‘lchash imkoniyatiga ega bo‘lgan og‘irligi 2,5 kg kvantli topografik KTD - 2 Dal’nomeri yaratildi.

Ktd - 2 binokl shaklida ishlab chiqilgan, uni yordamida masofa o‘lchashini qo‘ldan, shtativga, yoki T2 optik teodolitining kolonkasiga o‘rnatish orqali ham

bajarilishi mumkin. Bu asbobning afzallik tomoni shundaki uning yordamida noqulay metosharoitlar va maxsus optik qaytargichlarsiz har qanday harakatlanuvchi va harakatlanmaydigan obg'ektlar nuqtasining holatini darhol aniqlash imkoniyatiga ega ekanligidadir.

1980 yillardan boshlab Leica Geosystems firmasining AG wild DI 3000 ($3 \text{ mm} \pm 3 \text{ mm/km}$) impulsli svetodal'nomeri va ularning modifikatsiyalari elektron teodolitlarda nasadka sifatida keng qo'llanila boshlandi.

Hozirgi kungacha Rossiyada va boshqa mamlakatlarda 80-yillar ohiri va 90-yillar boshida ishlab chiqarilgan – Mekometr ME 5000 (Leica AG; $0,2 \text{ mm} \pm 0,2 \text{ mm / km}$) eng aniq svetodal'nomeri qo'llanib kelinmoqda. Sokkia firmasining *MINI* Metr MM 30/30R ($3 \text{ mm} \pm 50 \text{ mm/km}$) va *DISTO* memo/Basis (Leica Geosystems AG, $\pm 5 \text{ mm}$) lazerli ruletkalari ishlab chiqarishga tadbiq etilmoqda.

CT-5 "Blesk" Svetodal'nomeri


CT-5 Svetodal'nomeri mamlakatimizda ko'p qo'llaniladigan asosiy topografik Svetodal'nomer hisoblanadi (5.4-rasm). U 5 km gacha bo'lgan masofani bitta usulda quyidagi o'rta kvadratik xato bilan o'lchashga mo'ljallangan:

$$m_D \leq 10\text{mm} + 5 \cdot 10^{-6} D,$$

bu erda: D - o'lchanadigan masofa.

Svetodal'nomer shifridagi T harfi topografik plan olishda va geodezik plan olish to'rlarini barpo qilishdagi masofani o'lchash uchun mo'ljallangan topografik svetodal'nomer ekanligini, 5 raqami esa masofa o'lchash chekini kmda kursatadi.

Svetodal'nomerni mustaqil asbob sifatida ishlatish mumkin yoki uni 2T, 3T teodolitlari ustiga o'rnatib birdaniga masofa va burchakni o'lchash uchun ham ishlatish mumkin. Svetodal'nomerning og'irligi uning asosi bilan 4,5 kg (asossiz 3,8 kg). Svetodal'nomer tarkibiga qaytargich (6 -prizmali, 1-prizmali), tok manbayi, zaryadlash qurilmalari va anjomlar kiradi. 3 km dan uzoq masofani o'lchash uchun qaytargichdagi prizmalar soni 12 yoki 18 tagacha tashqil qilishi kerak.



5.6-rasm

Svetodal'nomerda masofani o'lchashning impuls usuli vaqtiy intervaliga aylantirishdan foydalaniladi. O'lhash ikki chastotali yoritish impulslarini qo'llash orqali amalga oshiriladi:

$f_1 = 14985,5 \text{ kGs}$ va $f_2 = 149,855 \text{ kGs}$. Nurlatish manbayi nurlanish to'lqini uzunligi 0,86 mkmli yarim o'tkazgichli lazer diod hisoblanadi, qabul qilish qurilmasi (priyomnik)niki - fotoelektron umnojitel. Ish boshlashdan oldin asbobni tashqi kuzatiladi va uni tekshiriladi. Asbobni tashqi kuzatishda uning mexaniq shikastlanmaganligiga ishonch hosil qilish kerak, asbob detallarining va boshqarish ushlagichlarning saqlanganligi, ularning aniq va silliq aylanishi, shkalalar tasvirining aniq ko'rinishi, strelka asboblari va sanoq tablolarining ishga yaroqliligi tekshiriladi. CT-5 Svetodal'nomerini akkumulatorga ulash o'tkazgich 4"Vqkl" rejimida turganda amalga oshiriladi. Svetodal'nomerning akkumulyatorga ulanganligini sanoq 3 tablodagi verguldan keyin uchta nol yonishi bo'yicha bilish mumkin.

CT-5 Svetodal'nomerini tekshirish

1. Akkumulyator batareykalari kuchlanishi to'liq ta'minlangan bo'lishi kerak.

O'tkazgich 7 va 4"Kontr" va "Svet" holatiga qo'yiladi. Agar strelka 1 kursatkichi 60 mkA dan yuqori qiymatni kursatsa, akkumulator batareykalarining kuchlanishi to'liq ta'minlangan hisoblanadi. Zummer 14 uzilgan signali akkumulator batareykalari kuchlanishining kamligini

kursatadi.

2. Tablodagi tekshirish sanog‘i pasport bo‘yicha qiymatga mos kelishi kerak.

Bu shartni tekshirish uchun Svetodal’ nomer obhektiviga tekshirish sanog‘i bloki kiygiziladi. Svetodal’ nomer o‘tkazgich 7 va 4 bilan mos ravishda "Tochno" va "Svet" holatiga o‘tkaziladi. Ushlagich 16 bilan signalni o‘rtacha (50) holatga qo‘yiladi. Bunda tekshirish sanog‘i qiymati asbob pasportida kursatilgan qiymatga mos kelishi kerak yoki 3 mm bo‘limgan qiymatga farq qilishi kerak.

Bu shart bajarilmasa, talab qilingan tekshirish sanog‘ini o‘tkazgich 16 ni aylantirish bilan o‘rnatish mumkin yoki o‘lchangan uzunlik qiymatiga tuzatma kiritiladi:

$$R = O_p - O_v,$$

Bu erda: O_p - asbob pasporti bo‘yicha sanoq;


O_v - tekshirish sanog‘i.

3. Tablo indikatorlari "Svet" va "Tochno" rejimida tablo 3 ning hamma indikatorlarda 8 raqami yonishi kerak.

4. Kvarsli generatorning arallel re o‘lchaydigan sxemasi normal ishlashi kerak. "Svet" va "Kontrolg"” rejimida tablo 3 bo‘yicha bir nechta sanoq olinadi. Har bir olingan sanoq oldingisidan 5 birlikdan ara bo‘limgan qiymatga farq qilishi kerak.

5. Qarash trubasining vizir o‘qi modullashgan nurlanish yo‘nalishiga arallel bo‘lishi kerak.

Bu tekshirishni bajarish uchun karton yoki qattiq qog‘ozdan 1-rasmda kursatilgandek marka tayyorlanadi.



5.7-rasm

U bitta prizmali qaytargichga o‘rnatiladi. Uni Svetodal’nomerdan 100 - 150 m masofaga o‘rnatib, uni "Navedenie" rejimida qaytargichga maksimum signal bo‘yicha qaratiladi va qarash trubasining 17 to‘r iplari aylanasi markazining markaning kesishtirishidan qanchalik og‘ganligi baholanadi. Xatolik himoya kalpachogining ichida turgan to‘r iplarini to‘g‘rilash vintlari yordamida markaning kesishishini to‘r iplari aylanasi markaziga keltirish bilan tuzatiladi. Svetodal’nomer *CT-5* bilan o‘lchashni bajarishdan oldin Svetodal’nomer va qaytargichning optik markazlashtirgichining to‘g‘ri ishlashiga ishonch hosil qilish kerak. Ular ikkita asosiy shartga amal qilishi kerak: silindrik adilak 13 o‘qi vertikal perpendikular bo‘lishi kerak; optik markazlashtirish vizir o‘qi uning vertikal o‘qi bilan ustma-ust tushishi kerak. Bu shartlarnitekshirish va tadqiq qilish optik teodolitlarda qanday bajarilsa bu erda ham xuddi shunday bajariladi.

Yuqoridagi tekshirishlardan tashqari Svetodal’nomer metrologik attestatsiya ham qilinadi. Attestatsiya natijasida kvarsli generator chastotalarining nominal qiymatdan og‘ganligi qiymati, tok kuchlanishining o‘zgarishida tekshirish sanog‘ining o‘zgarishi, davriy xatoliklar, bitta usulda masofani o‘lchashdagi o‘rta kvadratik xatoliklar aniqlanadi.

Dala sharoitida metrologik attestatsiya uzunligi yuqori aniqlikda o‘lchangan va davriy tekshirib to‘riladigan dala komparotorlarida aniqlanadi. Metrologik attestatsiya tartibi "Texnicheskoe opisanie i instruktsiya po ekspluatatsii ST-5" da batafsil yozilgan.

ST-5 Svetodal'nomer bilan tomonlarni o'lchash tartibi

1. Tomonning boshlang'ich nuqtasiga Svetodal'nomer oxirgi nuqtaga - qaytargich o'rnatiladi. Ularni punkt markazi ustiga ish holatiga keltiriladi(markazlashtiriladi va nivelerlanadi) va o'zaro orientirlanadi (Svetodal'nomer qarash trubasi qaytargichga, qaytargich Svetodal'nomerga qaratiladi).

2. Svetodal'nomer tokka ulanadi va qizdiriladi.

3. Tokning kuchlanishi tekshiriladi va asbobni ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanmada kursatilgan texnik talablarga asosan tekshirish ishlari bajariladi.

4. Svetodal'nomer "Navedenie" rejimiga qo'yiladi.

Buning uchun o'tkazgich 7 "Tochno" holatiga va 4 "Navedenie" holatiga qo'yiladi. Ushlagich 8 "Signal" soat strelkasi bo'yicha oxirigacha buraladi: quyoshli obihavoda fonli shovqini yuqori bo'lganda va havoning yuqori haroratida asbob strelkasining kursatishi 20 mA dan oshmasligi kerak. Svetodal'nomer orientatsiyasini yo'naltiruvchi vintlar yordamida gorizontal va vertikal o'zgartirib, signal olishga erishiladi. Signalning borligi tovush yoki asbob 1strelkasining shkala bo'yicha o'ngga og'ishidan bilinadi.

Svetodal'nomer maksimum signal bo'yicha yo'naltiriladi. Bir vaqtda signal darajasi 8 ushlagich ish zonasining o'rtasida bo'lishi kerak.

5. O'tkazgich 4 "Schet" holatiga qo'yiladi va tablo indikatorining yonishi kuzatiladi (kerakli paytda ushlagich 8 bilan "Signal" signal darajasi to'g'rilanadi). "Tochno" rejimida o'lchanadigan masofaning uchta sanog'i olinadi va maxsus jurnalga yoziladi. Jurnalga yana Svetodal'nomer turgan joyning meteo ma'lumotlari - havoning temperaturasi va atmosfera bosimi ham yoziladi:

Uzun masofani o'lchaganda yoki qiyalik ancha baland bo'lganda tomon oxiri meteo ma'lumotlari Svetodal'nomer va qaytargich turgan joylarda ham aniqlanadi.

Bu jarayondan keyin yana uch marta qaytargichga Svetodal'nomer yo'naltiriladi va har doim "Tochno" rejimida uchta sanoq olinadi. 400

metrgacha masofani o‘lchashda Svetodal’nomer obhektiviga attenuuator kiygiziladi.

O‘lhash tugagandan keyin o‘tgazgich 7 "Kontr" holatiga qo‘yiladi va tablo bo‘yicha tuzatma koeffitsiyentini aniqlash uchun sanoq olinadi.

Qo‘pol o‘lhashlar o‘tkazgichning 7 "Grubo" va o‘tkazgich 4 ning "Schet" holatlarida amalga oshiriladi. O‘lhash tugagandan keyin Svetodal’nomer o‘chiriladi (o‘tkazgich 4 - "Vqkl.").

Punktlar orasidagi masofa ushbu formula bilan o‘lchanadi:

$$D_H = D_{ak} + D_{ak}(K_n + K_f) 10^{-5} + \Delta D_y,$$

bu yerda: D_{ak} - "Tochno" rejimida sanoqlarning o‘rta arifmetik qiymati; K_n - atmosfera kursatkichi o‘zgarishini hisobga oladigan tuzatmalar koeffitsiyenti; K_f - kvarsli generotor chastotasi temperaturasi o‘zgarishini hisobga oladigan tuzatmalar koeffitsiyenti; ΔD_y - davriy xatoliklar tuzatmasi.

Koeffitsiyent K_n ning qiymati nomogramma bo‘yicha yoki dalnomer pasportida kursatilganjadval bo‘yicha havo temperaturasi va atmosfera bosimi o‘lchangan qiymatini hisobga olib aniqlanadi. Koeffitsiyent K_f va tuzatma ΔD_y Svetodal’nomer pasportida berilgan grafik bo‘yicha aniqlanadi.

O‘lchanadigan tomon S ning gorizontal quyilishi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$S = D_H + \cos v,$$

bu erda: v - asbob vizir o‘qining egilish burchagi.

Agar tomonning boshlang‘ich va oxirgi nuqtalari orasidagi nisbiy balandlik ma’lum bo‘lsa:

$$S = D_{ak} + \delta S_y,$$

bu yerda :

$$\delta S_y = -\frac{h^2}{2D_{ak}}.$$

Svetodal'nomerlar klassifikatsiyasi.

1973 yilgacha xama svetodal'nomerlar aniqligi bo'yicha shartli ravishda katta, o'rta va kichik svetodal'nomerlarga bo'lingan.

- Katta svetodal'nomerlarga 25 – 30 km gacha bo'lgan masofani 1:30000 dan kam bo'lmagshan o'rta kvadratik nisbiy xatolikda o'lchaydigan svetodal'nomerlar kiradi. Ular bilan 1-2 klass triangulyatsiyada bazis uzunligini va poligonometriyada tomon uzunliklari o'lchangan.

- O'rta svetodal'nomerlarda 10-12 km masofani 1:50000 - 1: 100000 aniqlikda o'lchaydi. Ular bilan 3 va 4 klass triangulyatsiya va poligonometriyada ishlatilgan.

- Kichik svetodal'nomerlarga (yoki topografik svetodal'nomerlar) 2-3 km masofani 1:25000 aniqlikda o'lchaydi. Ular bilan 4 klass, 1 va 2 razryad poligonometriyada tomon uzunligini o'lhashda ishlatilgan.

Quyidagi svetodal'nomerlar ishlab chiqarilgan:

Katta – *EOD*, Kvarts, *CG*- 3

O'rta – *CBB*- 1, *GD* – 3K

Kichik – *CT-65*, *TD-2*, Kristall, *KDG*- 3 (*CM*- 3)

1973 yildan yangi GOST bo'yicha svetodal'nomerlar:

1) Yuqori aniq;

2) Aniq;

3) O'rta aniq ;

guruxlarga bo'lingan.

Bu GOST bo'yicha quyidagi svetodal'nomerlar ishlab chiqarilgan:

Yuqori aniq; - *CB-6* va *CM-02*

Aniq; - *CM-2*

O'rta aniq ; - *CM- 5*

6-bob. Poligonometriyada burchak o‘lhash.

6.1. Teodalitlar klassifikatsiyasi. T2 teodoliti

Teodolitlar 10529-70 GOST (Teodolitlar. Turlari. Asosiy parametrlari va texnik talablar.) bo‘yicha optik teodolitlar burchak o‘lhash aniqligi bo‘yicha uch guruxga bo‘linadi:

1) Yuqori aniq (gorizontal burchakni $0.5''$ dan $1''$ gacha o‘rta kvadratik xatolikda o‘lchaydi.)

2) aniq (gorizontal burchakni $2''$ dan $7''$ gacha o‘rta kvadratik xatolikda o‘lchaydi.)

3) texnik (gorizontal burchakni $10''$ dan $30''$ gacha o‘rta kvadratik xatolikda o‘lchaydi.)

Bu GOST bo‘yicha quyidagi teodolitlar ishlab chiqarilgan. Yuqori aniq teodolitlar - T05 va T1, aniq teodolitlar - T2 va T5 (TB-1), texnik teodolitlar - T15 va T30.

Yangi 10529-79 GOST bo‘yicha T1, T2, T5, T15, T30, T60 To‘rdagi teodolitlar ishlab chiqarilgan.

Bundan tashqari chet elda ishlab chikrilgan teodolitlar Theo 010, Theo 010A, Te-B1 ikki sekundli, Theo 020, Theo 020A besh sekundli, Te-D2, Te-D4 foydalanish mumkin.

4 klass poligonometriyada burchak o‘lhash aniqligi ikki sekundli, 1 razryad poligonometriyada besh sekundli, 2 razryad poligonometriyada un sekundli teodolitlardan foydalanish mumkin.

Xozirgi paytga kelib Rossiyada ishlab chiqarilgan 2T2, 2T2A, 2T5, T5K, 2T5K, 2T5KP, 2T30KP


T2 teodoliti

T2 teodoliti optik mikrometrli va optik markazlashtirgichli optik teodolit hisoblanadi.

Asbob ternir uchburchakli 1 plastinka va kotirish vinti yordamida 2 taglikka o‘rnatilgan. Asbob taglikning vtulkasiga kiradi va 17 qotirish vinti bilan mahkamlanadi (1-rasm).

Teodolitning qarash trubasi ichidan fokuslanadi. Uning kattalashtirishi 25^x , obhektivning fokus masofasi 250 mm.

Teodolit limbi 20' ga bo‘lingan 0° dan 360° gacha graduslangan shisha gorizontal va vertikal burchak o‘lchash doirasiga ega. Gorizontal doiraning diametri 90 mm, vertikalniki - 65 mm.



6.1- rasm

Gorizontal doiraning alidadasi qotirish vinti 4 va yo‘naltiruvchi vinti 3 ga ega.

Qarash trubasi 5 okulyari to‘r iplarini fokuslash uchun halqaga ega. Qarash trubasi yenida okulyar bilan birga 6 sanoq mikroskopi okulyar trubkasi joylashgan. Unda gorizontal va vertikal doira tasviri qarash maydonini 7 ni aylantirish orqali o‘zgartirish mumkin.


O‘sha tomonda 8 mikrometri burash qurilmasi joylashgan. Trubani vizir nishoniga taxminiy yo‘naltirish uchun trubaning tagida va tepasida 9 vizirlar joylashgan.

Ushlagich 10ning o‘rniga vizir markasini yoki bussolni o‘rnatish mumkin. U teodolitni olib yurish uchun ham xizmat qiladi.

Vertikal doira adilak pufagining chetlari tasviri 11prizma-lupaga uzatiladi. Adilak pufagi chetlarini kesishtirish 14 adilakning qo‘yish vinti orqali keltiriladi. Adilak 12 oyna orqali yoritiladi. Sanoq mikroskopi qarash maydonini yoritish

uchun 13 aylanadigan yeritish oynasi xizmat qiladi. U gorizontal va vertikal doira tasvirini ham yoritish uchun xizmat qiladi.

Teodolitni nuqtaga markazlashtirish uchun optik markazlashtirgich 15 dan foydalaniladi. Gorizontal doiraning sanoqlarini almashtirish ushlagich 16 yordamida bajariladi. Gorizontal doirani kerakli burchakka aylantirish uchun ushlagichni ozgina bosib, keyin uni kerakli sanoq ko‘ringuncha aylantiriladi.



6.2 - rasm

3-rasmda 21 qotirish vinti va 20 qarash trubasini yo‘naltiruvchi vintlari kursatilgan. Asbob aylanish o‘qini shovun chizig‘iga keltirish uchun 18 tsilindrik adilak gorizontal aylana alidadasi korpusiga joylashtirilgan.

Qarash trubasini predmet bo‘yicha fokuslash dioptr halqasi yordamida amalga oshiriladi.

Sanoq olish mikroskopining ko‘rish maydonida ikkitakatta va kichkina oyna ko‘rinadi.

Chap oynaning yuqori qismida aylananing asosiy shtrixlari tasvirini kursatadi, pastda diametral qarama-qarshi tasvirni kursatadi.

Mikrometr 8 ushlagichini aylantirilsa, bu tasvirlar qarama-qarshi tomonga harakat qiladi. Har bir gradus uch qismga bo‘lingan. Bir bo‘lakning qiymati - 20'.

Ushlagich 7 ni aylantirish bilan sanoq mikroskopi qarash maydoniga gorizontal va vertikal doira tasviri keltiriladi. Agar ushlagich 7 vertikal holatda bo‘lsa, sanoq mikroskopi qarash maydonida vertikal doira tasviri paydo

bo'ladi, ushlagich gorizontal holatda bo'lsa, gorizontal doira tasviri paydo bo'ladi.

Gorizontal doira shtrixi ikkilangan, vertikal doiraning shtrixi bitta. Gorizontal doira shtrixi oq fonda ko'rinadi, vertikal doira shtrixi sariq-yashil fonda ko'rinadi.

O'ng oynada mikrometr shkalasi bo'laklarining tasviri ko'rinadi va harakatlanmaydigan indeks chiziq yordamida sanoq olinadi.

Mikrometr golovkasini aylantirishda shkalaning siljish qiymati o'ng oynadagi shtrixlar siljishiga proporsionaldir. Mikrometr shkalasi 600 bo'lakka ega. Uni aylantirganda kichik oynadan hammasi o'tadi va katta oynadagi tasvir x aylana bo'lagiga, ya'ni $10'$ ga siljiydi.

Mikrometr shkalasi bo'lagi qiymati:

$$\frac{10'}{600} = \frac{600''}{600} = 1''.$$

Gorizontal va vertikal doira bo'yicha sanoq olish tartibi quyidagicha:

1. Chap oynadagi yuuqori va pastki shtrixlar tasvirini mikrometr golovkasi bilan aniq ustma-ust kesishtiriladi.


2. Oynaning pastki qismiga diametal qarama-qarshi bo'lgan yuuqori qismining chap tomonidan gradusning qiymati olinadi - 30° . Berilgan diametal qarama-qarshi shtrixlar orasidagi oraliq sanaladi. Bizning misolimizda 30° dan 210° gacha - ular 2 ta. U $20'$ ga teng. Tasodifan diametal qarama-qarshi shtrixlar ustma-ust tushishi mumkin, unda o'nglik minutlar 0 ga teng bo'ladi.

3. O'ng oynada mikrometr shkalasi tasviri bo'yicha minut, sekund va undan bir sekund aniqlikda sanoq olinadi. Birlik minutlar harakatlanmaydigan shkala yuuqori qismidan chap tomondan - $3'$, unglilik , birlik va o'ngdan birlik sekundlar o'ng tomonidan - $13,0''$.

Hamma olingan uchta sanoq yig'iladi va doira bo'yicha to'liq sanoq olinadi. Berilgan holat bo'yicha $30^\circ 23' 13,0''$ ga egamiz.

Vertikal doira bo'yicha sanoq olish tartibi huddi shunday, lekin sanoq olishdan oldin vertikal doiradagi pufak chetlari tasvirini to'g'rilash vinti 14 bilan kesishtirish kerak.

T2 teodoliti aylanasi bo'yicha sanoq olish



4.21-rasm.

Doira bo'yicha sanoq	$30^{\circ}20'$.
Mikrometr bo'yicha sanoq	$3'13'',0$.
Umumiysi	$30^{\circ}23'13''$.


Sanoq olish tartibi:

1. Mikrometr barabanini aylantirib, katta oynaning pastki va yuqori qismi shtrixlarini aniq kesishtiriladi.
2. Katta oynadagi indeksdan chap tomondagi gradus soni o'qiladi.
3. Katta oynaning pastki qismida shtrixlar va o'qilgan sondan 180° farq qiladigan sanoq joylashgan. 180° farq qiladigan sanoqlar orasidagi shtrixlar sanaladi. Bu sanoq o'n minut soniga teng.
4. Kichkina oynada minut va sekundlarning sanog'i olinadi.
5. Olingan uchta sanoq qo'shiladi va to'liq sanoq olinadi.

6.2. T2 teodolitini tekshirish

Teodolit quyidagi geometrik shartlarga javob berishi kerak.

1. Gorizontal doiradagi tsilindrik adilakning o'qi teodolit aylanish o'qiga perpendikulyar bo'lishi kerak.
2. Gorizontal doiradagi doiraviy adilak (agar u bo'lsa) o'qi teodolit aylanish o'qiga parallel bo'lishi kerak.



6.3-rasm

3. Truba to‘rining vertikal ipi truba Kollimasion tekisligida yotishi kerak.
(shovun orqali tekshiriladi)

4. Karash trubaning vizir o‘qi, karash trubaning aylanish o‘qiga perpendikulyar bo‘lishi kerak. (Kollimasion xatolik deyiladi va C bilan belgilanadi.)

$$C = \frac{D_{ch} - D_{o^*} \pm 180^\circ}{2}$$

4 klass poligonometriyada burchak o‘lchashda ikkilangan Kollimasion xatolik $2C \leq \pm 20''$ oshmasligi kerak. $2C = D_{Ch} \pm 180^\circ - D_{O^*}$.

Eslatma: $2C$ -ikkilangan Kollimasion xatolik sanoq olish aniqligining ikkilanganligidan oshmasligi kerak.

5. Qarash trubasining aylanish o‘qi teodolit aylanish o‘qiga perpendikulyar bo‘lishi kerak.

1-rasmdan ko‘rinib to‘ribdiki: $Mm = dtg\gamma$ bo‘ladi.

$$i - kichkina qiymat, shuning uchun \quad i = \frac{m_1 m}{Mm} \rho'' \quad yoki \quad i = \frac{m_1 m}{dtg\gamma} \rho''$$

agar $m_1 m = \frac{1}{2} m_1 m_2$ teng bo‘lganligi uchun,

$$i = \frac{m_1 m_2}{2 dtg\gamma} \rho''$$

Burchak i gorizontal doiraning tsilindrik adilak bo‘lagi ikkilangan qiymatidan kam bo‘lishi kerak. Yani $i \leq 10''$ oshmasligi kerak.

6 .Vertikal doiraning no‘l o‘rni (NO‘) yoki zenit o‘rni (ZO‘) har doim bir-xil va nolga yaqin bo‘lishi kerak.

$$NO' = ZO' = \frac{D_{ch} + D_{o^*} + 360^\circ}{2}$$

Zenit masofasi $Z = D_{CH} - Z_{O^*}$ yoki $Z = Z_{O^*} - D_{O^*}$

7.Taglikning optik markazlashtirish sistemasining vizir o‘qi, teodolit aylanish o‘qi bilan mos tushishi kerak.

8. Vertikal doiraning sanoq olish sistemasining kompensatori o‘z ta’sir qilish chekida teodolit aylanish o‘qini chekli og‘dirganda ham sanoqni bir-xil o‘zgarmas bo‘lishini ta’minlashi kerak.

`6.3. Vizir markasini tekshirish.

1. Markaning tsilindrik adilak o‘qi markaning aylanish o‘qiga perpendikulyar bo‘lishi kerak.

Markani vertikal o‘q atrofida aylantirganimizda punkt markazi tasviri optik shovun to‘ri kesishgan nuqta atrofida tekis aylanishi kerak, ya’ni u aylanishda kesishgan iplar markazidan bir-xil masofada aylanishi kerak.


Agar bu shart bajarilmasa, tuproq yuziga (yerga) xatolar aylanasi chiziladi, bu figuraning markazi topiladi va to‘rning to‘g‘rilash vintlari yordamida to‘rning kesishgan joyi markaz bilan kesishtiriladi.

Agar optik shovun asbob tregeriga mahkamlangan bo‘lsa, tekshirishni xuddi yuqoridagiday bajarish mumkin, lekin har doim asbob treger bilan qayta-qayta qo‘yishga to‘g‘ri keladi. Tekshirishni stol ustida ham bajarish mumkin. Asbobni treger bilan stol chetiga gorizontal qo‘yiladi va uning pastki qismini aylantiriladi. Asbobdan 1,5m masofaga qog‘ozga optik shovun o‘qining aylanish holati belgilanàdi.

2. Vizir marka nishonining simmetrik o‘qi marka aylanish o‘qi bilan ustma-usttushishi kerak.

Bu shartni tekshirish uchun markaning yuqori qismiga saqich bilan igna mahkamlanadi. Markadan 5m masofaga teodolit o‘rnatib, markani aylantiriladi va teodolit trubasida ignaning aylanish holati kuzatiladi. Agar igna to‘r iplari bessektoridan chiqsa, ignaning holatini bessektordan chiqmaguncha to‘g‘rilanadi.

Undan keyin teodolit vizir marka nishonining chap, o‘ng chetiga va ignaga qaratilib, gorizontal doira bo‘yicha sanoq olinadi (5-rasm).



6.4 - rasm

B_{chap} - vizir marka nishonining chap cheti bo'yicha sanoq.

B_o - vizir marka nishonining o'ng cheti bo'yicha sanoq.

Bi – vizir marka nishonining igna bo'yicha sanoq.

Vizir markasi nishoni ikki chetidan olingan sanoqlar o'rtachasi igna bo'yicha olingan sanoqqa teng bo'lishi kerak, ya'ni.

$$B_{o'rt} = Bi$$

Bu yerda:

$$B_{o'rt} = \frac{B_{chap} + B_o}{2}$$

Farq topiladi:

$$\Delta B'' = B_{o'rt} - Bi$$

Vizir marka nishonining simmetrikligi aniqlanadi:

$$A = \frac{\Delta B''}{\rho''} S$$

bu yerda: S – teodolitdan vizir markasigacha masofa.


Asimmetriya miqdori 1 mm dan oshmasligi kerak. Uning miqdori katta bo'lsa, marka nishoni to'g'rilanishi kerak.

6.4. Burchak o'lchashning uch shtativ usuli

Markazlashtirish va reduktsiya xatolarini yo'qotish maqsadida va burchak o'lchashlarni tezlashtirish uchun uch shtativ sistemasi qo'llaniladi. 1, 2 va 3-punktlarga bir xil taglikdagi uchta shtativ o'rnatiladi (1-rasm). Ularni optik markazlashtirgich bilan markazlashtiriladi. 2-punktdagi shtativga teodolit, 1 va 3-punktdagi shtativlarga vizir markalari o'rnatiladi.

2-punktida burchak o'lchangandan keyin teodolit shtativdan olinib, 3-punktga o'tkaziladi. 1-punktida turgan shtativdagi vizir markasi 2-punktida turgan shtativga o'rnatiladi. 1-punktida turgan shtativ esa 4-punktga o'rnatiladi. 3-punktdagi vizir markasi olinib, 4-punktga o'rnatiladi.


Hamma keyingi burchaklar xam xuddi shunday ketma-ketlikda o'lchanadi.



6.5-rasm.

6.5. Gorizontal burchaklarni o‘lchash usullari

1. Aylanma priyomlar usuli. (Krugovix priyomov)



6.6-rasm

A punktda 1, 2 va 3-yo‘nalishlarni o‘lchash kerak bo‘lsin. Buning uchun A punktga teodolit markazlashtiriladi va ish holatiga keltiriladi (2rasm). Boshlang‘ich yo‘nalish tanlab olinadi. (masalan 1-yo‘nalish boshlang‘ich.) Vertikal doira chap holatida teodolit limbini maxkamlab, soat strelkasi yo‘nalishi bo‘yicha alidadani aylantirib, qarash rubasi "chap doira" holatida ketma-ket 1, 2, 3 - va yana 1-punktлага qaratiladi. Hamma punktlar bo‘yicha sanoq olinadi. Bu jarayon yarim usulni tashkil qiladi.

Keyinchalik qarash trubasi zenit bo‘yicha aylantiriladi. Limbning oldingi holatida alidadani soat strelkasining teskari yo‘nalishida ketma-ket 1, 2, 3- va yana 1- punktga qaratiladi. Har bir qaratischda sanoq olinadi. Bu o‘lchash

jarayoni ikkinchi yarim usulni tashqil qiladi. Ikkita yarim usul bitta to‘liq usulni tashqil qiladi.

Yarim usulning boshlanishida va oxirida qaratilib sanoq olingan A-1 yo‘nalish *boshlang‘ich yo‘nalish* deyiladi.

Har bir yarim usulda boshlang‘ich yo‘nalishga qayta qaratib sanoq olishni *gorizont tutashmasligi* deyiladi.

Aylanma priyomlar usulida gorizontal burchak o‘lchash jurnali

Punkt 14

Teodolit T2 № 103298

Priyom 1

Sana: 28-iyun 2019 y

Ob havo: yaxshi, mayin shaboda

Kuzatuvchi:

Ko‘rinish: yaxshi

Hisoblovchi:

Tasvir: aniq

6.1-jadval

Yo‘nalish lar nomi	Doira	Limbdan saoq	Mikrometr dan sanoq		$\frac{a_1 + a_2}{2}$	Kollimasi on xatolik $2C = D_{ch} -$ ($D_o \pm 180^0$)	$\frac{D_{ch} + D_o}{2}$	Keltirilgan yo‘nalish
			a ₁	a ₂				
18	D_{CH} D_o	0^001 180^001	10.3 25.0	11.2 26.0	10.8 25.5	-14.7	18.2 0.0	$0^000.00.0$
30	D_{CH} D_o	86^010 266^010	19.8 38.1	20.4 39.0	20.1 38.6	-18.5	29.4 -1.0	$86^009.10.2$
20	D_{CH} D_o	251^058 71^058	29.6 44.0	30.8 45.2	30.2 44.6	-14.4	37.4 2.0	$251^057.17.2$
18	D_{CH} D_o	0^001 180^001	12.5 29.1	12.0 31.1	12.2 30.1	-17.9	21.2 -3.0	$0^000.00.0$

Gorizont tutashmasi $\Delta_{Dch} = +1.4$ $\Delta_{D_o} = +4.6$ $\Delta_{o'r} = +3.0$

Kollimasjon xatolikning maksimal og‘ishi $2C = +3.8$

Yo‘nalishga tuzatma:

$$\sigma_k = -\frac{\Delta_{o'r}}{m} (\kappa - 1)$$

bu yerda: m - kuzatiladigan yo‘nalishlar soni,

k- kuzatiladigan yo‘nalishning tartib bo‘yicha nomeri.

$$1. \sigma_1 = -\frac{3.0}{3}(1-1) = 0$$

$$2. \sigma_2 = -\frac{3.0}{3}(2-1) = -1.0$$

$$3. \sigma_3 = -\frac{3.0}{3}(3-1) = -2.0$$

$$4. \sigma_4 = -\frac{3.0}{3}(4-1) = -3.0$$

Usullar oralig‘ida limb quyidagi qiymatga o‘zgartiriladi:


$$\sigma = \frac{180^0}{n}$$

bu yerda: n-usullar soni.

Gorizont bogianmasligi $\Delta \pm 8''$ dan oshmasligi kerak. Ikkilangan Kollimasjon xatolik 2C o‘zgarishi $\pm 10''$ dan oshmasligi kerak.(teodolit T2 uchun $12''$)

Aloxida usullarda keltirilgan yo‘nalishlar o‘zgarishi $\pm 8''$ dan oshmasligi kerak. Bir xil shtrixlarni kesishtirishda optik mikroskop bo‘yicha sanoqlar farqi $\pm 2''$ dan oshmasligi kerak.

2. Takrorlash usuli



6.7-rasm

Takrorlash usuli bilan har bir aloxida burchak o‘lchanadi. A punktga teodolit o‘rnatilib, alidadani soat strelkasi yo‘nalishida aylantiriladi va B punktga qaraladi, sanoq olinadi.

Maxkamlangan limbda alidadani soat strelkasi yo‘nalishida aylantirib, C punktga qaratiladi va " C_o " sanoq olinadi (nazorat sanogi) (3-rasm).

Limb bo'shatiladi, uni alidada bilan birga soat strelkasi yo'nalishida aylantirib ya'na B punktga qaratiladi. Bunda sanoq olinmaydi. Limbni maxkamlab, alidadani soat strelkasi yo'nalishida aylantirib, C punktga qaratiladi va sanoq olinadi. Yuqoridagi o'lhash jarayoni n marta qaytariladi. Agar C nuqtadagi oxirgi sanoqni " C_o " orqali belgilasak, o'lchanadigan burchakning miqdori quyidagicha bo'ladi:

$$\beta = \frac{Cn - B\delta}{n}$$

Yuqorida kursatilgan jarayon yarim usulni tashqil qiladi.

Ikkinci yarim usulda truba zenit orqali aylantiriladi, va yuqorida kursatilgan tartibda β^1 burchak o'lchanadi. Nazorat β va β^1 yig'indisi 360^0 berishi kerak.

Burchak o'lhash natijalarini hisoblash

Burchak o'lhashlar tugagandan keyin stantsiyada o'lhashlar natijasi bo'yicha ma'lumot (svodka) tuziladi.

Ma'lumotga dala jurnalidan har bir usul uchun keltirilgan yo'nalishlar ko'chirib yoziladi.

O'rtacha yo'nalish hisoblanadi.

Yo'nalishning o'rtachasidan og'ganligi topiladi.

Aniqlikni baxolash bajariladi.

A punktda o'rtacha yo'nalishni hisoblash.

6.2-jadval

№№ pr.	Yo'nalishlar					
	1	V	2	V	3	V
1	0°00'00"	0"	44°50'12,8"	+0,1"	91°20'31,6"	+0,6"
2			11,7"	-1,0	30,0	-1,0
3			13,9"	+1,2	32,1	+1,1
4			15,8"	+3,1	29,8	-1,2
5			10,0"	-2,7	31,0	0
6			12,0"	-0,7	31,3	+0,3
O'rtacha			44°50'12,7"	Σ18,81	91°20'31,0"	Σ14,21

Aniqlikni baxolash

Bitta o'lhashning o'rta kvadratik xatosi (Peters formulasi):

$$\mu = K \frac{[V]}{m}$$

n - o'lchashning o'rta kvadratik xatosi:

$$M = \frac{\mu}{\sqrt{n}}$$

bu yerda:

$$K = \frac{1,25}{\sqrt{n(n-1)}}$$

V - o'rtacha qiymatdan yo'nalishlar og'ishi yig'indisining absolyut qiymati;

m - yo'nalishlar soni;

n - usullar soni.

Misol.

$$K = \frac{1,25}{\sqrt{6(6-1)}} = 0,22.$$

2-yo'nalish

$$\mu = 0,22 \frac{8,8}{3} = 0,6'',$$

$$M = \frac{0,6}{\sqrt{6}} = 0,24''.$$

3-yo'nalish

$$\mu = 0,22 \frac{4,2}{3} = 0,3'',$$

$$M = \frac{0,3}{\sqrt{6}} = 0,12''.$$

6.6. Burchak o'lchashda xatolar manbalari

Burchak o'lchashda asosiy xatolar manbai quyidagilardir:

1. Markazlashtirish xatoliklari (m_m)
2. Reduktsiya xatoliklari (m_r).
3. O'lchashlarning o'z xatoliklari (m_{ov}).
4. Asbob xatoliklari (m_{asb})
5. Tashqi muxitning ta'siri (m_{tm})
6. Bosh berilganlar (isxodnie dannie) xatoligi (boslang'ich va oxirgi direksion burchakning xatosi). (m_{ber}).

Bitta burchakning o‘rta kvadratik xatosi:

$$m^2 \beta = m_m^2 + m_r^2 + m_{ul}^2 + m_{asb}^2 + m_{tm}^2 + m_{ber}^2 \quad (149)$$

Agar xamma xatoliklar bir xilda ta’sir qiladi deb hisoblasak

$$m_m = m_r = m_{o'l} = m_{asb} = m_{tm} = m_{ber}$$

Unda

$$m \beta = \sqrt{6} \ m_m = \sqrt{6} \ m_r = \sqrt{6} \ m_{asb} = \dots = \sqrt{6} \ m_{ber}$$

yoki

$$m_m = m_r = m_{o'l} = m_{asb} = m_{tm} = m_{ber} = \frac{m_\beta}{\sqrt{6}} \quad (150)$$

Bizga ma’lum, poligonometriya yo‘lining ko‘ndalang siljishining o‘rta kvadratik xatosi (ikkita tayanch punktlar orasida o‘tkazilgan poligonometriya yo‘li) ushbu formula bilan ifodalanadi:

$$m_i = L \frac{m_\beta}{\rho} \sqrt{\frac{n+3}{12}} \quad (151)$$

Burchak o‘lchash o‘rta kvadratik xatosi:

$$m \beta = \frac{m_u}{L} \rho \sqrt{\frac{n+3}{12}} \quad (152)$$

Ma’lumki, yo‘lning perimetrida umumiyl xatolik quyidagiga teng:

$$M^2 = m_t^2 + m_i^2$$

Teng ta’sir qilish printsipi bo‘yicha: (153)

$$m_t = m_i$$

Shuning uchun:

$$M = \sqrt{2} \ m_i$$

bundan

$$m_i = \frac{M}{\sqrt{2}} \quad (154)$$

Chekli nisbiy xatolikka o‘tamiz:

$$\frac{chek.U}{L} = \frac{chekfs}{L\sqrt{2}}$$

$$\text{ma'lum} \quad \frac{\text{chekfs}}{L} = \frac{1}{T}$$

unda chekli nisbiy xatolik

$$\text{chek}U = \frac{L}{\sqrt{2T}} \quad (155)$$

(153) formuladagi m_i ning qiymatini (155) formulaga qo'ysak.

Unda chekli tasodifiy xatoliklar yig'indisi:

$$\text{chek } \Delta\beta = \frac{1}{\sqrt{2T}} \rho \sqrt{\frac{12}{n+3}} \quad \text{yoki} \quad \text{chek } \Delta\beta = \frac{\rho}{T} \sqrt{\frac{6}{n+3}} \quad (156)$$

(150) va (156) formulalarga asosan har bir xatolar manbayining chekli qiymatini topamiz:

$$\text{chek } \Delta\beta_m = \Delta\beta_r = \dots = \Delta\beta_{ber} = \frac{\text{chek}\Delta\beta}{\sqrt{6}} = \frac{\rho}{T\sqrt{6}} \sqrt{\frac{6}{n+3}}$$

yoki

$$\text{chek } \Delta\beta_m = \Delta\beta_r = \dots = \Delta\beta_{ber} = \frac{\rho}{T\sqrt{n+3}} \quad (157)$$

Har bir manbaning sistematik xatosining chekli miqdori:

$$\text{chek } \Delta\beta_m = \Delta\beta_{ber} = \frac{\text{chek}\Delta\beta i}{\sqrt{n+1}} \quad (158)$$

Misol. 4-klass poligonometriya yo'li uzunligi $L = 11$ km, tomonlarning o'rtacha uzunligi $S_{o'r} = 500$ m, $T = 25000$.

Xatoliklarning har bir manbayi uchun burchak o'lchash o'rta kvadratik va chekli xatosini topamiz.

Yo'lning tomonlar sonini topamiz: $n = \frac{L}{S_{o'r}} = 10000:500 = 22$. Har bir manba uchun chekli tasodifiy xatoni aniqlaymiz

(8) formuladan chekli tasodifiy xatoni bita manba uchun topamiz:

$$\text{chek}_{\text{tas}} \Delta\beta i = \frac{206265''}{25000\sqrt{22+3}} = 1.65''$$

Bitta manba uchun chekli sistematik xato (9) formuladan topamiz:

$$\text{chek}_{\text{sis}} \delta_{\beta_i} = \frac{1.65}{\sqrt{22+1}} = 0.3''$$

Chekli tasodifiy xato yig'indisi (7) formuladan topamiz:

$$\text{chek } \Delta\beta = \frac{206265}{25000} \sqrt{\frac{6}{22+3}} = 4.04''$$


6.7. Xatolar manbaining chekini hisoblash.

1. Markazlashtirish xatoligi

B - poligonometriya punktining markazi.

B' - teodolit aylanish o'qining proeksiyasi.

Punkt markaziga teodolitni noaniq o'rnatish burchak o'lchashda xatoga olib keladi. Bu xatolikni markazlashtirish xatoligi deyiladi. Faraz qilaylik, belgi markazining ustiga teodolit noto'g'ri o'rnatilgan va ABC burchak o'rniga $AB'C$ burchak o'lchang'an.



6.8-rasm

Belgilash kiritamiz:

Masofa $BB' = e$ - markazlashtirishning chiziqli elementi.

$\angle \theta_1$ va $\angle \theta_2$ - markazlashtirishning burchakli elementi.

$\angle C_1$ va C_2 - teodolit aylanishi o'qi holatining markazlashmaganligi uchun burchak o'lchash xatoligi.

Har bir yo'nalish uchun teodolit aylanish o'qi holatining markazlashmaganligi uchun burchak o'lchash xatoligini sinuslar teoremasi bo'yicha hisoblash mumkin.

$$AB'B \text{ uchburchakdan: } \frac{\ell}{\sin C_1} = \frac{S_1}{\sin \theta_1} \quad \text{undan} \quad \sin C_1 = \frac{\ell \sin \theta_1}{S_1}$$

Burchak C_1 - kichik qiymatga ega, shuning uchun $\sin C_1$ ni

$\frac{C_1}{\rho}$ bilan almashtiramiz, unda

$$C''_1 = \frac{e \cdot \sin \theta_1}{S_1} \rho''.$$

Xuddi shunday ikkinchi yo'nalish uchun xam topamiz:

$$C''_2 = \frac{e \cdot \sin \theta_2}{S_2} \rho''.$$

Teodolit aylanishi o'qi holatining markazlashmaganligi uchun burchak o'lhash xatoligi:

$$C'' = C''_1 + C''_2 = \frac{e \cdot \sin \theta_1}{S_1} \rho'' + \frac{e \cdot \sin \theta_2}{S_2} \rho''.$$

Agar yo'1 tomonlari uzunliklari S_1, S_2 , markazlashtirish elementlari e va θ ma'lum bo'lsa, bu formula bo'yicha teodolit holatining markazlashmaganligi uchun burchak o'lhashga tuzatma hisoblanadi.

O'rta kvadratik xatolikka o'tamiz. Keltirib chiqarishni soddalashtirish uchun tomonlar uzunligini bir-biriga teng $S_1=S_2=S$ va burilish burchagi β qiymati 180° ga yaqin deb qabul qilamiz. Unda o'rta kvadratik xatolik:

$$m_m = \frac{e \rho''}{S} [\sin \theta + \sin (180^\circ - \theta)] \text{ yoki } m_m = \frac{2e \rho''}{S} \sin \theta.$$

Agar $\theta = 90^\circ$ yoki 270° bo'lsa, markazlashtirish uchun xato eng katta qiymatga ega bo'ladi.

Agar $\theta = 0^\circ$ yoki 180° bo'lsa, u eng kichik qiymatga ega bo'ladi. Xatolikning o'rta qiymatini hisoblash uchun burchakning $\theta = 45^\circ$ o'rtacha qiymatini olamiz. Unda

$$m_m = \frac{2e \rho''}{S} \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} \text{ yoki } m_m = \frac{\sqrt{2}e \rho''}{S},$$

yoki

$$m_m = \frac{\sqrt{2}e \rho''}{S},$$

agar $S_1 \neq S_2$ bo'lsa, unda

$$m_m = \frac{l\rho''C}{\sqrt{2}S_1S_2}$$

Misol . 1. Agar $S = 2$ km; $m_m = 0,8''$ bo'lsa, 4-klass poligonometriya yo'lini o'tkazishda teodolitni qanday aniqlikda markazlashtirish kerak?

Yechish .

$$\ell = \frac{m_m S}{\sqrt{2}\rho''} = \frac{0.8''2000000mm}{\sqrt{2}206265''} = 5mm$$

2. Agar $S=250$ m, $m_m=1,0''$ bo'lsa, yuqori aniqlikdagi poligonometriya (1-razryad) uchun:

$$\ell = \frac{1.0''250000mm}{\sqrt{2}206265''} = 1mm$$

Xulosa. Yo'l tomoni S qanchalik kichik, θ burchak 90° ga yaqin bo'lsa, teodolitni shunchalik aniq markazlashtirish kerak.

2. Reduktsiya xatoligi

A – poligonometriya punktining (belgi) markazi.

A' – vizir markasining aylanish o'qining proeksiyasi.

Vizir markalari vertikal o'qini belgi markaziga noaniq o'rnatish burchak o'lhashda xatolik keltirib chiqaradi. Bu xatolik reduktsiya xatoligi deyiladi.

Belgilashlar kiritamiz:

Masofa $AA'=e$, - reduktsiyaning chiziqli elementi.


$\angle \theta_1$ - reduktsiyaning burchak elementi.

$\angle r$ - vizir markasining aylanish o'qi holatining markazlashmaganligi uchun burchak o'lhash xatoligi.

Faraz qilaylik, vizir markasi A punkt (belgi) markazi ustiga noaniq o'rnatilgan va ABS burchak o'rniga $A'BS$ burchak o'lchangan bo'lsin.

ABA' uchburchakdan sinuslar teoremasi bo'yicha topamiz:

$$\frac{e_1}{\sin r} = \frac{S_1}{\sin \theta_1},$$



6.9-rasm

bundan

$$r'' = \frac{e_1 \sin \theta_1}{S_1} = \rho''. \quad (159)$$

Bu formula yordamida bitta yo‘nalish bo‘yicha reduktsiya xatoligi hisoblanadi.

O‘rta kvadratik xatolikka o‘tamiz.

Soddalashtirish uchun

$$S_1 = S_2 = S; \text{ burchak } \theta = 45^\circ \text{ deymiz.}$$

Unda bitta yo‘nalishning o‘rta kvadratik xatoligi:

$$m'_{\rho} = \frac{e_1 \rho''}{S} \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = \frac{e_1 \rho''}{S \sqrt{2}}.$$

Ikkita yo‘nalish bo‘yicha:

$$m_p^2 = m'_p^2 + m''_p^2$$

Agar $m_p' = m_p''$ teng desak, unda $m_p^2 = 2m_p'^2$

Bundan:

$$m'_{\rho} = \frac{m_{\rho}}{\sqrt{2}}. \quad (160)$$

(2) va (3) formulalarga asosan:

$$m_{\rho} = \frac{\ell_1 \rho''}{S} \quad (161)$$

Agar $S_1 \neq S_2$ teng bo‘lmasa, unda

$$m_p = \frac{\ell_1 \rho''}{\sqrt{2}} \sqrt{\frac{1}{S_1^2} + \sqrt{\frac{1}{S_2^2}}} \quad (162)$$

Misol. 1) 4klass poligonometriyada $S = 2\text{km}$ $m_p = 0.8''$ desak, vizirlash markalarini qanday aniqlikda punkt markaziga o'rnatish kerak.

$$\text{Yechish} \quad \ell = \frac{m_p S}{\rho} = \frac{0.8'' \cdot 2000000}{206265''} = 7\text{mm}$$

2. 1 razryad poligonometriyada $S = 250\text{m}$, $m_p = 1.0''$ desa, vizirlash markasini qanday aniqlikda punkt markaziga o'rnatish kerak.

$$\ell = \frac{1.0'' \cdot 250000\text{mm}}{206265''} = 1.2\text{mm}$$

Xulosa: Poligonometriyada tomon uzunligi kancha kichik bo'lsa vizir markasini punktga shuncha aniq o'rnatish kerak ekan.

3. Burchak o'lchashning o'z xatoligi

Burchak o'lchashning o'z xatoligi yo'nalishlarni o'lchash xatoligiga bog'liq. O'z navbatida yo'nalishlarni o'lchash xatoligi vizirlash xatoligiga va sanoq olish xatoligiga bog'liq.

Bitta yo'nalishning o'rta kvadratik xatosi:

$$m_H^1 = \sqrt{m_v^2 + \frac{m_0^2}{2}}$$

bu erda: $m_v = \frac{60''}{v}$ vizirlash o'rta kvadratik xatosi;

$60''$ – normal qarashning kritik burchagi;

V - trubaning kattalashtirishi.

$$\text{TB1 uchun: } m_v = \frac{60''}{27} = 2.2''$$

$$\text{T2 uchun: } m_v = \frac{60''}{25} = 2.4''$$

m_o - sanoq olish o'rta kvadratik xatosi (TB-1 uchun $m_o = 1.5''$ - $2''$, T2 uchun $m_o = 2''$ teng.)

Ikkita yo'nalishning o'rta kvadratik xatosi (bitta aylanada):

$$m_\beta^{'}{}^2 = m_H^{'}{}^2 + m_H^{''}{}^2$$

Agar $m_H^{'} = m_H^{''}$ bo'lsa, unda $m_\beta^1 = \sqrt{2}m_H^1$.

Bitta to'liq usulda olingan burchak o'lchashning o'rta kvadratik xatosi:

$$m_{\beta}^1 = \frac{\sqrt{2}m_H^{11}}{\sqrt{2}} \quad \text{yoki} \quad m_{\beta}^1 = m_H^1 \quad \text{bo'jadi.}$$

Demak, bitta to'liq usulda olingan burchak o'lhashning o'rta kvadratik xatosi bitta yo'nalishning xatosiga teng.

Odatda burchak to'liq bir nechta usulda o'lchanadi. Bunday holatdan usulda o'lchangان burchakning o'rta kvadratik xatosi bir marta o'lchangان o'rta kvadratik xatolikdanmarta kichik bo'jadi:

$$m_{\beta}^1 = \frac{m_H^1}{\sqrt{n}}$$

m_H^1 qiymatini qo'yib, topamiz:

$$m_{\beta}^1 = \sqrt{\frac{1}{n}(m_v^2 + \frac{m_0^2}{2})}$$

Bita burchakni (p) priyomda o'lhashning o'rta kvadratik xatosi

Misol. 4-klass poligonometriyada kutiladigan burchak o'lhashning o'rta kvadratik xatosini toping. Burchak T2 teodolit bilan to'liq to'qqizta priyomda (usulda) o'lchangان.

Yechish. $m_{\beta}^1 = \sqrt{\frac{1}{9}(2.4^2 + \frac{2^2}{2})} = 0.93''$

4. Asbob xatoliklari

Asbob xatoliklari quyidagi xatoliklardan iborat:

- a) limbning bo'laklari;
- b) optik mikrometrning reni;
- d) alidadanining essentrisiteti;
- e) kollimatsiya;
- f) asbob aylanish o'qining egilishi;
- g) asbobning turg'unmasligi (mustaxkamlikmasligi).

Bu asbob xatoliklarining xammasi sistematik harakterga ega.

Limb bo'laklari xatoligi ta'sirini kamaytirish uchun o'lhashlar priyomlar (usullar) orasida limbni $\delta = \frac{180^0}{n}$ burchakka surib o'lchanadi.

Bu yerda: n – priyomlar (usullar) soni.

Alidada aylanish markazi bilan limb markazining ustma-ust tushmasligi alidada ekstsentrisiteti deyiladi.

Ekstsentrisitetni aniqlash uchun alidada noldan boshlab har 45° da qo‘yib boriladi. Alidadaning har bir holatida qarama-qarshi shtrixlar kesishtiriladi ($0-180^\circ$, $45-225^\circ$, $90-270^\circ$,...) va sanoq olinadi. Keyin alidada qo‘yliganligini harakterlaydigan shtrix indeks bilan kesishtiriladi va sanoq olinadi.

Agar:

b - shtrixlarni kesishtirganda mikrotmetr bo‘yicha sanoq;

a -shtrixni indeks bilan kesishtirganda , har bir kuzatish qatori bo‘yicha farqni hisoblash mumkin:

$$a - b = c,$$

bu yerda: c –shtrix va indeks orasidagi masofa (burchak birligida).

Sanoqlarning ikkilangan farqi hisoblanadi:

$$d = 2(a - b).$$

d miqdorning farqi $40''$ dan kichik bo‘lishi kerak. Uning sinusoidadan og‘ishi $15''$ dan oshmasligi kerak.

Asbob aylanishi o‘qining qiyaligi tuzatma ushbu formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta'' = \epsilon \frac{\tau''}{2} ctgz,$$

bu yerda: $b = \frac{(D_{Ch_2} + D_{O_2}) - (D_{Ch_1} + D_{O_1})}{2}$ - adilak bo‘lagidagi asbob aylanish o‘qi qiyaligi (ТБ-1 uchun);

D_{Ch1} va D_{O1} - Chap holatda adilak pufagining chetlari bo‘yicha sanoq;

D_{Ch2} va D_{O2} –xuddi shunday o‘ng holatda;

τ'' –adilak bo‘lagining qiymati;

z - kuzatilayotgan predmetning zenit masofasi.

5. Tashqi muxitning ta'siri

Tashqi muxit ta'siri tushunchasiga burchak o'lchashga ta'sir qiladigan kompleks omillar kiradi. Bu kompleksga quyidagi omillar kiradi:

- a) yon (bokovaya) refraksiya;
- b) shamol ta'siri;
- d) temperatura ta'siri;
- e) asbob va vizir moslamalarining tekis bir-xilda yoritilmaganligi.

4-klass poligonometriyada burchak o'lchashda tashqi muxitning ta'siri quyidagidan oshmasligi kerak:

$$m_{tash} = \frac{m_\beta}{\sqrt{6}} = \frac{2''}{\sqrt{6}} = \pm 0.8''$$

Aniqlikni baxolash

Bitta o'lchashning o'rta kvadratik xatosi (Peters formulasi):

$$\mu = K \frac{\|V\|}{m}$$

(n) – o'lchashning o'rta kvadratik xatosi:

$$M = \frac{\mu}{\sqrt{n}}$$

bu yerda:

$$K = \frac{1.25}{\sqrt{n(n-1)}}$$

$\|V\|$ - o'rtacha qiymatdan yo'nalishlar og'ishining yig'indisi absolyut qiymati;

m - yo'nalishlar soni;

n - usullar soni.

7-bob. Poligonometriya punktlarini tayanch punktlariga bog'lash.

Poligonometriya yo'llarini triangulyatsiya yoki yuqori klassli poligonometriya punktlariga bog'lash poligonometriya yo'li tomonlariga direksion burchakni uzatish va punktlar koordinatalarini hisoblash uchun bajariladi.

Bog'lashning asosan uchta usuli bor:

1. Bevosita bog'lash;

2. Yuqoridagi (belgi tepasidan) tayanch punktning koordinatalarini yerga (pastga) ko‘chirish usuli bilan bog‘lash;
3. Uzoqdagi tayach (triangulyatsiya) punktlarga bog‘lash;
1. Bevosita bog‘lash


Bu usul poligonometrik yo‘l bevosita tayanch punktga tutashgan bo‘lsa va tutash burchakni o‘lhash va tayanch punktlari va yo‘lning oxirgi (boshlang‘ich) nuqtalari orasidagi masofani o‘lhash imkoniyati bo‘lsa, qo‘llaniladi. Bevosita bog‘lash eng oddiy va ishonchli natijani beradi.

Bevosita bog‘lashda markazlashtirish va reduktsiya elementlarini hisobga olish kerak. S punktdan A punktga direksion burchak quyidagicha bo‘ladi (1-rasm):

$$\operatorname{tg} a_{bosh} = \frac{y_a - y_c}{x_a - x_c}$$

Keyingi tomonlarning direksion burchaklari:

$$a_1 = a_{bosh} \pm 180 + \beta_1$$



7.1-rasm

2. Yuqoridagi (belgi tepasidan) tayanch punktning koordinatalarini yerga (pastga) ko‘chirish usuli bilan bog‘lash

Poligonometriya yo‘l nuqtasi tayanch punktiga yaqin, lekin unga teodolit o‘rnatib va bevosita tutashgan burchakni va masofa o‘lhash imkoniyati yo‘q. Undan tashqari tayanch punkti va poligonometriya nuqtasi orasidagi masofani bevosita o‘lhash mumkin emas. Shuning uchun "belgi tepasidan yerga koordinatalarni ko‘chirish" masalasi paydo bo‘ladi.


3. Uzoqdagi tayanch (triangulyatsiya) punktlarga bog‘lash

Konkret sharoitdan kelib chiqqan holda bu usulni har xil bajarish mumkin:

- a) to‘g‘ri va teskari bitta yo‘nalishli kesishtirish.
- b) to‘g‘ri va teskari ko‘p yo‘nalishli kesishtirish.

7.1. Yuqoridagi punktning koordinatalarini pastga yerga tushirish metodida bog‘lash.

Triangulyatsiya punkti T_1 balandda joylashgan. Uning yaqinida P_1 poligonometriya nuqtasi shunday tanlanadiki, undan triangulyatsiya punkti T_2 ko‘rinadigan bo‘lsin (1- rasm). P_1 punktida ikkita uchburchak AT_1P_1 va BT_1R_1 xosil qilinadi. Bu uchburchaklarning tomonlari b_1 va b_2 bevosita



7.2-rasm

o‘lchanadi. Bundan tashqari har bir uchburchakda ikkitadan burchak α_1 β_1 va α_2 β_2 o‘lchanadi. Keyin μ va λ burchaklarni topishga imkon beradigan burchak γ xam o‘lchanadi. Poligonometrik yo‘l tomonlariga direksion burchakni uzatish uchun σ burchak o‘lchanadi.

Tomonning T_1P_1 uzunligi hisoblanadi:

$$S = b_1 \sin \alpha_1 / \sin \epsilon_1 = b_2 \sin \alpha_2 / \sin \epsilon_2 \quad (163)$$

Tayanch triangulyatsiya punktlari koordinata3.bn/lari bo‘yicha direksion burchak aniqlanadi:

$$\operatorname{tg}(T_1 T_2) = \frac{y_2 - y_1}{x_2 - x_1} \quad (164)$$

Triangulyatsiya punktlari orasidagi masofa hisoblanadi:

$$L = \frac{y_2 - y_1}{\sin(T_1 T_2)} \quad (165)$$

Direksion burchak to‘gri hisoblab topilganligi tekshiriladi:

$$\operatorname{tg}[(T_1 T_2) + 45^\circ] = \frac{(x_2 + y_2) - (x_1 + y_1)}{(x_2 - y_2) - (x_1 - y_1)} = \frac{\Delta x + \Delta y}{\Delta x - \Delta y}. \quad (166)$$

$T_1 T_2 P_1$ uchburchakda μ burchak, keyin λ burchak aniqlanadi:

$$\frac{\sin \mu}{S} = \frac{\sin \gamma}{a}$$

undan

$$\sin \mu = \frac{S}{a} \sin \gamma, \quad (167)$$

$$\lambda = 180^\circ - (\gamma + \mu) \quad (168)$$

$T_1 P_1$ tomonning direksion burchagi hisoblanadi: $(T_1 P_1) = (T_1 P_2) + \lambda$ (7)

T_1 va P_1 punktlari orasidagi koordinata orttirmalari hisoblanadi:

$$\Delta x_{T1P1} = S \cos(T_1 P_1) \quad (169)$$

$$\Delta y_{T1P1} = S \sin(T_1 P_1) \quad (170)$$

P_1 punkt koordinatalari aniqlanadi:

Tekshirish uchun $P_1 T_2$ tomonning direksion burchagi va farqi hisoblanadi:

$$(T_1 T_2) - (R_1 T_2) = \mu, \quad (171)$$

bu yerda:

$$\operatorname{tg}(P_1 T_2) = \frac{y_2 - y}{x_2 - x}$$

Direksion burchak poligonometriya yo‘li tomoniga uzatiladi:

$$\alpha_1 = (T_1 P_1) \pm 180^\circ + (\gamma + \sigma). \quad (172)$$

Aniqlashni baxolash

Bazis uzunligining o‘rta kvadratik xatosi:

$$m_b^2 = \mu^2 b^2 + \lambda^2 b^2 \quad (173)$$

S tomonning o‘rta kvadratik xatosi:

$$m_s^2 = \left(\frac{mb_1}{b_1} \right)^2 S^2 + [(ctga_1 + ctg\varepsilon_1)^2 + ctg\varepsilon_1] S^2 \frac{m\lambda^2}{\rho^2} \quad (174)$$

S_1 va S_2 qiymatlar orasidagi yo‘l qo‘yiladigan farqi:

$$\text{cheki } (S_1 - S_2) = 2 \sqrt{m_2 s_1 + m_2 s_2}$$

S oxirgi o‘rtacha qiymatining o‘rta kvadratik xatosi:

$$M_s = 0.5 \sqrt{m_2 s_1 + m_2 s_2} \quad (175)$$

Hisoblangan direksion burchakning o‘rta kvadratik xatosi:

$$m_\varphi^2 = m_\gamma^2 (1 + tg\mu ctg\gamma)^2 + tg\mu (m_s/S)^2 \rho^2 \quad (176)$$

Direksion burchak φ_1 va φ_2 qiymatlar orasidagi yo‘l qo‘yiladigan farqi:

$$\text{cheki } (\varphi_1 - \varphi_2) = 2 \sqrt{m^2 \varphi_1 + m^2 \varphi_2}$$

O‘rtacha direksion burchak φ qiymatining o‘rta kvadratik xatosi:

$$M_\varphi = 0.5 \sqrt{m^2 \varphi_1 + m^2 \varphi_2} \quad (177)$$


P_1 punkt holatining o‘rta kvadratik xatosi:

$$M_r^2 = M_s^2 + (M_\varphi^2 / \rho^2) S^2 \quad (178)$$

7.2. Uzokdagi tayanch (triangulyatsiya) punktlarga poligonometriya

yo‘lini boglash.

Teskari bir karralii kesishtirish



7.3-rasm

T_1, T_2, T_3 - tayanch triangulyatsiya punktlari.

P, P_1, P_2, \dots - poligonometriya yo'lining punktlari.

Uzoqdagi triangulyatsiya T_1, T_2 va T_3 punktlariga, poligonometriya yo'lining P punktini bog'lash talab qilinsin.

P punktda β_1, β_2 va ε burchaklar o'lchanadi. O'lchangan β_1, β_2 burchaklar va T_1, T_2 va T_3 triangulyatsiya punkt koordinatalari yordamida P punktning koordinatasi aniqlanadi.

O'lchangan burchak ε yordamida esa direksion burchak poligonometriya yo'li tomoniga uzatiladi.

Belgilaymiz: $\alpha = (PT_1)$ tomon direksion burchagi.

Chizmadan quyidagilarni yozish mumkin:

$$y_1 - y = (x_1 - x) \operatorname{tg} \alpha \quad (179)$$

$$y_2 - y = (x_2 - x) \operatorname{tg} (\alpha + \beta_1) \quad (180)$$

$$y_3 - y = (x_3 - x) \operatorname{tg} (\alpha + \beta_2) \quad (181)$$

Ma'lumki,

$$\operatorname{tg}(\alpha + \beta_1) = \frac{\operatorname{tg} \alpha + \operatorname{tg} \beta_1}{1 - \operatorname{tg} \alpha \operatorname{tg} \beta_1} = \frac{\operatorname{tg} \alpha \cdot \operatorname{ctg} \beta_1 + 1}{\operatorname{ctg} \beta_1 - \operatorname{tg} \alpha}.$$

Izox. Tenglama o'ng tomonining maxraji va suratini $\operatorname{ctg} \beta_1$, ga ko'paytiramiz.

Unda (2) tenglama quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$y_2 - y = (x_2 - x) \frac{\operatorname{tg}\alpha \cdot \operatorname{ctg}\beta_1 + 1}{\operatorname{ctg}\beta_1 - \operatorname{tg}\alpha},$$

yoki

$$y_2 \operatorname{ctg}\beta_1 - y_2 \operatorname{tg}\alpha - y \operatorname{tg}\beta_1 + y \operatorname{tg}\alpha = x_2 \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_1 + x_2 - x \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_1 - x \quad (182)$$

Xuddi shunday (181) tenglama uchun:

$$y_3 \operatorname{ctg}\beta_2 - y_3 \operatorname{tg}\alpha - y \operatorname{tg}\beta_2 + y \operatorname{tg}\alpha = x_3 \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_2 + x_3 - x \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_2 - x \quad (183)$$

(179) tenglamadan topamiz:

$$y = y_1 + x \operatorname{tg}\alpha - x_1 \operatorname{tg}\alpha;$$

bu qiymatni (182) tenglamaga qo‘yib topamiz: (Izox. faqat $\operatorname{ctg}\beta_1$)

$$\begin{aligned} y_2 \operatorname{ctg}\beta_1 - y_2 \operatorname{tg}\alpha - y_1 \operatorname{tg}\beta_1 - x_1 \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_1 + x_1 \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_1 + y \operatorname{tg}\alpha = \\ = x_2 \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_1 + x_2 - x \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_1 - x \end{aligned}$$

yoki

$$\begin{aligned} y_2 \operatorname{ctg}\beta_1 - y_2 \operatorname{tg}\alpha - y_1 \operatorname{ctg}\beta_1 + x_1 \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_1 + y \operatorname{tg}\alpha = \\ = x_2 \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_1 + x_2 - x \end{aligned}$$

$$Undan \quad (y_2 - y_1) \operatorname{ctg}\beta_1 - y_2 \operatorname{tg}\alpha + y \operatorname{tg}\alpha = (x_2 - x_1) \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_1 + x_2 - x \quad (184)$$

Xuddi shunday (5) tenglamadan, qayta o‘zgartiramiz:

$$(y_3 - y_1) \operatorname{ctg}\beta_2 - y_3 \operatorname{tg}\alpha + y \operatorname{tg}\alpha = (x_3 - x_1) \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_2 + x_3 - x \quad (185)$$

(185) tenglamadan (184) tenglamani ayiramiz

$$(y_3 - y_1) \operatorname{ctg}\beta_2 - (y_2 - y_1) \operatorname{ctg}\beta_1 - (y_3 - y_2) \operatorname{tg}\alpha = (x_3 - x_1) \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_2 - (x_2 - x_1) \operatorname{tg}\alpha \operatorname{ctg}\beta_1 + x_3 - x_2$$

yoki

$$\operatorname{tg}\alpha [(x_2 - x_1) \operatorname{ctg}\beta_1 - (x_3 - x_1) \operatorname{ctg}\beta_2 - (y_3 - y_2)] = (y_2 - y_1) \operatorname{ctg}\beta_1 - (y_3 - y_1) \operatorname{ctg}\beta_2 + (x_3 - x_2);$$

unda

$$\operatorname{tg}\alpha = \frac{(y_2 - y_1) \operatorname{ctg}\beta_1 - (y_3 - y_1) \operatorname{ctg}\beta_2 + (x_3 - x_2)}{(x_2 - x_1) \operatorname{ctg}\beta_1 - (x_3 - x_1) \operatorname{ctg}\beta_2 - (y_3 - y_2)}. \quad (186)$$

Bu formula bo‘yicha PT_1 tomonning direksion burchagi aniqlanadi, keyin P punktning koordinatasi hisoblanadi.

Ikkinchchi tenglamadan birinchisini ayiramiz:

$$(y_2 - y_1) = x_2 \operatorname{tg}(\alpha + \beta_1) - x_1 \operatorname{tg}\alpha - x [\operatorname{tg}(\alpha + \beta_1) - \operatorname{tg}\alpha]$$

bundan

$$x = \frac{x_2 \operatorname{tg}(\alpha + \beta_1) - x_1 \operatorname{tg}\alpha - (y_2 - y_1)}{\operatorname{tg}(\alpha + \beta_1) - \operatorname{tg}\alpha}. \quad (187)$$

Ordinatalar (179), (180) va (181) formulalar yordamida hisoblanadi:

$$\left. \begin{array}{l} y = y_1 - (x_1 - x) \operatorname{tg}\alpha \\ y = y_2 - (x_2 - x) \operatorname{tg}(\alpha + \beta_1), \\ y = y_3 - (x_3 - x) \operatorname{tg}(\alpha + \beta_2). \end{array} \right\} \quad (188)$$

7.3. Direksion burchakning diferentsial formulalari

Koordinatasi ma'lum bo'lgan A va B punktlar mavjud. Faraz qilaylik, B punkt B' holatga siljidi va bu nuqtaning koordinatasi dx_b va dy_b orttirma oldi. Direksion α burchak $d\alpha$ ga o'zgardi. Oxirgi punkt koordinatasi tomon direksion burchagi o'zgarishi orasidagi bog'liqlikni aniqlash kerak. Ma'lumki,

$$\operatorname{tg}\alpha = \frac{y_b - y_a}{x_b - x_a}.$$

Bu tenglamani differensiallab, topamiz:


$$\frac{1}{\cos^2 \alpha} \frac{d\alpha}{\rho} = \frac{(xb - xa)dy_b - (yb - ya)dx_b}{(xb - xa)^2} \quad (189)$$

Lekin,

$$\left. \begin{array}{l} x_b - x_a = S \cos \alpha \\ y_b - y_a = S \sin \alpha \end{array} \right\} \quad (190)$$

shuning uchun (1) tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$\begin{aligned} d\alpha &= \cos^2 \alpha \rho \left[\frac{S \cos \alpha dy_b - S \sin \alpha dx_b}{S^2 \cos^2 \alpha} \right] \\ \text{yoki} \quad d\alpha &= \rho \left[\frac{\cos \alpha}{S} dy_b - \frac{\sin \alpha}{S} dx_b \right] \end{aligned} \quad (191)$$



7.4 - rasm

Belgilash kiritamiz:

$$(a) = - \rho \sin \alpha,$$

$$(b) = \rho \cos \alpha$$

Unda (191) formula quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$d\alpha = \frac{(a)}{S} dx_b + \frac{(b)}{S} dy_b \quad (192)$$

Agar B nuqtaning o‘zgarmas holatida, A nuqta siljisa, unda direksion burchak differensial formulasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$d\alpha = - \frac{(a)}{S} dx_a - \frac{(b)}{S} dy_a \quad (193)$$

Agar tomonning ikki oxirgi uchi o‘zgarsa, differensial formula quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$d\alpha = - \frac{(a)}{S} dx_a - \frac{(b)}{S} dy_a + \frac{(a)}{S} dx_b + \frac{(b)}{S} dy_b \quad (194)$$

Misol: AB tomonning B nuqtasi koordinatalari $dx_b = + 0,04m$ va $dy_b = - 0,07$ metrga o‘zgardi. AB tomonning uzunligi $S = 1,534$ km; $\alpha = 216^\circ 37' 48''$. AB tomonning yangi vaziyatdagi direksion burchagini toping.

Yechish. Yordamchi qiymatlarni topamiz:

$$(a) = - \rho'' \sin \alpha = - 20,6265 (- 0,59664) = + 12,31,$$

$$(b) = \rho'' \cos \alpha = 20,6265 (- 0,80251) = - 16,53.$$

(192) formula bo‘yicha topamiz:

$$d\alpha = + \frac{12.31}{1.534} (+0.4) - \frac{16.53}{1.534} (-0.7) = +11.4''$$

Demak, yangi vaziyatda direksion burchak quyidagiga teng:

$$\alpha = 216^\circ 37' 59.4''$$

Hisoblashda $\rho'' 10000$ marta kichraytiriladi. Masofa S kilometrda, dx va dy - detsimetrdan ifodalanadi.

7.4. Teskari ko‘p karrali kesishtirish

Bitta yo‘nalishli kesishtirish usulida P_0 nuqtaning taxminiy koordinatalari x_0 va y_0 hisoblanadi.

Aniqlanayotgan punktdan berilgan punktlarga yo‘nalishlarning taxminiy direksion burchaklari va mos tomonlari uzunligi hisoblanadi:

$$\operatorname{tg} \alpha_{0i} = \frac{y_i - y_0}{x_i - x_0},$$

$$S_{0i} = \frac{y_i - y_0}{\sin \alpha_{0i}} = \frac{x_i - x_0}{\cos \alpha_{0i}}.$$

Burchaklarning taxminiy qiymati hisoblanadi:

$$\beta_{0i} = a_{0i+1} - a_{0i}$$

Tuzatmalar tenglamasining ozod hadi hisoblanadi:

$$l_i = \beta_{0i} - \beta'_i$$

bu erda: β'_i - burchakning o‘lchangan qiymati.

$(a)_i$ va $(b)_i$ koeffitsiyentlar hisoblanadi:


$$(a)_i = -\rho'' \sin \alpha_{0i},$$

$$(b)_i = \rho'' \cos \alpha_{0i}.$$

koeffitsiyentlar $(a)_i$ va $(b)_i$ qiymatlarni maxsus jadvaldan α_{0i} argument bo‘yicha tanlash mumkin.

$(a)_i$ va $(b)_i$ qiymatlar topiladi:

$$\alpha_i = -\frac{(a)_i}{S_i} \quad b_i = -\frac{(b)_i}{S_i}.$$



7.5-rasm

Boshlang‘ich tenglamaning koeffitsiyentlari hisoblanadi va yig‘indisi nazorat qilinadi.

$$A_i = a_{i+1} - a_1$$

$$B_i = b_{i+1} - b_1$$

$$S_i = A_i + B_i + l_i$$

Normal tenglamalarning koeffitsiyentlari va ozod hadlari hisoblanadi.

Hisoblashni tekshirish quyidagi tenglik orqali bajariladi:

$$[AA] + [AB] + [AI] = [AS],$$

$$[AB] + [BB] + [BI] = [BS]$$

Normal tenglamalar tuziladi va yechiladi:

$$[AA] \delta x + [AB] \delta y + [AI] = 0,$$

$$[AB] \delta x + [BB] \delta y + [BI] = 0.$$

Taxminiy koordinatalarga extimoliy tuzatmalar $\delta x, \delta y$ hisoblanadi:

$$\delta x = \frac{[AB][BI] - [BB][AI]}{[AA][BB] - [AB]^2} = \frac{D_x}{D},$$

$$\delta y = \frac{[AB][AI] - [AA][BI]}{[AA][BB] - [AB]^2} = \frac{D_y}{D}.$$

P_0 - punkt koordinatasining so‘ngi qiymati hisoblanadi:

$$x = x_0 + \delta x$$

$$y = y_0 + \delta y$$

Eslatma: Agar S masofa kilometrda ifodalansa, hisoblashni soddalashtirish uchun, qiymatlar $(a)_i$ va $(b)_i$ 10 000 marta kichraytiladi, unda tuzatmalar detsimetrdan olinadi.

So‘ngi koordinatalar quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$x = x_0 + 0.1 \delta x$$

$$y = y_0 + 0.1 \delta y$$

O‘lchangan burchaklarga tuzatmalar aniqlanadi:

$$V_i = A_i \delta x + B_i \delta y + l_i$$

Tekshirish uchun hisoblanadi:

$$[VV] = [ll] + [Al]\delta x + [Bl]\delta u$$

Ikkita olingan qiymatlar orasidagi farq $[VV]$ qiymatdan 2% ga farq qilishi mumkin.

Burchaklarning oxirgi qiymati topiladi:

$$\beta_i = \beta_I + V_i$$

Aniqlikni baholash bajariladi.

O‘lchangan burchakning o‘rta kvadratik xatosi:

$$m_\beta = \pm \sqrt{\frac{\sum v^2}{n-2}}$$

bu yerda: n - yo‘nalishlar soni.

Koordinatalarning o‘rta kvadratik xatosi:

$$m_x = \frac{m_\beta}{10\sqrt{P_y}}, \quad m_y = \frac{m_\beta}{10\sqrt{P_x}},$$

bu yerda: $P_x = \frac{D}{[BB]}$, $P_y = \frac{D}{[AA]}$ – koordinatalar vazni.

7.5. To‘g‘ri bir yo‘nalishli kesishtirishlar

Poligonometrik P P_1 P_2 ...yo‘lni uzoqdagi 1 va 2- triangulyatsiya punktlariga bog‘lash talab qilinsin. Buning uchun 1 va 2-punktlarda burchaklar β_1 va β_2 lar o‘lchanadi. Direksion burchakni yo‘lning tomonlariga uzatish uchun aniqlanayotgan punktda yopishgan burchak γ o‘lchanadi (1-racm).

Boshlang‘ich punktlar koordinatlari $(x_1; y_1)$ va $(x_2; y_2)$ ma’lum, undan topamiz.

$$\begin{aligned} \Delta x_{1.3} &= d_{1.3} \cos \alpha_{1.3} = x - x_1 \\ \Delta y_{1.3} &= d_{1.3} \sin \alpha_{1.3} = y - y_1 \end{aligned} \quad (195)$$


$$\alpha_{1.3} = \alpha_{1.2} - \beta_1, \text{ bu erda } \operatorname{tg} \alpha_{1.2} = \frac{y_2 - y_1}{x_2 - x_1} \quad (196)$$

(195) va (196) formulalarga asosan topamiz:

$$\begin{aligned} x - x_1 &= d_{1.3} \cos(\alpha_{1.2} - \beta_1) \\ y - y_1 &= d_{1.3} \sin(\alpha_{1.2} - \beta_1) \end{aligned} \quad (195)$$

yoki

$$\begin{aligned} x - x_1 &= d_{13}(\cos \alpha_{12} \cos \beta_1 + \sin \alpha_{12} \sin \beta_1), \\ y - y_1 &= d_{13}(\sin \alpha_{12} \cos \beta_1 - \cos \alpha_{12} \sin \beta_1) \end{aligned} \quad (196)$$



Bizga ma'lumki,

$$\Delta x_{12} = x_2 - x_1 = d_{12} \cos \alpha_{12}$$

$$\Delta y_{12} = y_2 - y_1 = d_{12} \sin \alpha_{12}$$

Bu yerdan

$$\left. \begin{aligned} \cos \alpha_{12} &= \frac{x_2 - x_1}{d_{12}}, \\ \sin \alpha_{12} &= \frac{y_2 - y_1}{d_{12}}. \end{aligned} \right\} \quad (197)$$

(196) va (197) formulalarga asosan:

$$\begin{aligned} x - x_1 &= d_{13} \left(\frac{x_2 - x_1}{d_{12}} \cos \beta_1 + \frac{y_2 - y_1}{d_{12}} \sin \beta_1 \right), \\ y - y_1 &= d_{13} \left(\frac{y_2 - y_1}{d_{12}} \cos \beta_1 - \frac{x_2 - x_1}{d_{12}} \sin \beta_1 \right). \end{aligned}$$

yoki

$$\begin{aligned} x - x_1 &= \frac{d_{13}}{d_{12}} \sin\beta_1 \left(\frac{x_2 - x_1}{\sin\beta_1} \cos\beta_1 + y_2 - y_1 \right), \\ y - y_1 &= \frac{d_{13}}{d_{12}} \sin\beta_1 \left(\frac{y_2 - y_1}{\sin\beta_1} \cos\beta_1 - x_2 - x_1 \right). \end{aligned} \quad (198)$$

Uchburchakdan kelib chiqadi:

$$\frac{d_{13}}{d_{12}} = \frac{\sin\beta_2}{\sin[180^\circ - (\beta_1 + \beta_2)]} = \frac{\sin\beta_2}{\sin(\beta_1 + \beta_2)} = \frac{\sin\beta_2}{\sin\beta_1 \cos\beta_2 + \cos\beta_1 \sin\beta_2}$$

Bu tenglamaning ikki tomonini $\sin\beta_1$ ga ko‘paytiramiz.

$$\frac{d_{13}}{d_{12}} \sin\beta_1 = \frac{\sin\beta_1 \cdot \sin\beta_2}{\sin\beta_1 \cos\beta_2 + \cos\beta_1 \sin\beta_2}$$

yoki

$$\frac{d_{13}}{d_{12}} \sin\beta_1 = \frac{1}{\frac{\sin\beta_1 \cos\beta_2}{\sin\beta_1 \sin\beta_2} + \frac{\cos\beta_1 \sin\beta_2}{\sin\beta_1 \sin\beta_2}} = \frac{1}{\operatorname{ctg}\beta_2 + \operatorname{ctg}\beta_1}. \quad (199)$$

(199) formulani (198) ga qo‘yamiz:

$$x - x_1 = \frac{1}{\operatorname{ctg}\beta_1 + \operatorname{ctg}\beta_2} [(x_2 - x_1) \operatorname{ctg}\beta_1 + y_2 - y_1]$$

$$y - y_1 = \frac{1}{\operatorname{ctg}\beta_1 + \operatorname{ctg}\beta_2} [(y_2 - y_1) \operatorname{ctg}\beta_1 + x_2 - x_1]$$

Bundan

$$x = \frac{x_2 \operatorname{ctg}\beta_1 - x_1 \operatorname{ctg}\beta_1 + y_2 - y_1 + x_1 \operatorname{ctg}\beta_1 + x_1 \operatorname{ctg}\beta_2}{\operatorname{ctg}\beta_1 + \operatorname{ctg}\beta_2},$$

$$y = \frac{y_2 \operatorname{ctg}\beta_1 - y_1 \operatorname{ctg}\beta_1 - x_2 + x_1 + y_1 \operatorname{ctg}\beta_1 + y_1 \operatorname{ctg}\beta_2}{\operatorname{ctg}\beta_1 + \operatorname{ctg}\beta_2}.$$

Oxirida topamiz:

$$\begin{aligned} x &= \frac{x_1 \operatorname{ctg}\beta_2 + x_2 \operatorname{ctg}\beta_1 + (y_2 - y_1)}{\operatorname{ctg}\beta_1 + \operatorname{ctg}\beta_2}, \\ y &= \frac{y_1 \operatorname{ctg}\beta_2 + y_2 \operatorname{ctg}\beta_1 - (x_2 - x_1)}{\operatorname{ctg}\beta_1 + \operatorname{ctg}\beta_2}. \end{aligned} \quad (200)$$

(200) tenglama kotangenslar formulasi yoki Yunga formulasi deyiladi.

Aniqlikni baholash

Aniqlanayotgan nuqtaning o‘rta kvadratik xatosi

$$m_p = d_{12} \frac{m''_\beta}{\rho} \frac{\sqrt{\sin 2\beta_1 + \sin 2\beta_2}}{\sin^2 \rho}$$

Bu yerda: d_{12} - kesishtirish bazisi.

m''_β - o‘lchangan burchakning o‘rtakvadratik xatosi,

$$\rho = -206265''.$$

7.6. To‘g‘ri ko‘p yo‘nalishli kesishtirish

To‘g‘ri bir yo‘nalishli kesishtirishni yechishdan aniqlanayotgan P punktning taxminiy koordinatalari x_0 va y_0 hisoblab topiladi (1-rasm).

Aniqlanayotgan punktdan berilgan punktlarga yo‘nalishlarning taxminiy direksion burchaklari va mos tomonlari uzunliklari hisoblanadi:

$$\operatorname{tg} \alpha_{0i} = \frac{y_0 - y_i}{x_0 - x_i},$$

$$S_i = \frac{y_0 - y_i}{\sin \alpha_{0i}} = \frac{x_0 - x_i}{\cos \alpha_{0i}}.$$

Boshlang‘ich tenglamaning ozod hadlari hisoblanadi:


$$l_i = \alpha_{0i} - a'_i$$

bu yerda: a'_i - hisoblangan burchaklar bo‘yicha direksion burchak.

Koeffitsiyentlar aniqlanadi:

$$(a)_i = -\rho'' \sin \alpha_{0i}, \quad (b)_i = \rho'' \sin \alpha_{0i}$$

a_i va b_i qiymatlar topiladi:



$$\alpha_i = \frac{(a)_i}{S_i}, \quad b_i = \frac{(b)_i}{S_i}.$$

Normal tenglamalarning koeffitsiyentlar va ozod hadlari hisoblanadi. Hisoblashni tekshirish uchun ushbu tenglik xizmat qiladi:

$$[aa] + [ab] + [al] = [as], \\ [ab] + [bb] + [bl] = [bs].$$

Normal tenglamalar tuziladi va echiladi:

$$[aa]\delta x + [ab]\delta y + [al] = 0 \\ [ab]\delta x + [bb]\delta y + [bl] = 0$$

Taxminiy koordinatalarga ehtimoliy δx va δy tuzatmalar topiladi:

$$\delta x = \frac{[ab][bl] - [bb][al]}{[aa][bb] - [ab]^2} = \frac{D_x}{D}, \\ \delta y = \frac{[ab][al] - [aa][bl]}{[aa][bb] - [ab]^2} = \frac{D_y}{D}.$$

P punktning so‘ngi koordinatalari hisoblanadi:

$$x = x_0 + 0.1 \delta x \\ y = y_0 + 0.1 \delta y$$

O‘lchangan direksion burchakka tuzatma kiritiladi:

$$V_i' = a_i \delta x + b_i \delta y + l_i$$

Tekshirish uchun hisoblanadi:

$$[VV] = [ll] + [al]\delta x + [bl]\delta y$$

Bu ikkita qiymat orasidagi farq $[VV]$ qiymatdan 2% atrofida farq qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Tenglashtirilgan direksion burchak topiladi:

$$a_i = a'_I + V_i$$

Aniqlikni baholash bajariladi:

O‘lchangan burchakning o‘rta kvadratik xatosi:

$$m_\beta = \pm \sqrt{\frac{(V^2)}{n-2}}$$

bu yerda: n - o‘lchangan burchaklar soni.

Koordinatalarning o‘rta kvadratik xatosi:

$$m_x = \frac{m_\beta}{10\sqrt{P_x}}, \quad m_y = \frac{m_\beta}{10\sqrt{P_y}},$$

bu yerda:

$$P_x = \frac{D}{[bb]}, \quad P_y = \frac{D}{[aa]} — \text{koordinatlar vazni.}$$

8-bob. Poligonometriya yo‘llari va turlarini tenglashtirish.

Tenglashtirish usullari.

8.1. poligonometrya yo‘llari va to‘rlarini tenglashtirish usullari

Geodezik o‘lchash ishlari har doim keragidan ortiqcha o‘lchanadi nazorat uchun. Bu ortiqcha o‘lchash poligonometriya yo‘li va turlarini tenglashtirish masalasini keltirib chiqaradi.

Ortiqcha o‘lchashlar soni quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$R = n' - k \tag{201}$$

bu yerda: n' - hamma o‘lchashlar soni ($n' = 2n + 1$)

k - o‘lchash kerak bo‘lgan (zarur) o‘lchashlar soni.

n' va k qiymatlarini formula (1) qo‘ysak.

$$R = 2n + 1 - 2(n - 1) = 3$$

ya’ni uchta ortiqcha o‘lchash, bo‘lar β_{n+1} , β_n burchaklar va S_n tomon uzunligi.

Har – xil bog‘lashlar usulida va poligonometriya yo‘llarining o‘rtasida azimut o‘lchangان bo‘lsa, ortiqcha o‘lchashlar soni poligonometriya yo‘lida ikktadan to‘rtagacha bo‘lishi mumkin.

Poligonometriya yo‘lini tenglashtirishni ikki usulda bajarish mumkin:

1) qatiy;

2) qatiymas.

Qatiy usulda tenglashtirishda tuzatmalar kvadratining yig‘indisini vazinga nisbati minimum deb olinadi.

Qatiymas ya’ni bo‘lib tenglashtirishda avval burchaklar tenglashtiriladi, so‘ng koordinatalar ortirmasi tenglashtiriladi.

Agar qatiy usulda kichik kvadratlar metodida poligonometriya yo‘li tenglashtirilsa kaysi usulda tenglashtirish karrelat usulidami yoki parametrik usulda tenglashtirish kerakmi degan masala paydo bo‘ladi.

Agar hisoblash mashinasi yerdamida tenglashtirilsa unda kaysi usulda normal tenglamalar soni kam bo‘ladigan usulni tanglagan makul.

Kichik kvadratlar nazariyasiga binoan parametrik usulda tenglashtirilganda normal tenglamalar soni nog‘malumlar soniga teng, ya’ni $2(p-1)$ teng, bu esa yo‘l qancha uzun bo‘lsa, normal tenglamalar soni shuncha kup bo‘ladi.

Karrelat usulida tenglashtirilganda normal tenglamalar soni, qo‘yilgan shartlar soniga, qo‘yilgan shartlar soni, ortiqcha o‘lchashlar soniga bog‘lik.

Bundan ko‘rinib to‘ribdi poligonometriya yo‘lini korrelat usulida tenglashtirish maql, lekin hisob ishlari juda ko‘p.

Bu hisob ishlarini kamaytirish uchun har-xil soddalashtirishlar ishlatiladi, ya’ni ikki gruppali, uch gruppali tenglashtirish usullari.


EXM mashinalari tenglashtirishda ishlatilganda, hisob ishlari xajmining ahamiyati yo‘q, ya’ni katta rol o‘ynamaydi. Shuning uchun xoxlagan usulda korrelat yoki parametrik yoki aralash usulda tenglashtirish mumkin.

Qatiymas bo‘lib tenglashtirish usuli 1 va 2 razryad poligonometriya yo‘llarini tenglashtirishda ishlatiladi.

Poligonometriya yo‘llarini tenglashtirish.

Poligonometriyani oddiy usulda tenglashtirishda quyidagi miqdordagi xatolikka yo‘l qo‘yishimiz mumkin (4-klass):

$$\frac{f_s}{[S]} = \frac{1}{25000} \rho'' = \pm 8,2'',$$



8.1-rasm


ya'ni poligonometriya yo'li o'qi 8,2" ga siljiydi. Ma'lumki, bu miqdor 4-klass poligonometriyada burchak o'lchash aniqligidan yuqori ($m_\beta = \pm 2''$). Shuning uchun poligonometriya yo'li odatda eng kichik kvadratlar usuli bo'yicha tenglashtiriladi (korrelat usuli).

Cho'zilgan poligonometrik yo'llarni tenglashtirishda oldin yo'l o'qi qayrilish qiymati aniqlanadi:

$$\psi'' = \frac{u}{l} \rho''.$$

Agar $\psi'' < m_\beta''$ bo'lsa, unda poligonometrik yo'l oddiy usulda tenglashtiriladi. Agar $\psi'' > m_\beta''$ bo'lsa, yo'l eng kichik kvadratlar usuli bilan tenglashtiriladi. Bu yerda m_β'' - o'lchangan burchakning o'rta kvadratik xatosi

8.2. Yakka poligonometrik yo'lini korrelat usuli bilan tenglashtirish



8.2- rasm

Yakka poligonometrik yo'l $P_1, P_2, \dots, P_n, P_{n+1}$ mavjud.

Tayanch punktlar T_{bosh} va T_{oxir} koordinatalari, direksion burchaklar a_{bosh} va a_{oxir} burchaklari ma'lum.

$\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_{n+1}$ burchaklar m_β o'rta kvadratik xatolikda o'lchangan.

Tomonlar S_1, S_2, \dots, S_n o'rta kvadratik xatolik $m_s = \frac{1}{n} \sum \beta_i^2$ aniqlikda o'lchangan (sistematik xatolarsiz). (rasm - 1).

Bizga ma'lumki, geometrik shartlar (tenglamalar) soni ortiqcha o'lhashlar soniga teng. Bizning misolimizda (n) tomon, $(n+1)$ burchak o'lchangan. Demak, xamma o'lhashlar soni:

$$n + (n+1) = 2n+1.$$

Yo'lda hamma punktlar soni $(n+l)$ ta, lekin bulardan ikkitasining koordinatalari ma'lum. Shuning uchun, yo'ldagi noma'lum nuqtalar soni $(n+1) - 2 = n - 1$ ga teng.

Har - bir nuqta uchun (x) va (y) koordinatalarni aniqlash kerak. Demak, hamma noma'lumlar soni $2(n-1)$ ga teng. Ortiqcha o'lhashlar soni

$$2n + 1 - 2(n-1) = 3 \text{ ga teng.}$$

Bundan ko'rinish to'ribdiki, yolg'iz poligonometrik yo'lni korrelat usuli bilan tenglashtirishda doimo uchta shartli tenglama mavjud bo'ladi:

1. Direksion burchaklar sharti.
2. Absissalar sharti.
3. Ordinatalar sharti.

Odatda hisobni soddalashtirish uchun ikki guruhli tenglashtirish usuli qo'llanadi. Oldin birinchi tuzatmalar hisoblanadi:

$$V'_\beta = -\frac{f_\beta}{n+1}.$$

Ular o'lchangan burchaklarga kiritiladi. Koordinatalar orttirmalari va taxminiy koordinatalar hisoblanadi. Yo'lning og'irlik markazi koordinatalari hisoblanadi:

$$x_0 = \frac{\sum x}{n+1}; \quad y_0 = \frac{\sum y}{n+1}.$$

Markaziy koordinatalar hisoblanadi:

$$\varepsilon_i = x_i - x_0; \quad \eta_i = y_i - y_0.$$

Tekshirish. $[\varepsilon] = 0; [\eta] = 0$ (cheki $0,5n$, bunda n – qo'shiluvchilar soni).

Shartli tenglamalar tuziladi:

1. $[V''_\beta] = 0,$
2. $[V_s \cos \alpha] + \frac{1}{\rho} [V''_\beta \eta] + f_x = 0,$
3. $[V_s \sin \alpha] - \frac{1}{\rho} [V''_\beta \varepsilon] + f_y = 0,$

bu erda V''_β - burchakka ikkinchi tuzatma.

f_x va f_y – to'g'rilangan burchaklar bo'yicha olingan koordinatalar orttirmalari bog'lanmasligi.

Shartli tenglamalardan normal tenglamalarga o'tiladi.

Ma'lumki, normal tenglamalar soni shartli tenglamalar soniga teng.

1. $\left[\frac{aa}{p} \right] K_1 + \left[\frac{ab}{p} \right] K_2 + \left[\frac{ac}{p} \right] K_3 = 0.$
2. $\left[\frac{ab}{p} \right] K_1 + \left[\frac{bb}{p} \right] K_2 + \left[\frac{bc}{p} \right] K_3 + f_x = 0.$
3. $\left[\frac{ac}{p} \right] K_1 + \left[\frac{bc}{p} \right] K_2 + \left[\frac{cc}{p} \right] K_3 + f_y = 0.$

Normal tenglamalar koeffitsiyentlari ushbu formulalar bo'yicha hisoblanadi:

$$\begin{aligned} \left[\frac{aa}{p} \right] &= \frac{n+1}{p}; \\ \left[\frac{ab}{p} \right] &= q[\eta] = 0; \quad \left[\frac{ac}{p} \right] = -q[\varepsilon]; \\ \left[\frac{bb}{p} \right] &= \frac{q}{\rho} [\eta^2] + [\Delta x \cos \alpha] = A; \\ \left[\frac{bc}{p} \right] &= \frac{q}{\rho} [\eta \varepsilon] + [\Delta x \sin \alpha] = C; \\ \left[\frac{cc}{p} \right] &= \frac{q}{\rho} [\varepsilon^2] + [\Delta y \sin \alpha] = B, \end{aligned}$$

bu yerda: $P_{\beta_i} = \frac{\mu^2}{m_\beta^2} = P$, $q = \frac{1}{P\rho}$ (teskari vazn).

Koeffitsiyentlarni hisoblashni tekshirish:

$$\begin{aligned}\Delta x_i \cos \alpha_i + \Delta y_i \sin \alpha_i &= S_p, \\ \Delta x_i \sin \alpha_i &= \Delta y_i \cos \alpha_i, \\ [(\eta + \varepsilon)^2] &= [\eta^2] + [\varepsilon^2] + 2[\eta\varepsilon].\end{aligned}$$

Olingan koeffitsiyentlarga asosan normal tenglamalarni quyidagicha yozish mumkin:

$$1. \frac{n+1}{p} \cdot k_1 = 0.$$

$$\begin{aligned}2. AK_2 + CK_3 + f_x &= 0. \\ 3. CK_2 + BK_3 + f_y &= 0.\end{aligned}$$

Bu normal tenglamalarni yechib, korrelatlar topiladi:

$$\begin{aligned}K_1 &= 0 \\ K_2 &= \frac{Cf_y - Bf_x}{AB - C^2}. \\ K_3 &= \frac{Cf_x - Af_y}{AB - C^2}.\end{aligned}$$

Burchaklarga ikkinchi tuzatmalar hisoblanadi:

$$\begin{aligned}V''_{\beta_1} &= q(\eta_1 K_2 - \varepsilon_1 K_3), \\ V''_{\beta_1} &= q(\eta_2 K_2 - \varepsilon_2 K_3), \\ \dots & \\ V''_{\beta_{n+1}} &= q(\eta_{n+1} K_2 - \varepsilon_{n+1} K_3).\end{aligned}$$

Ikkinci tuzatmalarini tekshirish:

$$[V_\beta] = 0.$$

Direksion burchaklarga tuzatmalar hisoblanadi:

$$\begin{aligned}V_{\alpha_1} &= V''_{\beta_1} \\ V_{\alpha_2} &= \sum_1^2 \cdot V''_\beta \\ \dots & \\ V_{\alpha_n} &= \sum_1^n \cdot V''_\beta.\end{aligned}$$

Tomonlarga tuzatmalar hisoblanadi:

$$\begin{aligned} V_{S_1} &= \Delta x_1 K_2 + \Delta y_1 K_3, \\ V_{S_2} &= \Delta x_2 K_2 + \Delta y_2 K_3, \\ \dots & \\ V_{S_n} &= \Delta x_n K_2 + \Delta y_n K_3. \end{aligned}$$

Tekshirish. $[V_s] = [\Delta x] K_2 + [\Delta y] K_3$.

Koordinata orttirmalariga tuzatma hisoblanadi:

$$\begin{aligned} V_{\Delta x_1} &= V_{S_1} \cos \alpha_1 - \frac{V_{\alpha_1}}{\rho} \Delta y_1, \\ V_{\Delta y_1} &= V_{S_1} \sin \alpha_1 + \frac{V_{\alpha_1}}{\rho} \Delta x_1, \\ \dots & \\ V_{\Delta x_n} &= V_{S_n} \cos \alpha_n - \frac{V_{\alpha_n}}{\rho} \Delta y_n, \\ V_{\Delta y_n} &= V_{S_n} \sin \alpha_n - \frac{V_{\alpha_n}}{\rho} \Delta x_n. \end{aligned}$$

Tekshirish.

$$\begin{aligned} [V_{\Delta x}] &= -f_x, \\ [V_{\Delta y}] &= -f_y. \end{aligned}$$

(Cheki: $0.5 \sqrt{n}$; n- qo'shiluvchilar soni)

Bu tuzatmalar punktlarning taxminiy koordinatalariga kiritiladi va oxirgi qiymati topiladi.

Tenglashtirilgan qiymatlarning aniqligini baholash

Tenglashtirilgan elementlar (burchak, direksion burchak, tomon uzunligi, Absissa va ordinata) funksiyasining o'rta kvadratik xatosi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$M_u = \mu \sqrt{\frac{1}{P_u}},$$

bu yerda:

$$\mu = \sqrt{\frac{P \frac{f^2 \beta}{n+1} + P \left[V'' \beta \right] + \left[\frac{1}{3} V_S^2 \right]}{3}},$$

μ -vazn birligidagi o‘rta kvadratik xatolik.

$$\frac{1}{P_u} = \left[\frac{FF}{P} \right] - P \frac{\left[\frac{aF}{P} \right]^2}{n+1} - \frac{\left[\frac{bF}{P} \right]^2}{A} - \frac{\left\{ \left[\frac{CF}{P} \right] - \frac{C}{A} \left[\frac{bF}{P} \right] \right\}^2}{B - \frac{C^2}{A}},$$

$\frac{1}{P_u}$ — funksiyaning teskari vazni.

$\left[\frac{FF}{P} \right], \left[\frac{aF}{P} \right], \left[\frac{bF}{P} \right]$ va $\left[\frac{CF}{P} \right]$ — miqdorlarning qiymatlar.

8.1-jadval

Elementlar nomi	β_i	α_i	S_i	x_i	y_i
$\left[\frac{FF}{P} \right]$	$\frac{1}{P}$	$\frac{i}{P}$	S_i	$\frac{q}{\rho} [(y_{i+1}-y)^2]_1^i + [S \cos^2 \alpha]_1^i$	$\frac{q}{\rho} [(x_{i+1}-x)^2]_1^i + [S \sin^2 \alpha]_1^i$
Elementlar nomi	β_i	α_i	S_i	x_i	y_i
$\left[\frac{aF}{P} \right]$	$\frac{1}{P}$	$\frac{i}{P}$	0	$-q[(y_{i+1}-y)]_1^i$	$q[(x_{i+1}-x)]_1^i$
$\left[\frac{bF}{P} \right]$	$q\eta_i$	$q[\eta]_1^i$	Δx_i	$-\frac{q}{\rho} [(y_{i+1}-y)\eta]_1^i + [S \cos^2 \alpha]_1^i$	$\frac{q}{\rho} [(x_{i+1}-x)\eta]_1^i + [S \sin \alpha \cdot \cos \alpha]_1^i$
$\left[\frac{CF}{P} \right]$	$-q\varepsilon_i$	$-q[\varepsilon]_1^i$	Δy_i	$\frac{q}{\rho} [(y_{i+1}-y)\varepsilon]_1^i + [S \sin \alpha \cdot \cos \alpha]_1^i$	$-\frac{q}{\rho} [(x_{i+1}-x)\eta]_1^i + [S \sin \alpha \cdot \cos \alpha]_1^i$

8.3. Chebotarev usuli bilan cho‘zilgan poligonometriya yo‘lini tenglashtirish

Tenglashtirish hisoblarini bajarishdan oldin berilgan yo‘l cho‘zilgan ekanligini aniqlash kerak.

Bog‘lanmasliklar f_β, f_x, f_y, f_s va $\frac{f_s}{[S]}$ yuqorida kursatilgandek echiladi.

Yo‘lning bo‘ylama va ko‘ndalang xatolikkari hisoblanadi:

$$t = \frac{f_x[\Delta x] + f_y[\Delta y]}{L},$$

$$u = \frac{f_x[\Delta x] + f_x[\Delta y]}{L},$$

$$L = \sqrt{[\Delta x]^2 + [\Delta y]^2}.$$

Shartli tenglamalar tuziladi:

1. $[V''_{\beta}] = 0,$
2. $[V'_S] + t = 0,$
3. $-\frac{1}{\rho} [\varepsilon' V''_{\beta}] + U = 0.$

Normal tenglamalarga o‘tiladi:

1. $\frac{n+1}{\rho} k_1 = 0.$
2. $[S] K_2 + t = 0.$
3. $\frac{q}{\rho} [\varepsilon'^2] K_3 + U = 0.$

Korrelatlar topiladi:

$$K_1 = 0,$$

$$K_2 = -\frac{t}{[S]},$$

$$K_3 = -\frac{U}{q[\varepsilon'^2]} \rho.$$

Burchaklarga ikkinchi tuzatmalar hisoblanadi:

$$V''_{\beta i} = \varepsilon'_{\beta i} q K_3,$$

bu yerda: $\varepsilon'_{\beta i} = \frac{L}{n} \left(i - \frac{n}{2} - 1 \right),$

n – yo‘lning tomonlar soni,

q - funksiyaning teskari vazni.

Agar yo‘l hamma tomonlarining uzunligi bir xil bo‘lsa, unda

$$V''_{\beta i} = \Delta\theta\rho'' b_i,$$

bu yerda:

$$\Delta\theta = -\frac{U}{[S]}; \quad b_i = \frac{6(n+2-2i)}{(n+1)(n+2)}.$$

Ikkinchi tuzatmalarni tekshirish:

$$[V''_{\beta i}] = 0.$$

Direksion burchak tuzatmalari hisoblanadi:

$$V''_{\alpha i} = \Delta\theta\rho'' \alpha_i$$

Bu yerda:

$$\alpha_i = \frac{6i(n+1-i)}{(n+1)(n+2)}.$$

Tomonlarga tuzatma hisoblanadi:

$$V'_{Si} = S_i K_2.$$

Tekshirish. $[V_s] = -t$

Koordinata orttirmalariga tuzatmani hisoblanadi:

$$\begin{aligned} V_{\Delta x_i} &= K_2 \Delta_{xi} - \Delta\theta \alpha_i \Delta y_i, \\ V_{\Delta y_i} &= K_2 \Delta_{yi} - \Delta\theta \alpha_i \Delta x_i. \end{aligned}$$

Tekshirish.

$$\begin{aligned} [V_{\Delta x}] &= -f_x, \\ [V_{\Delta y}] &= -f_y. \end{aligned}$$

Juda cho‘zilgan formada bo‘lmagan yo‘li tenglashtirishda bu tekshirishlar tenglamalari amal qilmasliklari mumkin. Bunday holatda qoldiq bog‘lanmaslik quyidagicha yo‘qotiladi.

Yangi miqdorlar hisoblanadi:

$$\partial' = \frac{f_x(a\Delta x) + f_y(a\Delta y)}{[\Delta x][a\Delta x] + [\Delta y][a\Delta y]},$$

$$\Delta Q' = \frac{f_y(\Delta x) + f_x(\Delta y)}{[\Delta x][a\Delta x] + [\Delta y][a\Delta y]}.$$

Bunda quyidagi munosabatlar saqlanishi kerak:

$$\frac{\partial}{\partial'} \approx 1 \pm 0,1,$$

$$\frac{\Delta \theta}{\Delta \theta} \approx 1 \pm 0,1,$$

$$\Delta \theta = -\frac{U}{[S]}.$$

Agar bu munosabatlar saqlanmasa, unda yangi miqdorlar ∂' va $\Delta \theta'$ bilan yangi ikkinchi tuzatmalar hisoblanadi.

Tenglashtirilgan qiymatlarning aniqligini baholash

Burchaklarning o‘rta kvadratik xatosi:

$$m_{\beta_i} = m_\beta \sqrt{1 - \frac{1}{n+1} - \frac{3(n-2i+2)^2}{n(n+1)(n+2)}}.$$

Direksion burchaklarning o‘rta kvadratik xatosi:

$$m_{\alpha_i} = m_\beta \sqrt{1 - \frac{i^2}{n+1} - \frac{3i^2(n-i+1)^2}{n(n+1)(n+2)}}.$$

Tomonning o‘rta kvadratikxatosi:

$$m_{S_i} = \mu \sqrt{S_i \left(1 - \frac{1}{n}\right)}.$$

Bo‘ylama siljishning o‘rta kvadratik xatosi:


$$m_{t_{i+1}} = \mu \sqrt{S_{o'r} \left(i - \frac{i^2}{n}\right)}.$$

Ko‘ndalang siljishning o‘rta kvadratik xatosi:

$$m_{u_{i+1}} = \frac{m_\beta}{\rho''} S_{o'r} \sqrt{\frac{i(i+1)(2i+1)}{6} - \frac{i^2(i+1)^2}{4(n+1)} - \frac{i^2(i+1)^2(3n-2i+2)^2}{12n(n+1)(n+2)}}.$$

8.4. Bir tugun punktli poligonometriya to‘rini bo‘lib tenglashtirish.

Direksion burchak sharti. Berilgan to‘rda to‘rtta yo‘l mavjud (8.3-rasm). Hisoblash har bir yo‘l bo‘yicha o‘lchangan burchaklar yig‘indisini hisoblashdan boshlanadi. Keyinchalik tomonlardan bittasini tugun tomon sifatida tanlanadi (tugun tomon og‘irlilik markaziga yaqin bo‘lishi kerak).



8.3-rasm

Har bir yo‘l bo‘yicha tugun tomonning direksioin burchagi hisoblanadi:

$$\alpha'_i = \alpha_{bosh.} + \sum \beta_i - 180(n+1).$$

Tugun tomonning direksion burchagini ehtimoliy qiymati hisoblanadi:

$$\alpha_0 = \frac{\alpha'_1 P_1 + \alpha'_2 P_2 + \alpha'_3 P_3 + \alpha'_4 P_4}{P_1 + P_2 + P_3 + P_4},$$

Bu yerda: α'_i -direksion burchak ning taxminiy qiymati

$$P_i = \frac{C}{(n+1)_i}.$$

Yo‘llarga tuzatmalar topiladi

$$[V_\beta]_i = \alpha_0 - \alpha'_i.$$

Tekshirish.

$$[P_\beta V_\beta] = 0.$$

Yo‘lning hamma burchaklariga tuzatma teng qilib tarqatiladi. Koordinatalarning orttirmalari va tomonning direksion burchaklari hisoblanadi. Har bir yo‘l bo‘yicha tugun nuqtalarining koordinatalari hisoblanadi:

$$\begin{aligned} X'_i &= x_{bosh.} + [\Delta x]_i \\ Y'_i &= y_{bosh.} + [\Delta y]_i \end{aligned}$$

Tugun tomonning koordinatlari ehtimoliy qiymati hisoblanadi:

$$x_0 = \frac{x'_1 P_{S1} + x'_2 P_{S2} + x'_3 P_{S3} + x'_4 P_{S4}}{P_{S1} + P_{S2} + P_{S3} + P_{S4}},$$

$$y_0 = \frac{y'_1 P_{S1} + y'_2 P_{S2} + y'_3 P_{S3} + y'_4 P_{S4}}{P_{S1} + P_{S2} + P_{S3} + P_{S4}}.$$

buerda: x'_i va y'_i — koordinatalarning ehtimoliy qiymati,

$$P_{Si} = \frac{C}{[S]_i}.$$

Koordinatalar orttirmasiga tuzatma hisoblanadi:

$$[V\Delta x]_i = x_0 - x'_i$$

$$[V\Delta y]_i = y_0 - y'_i$$

Tekshirish. $[P_S V_{\Delta x}] = 0$; $[P_S V_{\Delta y}] = 0$.

8.5. Bir necha tugun nuqtali poligonometriya to‘rini ketma-ket yaqinlashish usulida tenglashtirish.

Ketma-ket yaqinlashuv usuli bir nechta tugun nuqtali poligonometriya to‘rini hatolikni kamaytirib borish yo‘li orqali tenglashtirishda qo‘llaniladi. Ushbu usulda tenglashtirish hisoblari, har bir tugun nuqta balandligi to‘rdagi markalar balandligi va yo‘llar vaznlari orqali bajariladi. To‘rdagi tugun nuqta balandliklarini ketma-ket yaqinlashtirish to oxirgi ikkita yaqinlashtirishda bir-biridan farqi 3 mm dan kichik

bo‘lguncha bajariladi. Bu esa geodezik to‘rlarni loyihasini baxolash imkonini yuzaga keltiradi.

Tenglashtirish boshqa tenglashtirish usullaridagi kabi 4 pog‘onada amalga oshiriladi: poligonometiriya ish sifatiga baho berish; nisbiy balandliklarni tenglashtirish ya’ni tugun reper otmetkalarini ishonchli qiymatini hisoblash va nisbiy balandliklarni tenglashtirish; dala o‘lhash natijalariga baho berish; tenglashtirilgan qiymatlar aniqligini baholash.

1- chizmada uch tugun nuqtali III -klass niveler to‘ri keltirilgan. To‘rda uchta tugun nuqta va uchta absolyut balandliklari ma’lum bo‘lgan tayanch markasi mavjud bo‘lib ular o‘zaro 7 ta nivelerlash yo‘llari bilan tutashgandir. Birinchi- 12-reper 1,2 va 3 yo‘llar bilan, ikkinchi -13- reper 3,4 va 6- yo‘llar bilan, uchinchi- 14- reper 6,7 va 5 yo‘llar bilan bog‘langan.

Tayanch marka otmetkalari, niveler yo‘llarini tartib raqami, yo‘nalishi va yo‘1 bo‘yicha o‘lchanan nisbiy balandlik qiymatlari shemada kursatilgan.

Tenglashtirish jadvalini ishlab chiqish uchun jadvalning 1 dan 6 gacha ustunlari sxemadagi ma’lumotlardan olinadi. Har bir poligon bo‘yicha ma’lumotlarni yozish soat strelkasi yo‘nalishida olinadi.

Tugun tomonlar direksion burchaklarini tenglashtirish

Tugun (11-12) tomonning direksion burchak extimoliy qiymati 3, 4, 5 yo‘llar direksion burchak qiymati o‘rta vazni kabi hisoblanadi:

$$\alpha_{(11-12)} = \frac{\alpha'_3 P_3 + \alpha'_4 P_4 + \alpha'_5 P_5}{P_3 + P_4 + P_5}.$$

Tugun (5-10) tomonning direksion burchak extimoliy qiymati 1,2 va 3 yo‘llar bo‘yicha hisoblanadi:

$$\alpha_{(5-10)} = \frac{\alpha'_1 P_1 + \alpha'_2 P_2 + \alpha'_3 P_3}{P_1 + P_2 + P_3},$$

bu erda: a'_i – i yo‘1 bo‘yicha hisoblangan tugun tomonning direksion burchagini taxminiy qiymati;

$P_i - i$ yo‘lning burchaklar vazni.

Bu formulalarda xamma elementlar xam ma’lum emas. Shuning uchun tugun tomonning direksion burchaklarining extimoliy qiymati ketma-ket yaqinlashtirish usuli bilan topiladi. Birinchi yaqinlashtirishda formulalarning noma’lum qismi nolga tenglashtiriladi va tugun tomonning direksion burchagini taxminiy qiymati hisoblanadi.

Birinchi yaqinlashtirishda olingan direksion burchak taxminiy qiymatlari ikkinchi yaqinlashtirishda formulalariga qo‘yiladi.

Hisoblash oxirgi ikkita yaqinlashtirishda direksion burchak natijalari bir-xil bo‘limguncha davom ettiriladi. Tugun tomonlari direksion burchaklari extimoliy qiymatlari olingandan keyin yo‘llarning o‘lchangan burchaklariga tuzatma aniqlanadi:

$$V_{I\beta J i} = a_0 - a'_i$$

bu erda: a_{Ip} – tugun tomonning direksion burchagini extimoliy qiymati. Tuzatmalarni tekshirish tugun tomonlari bo‘yicha bajariladi:

$$[P' V_\beta] = 0,$$

bu erda: P' – yo‘lning keltirilgan vazni.

Bu tuzatmalar o‘lchangan burchaklarga kiritiladi. Yo‘l tomonining direksion burchagi aniqlanadi va koordinatalar orttirmasi hisoblanadi. Abssissa va ordinata sharti direksion burchak sharti kabi tenglashtiriladi.

Yuqorida aytganimizdek ketma-ket yaqinlashuv usulida masala tugun nuqtali poligonometriya to‘ridagi reperlar balandligini hatoligi 3 mm dan kichik holatda bo‘lguncha tenglashtiriladi. Bizning misolimizdagi to‘rda uchta tugun nuqta mavjud bo‘lib, biz ushbu nuqtalar balandliklari hatoliklarini ketma-ket tarqatib ishonchli balandlikka kelguncha tenglashtirishimiz kerak.

To‘rdagi yo‘llarning vaznlarini hisoblash uchun 1- formuladan foydalanamiz, natijalar jadvalning 7- ustuniga yoziladi va har bir tugun nuqtada vaznlar yig‘indisi hisoblanadi.

$$P_i = \frac{C}{L_i} \quad (202)$$

Bu yerda, L_i - yo‘l uzunligi, C- doimiy o‘zgarmas son .

Doimiy o‘zgarmas C ni topish uchun yo‘llarning eng uzuni va eng qisqasi qo‘shilib ikkiga bo‘linadi. Bizning to‘r bo‘yicha o‘zgarmas C vazn deb barcha yo‘llar uchun 5 km qabul qilinadi. Bunda C ni hisoblashda vaznlar qiymati katta bo‘lmasan kattalikda ifodalanishi uchun tenglanadigan doimiy son bo‘lib, u quyidagi formula orqali hisoblanadi

$$C = \frac{L_{min} + L_{max}}{2} \quad (203)$$

Bu yerda L_{min} ba L_{max} - to‘rdagi eng qisqa va eng uzun yo‘llar uzunligi.

Shundan so‘ng ishonchli vaznlarni ham hisoblaymiz, bunda 3- formuladan foydalanamiz

$$\frac{p_1}{[P]} = P'_1, \quad \frac{p_2}{[P]} = P'_2 \dots \dots, \frac{p_n}{[P]} = P'_n \quad (204)$$

$$160,742 \text{ m} + \frac{27,6}{4,73} \text{ mm} = 160,748_0 \text{ m}$$

$$160,742 \text{ m} + \frac{5,2}{0,86} \text{ mm} = 160,748_0 \text{ m}$$

P'_i ishonchli vaznlar qiymati oxirgi ikkita xonagacha yaxlitlanib jadvalga yoziladi. Nazorat sifatida tekshirilganda tugun nuqtalar vaznlari yig‘indisi $[P'] = 1$ bo‘lishi kerak. Vaznlar hisoblangach, 1-ustunda kursatilgan reperlar H balandliklarining birinchi yaqinlashtirish ishi bajariladi va natijalar 9-grafaga yoziladi.

$$H = H_0 + [\varepsilon \rho'] \quad (205)$$

balandliklar Masalan 13_{R_p} ni tugun nuqta sifatida qoldirsak ushbu nuqtada uchta yo‘l tutashadi. bitta 4-oddiy yo‘l hamda ikkita murakkab yo‘l (1,2+3) va (5,7+6) tutashadi; har bir murakkab yo‘l o‘z o‘rnida ekvivalent (1,2) yoki (5,7) yo‘llardan va haqiqiy 3 yoki 6 yo‘ldan tashqil topadi.

Agar tugun nuqta sifatida 14_{R_p} olsak, unga ham uchta yo‘l ikkita 5 va 7-oddiy yo‘l xamda $[(1,2 + 4 + 6)]$ murakkab yo‘l tutashadi.

Direksion burchaklarni ketma-ket yaqinlashuv usulida tenglashtirish

8.2-jadval

Tugun yo'nalishi	Yo'1 №	Berilgan direksion burchaklarni nomi	Tayanch direksion burchak	Burchaklar yig'indisi [β]	Burchak soni	Vazn		Yaqinlashtirish						Tuzatma v _i mm	P _i v _i	P _i v _i ²
						P _i = $\frac{10}{n+1}$	P _i = $\frac{Pi}{[P]}$	I		II		III				
						α'	ξ _{ipi}	α'	ξ _{ipi}	α'	ξ _{ipi}					
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
3-3a	1	T ₁ -T ₂	114°28'25"	737°00'22"	4	2,5	0,36	131°28'47"	3	47"	7	47"	8	-9	-22,5	203
